

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi
Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika
instituti

**JAHON IQTISODIY - IJTIMOIIY
GEOGRAFIYASI**
uslubiy qo'llanma.

Toshkent – 2009

Ushbu ushbu uslubiy qo'llanma jahon mamlakatlarining geosiyosiy holati, rivojlanib borishi, taraqqiyot bosqichlari iqtisodiy geografik nuqtai nazardan yoritib berilgan. Shu bilan birga jahon mamlakatlarining tuzumi, jahon tabiiy resurslari, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiyoti hamda jahonning global muammolarini o'rganishga qaratilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi talabalariga hamda o'rta maktab, akademik liseylarning geografiya fan o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika institutining o'quv-uslubiy Kengashi tomonidan nashr qilishga tavsiya etilgan.

- Muallif:** **A. M. Jobborov**, Qo'qonDPI geografiya kafedrası katta o'qituvchisi, biologiya fanlari nomzodi.
- Ilmiy muharir:** **O.M. Qo'ziboeva**, Qo'qonDPI geografiya fanlari nomzodi katta o'qituvchi
- Taqrizchilar:** **Yu. Ahmadaliev**, FarDU geografiya fanlari doktori.
O. A. Qo'chqorov, Qo'qonDPI geografiya kafedrası o'qituvchisi

SO'Z BOSHI

Mazkur kurs ijtimoiy-geografik fan bo'lib, u aholi va xo'jalikni butun dunyoda, ayrim hududlar va mamlakatlarda rivojlanish va joylashish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Mazkur kurs butun jahon xalqaro munosabatlarini, insoniyat va jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqalarini, global muammolar va jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Iqtisodiy geografiya faning tarixiy rivijlanishida nemis olimlari I. Tyunen, A. Veber, A. Lyosh, V. Rhistaller, F. Ratsell kabilarni xizmatlari yuqori bo'lgan. Masalan: I. Tyunen (1826 yil) qishloq xo'jaligi tarmoqlarini shaxarlar atrofida halqasimon joylashtirish bo'yicha, A. Veber (1909 yil) sanoat korxonalarini turli omillarda kelib chiqqan holda xududiy tashkil qilish sohasi bo'yicha, V. Krestaller va A. Lyosh (XX asrning 40 yillarida) xizmat ko'rstish sohalarini joylashtirish bo'yicha, F. Ratsel siyosiy geografiya masalalari bo'yicha ishlashgan.

Mazkur fanning shakllanish va taraqqiyotida bir qator iqtisodchi geograf olimlar o'z hissaslarini qo'shgan. Masalan: N.N.Baranskiy, I.A.Vitver, N.N.Kolosovskiy,

V.P.Maksakovskiy, V.Ya.Rom, K.F. Stroev. O'zbek iqtisodchi geograflaridan Z.Akramov, A. Soliev, A. Ro'ziev.

Jahon iqtisodiy va siyosiy geografiyasi ijtimoiy fan bo'lganligi uchun bir qator iqtisodiy va tabiiy fanlar bilan bog'langan. Masalan:iqtisod, tarix, falsafa, matematika, siyosiy va ijtimoiy geografiya, aholi geografiyasi va tabiiy geografiya, biologiya, ximiya fanlari bilan bog'langan.

Tadqiqot metodlari ham tobora boyib, kengayib bormoqda. Statistika, kartografik va tarixiy metodlardan tashqari yangi metodlar, masalan: matematik modellashtirish, kosmik metodlar paydo bo'ldi.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlar xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda ilmiy asoslashga, qulay joylashtirilishiga, planli xo'jalik yuritilishiga, aholini ijtimoiy sharoitini yaxshilash bilan birga material, yoqilg'i va asosiysi mablag'ni ko'p iqtisod qiladi.

Iqtisodiy-“ekonomicheskij” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, xo'jalik yuritish degan ma'noni bildiradi. Mazkur fanni 1-bo'lib M.V.Lomonosov shunday deb atagan.

Mavzu: Dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi.

Ma'lumki, dunyo siyosiy kartasi hozirgi holatga kelgunga qadar ko'p marotaba o'zgarishlar yuzaga kelgan. Asrimizning boshlarida (XX-asrni) dunyo siyosiy kartasini o'zgarishiga kuchli turtki bo'lgan omil I-jahon urushidir. Ikki harbiy siyosiy bloklar-“Antanta” va “Uchlar ittifoqi”ni bir-birlari bilan urushi I-jahon urushini keltirib chiqardi.

“Antanta” harbiy tashkiloti 1895-1907 yillari tashkil topgan bo'lib, unga Fransiya, Angliya, Rossiya va Serbiya kabi mamlakatlar kirgan.

“Uchlar ittifoqi” harbiy blokiga Germaniya, Avstriya, Vengriya, Italiya mamlakatlari kirgan bo'lib, bu harbiy blok 1882-yili tashkil topgan.

I-jahon urushi 1914 yili boshlanib 1918 yili tugagan. I-jahon urushi yillari Belorussiya va Ukrainani g'arbiy qismi hamda Moldaviya (Bessarabiya) Germaniya, Ruminiya davlatlari tomonidan bosib olindi va o'sha davlatlarni mustamlakasiga aylandi.

1917 yil Rossiyada Oktyabr revolyutsiyasi ro'y berdi va revolyutsiya g'alaba qozondi. Oktyabr revolyutsiyasidan so'ng Rossiyada fuqarolar urushi avj oldi.

Bu davrda birgina O'zbekiston hududi 3 ta davlatga bo'lingan bo'lib, ular:

- 1.Buxoro amirligi.
2. Xiva xonligi.
3. Qo'qon xonligi.

Mazkur amirlik va xonliklar 1917 yilgacha ularning qoldiqlari esa 1920 yilgacha hukmronlik qilgan. 1921-22 yillari ular butunlay tugatildi.

1922-yil 30 dekabr kuni dunyo siyosiy kartasida yangi davlat paydo bo'ldi. Shu kuni R.K.P (b) ning Butun ittifoq I-s'ezdida R.S.F.S.R, Ukraina, Belorussiya va ZSFSR birlashib SSSR ni tashkil qildi.

1936 yilgacha O'rta Osiyo respublikalari birin-ketin sobiq SSSR tarkibiga qo'shilib bordi.

1924 yil dunyo siyosiy kartasida 2-sotsialistik davlat paydo bo'ldi. U MXR edi. Shunday qilib jahon mamlakatlari sotsialistik va kapitalistik sistemaga bo'lindi.

II-jahon urushi dunyoni qayta taqsimlash va sotsialistik sistemani yo'qotish uchun 1939 yil boshlandi. 1940 yil Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismi hamda Moldaviya SSSR tarkibiga qayta qo'shib qaytarib olindi. Shu yili Boltiq bo'yi respublikalari Latviya SSR, Litva SSR va Estoniya SSR lar tashkil topdi va SSSR tarkibiga qo'shildi.

1941-45 yillari SSSR-Germaniya urushi natijasida Germaniyani yengilishi munosabati bilan jahonda sotsialistik sistema kengaydi va kuchaydi.

G'arbiy Yevropadagi Germaniya tomonidan bosib olingan bir qator davlatlar Germaniya zulmidan ozod etildi va sotsialistik davlatlar qatoriga qo'shildi. Ular quyidagilar:

- | | |
|-------------------|----------------|
| 1. Polsha | 5. Ruminiya |
| 2. GDR | 6. Bolgariya |
| 3. Chexoslovakiya | 7. Yugoslaviya |
| 4. Vengriya | 8. Albaniya. |

1945-yil yapon militarizmini tor-mor keltirilishi (SSSR tomonidan) munosabati bilan va SSSR tazyiqi ostida Horijiy Osiyoda 5ta davlat sotsialistik sistema qatoriga qo'shildi.

Ular quyidagilar:

1. Xitoy Xalq Respublikasi.
2. KXDR
3. Vetnam
4. Laos
5. Kampuchiya (Kambodja)

1959-yil Amerika qit'asida ham sotsialistik davlat paydo bo'ldi. Bu davlat Kuba Respublikasidir. Shunday qilib jahon sotsialistik sistemasida jami 16 ta davlat mavjud edi.

XX -asrning 2-yarmidan boshlab Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari kuchayib ketdi. Bunday harakatlar ayniqsa Afrika qit'asida II-jahon urushida yengilgan mamlakatlarning mustamlakalarida keskin tus oldi. Masalan: 1957 yilni o'zida Afrikada 20 ga yaqin davlat mustamlaka zanjirini uloqtirib tashlab ozodlikka erishdi. Shuning uchun 1957-yil Afrika mustaqillik yili deb e'lon qilingan.

Ma'lumki, I-jahon urushida yer shari hususan, Afrika qit'asi o'sha davrdagi agressiv davlatlar Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Portugaliya, Ispaniya kabi davlatlar tomonidan bo'lib olingan edi.

Mustamlakachi davlatlarni II-jahon urushida kuchsizlanishi va mag'lubiyatga uchrashi mustamlaka mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlarini keskin tus olishiga sabab bo'ldi.

1990 yillarga kelib dunyo siyosiy kartasida kuchli o'zgarish ro'y berdi. Ular quyidagilar:

- GFR va GDR birlashib yagona Germaniya davlatini tashkil topishi.
- Varshava shartnomasi va O'IYOK tashkilotlarini tarqatib yuborilishi.
- SSSR ning parchalanib ketishi natijasida dunyo siyosiy kartasida 15 ta suveren davlatni paydo bo'lishi.

-Sotsialistik tizimning yemirilishi natijasida jahondagi sotsialistik davlatlarni sotsialistik sistemadan voz kechishi va suveren davlatlariga aylanishi.

-Chexoslovakiyani ikki davlat bo'lib parchalanishi. Chexiya-Praga, Slovakiya-Bratislava

-YUFSR dagi siyosiy ahvolni keskinlashuvi va o'zaro janglar natijasida 6 ta suveren davlatlar paydo bo'ldi. 2008 –yil fevral oyidan Serbiya tarkibidan Kosva avtonom o'lkasi ajralib chiqish arafasida turibdi.

Ular: Xorvatiya-Zagreb;

Bosniya va Gersogovina-Saraevo;

Makedoniya-Skope;

Sloveniya-Lyublyana

Serbiya - Belgrad

Chyernogoriya – Podgoritsa

Kosva - Prishtina

-NATO ni yagona siyosiy ittifoqqa aylantirilishi.

Dunyo siyosiy kartasidagi o'zgarishlardan yana biri XX-asrning 2-yarmida bir qator mamlakatlarni nomi va poytaxtlarini o'zgarishidir. Bunday holatga ham ma'lum darajada sotsialistik tizimning yemirilishi, fan va madaniyat darajasining yuksalishi sabab bo'lmoqda. Davlat nomi va poytaxtlari o'zgargan mamlakatlar quyidagilar:

Eski nomi:

Yangi nomi:

Yuqori Volta

Burkina Faso

Bogota

Santa-Fe-De-Bogota

Fil suyagi qirg'og'i (Obidjon)

Kot-D-Ivuar (Yamusukro)

Yashil burun orollari

Kobo-Vyerde

Janubiy Rodeziya

Zimbabve

Birma (Rangun)

Myanma (Yangon)

Vila (Vanuatu)

Port-Vila

Tarava (Kiribati)

Bayriki

Selinograd

Ostona

Frunze

Bishkek

Leningrad

Sankt-Peterburg

Andorra

Andorra-Le-Veliya

XX-asrning 90-yillaridan keyin yangi shakllangan davlatlar va ularning poytaxtlari:

1.Eritreya-Asmera

2.Mikroneziya Federativ Shtatlari (MFSH) –Palikir

3.Palau-Koror

4.Marshall orollari-Majuro.

5. GFR va GDR ning birlashishi (1989-yil oktyabr) – Berlin.

6. YAXDR va YAAR ning birlashishi – Sana.

7. Gonkong, Makao va Tayvanni XXR tarkibiga qo'shib olinishi (1997-2000 yillar)

8. Sharqiy Timorga (2002 –yil 20-may) mustaqillikning byerilishi – Dili.

9. Chernogoriya – Podgoritsa (2005 yil)

10. Kosva – Prishtina (2008 yil)

XX-asrning 90-yillaridan keyin poytaxti o'zgargan davlatlar:

1. Tanzaniya – Dar-es – Salam – Dodoma.

2. Nigeriya – Lagos – Abuja

3. Qozog'iston – Almati – Ostona

4. Hindiston – Dehli – Nyu - Dehli

5. Kolumbiya – Bogota – Santa – fe – de – Bogota

6. Kribati – Tarava – Bairiki

7. Qirg'iziston – Furunze – Bishkek

Mavzu: Hozirgi zamon mamlakatlarining xilma-xilligi.

Jahonning hozirgi siyosiy kartasini shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, kishilik jamiyatining rivojlanishini butun yo'lini aks ettiradi. U davlatlarning paydo bo'lishi va parchalanib ketishini, ular chegaralarini o'zgarishini, yangi yerlarni kashf qilinishi va mustamlaka etilishini, mustamlakalarning paydo bo'lishini, dunyoni bo'lib olish va qayta taqsimlanishini aks ettirib kelgan.

Dunyoning hozirgi siyosiy kartasida 230 dan ortiq mamlakat va hududlar bor. Ularning ko'pchiligi mustaqil davlatlardir. Lekin hozirgi kunda ham mustamlaka davlat va hududlar mavjuddir. Masalan: Falastin, Gviana (Fr), Sharq Samoa (AQSH), Bermud orollari (Brit), Kyurasao (Nidr), Puyerto-Riko (AQSH), Tuamotu, Obshestva, Markiz (Fr) va h.k.

Jahonda mamlakatlar sonining bunchalik ko'pligi ularni guruhlashtirishni taqozo etadi. Bunda birinchi navbatda miqdoriy ko'rsatkichlar mezon qilib olinadi. Mamlakatlar hududining kattaligi va aholisining soniga qarab guruhlashtirish eng ko'p tarqalgan jarayonlardan biridir.

Hududining kattaligiga ko'ra dunyoda har birining maydoni 3 mln km kv.dan ortiq bo'lgan 7ta eng katta mamlakat ajratilgan bo'lib, ularning jami maydoni yer yuzidagi quruqlikning $\frac{1}{2}$ qismiga yaqinini egallagan. Bu mamlakatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Rossiya (17mln.km.kv.);
2. Kanada (10mln.km.kv.);
3. Xitoy (9,6mln.km.kv.);
4. AQSH (9,4mln.km.kv.);
5. Braziliya (8,5mln.km.kv.);
6. Avstraliya (7,7mln.km.kv.);
7. Hindiston (3,3mln.km.kv.);
8. Argentina (2,8mln.km.kv.);
9. Qozog'iston (2,7mln.km.kv.);
- 10.Sudan (2,5mln.km.kv.);

Aholi soni mln.kishidan ortiq bo'lgan 166 ta mamlakat va xududlar mavjud. Shundan aholi soniga ko'ra 2 tasi milliarder davlat (Xitoy va Hindiston), 9 tasi aholi soni 100 mln.dan ortiq bo'lgan davlatlar, 13 tasi aholi soni 50 mln.dan 100 mln.gacha bo'lgan davlatlar, 142 tasi aholi soni 1 mln.dan 50 mln.gacha bo'lgan davlat va xududlar mavjud. Aholi soni 1 mln.dan kam bo'lgan davlat va xududlar 53 tani tashkil etadi (2007 yil). Aholi soniga ko'ra har birida aholi 100 mln.kishidan ortiq bo'lgan 11 ta eng katta mamlakatlar ajratilgan bo'lib, bu mamlakatlardagi aholining umumiy soni yer yuzi aholisining 3/5 qismiga to'g'ri keladi. Ular quyidagilar:

1. Xitoy-1.318 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 24%
2. Hindiston-1.132 mln kishi (2007y) shahar aholisi 26%
3. AQSH -302 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 75 %
4. Indoneziya -232 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 42 %
5. Braziliya -189 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 80 %
6. Pokiston -169 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 28 %
7. Bangladesh -149 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 23 %
8. Nigeriya -144 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 44 %
9. Rossiya -142 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 72%
- 10.Yaponiya -128 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 76 %
- 11.Meksika – 107 mln kishi (2007 y) shahar aholisi 41%

Dunyo siyosiy kartasida o'rtacha va kichikroq mamlakatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Hududiga ko'ra juda kichik davlatlar ham borki, ular "mitti davlatlar" deb ataladi. Mitti davlatlarga quyidagilarni keltirish mumkin :

- | | |
|-----------------|------------------------|
| 1.Vatikan | 8. Mavrikiy |
| 2. Monako | 9. Komor orollari |
| 3. San-Marino | 10. Antigua va Barbuda |
| 4. Malta | 11. Grenada |
| 5. Lixtenshteyn | 12. Nauru |
| 6. Singapur | 13. Tuvalu. |
| 7. Baxrayn | |

Mamlakatlar ko'pincha geografik o'rni va hususiyatlariga qarab ham guruhlashtiriladi. Bu hususiyatiga ko'ra mamlakatlar qanday tabiiy geografik joyda joylashishiga qarab: dengiz bo'yida, Yarimorollarda, orollarda, joylashgan mamlakatlar va arxipelag mamlakatlarga bo'linadi.

Dengiz bo'yida joylashgan mamlakatlarga: AQSH, Chili, Angola, Fransiya, Bangladesh kabilar kiradi. Yarim orolda joylashgan mamlakatlarga: Italiya, Kampuchiya, Somali, Norvegiya va h.k.

Orollarda joylashgan mamlakatlarga : Yamayka, Kabo-Verde, Seyshel, Filippin, Kiribati kabilar.

Arxipelag mamlakatlariga: Indoneziya, Maldiv, Solomon, Tonga kabi davlatlar kiradi.

Hududi bevosita dengiz bilan tutash bo'lmagan mamlakatlar alohida guruhni tashkil qiladi. Jahonda 44 ta mamlakat hududi Dunyo okeani bilan tutashmagan bo'lib, shundan 15 tasi Yevropada, 12 tasi Osiyoda, 15 tasi Afrikada, 2 tasi Janubiy Amerikadadir. Ularga: Boliviya, Chad, Shvetsariya, Nepal, O'rta Osiyo

respublikalari misol bo'ladi. Bu mamlakatlarning quruqlik ichkarisida joylashganligi ularning iqtisodiy rivojlanishi, jahon bozoriga chiqishini qiyinlashtiradi.

Dengiz yo'llari va dunyo okeani boyliklaridan (baliq, dengiz hayvonlari, dengiz o'simliklari, mineral resurslar, neft, gaz va h.k.) bevosita foydalanishni qiyinlashtiradi.

Jahon mamlakatlari faqat maydonining katta kichikligi va geografik o'rnigagina emas, balki iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish darajasiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi.

Mamlakatlarni rivojlanish darajasiga ko'ra BMT tomonidan 2 toifaga bo'lish qabul qilingan:

1. Iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlar
2. Iqtisodiy jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlar.

BMT iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarga Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Avstraliya va Okeaniyaning jami 60 ga yaqin mamlakatlarni kiritgan. Bularning iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishining ancha yuqori ekanligi va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulotning ancha ko'pligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar ichida "G'arbning katta Yettilik mamlakatlari" alohida ahamiyatga ega. "G'arbning katta Yettilik mamlakatlari" ga AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada kabi davlatlar kiradi. Mazkur toifaga 1998-yildan Rossiya ham kiritilgan. Hozirda ular "Katta sakkizlik" deb ataladi. Bular G'arb dunyosining yetakchi mamlakatlari bo'lib, katta miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy faoliyati bilan ajralib turadi.

"Yettilik" mamlakatlariga jahon yalpi milliy mahsuloti va sanoat ishlab chiqarishning 50 % dan ortig'i qishloq xo'jaligi mahsulotining 25 % dan ko'prog'i to'g'ri keladi.

"Yettilik" mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot (YAIM) 10 ming dollardan 20 ming dollargacha yetadi.

Rivojlangan mamlakatlarning ikkinchi kichik toifasiga kamroq rivojlangan mamlakatlar, birinchi galda Yevropa mamlakatlari kiradi. Bu mamlakatlarning har birining siyosiy va iqtisodiy qudrati uncha katta bo'lmasa ham, lekin umuman olganda ular jahon mamlakatlari ichida katta mavqega ega. Shu bilan birga ularni tobora o'sib borayotganligi ham katta ahamiyatga ega. Ularning ko'pchiligida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM "katta Yettilik" mamlakatlariga tengdir.

Tarixiy yondashish "ko'chirilgan kapitalizm" mamlakatlarini alohida ajratishga imkon beradi. Bular Buyuk Britaniyaning aholi ko'chirib keltirilgan sobiq mustamlakalari (dominonlari) Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va JAR. Bu mamlakatlarda aslida feodalizm bo'lmagan ular hozirda ham siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra o'ziga xos mamlakatlardir.

Sobiq SSSR ning parchalanishi natijasida 1991 yil oxirida barpo bo'lgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) kirgan mamlakatlarni alohida toifaga kiritish mumkin.

Qolgan barcha mamlakatlarni va hududlarni BMT tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar toifasiga kiritiladi. Ular butun yer yuzasi quruqlik maydonining yarmini egallaydi. Aholisi esa dunyo aholisi sonining yarmidan ortig'ini, Xitoyni ham qo'shib hisoblaganda 70 % dan ko'pini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar

dunyo siyosiy kartasida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyada katta mintaqani egallaydi.

Bu mamlakatlarning ayrimlari masalan: Eron, Tailand, Efiopiya, Misr kabilar ikkinchi jahon urushidan ancha oldin mustaqillikka erishgan bo'lsa, ularni ko'pchiligi esa II-jahon urushidan so'ng erishdi. Urushdan so'ng 100 ga yaqin mustaqil mamlakatlar vujudga keldi. Juda katta va turfa qiyofaga ega bo'lgan "3-dunyo" mamlakatlari ichki sharoiti jihatidan quyidagi toifalarga ajratiladi:

1. Tayanch mamlakatlariga – Hindiston, Braziliya, Meksika kiradi. Bu mamlakatlar juda katta tabiiy , aholi va iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ko'p jihatdan yetakchidir. Masalan: hamma rivojlanayotgan mamlakatlar qancha sanoat mahsuloti ishlab chiqarsa, bu 3 ta mamlakat ham shuncha sanoat mahsuloti ishlab chiqaradi. Lekin bu davlatlarda ham YAIM rivojlangan davlatlardan ancha kam. Masalan: Hindistonda YAIM qiymati jon boshiga 3800 AQSH dollarni tashkil etadi. Holbuki, bu ko'rsatkich dunyo bo'yicha 9940 AQSH dollarini tashkil etadi (2006 y).

2. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar toifasi, dunyoda "Osiyo yo'lbarzlari" nomi bilan mashhur bo'lgan Osiyodagi 4ta davlat: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur kiradi. Bu davlatlar 70-80 yillarda rivojlanayotgan ko'pgina mamlakatlardan juda o'zib ketdi. XXI asrning boshiga kelib mazkur toifaga Yapon modeli asosida rivojlanib kelayotgan Malayziya va Tailand qo'shildi. Hozirda Indoneziya va Filippin davlatlari shu taraqqiyot yo'lidan bormoqda. "Osiyo yo'lbarzlari" toifasiga Yevropa kapitali ostida Turkiya, Kipr va Isroil kiritildi.

"Osiyo yo'lbarzlari" mamlakatlarini jahon xo'jaligida tutgan o'rni tobora ortib bormoqda.

3. Tashqariga neft eksport qiluvchi mamlakatlarga (OPEK)- Saudiya Arabistoni, Quvayt, Katar, BAA, Liviya, Bruney kabi jami 13 ta mamlakat kiradi. Bu mamlakatlarda neft sotishdan katta daromad kelganligidan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM 10-15 ming dollar va undan ortiq daromadni tashkil etadi. Masalan, Quvaytda YAIM 29300 AQSH dollarini tashkil etadi (2007 y).

4. O'z taraqqiyotidan ortda qolayotgan mamlakatlar. Bu toifa mamlakatlari taraqqiyotda sezilarli darajada orqada qolib, ularda feodalizm qoldiqlari saqlanib qolayotgan ko'p tarmoqli qoloq xo'jalik ko'pchilikni tashkil etadi. O'nlab mamlakatlar kiradi.

5. Eng kam rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga 42 ta mamlakat kiradi. Bu mamlakatlarda 400 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Bu mamlakatlar xo'jaligida iste'molga oid mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlov beruvchi sanoat deyarli yo'q. Aholining 2/3 qismi savodsiz. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM qiymati 100-200 dollarni tashkil etadi. Masalan, Brundida 710 AQSH dollarni KDR, Malavi, Tanzaniya kabi davlatlarda 720 AQSH dollarni, Gvineya Bisau, Niger, Serra Leone, Madagaskar, Kongo Respublikasi kabilarda 1000 AQSH dollariga etmaydi (2006-y). Demak, dunyo bo'yicha o'rtacha YAIM dan (9940 AQSH dollari) ancha past. Bu toifaga Bangladesh, Nepal, Afg'oniston, Yaman, Mali, Chad, Somali, Gaiti kabi davlatlar ham kiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga BMT tomonidan Xitoy ham kiritiladi. Xitoy ijtimoiy tuzumiga ko'ra ham, ishlab chiqarishga ko'ra ham o'z mavqeyiga ega. Lekin aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM qiymati ancha past.

II-jahon urushidan so'ng butun davr asosini G'arb va Sharqning jahon bo'ylab qarama-qarshi turishi, ular o'rtasidagi "sovuq urush"ni tashkil etdi. Ko'pdan ko'p harbiy-siyosiy ittifoqlar shu jumladan NATO va Varshava shartnomasi vujudga keldi. Yer yuzida yuzlab harbiy bazalar turli joylarda vujudga keldi va mahalliy urushlar bo'lib turdi. Masalan: Urushdan keyingi davrda Fors ko'rfazini o'z ichiga olgan Yaqin Sharq "olovli nuqta"ga aylandi. Bu regionda faqat Isroil va arab mamlakatlari emas, balki ko'plab davlatlarning manfaatlari to'qnashdi.

80-yillar, ayniqsa, 90-yillardan boshlab qarama-qarshilik va keskinlikdan bir-birini tushunish va hamkorlikka o'tish boshlandi. Yaxshi qo'shniçilik qaror topa boshladi. Bu jarayon SSSR bilan AQSH, Yevropa davlatlari, Osiyo-Tinch okeani regionini munosabatlarida aks etdi. 1990 yillardan keyingi dunyo siyosiy kartasidagi o'zgarishlar fikrimizning dalilidir. Masalan: Germaniyaning birlashishi, haqiqiy qurolsizlanishning boshlanishi, Varshava shartnomasi tashkilotining tarqatib yuborilishi, NATOning asosan siyosiy ittifoqqa aylanishi kabilardir.

Ko'pgina mahalliy janjallarni siyosiy vositalar yo'li bilan xal qilishga erishildi. Masalan: Markaziy Amerikadagi Nikaragua, Salvador, Afrikadagi Namibiya, Angola, Janubi-Sharqiy Osiyodagi Kambodja kabi mamlakatlardagi janjallar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan xal qilindi. Bularning natijasida xalqaro keskinlik kamaya boshladi, dunyo tinç va xavfsizroq bo'lib qoldi. Jahondagi keskinlikni kamaytirishda BMTning xizmati juda katta. BMT 1945 yil 24 oktyabrda tashkil topgan bo'lib, qarorgohi Nyu-Yorkda joylashgan.

1993 yilning boshida BMTga 188 mamlakat a'zo bo'lgan bo'lib, shular qatori O'zbekiston Respublikasi ham 1992 yil 2 mart kuni BMTning qonuniy a'zosiga aylandi. Lekin, XX-asrning oxiri XXI-asrning boshlarida NATO ning "Sharqqa" tomon kengayishi, Chexiya va Polshada AQSH tomonidan Raketa xujumidan mudofaa (PRO) tizimining o'rnatilishi jahondagi gegemon davlatlar orasida siyosiy vaziyatni yanada keskinlashishiga olib keldi.

Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi avvalo idora qilishi, ya'ni boshqarish shakliga bog'liq. Davlatni idora qilishning 2 asosiy shakli mavjud. Bu respublika va monarxiya hamda hamkorlik. Dunyo mamlakatlarining 74%i respublika, 15%i monarxiya, 9%i Britaniya va MDH hamkorligi, 2%i boshqa shakllarda boshqariladi.

Boshqarishning respublika shakli ancha keng tarqalgan bo'lib, dunyo mamlakatlarining $\frac{3}{4}$ qismi (74% i) respublikalardir. Respublika davlatni idora qilishning shunday bir shaklidan iboratki, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyat saylanib qo'yiladigan yuqori organ parlament_ixtiyoriçidir. Ijro etuvchi organ hukumat ixtiyorida bo'ladi. Masalan: O'zbekistonda Oliy Majlis ikki palatali bo'lib, yuqori palata Senatdan, quyi palata esa Qonunchilik palatasidan iborat. Dunyodagi birinchi respublika davlat – bu Italiyadir.

Ozodlikka erishgan mamlakatlarning asosan ko'pchiligi siyosiy mustaqillikka erishgach, respublika boshqaruv shaklini qabul qilgan. Misr, Habashiston va Eron kabi sobiq monarxiyalar ham respublika deb e'lon qilingan. 2008-yil iyun oyidan Nepal davlati ham Respublika shaklida boshqarilishga o'tdi.

Davlatni boshqarishning monarxiya shakli ancha kam tarqalgan. Hozirda jahon mamlakatlari ichida hammasi bo'lib, 45 ta monarxiya shaklida yoki Britaniya hamdo'stligi shaklida boshqariluvchi mamlakatlar bor. Monarxiyalarda imperator, qirol, knyaz, shoh, sulton va boshqalar davlat boshlig'i hisoblanadi. Shunisi ham borki, bunda oliy hokimiyat nasldan-naslga o'tadi. Bunday davlatlar orasida konstitusion monarxiyalar ko'pchilikni tashkil etadi. Konstitutsion monarxiyalarda haqiqiy qonun chiqaruvchi hokimiyat-parlament, ijro etuvchi hokimiyat esa-hukumat ixtiyoridadir.

Monarx esa hokimlik qilsa-da, lekin idora qilmaydi. Bunday mamlakatlarda monarxiya tuzumi o'ziga xos tarixiy, ba'zan ming yillik an'ana sifatida saqlanadi va "toj-taxt"ning bir vaqtlardagi qudratidan darak berib turadi xolos.

Masalan: Buyuk Britaniya dunyodagi eng keksa konstitutsion monarxiya davlatidir. Qirol davlat va sud sistemasining boshlig'i, harbiy kuchlar bosh qo'mondoni, ingliz davlat cherkovining dunyoviy boshlig'i, shuningdek Buyuk Britaniya tomonidan boshqariluvchi Hamdo'stlikning ramzi hisoblanadi; bu hamdo'stlikka 50 ga yaqin mamlakat kiradi. Qirol parlament qabul qilgan qonunlarni tasdiqlab imzo qo'yadi.

Mutloq monarxiyada, aksincha, monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan. Biroq hozirgi zamon jahon siyosiy kartasida bunday mamlakatlar kam qolgan. Saudiya Arabistoni – mutloq monarxiyadir. Bu yerda qirol qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vazifasini o'taydi. Ayni vaqtda u bosh vazir, bosh qo'mondon, oliy hakam shuningdek, diniy boshqaruvchi vazifalarini bajaradi. Hukumat asosan qirol sulolasidan tarkib topadi. Masalan: Saudiya Arabistonining 1-qirolu Abdul Aziz ibn Saudning 5000 ga yaqin sulolasi hozirda mamlakatni boshqarmoqda.

Yevropadagi monarxiya davlatlari

- | | |
|------------------------------|----------------------------|
| 1.Andorra (knyazlik) | 7.Lixtenshteyn (knyazlik) |
| 2.Belgiya (qirollik) | 8.Lyuksemburg (Gersoglik) |
| 3.Vatikan (papa davlati.) | 9.Monako (knyazlik) |
| 4.Buyuk Britaniya (qirollik) | 10.Niderlandiya (qirollik) |
| 5.Daniya (qirollik) | 11.Norvegiya (qirollik) |
| 6.Ispaniya (qirollik) | 12.Shvetsiya (qirollik). |

Osiyodagi monarxiya davlatlari

- | | |
|------------------------|------------------------|
| 1.Baxreyn | 8.Malayziya |
| 2.Bruney | 9. Oman |
| 3.Butan (qirollik) | 10. Tailand |
| 4.Iordaniya (qirollik) | 11. Yaponiya |
| 5.Kambodja (qirollik) | 12. BAA |
| 6.Katar | 13. Saudiya Arabistoni |
| 7.Quvayt | |

Shimoliy Amerikadagi monarxiya davlatlari

- | | |
|-----------------------|----------------------------|
| 1. Antigua va Barbuda | 6. Kanada |
| 2. Bagam | 7. Sent-Vinsent va Grenada |
| 3. Barbados | 8. Sent-Kits va Nevis |
| 4. Beliz | 9. Sent-Lyusiya |
| 5. Grenada | 10. Yamayka. |

Afrikadagi monarxiya davlatlari

1. Lesoto (qirollik)
2. Marokash (qirollik)
3. Svazilend (qirollik).

Avstraliya va Okeaniyadagi monarxiya davlatlari

- | | |
|--------------------|---------------------|
| 1. Avstraliya | 5. Salomon orollari |
| 2. Samoa | 6. Tonga |
| 3. Yangi Gvineya | 7. Tuvalu. |
| 4. Yangi Zelandiya | |

Jami 45 ta monarxiya davlati bor (2008y).

Hozirda jahon mamlakatlari federativ (10%) va unitar (90 %) davlatlarga bo'linadi. Jahonning 23 ga yaqin davlati federativ shaklga ega bo'lib, ulardan ayrimlarida (Rossiya, Belgiya, Hindiston, Nigeriya) federativ tuzilish milliy-etnik tamoil bilan boshqalari esa GFR, Avstriya, AQSH tarixiy- geografik hususiyatlari bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda ko'p mamlakatlarda ma'muriy-xududiy tuzilish masalasi muhim siyosiy muammo bo'lib qolgan. Masalan: Chechenistonda.

Federativ davlatlar

<u>Amerikada</u>	<u>Yevropada</u>	<u>Osiyoda</u>
1. Kanada	1. Avstriya	1. Myanma
2. AQSH	2. Germaniya	2. Pokiston
3. MQSH (Meksika)	3. Belgiya	3. Hindiston
4. Venesuela	4. Shvetsariya konfederatsiyasi	4. BAA
5. Kolumbiya	5. Rossiya	5. Malayziya
6. Braziliya	6. Bosniya va Gersogovina (myagkaya federasiya)*	
7. Argentina		
<u>Okeaniyada</u>	<u>Afrikada</u>	
1. Avstraliya Ittifoqi	1. Nigeriya	
2. MFSH	2. JAR	
	3. Komor or-ri	

Qolgan barcha mamlakatlar unitar davlatlardir. Unitar davlatlarda hududiy tuzilish shakliga ega bo'lib, bu tuzumda mamlakatda yagona qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat mavjud bo'ladi. Masalan: O'zbekiston.

Dunyo siyosiy kartasi quyidagi subregionlarga bo'linadi:

1. Ingliz Amerikasi (Kanada, AQSH).
 2. Lotin Amerikasi.
 3. Shimoliy Yevropa (Islandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya, Daniya).
 4. O'rta Yevropa (Irlandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, BeNiLyuks, Shvetsariya, Avstriya, Lixtenshteyn).
 5. Janubiy Yevropa (Ispaniya, Portugaliya, Andorra, Monako, Italiya, San-Marino, Vatikan, Malta, Gretsiya).
 6. Sharqiy Yevropa (Estoniya, Latviya, Litva, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Rumuniya, Bolgariya, Sobiq Yugoslaviya davlatlari, Albaniya, Moldova, Ukraina, Belarus).
 7. Rossiya Federatsiyasi
 8. MDHning Osiyodagi davlatlari: Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruzuya.
 9. Sharqiy Osiyo: Mongoliya, XXR, KXDR, Koreya Respublikasi, Yaponiya
 10. Janubi-Sharqiy Osiyo: Myanma, Tailand, Laos, Vetnam, Kampuchiya, Sharqiy Timor, Bruney, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin.
 11. Janubiy Osiyo: Pokiston, Hindiston, Nepal, Butan, Bangladesh, Shri-Lanka, Maldiv
 12. Janubi-G'arbiy Osiyo: Turkiya, Kipr, Isroil, Livan, Iordaniya Falastin hududlari, Suriya, Eron, Iroq, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Bahrayn, Katar, BAA, Ummon, Yaman.
- Tarixiy geografik jihatidan Osiyo quyidagi qismlarga bo'linadi:** Yaqin Sharq, O'rta Sharq, Uzoq Sharq.
13. Afrika
 14. Avstraliya
 15. Okeaniya (Palau, MFSH, Marshal orollari, Nauru, Kribati, Papua - Yangi Gvineya, Solomon orollari, Tuvalu, Vanuatu, Fiji, Tonga, G'arbiy Samoa, Yangi Zelandiya)

Subregionlarning jahondagi ulushi
(foiz hisobida 2006 yil)

№	Subregionlarning nomi	Xududi	Aholisi	YAIM	Eksporti
1	Ingliz Amerikasi	13,1	5,4	27,5	15,2
2	Lotin Amerikasi	15,4	8,5	6,1	4,4

3	Shimoliy Yevropa	0,8	0,4	2,3	4,5
4	O'rta Yevropa	0,9	4,3	21,5	29,3
5	Janubiy Yevropa	0,7	2,0	6,5	7,1
6	Sharqiy Yevropa	1,5	3,5	1,9	2,7
7	Rossiya Federatsiyasi	11,5	2,6	1,2	1,7
8	MDH ning Osiyo davlatlari	2,8	1,2	0,2	0,5
9	Sharqiy Osiyo	7,9	24,7	23,4	19,8
10	Janubi-Sharqiy Osiyo	3,1	8,5	2,2	6,5
11	Janubiy Osiyo	3,0	21,6	1,5	1,1
12	Janubi-G'arbiy Osiyo	4,6	4,6	2,6	3,7
13	Afrika	20,3	12,2	1,7	2,0
14	Avstraliya	5,2	0,3	1,2	1,1
15	Okeaniya	0,9	0,2	0,2	0,4
	Jami:	91,7	100	100	100

Mavzu: Dunyoning chuchuk suv resurslari.

Dunyo bo'yicha gidrosferaning umumiy hajmi 1,4mlrd km³ bo'lib, uning 96,5%i dunyo okeaniga, 3,5%i quruqlikdagi suvlarga to'g'ri keladi. Shundan 2,5%ini chuchuk suvlar tashkil etadi. Uning asosiy qismi Antarktida, Arktika, Grenlandiya va tog' muzliklari shaklida jamlangan bo'lib, hozircha amalda ulardan to'liq foydalanib bo'lmaydi. Dunyo bo'yicha chuchuk suvning umumiy zapasi 35mln km³ bo'lib, uning 24 mln km³i qoplama va tog' muzliklariga to'g'ri keladi. 98,5%-qoplama, 1,5%-tog' muzliklari.

Muammo shundaki, insoniyatning chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydigan asosiy manbaa daryo suvlari bo'lib, ularning yillik suv oqimi 47000 km³ga teng. Daryo suvlarining 47,3%i Janubiy Amerikaga, 26,7%i Osiyoga, 12%i Shimoliy Amerikaga, 9,2%i Afrikaga, 3,7%i Yevropaga, 1,1%i Avstraliyaga to'g'ri keladi. Bu miqdor unchalik ko'p emas, buning ustiga uning yarmidan foydalanish imkoni bor xolos. Qishloq xo'jaligida ishlatilgan suv ayniqsa, obikor dehqonchilikda qaytib o'rniga kelmaydi. Bu holat chuchuk suvga bo'lgan tanqislik xavfini vujudga keltiradi.

Yer yuzasida chuchuk suv juda notekis taqsimlangan. Ekvatorial mintaqada va mo'tadil mintaqaning shimoliy qismida chuchuk suv zaxirasi yetarli va hatto ortiqcha. Bu joylarda: Kongo, Zair, Gabon (aholi jon boshiga yiliga 120 ming km³), Kanada (115 ming km³), Norvegiya (100 ming km³), Braziliya (48 ming km³), Kolumbiya, Venesuela, Peru, Boliviya, Yangi Zelandiya (125 ming km³), Rossiya (28 ming km³) kabi chuchuk suv zaxirasi ko'p bo'lgan davlatlar joylashgan.

Chuchuk suv bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlarda aholi jon boshiga yiliga 5-25 ming km³ suv to'g'ri keladi. Bunday holatga AQSH, Meksika, Argentina, Mozambik, Mavritaniya, Eron, Myanma, Shvetsiya kabi davlatlar kiradi.

Quruqlikning 1/3 qismini tashkil etgan qurg'oqchil mintaqalarda suv tanqisligi juda keskin seziladi. Bu yerlarda chuchuk suvga eng kambag'al mamlakatlar joylashgan. Ularda kishi boshiga 5000 km³ dan ham kam suv to'g'ri keladi, ularda qishloq xo'jaligida faqat sun'iy sug'orib dehqonchilik qilinadi. Bunday mamlakatlarga: G'arbiy yarim shardan birorta mamlakat kirmaydi, Jazoir, Liviya, Misr, Sudan, Efiopiya, Chad, Arabiston yarim oroli mamlakatlari, O'rta Osiyo respublikalari

(Qirg'iziston va Tojikistondan tashqari), Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Afg'oniston, Pokiston kiradi.

Chuchuk suv bilan ta'minlanganlik darajasida suvning miqdorigina emas, uning sifati ham hisobga olinadi. Dunyo aholisining 1/3 qismi, ya'ni asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi sifatsiz suvdan foydalanadi. Shuning uchun ularda turli kasalliklar ko'p tarqalgan va o'lim ko'p uchraydi.

Insoniyatning suv muammosini yechishning bir necha yo'llari mavjud. Bu yo'llardan asosiysi ishlab chiqarish jarayonlarining suvga bo'lgan talabini kamaytirish va suv isrofgarchiligini kamaytirishdir. Shuningdek daryolar oqimini tartibga solish uchun suv omborlarini qurish maqsadga muvofiq. Jahonda hammasi bo'lib umumiy suv hajmi 6,5 ming km³ bo'lgan 40000 dan ortiq suv omborlari bunyod etilgan. Bulardagi suv bir vaqtning o'zida yer yuzidagi barcha daryolar suvidan 3,5 marta ko'p. Bu suv omborlarining umumiy maydoni 400000 km² bo'lib, Azov dengizidan 10 barobar katta. Eng katta suv omborlar: Bratsk, Buxtarma, Tuyamo'yin, Nosir.

Jahondagi eng yirik ya'ni suv hajmi 100 mlrd m³ dan ortiq bo'lgan suv omborlari:

1. Bratsk (169 mlrd m³ Rossiya Angara daryosi)
2. Nosir yoki Asuan (Misr. Nil daryosi)
3. Viktoriya (Uganda)
4. Kariba (Zambiya, Zimbabve. Zambezi daryosi)
5. Volta (Gana. Volta daryosi)
6. Guri (Venesuela. Orinoko daryosi).

AQSH, Meksika, Kanada, Avstraliya, Misr, Xitoy, Hindiston va MDHga kirgan mamlakatlarda suvni hududlarda qayta taqsimlash ishlari amalga oshirilgan va loyihalashtirilyapti. Fors ko'rfazi, O'rta dengiz bo'yi, Karib dengizi orollarida, AQSHning janubida, Yaponiyada, Turkmanistonda dengiz suvini chuchitish amalga oshirilmogda. Dunyo bo'yicha Quvaytda suv eng ko'p chuchitilgan. Chuchuk suv jahon bozorida sotilyapti. Masalan: Niderlandiya chuchuk suvni Norvegiyadan, Saudiya Arabistoni Fillipindan, Gonkong Xitoydan, Singapur Malayziyadan keltiradi. Grenlandiya va Antarktidadan Yevropaga, Amazonkadan Afrikaga, Janubi-g'arbiy Osiyoga esa aysberg'larni keltirish loyihalari bor.

Ma'lumki, daryolar suvidan elektr energiyasi olishda ham foydalaniladi. Jahonda foydalanishi mumkin bo'lgan gidroenergiya zahirasini 10 trln kVt. soat deb olsak, shuni teng yarmi 6 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Ular: Xitoy, Rossiya, AQSH, Zair, Kanada, Braziliya.

Hozirda jahon gidroenergiya zapasining faqat 17% i dangina foydalanilmoqda. MDHda esa 23% idan foydalanilmoqda.

Mavzu: Dunyoning biologik resurslari.

Yerning biologik resurslarini biologik "tirik" organizmlar ya'ni, o'simlik va hayvonlar tashkil etadi. Tiriklikning asosiy belgilari organizmlarning nafas olishi, oziqlanishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, harakatlanishi kabilardir.

Yerning o'simlik resurslari (yer biomassasini 97% ini tashkil etadi) madaniy va yovvoyi holda o'suvchi o'simliklardan iborat. Hozirda yer sharida 500000 ga yaqin o'simlik turi bor, shundan 6000 ga yaqini madaniy o'simliklar (ya'ni navlar) hisoblanadi. Lekin yer sharida ko'p tarqalgan qishloq xo'jalik ekinlari 80-90 turni, eng ko'p tarqalganlari esa 15-20 turni tashkil qiladi. Ular asosan oziq-ovqat va sanoat uchun xom-ashyo ekinlari hisoblanadi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar orasida o'rmon resurslarini hosil qiluvchi o'rmon o'simliklari ko'pchilikni tashkil etadi. O'simlik resurslari ham hayvon resurslari singari tugaydigan, lekin tiklanadigan resurslar hisoblanadi. Ulardan turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Masalan: o'rmondan qurilishdan tashqari, smola, skipidar, bo'yoqlar, lak ekstraktlar, yelim, mebel, sellyuloza, qog'oz, spirt va h.k lar olinadi.

Jahon o'rmon resurslari 2ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Egallagan maydoni (jahondagi barcha o'rmonzorlar 4 mlrd ga ni tashkil etadi yoki 40 mln.km² ya'ni jahon yer fondini 30% ini tashkil etadi).

2. Yog'och zaxirasi bilan (jami yog'och zaxirasi 350mlrd m³), yog'ochning sifatiga ko'ra. Doim o'sib turganligi sababli yog'och zaxirasi har yili 5,5mlrd m³ ko'payadi. Shunday ekan, kelajakda yog'och muammosi bo'lmaydigandek tuyuladi. Aslida unday emas. Chunki yog'och qadimdan qurilish va ishlov byerish material sifatida foydalanib kelingan va hozirda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki yog'ochdan XIX-asrning o'rtalarida 4,5-5 ming xil mahsulot olingan bo'lsa, hozirda 20 ming xil mahsulot ishlanadi. Hozirgi vaqtda ham yog'ochga talab doimiy oshib bormoqda.

Dehqonchilik paydo bo'lgan neolit davridan boshlab minglab yillar davomida o'rmonlar ekin ekish uchun yo'qotib borildi. Ayniqsa keyingi 200yil davomida quruqlikdagi o'rmonlar maydoni 2 barobarga kamaydi va u havfli tus oldi.

Tuproq erroziyasi va atmosferada O₂ni kamayishi o'rmonlarni yo'qolishi bilan bog'liqdir. Masalan: dunyoda o'rmonlar maydoni har yili kam deganda 25mln ga.ga yoki 0,5% qisqarmoqda. Dunyoda tayyorlanadigan yog'och miqdori 2000 - yil 4,5 - 5mlrd m³ tashkil etdi. Bu esa yillik paydo bo'ladigan yog'och zaxirasi to'liq foydalaniladi degan so'z.

Dunyodagi o'rmonlar juda katta masofaga cho'zilgan. 2 mintaqani hosil qiladi. Ular shimoliy va janubiy mintaqalardir.

Shimoliy o'rmon mintaqasi mo'tadil va qisman subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Dunyodagi butun o'rmon maydonining yarmi va yog'och zaxirasining deyarli yarmi shu mintaqaga to'g'ri keladi.

Asosiy o'rmon kesish ishlari, ayniqsa, yog'ochi yaxshi sifatli igna bargli daraxtlarni kesish shu mintaqada olib boriladi. Daraxt kesish jadal olib borilayotganligiga qaramay o'rmonlarni tiklash va daraxt ekish ishlari tufayli AQSH, Kanada, Finlandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda va umuman shimoliy o'rmon mintaqasida o'rmonlar maydoni kamayayotgani yo'q. Biroq Rossiyada daraxtni kesish uni ekishga qaraganda ko'proq bo'lyapti.

Janubiy o'rmon mintaqasi asosan tropik va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Dunyodagi o'rmon maydonining deyarli yarmi shu mintaqada joylashgan. Ilgari yog'ochdan faqat o'tin sifatida foydalanilgan bo'lsa, keyingi

vaqtlarda Yaponiya, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilish ko'p marotaba oshdi. Janubiy mintaqa o'rmonlariga bir necha yuz yillar davomida o'rmonni yoqib yer ochish va ekstensiv yaylov chorvachiligi katta zarar yetkazdi. Masalan: sernam doimiy yashil tropik o'rmonlar hozir ham 1mlrd. dan ortiq maydonni egallagan, ularning yarmidan ortig'i Lotin Amerikasida joylashgan. Biroq hozirda Lotin Amerikasi va Osiyo shunday o'rmonlarning 40%ini, Afrika 50%ini yo'qotdi. Ayrim mutahassislarning fikriga ko'ra bu o'rmonlar XXI-asrning o'rtalariga borib to'liq yo'q bo'ladi.

Tropik o'rmonlarni saqlash yuzasidan BMT rahbarligida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin hozircha u kutilgan natija bergani yo'q.

Jahonda o'rmonlar ulushi materiklar va regionlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: (foiz hisobida 2008-yil)

1. Janubiy Amerikada	- 52%
2. MDH da	- 37 %
3. Yevropada	- 31 %
4. Shimoliy Amerikada	- 31 %
5. Afrikada	- 26 %
6. Avstraliya va Okeaniyada	- 18 %.
7. Osiyoda	- 17 %

Dunyo okeani resurslari.

Keyingi o'n yilliklarda jahon okeanshunos olimlari, shu jumladan Yu.M.Shokalskiy, V.Yu.Vize, N.N.Zubov, P.P.Shirshov, K.K.Makarov, Jak iv Kusto kabi rus tadqiqotchilari, o'nlab ekspeditsiyalarning ishlari natijasida Dunyo okeanining ko'p sirlarini kishilar bilib olishdi. Dengiz geologiyasi yordamida okean tabiiy resurslarining juda katta xazina ekanligi isbot qilindi.

Bu xazina avvalo dengiz suvidan iborat. Dengiz suvi miqdori 1338 mln km³ yoki gidrosferadagi suv miqdorining 96,5% tashkil etadi. Bu degani yerdagi har bir kishi uchun o'rta hisobda taxminan 270mln m³ dengiz suvi to'g'ri keladi.

Bundan tashqari dengiz suvi o'ziga xos "tirik ruda" bo'lib, tarkibida 75xil ximiyaviy element mavjud. Misliklar va xitoyliklar qadim zamonlardan oq dengiz suvidan tuz ajratib olishni o'rganib olishgan. Hozirda dengiz suvidan ko'p miqdorda tuz (insoniyat iste'mol qilayotgan tuzning 1/3 qismi) undan tashqari magniy, brom, yod olinadigan manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan keyingi boyluk Dunyo okeani tagidagi mineral resurslardir. Materik sayozligidan qazib olinadigan resurslar orasida neft va gaz katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik hisoblarga qaraganda bu boyluklar butun jahon zaxirasining yarmidan ortig'i materik sayozligida joylashgan. Shuning uchun 5 ta Arktika davlatlari (Rossiya, Kanada, AQSH, Norvegiya, Daniya) Shimoliy Muz okeani havzasini bo'lib olish shartnomasini 2008-yil may oyida Grenlandiyani Gotxob shaxrida imzoladi. Materik sayozligidagi qattiq foydali qazilmalar nishab shaxtalar va dragalar yordamida qazib olinadi. Shuningdek okeanlarda cho'kib ketgan kemalar ko'plab qidirilmoqda va topilmoqda. Okean chuqur qismining asosiy boyligi temir-marganes qotishmalaridir. Dunyo okeanidagi asosiy temir-marganes qotishmalari

XIX asrning 70 yillaridayoq inglizlarning “Chellenjer” ilmiy tadqiqot kemasida aniqlangan.

Dunyo okeani tagidagi barcha temir-marganes qotishmalari aniqlangan bo'lib, ularning katta qismi Tinch okeanida joylashgan. Temir-marganesni dunyo okeanidagi umumiy zaxirasi 3trln.t., olish mumkin bo'lgani 0,5 trln.t.ni tashkil qiladi. Qotishmalarni qazib olish dastlabki tajribasi AQSH tomonidan Gavayi orollari yaqinida o'tkazilgan (1980-yil).

Dunyo okeanining bundan keyingi boyligi energetika resurslari. Bu boyluk juda katta. Olimlarning hisobiga ko'ra sayyoramizdagi suv qalqishining umumiy qudrati 1-6mlrd kVt ga teng. 1mlrd kVt qudrat yer yuzidagi barcha daryolar energiyasidan ortiq.

Suvning ko'tarilishi bilan bog'liq yirik elektr stansiyalarni 25ta joyda qurish mumkinligi aniqlangan. Rossiya, AQSH, Fransiya, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya eng katta suv qalqishi energiya resurslariga egadir. Bu mamlakatlarda suv ko'tarilishining balandligi 10-15 m ga yetadigan sohillar bor. Masalan: Fandi qo'ltig'i (19m gacha), Penjina qo'ltiqchasi (14m), Kandalashka (12m). Dengiz suvlarining qalqishi hisobiga ishlaydigan elektr stansiyalari qurilgan bo'lib, ularni QES (PES) deyiladi. QESlar hozirda jahonning 5 mamlakatida mavjud bo'lib, ular: Rossiya, AQSH, Fransiya, Kanada, Xitoy, Argentina, Avstraliya, Buyuk Britaniya.

Dunyo okeanining yana bir boyligi biologik resurslardir. Bular suvda yashovchi hayvonlar va o'simliklardir. Bu resurslardan foydalanish akvakultura va marikultura usullarida qadimdan Xitoyda rivojlangan. Okeanlarning biologik moddalari umumiy miqdori 35mlrd.t. hisoblanadi, ular 140ming tur mavjudotdan iborat bo'lib, shundan 140 – 160 ming turi hayvonot turlariga, 10 000 turi o'simlik turlariga to'g'ri keladi. Ular hammasi birgalikda yer biomassasini 5,5 % ini tashkil etadi. Norvegiya, Bering, Oxota, Yapon, dengizlari dunyodagi eng maxsuldor dengizlar hisoblanadi. Biroq okeanlardagi ko'pgina organizmlar muhofazaga muhtoj. Masalan: Kitlarni ovlash 1868 yildan boshlangan. Birgina 1962 yil dunyo bo'yicha 66000 ta kit ovlandi. Hozirga qadar esa Dunyo okeanidan 2mln. dan ortiq kit ov qilingan. Shuning uchun 1982 yildan boshlab jahonda kit ovlash BMT tomonidan ma'n etilgan.

Mavzu: Dunyo iqlimiy va rekreatsion resurslari.

Agroiqlim resurslari atmosfera havosining aktiv ($+10^0$ S) haroratlari yig'indisiga qarab baholanadi. Agroiqlimiy resurslarning taqsimlanishiga kenglik zonalligi va vertikal mintaqalanish xal qiluvchi ta'sir qiladi. Agroiqlim resurslari-yer sharida issiqlik, yorug'lik va namlikning taqsimlanishiga bog'liq.

Agroiqlim resurslaridan issiqlik alohida o'rin tutadi. Issiqlik va yorug'lik ekvatoridan har ikkala qutb tomon kamaya boradi. Natijada yer sharida 7 ta agroiqlim mintaqasi shakllangan. Ulardan ekvatorial mintaqadan tashqari qolgan 3 ta mintaqada 2 marta takrorlanadi.

1. Tropik mintaq. Afrika eng issiq materik bo'lib, chekka shimoliy, chekka janubiy va baland tog'li qismlaridan qolgan barcha qismlarida 1sm.kv. joyga 8000^0 dan ortiq issiqlik tushadi, sovuq oyning o'rtacha haroratlari yig'indisi $+15^0$ dan yuqori. Bu joylar tropik mintaqaga mansub bo'lib, dunyoda tropik kengliklar

oraliqlari (Amazoniya past tekisligi, Arabiston, Hindiston, Hindixitoy yarim orollari, Malayya arxipelagi va Avstraliyaning shimoli) kiradi. Bu mintaqada issiqsevar qisqa kunli o'simliklar o'sadi. Ekvator atrofida kunning uzunligi har doim 12 soat, shimoliy va janubiy tropiklarda esa 13 soatu 13 minut. Vegetatsiya davri uzluksiz davom etadi.

2. Subtropik mintaqa tropik mintaqadan shimolda va janubda tarqalgan bo'lib, bu mintaqaga Afrikaning chekka shimoli va janubi, Janubiy Amerikaning janubi, Meksikaning shimoli-AQSHning janubi, Yevropaning O'rta Dengiz bo'ylari, Yaponiya, O'rta Sharq, O'rta Osiyo, Taklamakon cho'li, Sharqiy Xitoy, Avstraliyaning janubi kiradi.

Subtropik mintaqaga odatda shimoliy va janubiy tropik chizig'idan shimoldagi va janubdagi hududlar kiradi. Bu mintaqada haroratlar yig'indisi 4000-8000⁰ ga to'g'ri keladi. Yillik sovuq oyning o'rtacha temperatura yig'indisi +15⁰ +5⁰. Issiqsevar o'simliklar yetishtiriladi. Vegetatsiya davri uzoq 210-310 kun. Kunning uzunligi 13,3-15,3 soat.

3. Mo'tadil mintaq katta maydonlarni egallaganligi sababli 2 mintaqachaga: mo'tadil mintaqacha va sovuq- mo'tadil mintaqachaga bo'linadi. Mo'tadil mintaqacha asosan shimoliy yarim sharda joylashgan.

1) Iliq mo'tadil mintaqachaga AQSH ning shimoli – Kanadaning janubi, butun O'rta Yevropa, Belarus, Ukraina, Volga bo'yi, Kavkaz, Qozog'iston, Xitoyning markazi va shimoliy qismi, Koreya yarim oroli, Yaponiyaning shimoli kiradi. Bu mintaqada yilning sovuq oyining o'rtacha temperaturasi -10⁰S .Yillik haroratlar yig'indisi 1 sm² joyga 2200-4000⁰ni tashkil etadi. Kunning uzunligi 16-17 soat. Bu mintaqachada kunning uzunligi o'rtacha va uzun bo'lgan o'simliklar (bug'doy, makka, qand lavlagi, kungaboqar, janubida esa paxta, yeryong'oq, uzum) yetishtiriladi.

2)Sovuq mo'tadil mintaqacha shimolida 65,5⁰ shimoliy kenglikkacha sovuq mo'tadil mintaqacha egallagan. Bu mintaqachaga Kanadaning katta qismi, Shimoliy Yevropa, Rossiyaning katta qismi kiradi. Yilning sovuq oyining o'rtacha temperatura yig'indisi -25⁰gacha. Yillik temperatura yig'indisi 1000-2200⁰. Kunning uzunligi 19-23 soatgacha. Bu mintaqachada uzun kunli o'simliklar zig'ir, kartoshka, malina,chereshnika, brusnika o'sadi. Bu mintaqachaning barcha qismlarida namlik koeffitsienti 1 dan ortiq.

4. Sovuq mintaqaga 60⁰ shimoliy kenglikdan shimoli ayrim joylarda 50⁰shimoliy kenglikdan shimoli (Labrador yarim orolida) asosan shimoliy qutb doirasidagi hududlar kiradi. Bu mintaqaning janubida havo temperaturasining yig'indisi400-1000⁰shimolida esa 400⁰ni tashkil etadi. Eng sovuq oyning o'rtacha temperaturasi -25⁰ dan -40⁰ gacha. Vegetatsiya davri 1-1,5 oy. "Oq tunlar" bo'ladi. Namlik koeffitsienti 1 dan yuqori bo'lgan hududlarga Amazoniya, Kongo, Gang-Braxmaputra havzasi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Madagaskar, shuningdek sovuq mo'tadil mintaqacha kiradi. Cho'l, chalacho'l va baland tog'li territoriyalarda namlik koeffitsienti 1 dan kam. Namlik koeffitsienti yog'in va parlanish orasidagi nisbatdan kelib chiqadi. Masalan:

Yog'in 500 mm-bug'lanish 500 mm namlik koeffitsienti =1 (yetarli).

Yog'in 500 mm- bug'lanish 400 mm namlik koeffitsienti = 1,2(ortiqcha).

Yog'in 500mm-bug'lanish 600 mm namlik koeffitsienti = 0,8 (kam).

Quyosh – kosmik resurslar – kelajak resursidir.

Quyosh- yirik termoyadro reaktori, yerdagi butun hayotning manbai, butun energetika resurslarining manbaidir. Quyoshning atrofida temperatura $+6000^{\circ}$, markazida esa $+20\text{mln}^{\circ}\text{S}$. Quyosh energiyasi bitmas tuganmas boylikdir.

Quyoshda H_2 ning geliyga aylanishi natijasida radiatsiya ajralib chiqadi. Quyosh nuri yerga 8,5 minutda yetib keladi. Quyosh diametri Yer diametridan 109 marta katta. Quyosh energiyasining $\frac{1}{10}$ qismi ishga solinsa 30 000 ta Dnepro GES beradigan energiyani beradi.

Faqat Toshkent shahriga 1 yilda tushadigan quyosh energiyasi 37 mln tonna ko'mir energiyasiga teng. O'zbekiston territoriyasi 3000 soatdan ortiq quyosh nuri bilan yoritiladi. Quyosh 10 – 15 mlrd yildan so'ng so'na boshlaydi. Ungacha 150 mln inson avlodi almashinadi.

Hozirda Quyosh energiyasiga asoslangan elektr stansiyalar QES lar AQSH, Yaponiya, Fransiya, Ispaniya, Ukraina, O'zbekiston kabi davlatlarda ishlab turibdi. Germaniyada quyosh avtomobili yaratilgan.

Kosmik resurslardan shamol energiyasi ham tugamaydigan resurslardir. Shamol tegirmonlari shamol dvigatellari, yelkanli kemalar qadimdan foydalanib kelingan. Shamol energiyasi arzon va atrof-muhitni ifloslamaydi. Lekin shamol energiyasi notekis joylashgan, ya'ni asosan mo'tadil mintaqada to'plangan.

Rekreatsion resurslar – bu dam olish va turizm resurslaridir. “Rekratsiya” so'zi lotincha “tiklanish” bo'lib, dam olish, kishining ma'naviy va jismoniy kuchlarini tiklaydi. Rekreatsion resurslar istirohat, turizm va shifolanish maqsadlarida bo'ladi. Ular 2 xil bo'ladi:

1. Tabiiy rekreatsion resurslarga: dengiz sohillari (Qrim, Sochi), daryo bo'ylari (Niagara, Ganga), o'rmonlar, tog'li rayonlar (Alp tog'lari, Shohimardon) kabilar kiradi.

2- Madaniy-tarixiy rekreatsion resurslar bo'lib, bularga tarixiy, arxeologik, me'morchilik, san'at yodgorliklari kiradi. Masalan: VDNH, Kreml, Yermityaj, Rim, Akripol, Misr ehromlari, Toj Mahal, Xiva, Paleontologiya muzeyi (Moskva), Buyuk Xitoy devori, Vavilon, Sherdor, Go'ri Amir, Oqsaroy va h.k.

Xalqaro turizmdan tushadigan daromadning 14 % i AQSH ga, 6 % i Ispaniyaga, 6 % i Fransiya, 6 % i Italiyaga, 4 % i Buyuk Britaniyaga, 3 % i Avstriyaga, 61 % i boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi (2005 y).

Mavzu: Dunyo aholi geografiyasi.

Aholi-jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va ayni paytda asosiy iste'molchisi hamdir.

Aholining tabiiy o'sishi: tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish hodisalarining yig'indisidan kelib chiqadi. Bu hodisalar aholining to'xtovsiz tiklanib va avlodlarning yangilanib turishini ta'minlaydi.

Jahonda tug'ilish koeffitsienti 21 ‰ ni tashkil etgani holatda, bu ko'rsatkich – Gvineya Bisau, Liberiya, KDR kabi davlatlarda 50 ‰ ni tashkil etadi.

Aksincha, GFRda, Xitoy Makaosida - 8‰ni, Yaponiya, Tayvan, Litva, Avstriya, Belorussiyada - 9‰ni (2007 y).

O'lim koeffitsienti dunyo bo'yicha 9‰ bo'lgani holatida, bu ko'rsatkich Svazilendda 29‰, Botsvanada 27‰, Angolada 22‰.

Aksincha, Katar, Quvayt, BAA kabi davlatlarda 2 ‰ ga teng (2007 y).

O'lim darajasi dastavval kishilar hayotining moddiy sharoitiga-ovqatlanishiga, mehnat va ro'zg'orning sanitariya-gigiena sharoitiga, sog'liqni saqlash ishlari taraqqiyotiga bog'liq.

Tug'ilish darajasi –jamiyatning sotsial-iqtisodiy tuzilishiga (rivojlangan yoki qoloqligi), jamiyat va oilada kishilar o'rtasidagi o'zaro a'loqalarga bog'liq. Odatda kishilarning moddiy farovonligi va madaniyati o'sgan sari, ayollarning ishlab chiqarishga va ijtimoiy faoliyatga ko'proq jalb etilgan sari, bolalarning o'qish muddatlari uzaygani sari, nikoh yoshi kechikkani sari (ilgari 14 yoshda uylagan, 9 yoshdan kuyovga bergan) bo'lsa, hozirda ayrim mamlakatlarda 30 yoshdan o'tib oila qurmoqda. Masalan: Prosta Mariya filmida. G'arb mamlakatlaridagi korchalon xonimlar tug'ishni butunlay xohlashmayapti (implantasiya).

Dunyo aholisining jinsiy tarkibi:

Yangi dunyoda va Afrika, Avstraliyada erkaklar va ayollar soni deyarli teng. Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Arabiston yarim oroli davlatlari va Liviyada erkaklar soni ko'p. Rossiya, Sharqiy va O'rta Yevropa davlatlarida aksincha, erkaklarga nisbatan ayollar soni ko'p. Masalan, BAA da 100 ayolga 147 ta, Quvaytda 152 ta erkak to'g'ri keladi. Butanda 100 erkakka 128 ta ayol, Ukrainada 116 ayol, Rossiyada 113 ayol to'g'ri keladi (2005 y).

Dunyo aholisining irqiy tarkibi % hisobida quyidagicha: jahon aholisining 42 % i yevropoid irqiga, 20 % i mongoloid irqiga, 7 % i negroid irqiga, 1 % i avstroloid irqiga, 30 % i aralash va o'tkinchi tiplarga mansub.

Aholining ko'payishiga urushlar, qahatchilik, kasalliklar va turli xil sabablar ta'sir etadi. Hozirda dunyo aholisining tabiiy o'sishi yiliga 90 mln. kishi, ya'ni tabiiy ko'payish 2‰ ni tashkil etsa, O'zbekiston aholisi 2,9‰ ga o'smoqda.

Jahonda aholisining tabiiy o'sish koeffitsienti eng past bo'lgan mamlakatlar: Estoniya (-0,2), Latviya (-0,5), Litva (-0,4), Belorussiya (-0,5), Ukraina (-0,6), Bolgariya (-0,5), Vengriya (-0,5) (2007 y.).

Dunyo bo'yicha aholining yillik tabiiy o'sishi 1,2 ‰ ni tashkil etgani holda bu ko'rsatkich turlicha. Masalan: Nigerda 3,4‰, Moyottada 3,6‰, Yamanda 3,2 ‰, Sharqiy Timorda 3,3‰, Marshal orollarida 3,3 ‰ ni tashkil etadi (2007 y).

Hozirda dunyo aholisining tabiiy o'sishini 2 turga bo'lib o'rganiladi.

Aholi ko'payishining 1-tipi: "Demografik tanglik". Bu tur uchun tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining nisbatan past ekanligi xosdir. Bunga Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari misol bo'ladi. Masalan: GFR, Daniya, Italiya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Latviya. Bu mamlakatlarda tug'ilishning

kamayishiga shahar aholisining tez ortishi (shaharlarda tug'ilish qishloqlardan kam bo'ladi), ayollarning ishlab chiqarishga ko'p jalb etilishi, erkaklar salmog'ining nisbatan kamligi (15 mln.kishiga Horijiy Yevropada), katta yoshdagilar salmog'ining ortib, kichik yoshdagilar salmog'ining kamayishi sabab bo'ladi. Aholining tabiiy ko'payishi har 1000 kishiga 4 ta va undan kam. Masalan: Germaniyada oilaning o'rtacha me'yori 2,7 kishi. Har 4 oilaning 1tasi farzandsiz. Rossiyada ham tabiiy ko'payish ancha past bo'lib, ko'p bolali oilalarning kamayishi kam bolali oilalarning ko'payishi kuzatilinmoqda. Oilaning o'rtacha me'yori 3,2 kishini tashkil etadi. Bu mamlakatlarda tug'ilishning va tabiiy ko'payishning o'sishiga qaratilgan demografik siyosat olib borilmoqda.

Aholi ko'payishining 2-tipi: "Demografik faollik yoki portlash". Bu turi uchun tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqori, juda yuqori va o'limning kamligi xosdir. Aholi ko'payishining bu turi rivojlanayotgan davlatlar uchun xos bo'lib, asosiy sabablari: mustaqillikdan keyingi hozirgi zamon tibbiyoti, sanitariya-gigiena yutuqlaridan keng foydalanish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, ekonomika taraqqiyot darajasining pastligi, qishloq xo'jaligining ustunligi (bolalar ishi hisoblanadi), savodsizlik, sanitariya madaniyatining etarli emasligi, ayollarning oilada va jamiyatda erksizligi, nikohga erta kirishi, ko'p bolalikni rag'batlantiruvchi diniy, iqtisodiy (mat-Geroy 10 ta bolali), milliy, mahalliy odatlar.

Tug'ilish va tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan mamlakatlar asosan Osiyo, Afrika davlatlaridir. Bularda oilaning o'rtacha miqdori 6 kishi. Aholining tabiiy ko'payishi 1000:30 kishi. 90 yillari tug'ilish (1000:54) va tabiiy ko'payish (1000:41) eng yuqori bo'lgan davlat Keniya bo'lgan. Aholi ko'payishining sur'ati shunday saqlansa 17 yilda mamlakat aholisi 2 barobar ko'payadi. Buyuk Britaniya aholisining 2 hissa ko'payishi uchun 630 yil kerak bo'ladi.

Demografik portlash XX asrning 60 yillari paydo bo'lgan. Demografik portlash asosan Horijiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilinmoqda. Ma'lumki, aholisi soni 100 mln dan ortiq bo'lgan mamlakatlarning 7 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlarda demografik siyosat aholi tabiiy ko'payishini kamaytirishga qaratilgan (hatto konstitutsiyaga kiritilgan).

Demografik siyosat – Ma'muriy (yer bermaslik, ishga olmaslik, uy joy bilan yaxshi ta'minlamaslik yoki aksi), iqtisodiy (oylikni to'la bermaslik, sotsial ta'minotni yaxshilamaslik, bezdetniy, Geroy ona va h.k. yoki aksi) targ'ibot va boshqa tadbirlar aholining tabiiy ko'payishiga o'zi hohlagan yo'nalishda ta'sir ko'rsatishidir.

Dunyo aholisining tabiiy o'sishi regionlar bo'yicha:

Shimoliy Amerikada 1000/5 kishi.

Lotin Amerikasida 1000/ 19 kishi.

Horijiy Yevropada 1000/ 2 kishi.

Horijiy Osiyoda 1000/ 18 kishi.

MDH da 1000/7 kishi.

Afrikada 1000/ 30 kishi.

Avstraliya va Okeaniyada 1000/ 12 kishi.

Mavzu: Yer shari aholisining joylashishi.

Yer kurrasida aholi juda notekis joylashgan. Butun aholining 70 % iga yaqini quruqlikning 7 % ida yashaydi. Butun quruqlikning (149 mln km^2) 15 % ida esa ($22,4 \text{ mln km}^2$) aholi doimiy yashamaydi. Bunday joylarga: Grenlandiya oroli (orolning janubiy sohillari bundan mustasno), Kanada-Arktika arxipelagining shimoli, Sahroi Kabir, Rub-el-Xali, Katta Qum va Viktoriya kabi qumli cho'l massivlarining ayrim qismlari, Antarktida materigi va baland tog'larning yuqori qismlari kiradi.

Jahonda aholi soni eng kam bo'lgan mamlakatlar:

Vatikan 1000 kishi

Tuvalu 10 000 kishi

Nauru 11 000 kishi (2007 y).

Ma'lumki, kishilar avvalo hayot kechirishi uchun qulay bo'lgan (ayniqsa iqlimiy) va antropogen landshaftlarni bunyod etganlar. Aholi joylashishiga qadim zamonlardan aholining qishloq xo'jaligi bilan bandligi kuchli ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatadi.

Hozirda yer sharida dunyo aholisi zich tarqalgan 3 ta arealni ajratish mumkin:

1. Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo. Bu yerlarda hozirgi vaqtda aholi zichligi 1 km^2 ga 200 kishidan ortadi. Ayrim joylarda esa 1 km^2 joyga 1500-2000 kishi va undan ham yuqori. Masalan: Bangladeshda aholi zichligi dunyo bo'yicha eng yuqori 1 km^2 -1035 kishi (2007 y). Aholi zichligiga bu yerda kishilarning eng qadimdan yashashi, ko'p mehnat talab qiluvchi intensiv obikor dehqonchilikning tarixiy tarkib topganligi va aholining tabiiy ko'payishi hususiyatlari sabab bo'lgan.

2. Yevropa davlatlari (Shimoliy Yevropa bundan mustasno). Bu arealda aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 – 200-400 kishini, ayrim hududlarda 1000-1500 kishiga yetadi. Masalan: Rur havzasida. Bu arealda aholi to'planishiga Yevropaning kishilik jamiyati tarixida sivilizatsiya markazi bo'lganligi, sanoat taraqqiyotining boshlanishi, sanoat inqilobining vatani bo'lganligi va sanoatning yuksak darajada rivojlanganligi sabab bo'lgan.

3. AQSH ning shimoli-sharqiy qismi. Bu areal yosh, yangi areal bo'lib, asosan yangi dunyo kashf etilgandan so'ng XIX-XX asrda Yevropa aholisining "buyuk ko'chishi" natijasida va Afrika negrlarining keltirilishi bilan AQSH ning jahon xo'jaligida 2-markaz sifatida paydo bo'lishi oqibatida paydo bo'lgan.

Bu arealda ham aholi zichligi 1 km^2 joyda 100 kishidan ortiq. Ko'l bo'yida esa aholi zichligi 1 km^2 da 1500 kishiga yetadi.

Jahonda aholi zichligi 1 km^2 ga o'rtacha 49 kishi bo'lgani holatida (2007 y) bu ko'rsatkich Monakoda 33104 kishi, Xitoy Makaosida 20346 kishi, Singapurda 6785 kishi, Xitoy Gonkongida 6308 kishi, Baxraynda 1098 kishi, Bangladeshda 1035 kishini tashkil etadi.

Aksincha, aholi zichligi eng kam bo'lgan hududlar: G'arbiy Sahroi Kabir, Gviana, Mongoliyada 2 kishi, Avstraliyada, Islandiyada, Mavritaniyada, Botsvanada, Namibiyada, Kanadada, Surinamda 3 kishi (2007 y).

Dunyo aholisining joylashishiga aholining transport va savdo yo'llariga yaqinroq joylashishi, ayniqsa dengiz bo'yida joylashishi muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan 6 ta dengiz va okeanlarning qirg'og'i bo'ylab cho'zilgan eni 200 km gacha bo'lgan sohillarda dunyo aholisining yarmi yashaydi. Orol va yarim orollarda joylashgan ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori. Masalan: tabiiy sharoiti qulay bo'lgan

Yava orolida aholi zichligi 1km^2 maydonda 2000 kishiga yetadi. Millioner shaharlarning asosiy qismi ham dengiz bo'yidagi port shaharlardir.

Ayni paytda materik ichkarisida joylashgan, tabiiy sharoiti ham noqulay bo'lgan Mongoliyada aholi zichligi 1km^2 ga 2 kishiga to'g'ri keladi. Dunyo aholisining zichligi 1km^2 ga 49 kishi bo'lgani holda Horijiy Yevropada bu ko'rsatkich – 98 kishi ga, Shimoliy Amerikada – 14,5 kishiga, Lotin Amerikasida – 21,4 kishiga, Horijiy Osiyoda – 115 kishiga, Afrikada – 22 kishiga, Avstraliya va Okeaniyada – 3 kishiga to'g'ri keladi.

Jahonda aholi zichligi eng yuqori va eng kam bo'lgan davlatlar: (1km^2 ga kishi hisobida 2007-yil)

1. Monako	– 33104	1. G'arbiy Sahroi Kabir	– 2
2. Xitoy Makaosi	– 20346	2. Mongoliya	– 2
3. Singapur	– 6785	3. Gviana	– 2
4. Malta	– 1288	4. Namibiya	– 3
5. Baxrayn	– 1098	5. Botsvana	– 3
6. Bangladesh	– 1035	6. Kanada	– 3
7. Maldiv Resp	– 1020	7. Avstraliya	– 3.

Shunday qilib, aholi joylashishiga tabiiy sharoitlar, iqtisodiy sharoitlar, aholining kelib o'rnashgan vaqti, xo'jalik tipi (dehqonchilikdami, sanoatdami, chorvachilikdami?), tashqi va ichki migratsiyalarning intensivligi kabilar hal qiluvchi omillar sifatida ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda Afrika aholisining joylashishiga tarixiy sharoit, ya'ni qul savdosi va mustamlakachilik tizimining ta'siri kuchli bo'lgan.

Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun aholining muayyan soni va zichligi bo'lishi kerak.

Aholining soniga va joylashishiga aholining tabiiy ko'payishi bilan birga aholining "mexanik ko'payishi" ya'ni migratsiyalar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Migratsiyaning asosiy sababi iqtisodiy sabab bo'lib, undan tashqari: siyosiy, diniy, milliy (turklar bilan o'zbeklar), ekologik (Orol bo'yi, Rur havzasi) sabablari ham mavjud.

Ichki migratsiyalar – bir mamlakat doirasida aholining qayta taqsimlanishi bo'lib, unda umumiy aholi soniga ta'sir etmaydi.

Tashqi migratsiyalar – mamlakat va qit'alar aholisi soniga ta'sir etadi. Immigratsiya – emmigratsiyadan ortiq bo'lganda mamlakat aholisi mexanik ko'payadi. Emmigratsiya ortganda esa aholi mexanik kamayadi. XIX asr boshlaridan II-jahon urushiga qadar Yevropa asosiy emigratsiya markaziga aylandi va 60 mln aholi ko'chib ketdi, 1-navbatda Shimoliy Amerikaga, Braziliyaga, Argentina, JAR, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga. II-jahon urushidan so'ng emmigratsiyaning 2-markazi – Osiyo vujudga keldi. Asosan Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Yaponiyadan Horijiy Yevropa davlatlariga; JAR, AQSH, Braziliya, Indoneziya, Singapurga migratsiya kuchaydi.

1970-80 yillar yer sharida immigratsiyaning yangi markazi Yaqin Sharq paydo bo'ldi. Bu regionda OPEK ga a'zo davlatlar chetdan ko'plab mehnatkashlarni o'ziga jalb qildi. Hindiston, Pokiston, Bangladesh – Yaqin Sharq mamlakatlariga asosiy ishchi kuchi yetkazib beruvchi davlatlarga aylanib qoldi. Lekin hamon AQSH jahonda immigratsiyaning muhim markazi bo'lib kelmoqda. Yiliga AQSH ga 1 mln aholi immigratsiya qilmoqda.

XX asrning 2-yarmida tashqi migratsiyaning yangi shakli “Oqillar (donolar) migratsiyasi” paydo bo’ldi. Bunda: olimlar, vrachlar, injenerlar va boshqa malakali mutaxassislar ko’chib ketadi. “Oqillar migratsiyasi” dastlab Horijiy Yevropadan AQSH ga bo’lgan bo’lsa, 1980-90 yillardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar tufayli MDH davlatlaridan Horijiy Yevropa va AQSH ga bo’lishi kuzatilib bormoqda.

Jahondagi chet el ishchi kuchlarining (mehnatkashlar migratsiyasining) 40 % i Shimoliy Amerikaga, 25 % i Yevropaga, 20 % i Osiyoga, 15 % i boshqa regionlarga to’g’ri keladi.

Iqtisodiy faol aholining Katarda 92 % ini, BAA da 89 % ini, Quvaytda 86 % ini, Omanda 70 % ini, Saudiya Arabistonida 60 % ini, Liviyada 50 % ini “gastarbeytarlar” tashkil etadi (2005 y).

Ichki migratsiyaga aholi qishloq joylaridan shaharlarga ko’chishi ham kiradi. XX asrning oxirlariga kelib bu migratsiya ko’lami shu qadar kattalashdiki, buni “XX-asrda aholining buyuk ko’chishi” deb atalindi.

Yangi yerlarning o’zlashtirilishi ham migratsiya bilan bog’liq bo’lib, hududi katta va aholisi zich mamlakatlarda kuzatilib bormoqda. Masalan: Rossiyada (Qoratuproq zonasining o’zlashtirilishi, BAM ni, taygani o’zlashtirilishi), Qozog’istonda, Kanadada (Shimolni o’zlashtirilishi), Braziliyada (Amazoniyani), Avstraliyada (savannalarni), Xitoyda (Tibetni), O’zbekistonda (Mirzacho’l, Yozyovon).

Shaharlar. Ma’lumki, dastlab shaharlar Nil deltasida va Mesopotamiyada (Vavilion) savdo va hunarmandchilik markazlari, harbiy qo’rg’onlar sifatida paydo bo’lgan. Kapitalizmning rivojlanishi bilan shaharlar soni va salmog’i ham ortib bordi. Shaharlarning iqtisodiy-ma’muriy va madaniy markaz sifatida mavqei kuchaydi. Urbanizatsiya jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o’sishi jarayoni jamiyatning aholi mehnati turmush tarzi (masalan: mehnat qilish, kiyinish, gaz, elektr, suv bilan ta’minlanishi, uylarni pardoqlash, qum shuvoq, televizor, telefon va h.k.) va madaniyatining ko’proq shaharlarga xos bo’lib o’zgarib borishidir. Urbanizatsiya sotsial-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismidir.

Hozirda urbanizatsiya 3 ta umumiy xususiyatga ega:

1. Shahar aholisi sonining rivojlanayotgan mamlakatlarda tez o’sishi. Masalan: XX asrning boshida dunyo aholisining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo’lsa, 1990 yillari 45 % dan ortig’i, XXI – asr boshida esa 49 % i shaharlarda yashagan. O’rta hisobda shahar aholisi 50 mln kishiga ko’paymoqda. (2 ta O’zbekiston aholisi demakdir).

2. Aholi va xo’jalikning asosan yirik shaharlarda to’planishi. Bunga asosan ishlab chiqarishning ilm-fan ta’lim bilan aloqasining murakkablashib borayotganligi sabab bo’lmoqda. Dastlabki millioner shaharlar Yuliy Sezar davrida paydo bo’lgan (Rim) bo’lsa, XX asr boshida ularning soni 10 taga, 1980 yillari 200 tadan ortdi. Millioner shaharlar soni XX asr oxirida 400 taga yetishi kuzatilib bormoqda. Hozirda millioner shaharlar soni Rossiyada 13 ta, Markaziy Osiyoda 2 ta. Aholi soni 5 mln dan ortiq bo’lgan shaharlar soni hozirda 30 ta, aholisi soni 20 mln dan ortiq bo’lgan shaharlar (aglomeratsiyalari bilan) 12 tani tashkil etadi.

3. Shaharlar maydonining kengayib ketishi, ya’ni shahar aglomeratsiyalari deyiladi. Aglomeratsiyalar uchun poytaxtlar, eng muhim sanoat markazlari, portlar o’zak bo’ladi. Masalan: Mexiko, Tokio, San-Paulu va Nyu-York tevaragida har birida 16-

20mln va undan ortiq aholi yashaydi. Moskva aglomeratsiyasida 100 ga yaqin shaharchalar va mingdan ortiq qishloqlar jamlangan bo'lib, ularda 13,5 mln kishi yashaydi.

Urbanizatsiya darajasiga ko'ra jahon mamlakatlari 3 ta toifaga bo'linadi:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar. Ularda shahar aholisining salmog'i 50% dan ortadi. Bu toifaga rivojlangan davlatlarning barchasi, Lotin Amerikasi davlatlari, Rossiya, Qozog'iston kiradi.

2. O'rtacha urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda shahar aholisi salmog'i 20-50% ni tashkil etadi. Ularga asosan Afrika va Osiyo davlatlari, jumladan, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari kiradi.

3. Zaif yoki urbanizatsiyalashmagan mamlakatlarda shahar aholisi salmog'i 20 % dan kam bo'lib, ularga Botsvana, Madagaskar, Efiopiya, Eritreya, Uganda, Chad, Niger, Mali, Burkina-Faso, Oman, Afg'oniston, Laos, Kampuchiya, Papuaslar Yangi Gvineyasi kabilar kiradi.

Jahonda urbanizatsiya darajasi eng yuqori va eng past bo'lgan davlatlar:

(foiz hisobida 2005-yil)

1. Singapur – 100%	1.
Ruanda – 6%	
2. Belgiya – 97 %	2. Butan – 7%
3. Quvayt – 96 %	3. Burundi – 9%
4. G'arbiy Sahroi Kabir – 96 %	4. Oman – 13%
5. Venesuela – 93 %	5.
Uganda – 15%	

Urbanizatsiya darajasi 90 yillari rivojlangan davlatlarda 72 % ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 33 % ni tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasi avvalo mamlakatning taraqqiyot darajasiga bog'liq. Ayni paytda shaharlarda ekologik holatni yomonlashuvi suburbanizatsiyaga sabab bo'lmoqda.

Urbanizatsiya darajasiga qaramay dunyo aholisining yarmidan ortig'i qishloqlarda yashamoqda. Hozirda dunyoda qishloqlarning umumiy soni 20 mln.ga yetdi. Qishloqlarda aholi g'uj va tarqoq joylashgan. Qishloqlarda aholining g'uj bo'lib yashashi Rossiya, Horijiy Yevropa, Xitoy, Yaponiya uchun xos. Tarqoq joylashishi esa fermer xo'jaliklar rivojlangan mamlakatlarda AQSH, Kanada, Avstraliya uchun xos.

Dunyoda jami 4000 ga yaqin etnik birliklar mavjud bo'lib, ular soniga va tiliga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Eng katta xalq-xitoylar 1,1 mlrd. kishi bo'lsa, eng kichigi vedd yoki botoku qabilalari 1000 kishini tashkil etadi.

Etnik chegaralar bilan siyosiy chegaralar mos tushganda bir millatli davlatlar tashkil topadi. Masalan: Bolgariya, Vengriya, Polsha, Yaponiya, orol davlatlar va h.k. Ikki millatli mamlakatlarga Kanada, Belgiya. Ko'p millatli davlatlarga federativ davlatlar kiradi. Bunday mamlakatlarda milliy nizo va munosabatlar murakkab bo'ladi. Masalan: Rossiya, sobiq YUFSR, JAR, Hindiston, Indoneziya va h.k.

Dunyo aholisi diniy tarkibiga ko'ra 3 ta jahon diniga va bir necha milliy dinlarga bo'linadi:

1. Xristian dini 3 mazhabga: katolik, protestant va pravoslavga bo'linadi. 1 mlrd. kishi e'tiqod qiladi. Markazi-Vatikan.

2. Islom dini. 1mlrd. ga yaqin kishi e'tiqod qiladi. Asosan Osiyo, Shimoliy va Sharqiy Afrika davlatlarida tarqalgan. Markazi-Makka.

3. Budda dini Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda. 250 mln kishi e'tiqod qiladi.

Milliy dinlarga: Hindistonda induizm, Xitoyda konfutsianlik va daosizm, Yaponiyada sintoizm, Mongoliyada lamachilik (shuning uchun aholi o'smayapti, har 2 bolaning biri monax, barcha erkak aholining 40% i monarx). Agar lamachilik bo'lmaganda Mongoliya aholisi 10 mln kishiga yetar edi.

Din aholini ko'payishiga ham ta'sir etadi. Masalan: Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida erkaklarga 14 yoshdan, ayollarga 12 yoshdan nikoh qurish diniy ruxsat etilgan. Ular katoliklar mazhabiga kiradi.

Jahon dinlarining muqaddas joylari:

Xristian dinining katolik mazxabi uchun – Vatikan, Xristian, musulmon va iudaistlarning muqaddas sajdagohi – Yerusalim, musulmonlarning muqaddas sajdagohi – Makka va Madina, Buddistlarning muqaddas sajdagohi – Lumbin (Nepal), Induistlarning muqaddas markazi – Baranas (Varanasi) va Ganga, Daosistlarning muqaddas sajdagohi – Pekin kabi joylar hisoblanadi. Lamachilarning diniy markazi – Lxasa (Xitoy).

Mavzu: Jahon xo'jaligi geografiyasi.

Jahon xo'jaligi insoniyatning butun tarixi davomida shakllangan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Yevropa va Osiyodan keyin yer kurrasining boshqa qit'alari ham xalqaro savdoga jalb etildi. Qit'alar o'rtasidagi mahsulotlar almashinishi jahon bozorining paydo bo'lishiga olib keldi. Transportning rivojlanishi bu bozorning bundan keyingi rivojlanishiga yordam berdi. Dengiz transporti barcha qit'alarni bir-biri bilan bog'laydi. XIX asrning 2 yarmidan boshlab temir yo'llarining uzunligi keskin oshib bordi.

Jahon xo'jaligining shakllanishida mashinalashgan yirik sanoat asosiy omil bo'ldi. Mashinalashgan yirik sanoat XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Yevropaning bir qator davlatlari va AQSH da sanoat inqilobidan keyin vujudga keldi. Jahon xo'jaligi XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida mashinalashgan yirik sanoat, transport va jahon bozorining rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlarni butun jahon iqtisodiy munosabatlar orqali bir-biri bilan bog'lovchi uyg'unlikdir.

Jahon iqtisodiyotidagi yalpi mahsulotning 64 % i noishlab chiqarish sohasiga, 32 % i sanoatga, 4 % i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi (XXI-asr boshida).

Jahon eksport mahsulotlarini 100 % deb olsak, uning 10 % i AQSH ga, 9 % i GFR ga, 8 % i Xitoyga, 6% i Yaponiyaga, 5 % i Fransiyaga, 4 % i Buyuk Britaniyaga, qolgan 58 % i boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi (2005 y).

Jahon xo'jaligining geografik modeli tobora murakkablashib boradi. XIX asrning oxirlariga qadar hamma ko'rsatkichlariga ko'ra bitta markaz - Yevropa ustun turar edi. I.A.Vitver bu davrni Yevropa – markaz davrida deb atagan. Keyinchalik 2-markaz – AQSH paydo bo'ldi. U tezda asosiy markazlardan biri bo'lib kelmoqda.

Jahon xo'jaligidagi eng yirik kreditor davlatlar: AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA hamda G'arbiy Yevropa davlatlari. Qolgan deyarli barcha mamlakatlar qarzdor davlatlar hisoblanadi.

2 ta jahon urushi oralig'ida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan yangi markazlar – sobiq SSSR va Yaponiya vujudga keldi. II - jahon urushidan keyin Xitoy, Hindiston, Janubi-G'arbiy Osiyodagi neft qazib chiqaruvchi mamlakatlar guruhi, Kanada, Avstraliya, Braziliya kabi markazlar vujudga kela boshladi. Keyingi 20 yil mobaynida 4 ta “Osiyo yo'lbarisi” boshchiligidagi yangi industrial davlatlar jahonga tanildi. Bular natijasida Osiyo Tinch okeani regionining jahon xo'jaligidagi mavqei yanada o'sdi. Shunday qilib hozirgi vaqtda jahon xo'jaligining geografik modeli ko'p markazlilik hususiyatiga ega bo'ldi.

Jahon xo'jaligi ichidagi o'zaro munosabatlar yaqin vaqtlargacha 4 ta qutb – kapitalistik g'arb, sotsialistik sharq, “boy” shimol va “kambag'al” janubning bo'lishi bilan belgilanar edi.

Jahondagi eng yirik oltin va chet el valyuta zaxiralariga ega bo'lgan davlatlar: AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Shvesariya, Italiya, Xitoy, Singapur, Braziliya.

Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligining ichki asosiy qarama qarshiligi “Shimol” bilan “Janub”ning yoki markaz bilan chekkaning qarama-qarshiligi orasidagi farqdir. Masalan: 90 yillari jahon xo'jaligining butun chekka joylariga jahon YAIM ning va sanoat mahsulotining 15 % , qishloq xo'jalik mahsulotining 30% i to'g'ri kelgan. YAIM aholi jon boshiga hisoblanganda, bu mamlakatlarda 1000 dollardan kam bo'lmagani holda, G'arbnig iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida 14000 dollardan ortiq bo'lgan.

Jahon bo'yicha YAIM ni 100 % deb olsak, shuning 21,2 % i AQSH ga, 11,8 % i Xitoyga, 7,3 % i Yaponiyaga, 5,5 % i Hindistonga, 4,5 % i GFR ga, qogani boshqa davlatlarga to'g'ri keladi (2005 y).


YAIM si sotib olish pariteti aholi jon boshiga 30 000 AQSH dollaridan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga: Lyuksemburg (58 900 \$), AQSH, Kanada, Yaponiya, Norvegiya, Finlandiya, Daniya, Islandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsariya, Avstriya, Avstraliya (2006 y) kabi davlatlarni kiritish mumkin.

YAIM si sotib olish pariteti aholi jon boshiga 500 AQSH dollaridan kam bo'lgan mamlakatlar: G'arbiy Sahroi Kabir (2006 y).

Shu sababli jahon xo'jaligining “geografik modeli”ni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi jahon xo'jaligi “chekka qismi”ni rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Jahon xo'jaligining rivojlanishi quyidagicha: AQSH, Kanada, MDH, Yaponiya va Xorijiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida iqtisodiy o'sish pasaygan. Masalan, XX- asr oxirida iqtisodiy o'sish Tojikiston, Ukraina, Moldaviya kabi davlatlarda yiliga 8 % ni tashkil etadi. Aksincha, Xorijiy Osiyo davlatlari va Lotin Amerikasi mamlakatlarida yillik iqtisodiy o'sish ko'tarildi. Masalan, Xitoy iqtisodiyoti yiliga 10 %, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari 7 %, Hindiston xo'jaligi 6 % ga o'smoqda.

Jahonda mahsulot eksporti bo'yicha yetakchi davlatlar ulushi



Mavzu: Fan-texnika inqilobi.

Insoniyat madaniyatining butun rivojlanishi fan-texnika taraqqiyoti (F.T.I.) bilan qattiq bog'langan. Lekin bu taraqqiyot jarayonida ishlab chiqarish kuchlari tez va chuqur o'zgargan ayrim davrlar ham bo'lgan. XVIII-XX asrlarda bir qancha mamlakatlarda sanoatda keskin burilish bo'lgan davr ana shunday davrlardir. Bu davrlarda qo'l mehnati yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tildi. XX asrning o'rtalaridan boshlangan hozirgi FTI ham shunday keskin burilish davridir.

FTI insoniyat ishlab chiqarish kuchlarida tub sifatli burilish bo'lib, u fanni jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishiga asoslangan.

FTI asta-sekin rivojlana borib, keyin insonning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarining benihoya o'sishiga turtki bo'ladi. Biz FTI yanada chuqurlashib borayotgan davrda yashayapmiz. Hozirgi zamon FTI 4 ta asosiy hususiyatga ega:

Birinchidan, ko'p qirrali bo'lib, hamma tarmoqlar, hamma sohalarini mehnat jarayonini, turmush sharoitini, madaniyatini, kishilar ruhiyatini o'zgartiradi. Agar ilgari sanoatda burilishning ramzi deb bug' mashinasi hisoblangan bo'lsa, hozirgi FTI ning ramzi EHM, kosmik kema, samolyot, AES, televizor, telefon, mini kompyuterlar bo'lishi mumkin.

Hozirgi FTI ning ko'p qirrali ekanini geografik jihatdan har tomonlama izohlash mumkin. Chunki FTI dunyoning barcha mamlakatlariga, yerning butun geografik qobig'iga, shuningdek koinotga ham ozmi-ko'pmi ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan fan-texnika qayta qurishni nihoyatda tezlashtirib yubordi. Bu tezlanish ilmiy kashfiyot bilan uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish o'rtasidagi vaqtning keskin qisqarganida mahsulotlarning juda tez ma'naviy eskirib qolishida va binobarin, muntazam yangilanib turishida o'z ifodasini topdi.

Uchinchidan, insonning ishlab chiqarishdagi o'rnining tubdan o'zgarishiga olib keldi. FTI mehnat resurslari malakasi darajasiga talabni keskin oshirdi. Bu talab sizlarning har biringiz uchun ham zarurdir. Bu hol inson faoliyati barcha sohalarida aqliy mehnat salmog'ini oshirdi, ya'ni mehnatni aqliylashtirish ro'y berdi.

To'rtinchidan, FTI ning muhim hususiyati shuki, FTI II-jahon urushi vaqtida harbiy texnika inqilobi sifatida paydo bo'ldi. 1945 yil Xirosimada portlagan atom bombasi harbiy-texnika inqilobi boshlanganligi haqida jar soldi. Butun "sovuq urush" davomida fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari harbiy maqsadlarda foydalanishga qaratildi.

Iqtisodchilar, faylasuflar va sotsiologlar hozirgi zamon FTI ko'p qirrali bo'lib, yagona murakkab tizimdan iborat. Bu tizimda uning 4 ta tarkibiy qismi bir-biri bilan o'zaro juda bog'lanib ketgan, deb hisoblaydilar. Bu 4 ta tarkibiy qism:

- 1.Fan
- 2.Texnika va texnologiya.
3. Boshqaruv.
4. Ishlab chiqarish.

Fan va talab tarmoqlarning rivojlanishi.

FTI davrida fan bilimlarning juda murakkab majmuasiga aylandi. Shu bilan birga ilm-fan inson faoliyatining juda keng sohasiga aylandi.; jahondagi ilmiy hodimlar soni 5,5 mln. ga yaqin, ya'ni yer yuzida yashagan barcha ilmiy hodimlarning 9/10 qismi bizning davrimizda yashamoqda. Fanning ishlab chiqarish bilan aloqalari juda o'sdi, ishlab chiqarish tobora ko'proq fantalab bo'lib bormoqda. Lekin bunda rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar orasidagi farqlar juda katta.

Masalan: Butun jahonda bajariladigan ilmiy ishlarning 4/5 qismi 10 ta rivojlangan mamlakatga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlarda YAIMning 2-3 %i fanga sarflanadi. Hamma rivojlanayotgan mamlakatlarga esa jahondagi fanga qilinadigan harajatning 4-5%i to'g'ri keladi.

Texnika va texnologiya: taraqqiyotning 2 yo'li. Texnika va texnologiya ilm va kashfiyotni o'zida mujassamlashtiradi. Yangi texnika va texnologiyadan foydalanishdan maqsad ishlab chiqarish samarasini, mehnat unumdorligini oshirishdir.

Jami eksport mahsulotining Malayziyada 50 % ini, Yaponiya va Koreya Respublikasida 38 % ini, AQSH da 31 % ini yuksak texnologiya buyumlari tashkil etadi (2005 y.).

Keyingi yillarda texnika va texnologiyaning asosiy vazifasi bo'lgan mehnatni iqtisod qilish bilan birga resurslarni iqtisod qilish va tabiatni muhofaza etish vazifalari tobora kuchayib bormoqda. Masalan: Buyuk Britaniya va Italiyada po'latni 2/3 qismi temir-tersakdan olinadi. Buyuk Britaniya bilan Yaponiyada qog'ozning 1/2 qismi makulaturadan iborat, AQSH va Yaponiyada alyuminiyning katta qismi ikkilamchi alyuminiydan olinadi. FTI sharoitida texnika va texnologiyaning rivojlanishi ikki yo'nalishdan iborat:

1.Evolyutsion (mukammallashish) taraqqiyot yo'li. Bunda mavjud texnika va texnologiya tobora mukammallashib, mashina va jihozlar quvvati oshib, transport vositalarining yuk ko'tarish qobiliyati ko'payib boradi. Masalan: Dunyodagi eng yirik energiya bloklari va domna pechlari Rossiya bilan Yaponiyada, Kostroma GRESida quvvati 1,2mln. kVtli energiya bloki ishlab turibdi.

50 yillar boshida eng katta dengiz tankeri 50ming t. Neftni tashiy olardi. 60- yillarga kelib yuk ko'tarish qobiliyati 100,200,300 ming t. 70 yillarga kelib 500,550 ming t. Bo'lgan ulkan tankerlar vujudga keldi. Bulardan eng yirigi Yaponiya va Fransiyada qurildi.

Hozirgi zamondagi jamiyat hayotini uy-ro'zg'orda ishlatiladigan elektron asboblarsiz tasavvur qilish qiyin. Tranzistor, radiopriyomniklar, televizor, magnitafon, personal EHM, elektron soatlar, elektron o'yinlar tobora keng tarqalmoqda. FTI davridagi texnika va texnologiya taraqqiyotining asosiy inqilobiy yo'li.

FTI davrida ishlab chiqarish 6 ta asosiy yo'nalishda rivojlandi.

1. Elektronlashtirish, ya'ni inson faoliyatining barcha sohalarini elektron hisoblash texnikasi bilan to'ldirish. Elektronlashtirish tufayli ko'p ishlab chiqarish jarayonlari butunlay o'zgaradi. Elektronlashtirish ta'lim sog'liqni saqlash maishiy, uy-ro'zg'or ishlariga tobora ko'proq singib bormoqda. Hozirgi vaqtda elektron jihozlar ishlab chiqarish sanoatning ilm-fanga talabi kuchli bo'lgan asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib qoldi. EHM, AQSH, GFR va Yaponiyada juda yaxshi rivojlangan.

2. Kompleks avtomatlashtirish. 50 yillarda EHM paydo bo'lishi bilan kompleks avtomatlashtirish boshlandi. 70 yillarda mikro EHM va mikroressiya paydo bo'lishi bilan kompleks avtomatlashtirishni yangi bosqichi boshlandi. Chex yozuvchisi K.Chapek 20 yillardayoq mikroprossessorlarni robotlar deb atagan.

Hozirgi vaqtda robot yasash ishlab chiqarishning ilm-fanni talab qiladigan eng yangi tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. Horijiy dunyoda sanoat robotlari eng ko'p bo'lgan mamlakatlar Yaponiya, AQSH va Germaniya, Italiya va Fransiyadir.

3. Energetika xo'jaligini qayta qurish. Energiya xo'jaligi energiyani iqtisod qilishga yoqilg'i energetika balansi tarkibini mukammallashtirishga energiyaning yangi manbaalaridan tobora ko'proq foydalanishga asoslanadigan bo'ldi.

4. Yangi materiallar ishlab chiqarish. Hozirgi kunda ishlab chiqarish eski konstruktiv materiallar bo'lgan qora va rangli metallarga, sintetik polimerlarga yuqori talab qo'yadi. Bunday materiallar salmog'i oshdi. Lekin hozirgi ishlab chiqarish tamoili yangi kompozitsion yarim o'tkazgich, sopol materiallar, shaffof tolalar, shuningdek, "XX asr metallari" hisoblangan berilliy, litiy, titan va boshqa ko'pgina metallar ishlatiladigan bo'ldi.

5. Biotexnologiyaning jadal rivojlanishi. Bu yo'nalish 70 yilda paydo bo'ldi. Hozirda eng istiqbolli sohaga aylanib qoldi. FTIning ilm-fanni eng ko'p talab qiladigan yangi tarmoqlaridan bo'lgan biotexnologiya va biosanoat ham AQSH, Yaponiya, GFR hamda Fransiyada rivojlanmoqda.

6. Kosmosning o'zlashtirilishi.

Boshqarish yuqori axborot madaniyat yo'lida. FTIning hozirgi bosqichi boshqarishga yangi talablar qo'yadi. Eskichasiga nazar solib boshqarish endi mumkin emas. Informatika kursidan sizga ma'lumki, amaliyot talabiga javob tariqasida boshqarish haqidagi yangi fan-kibernetika vujudga keldi. Kibernetika shu bilan birga axborot haqidagi fan ham hisoblanadi.

Biz hozir axborot davrida yashayapmiz. Akademik A.P.Sherшов ta'biri bilan aytganda axborotlarni qayta ishlash va uzatishning hozirgi sistemalari insoniyat jamiyatining o'ziga xos asab sistemasini shakllantiradi. Chunonchi, ilm-fan talab ko'p tarmoqlar yaxshi tashkil etilgan va turli xil axborotlar manbaiga yaqin yerga, ya'ni yirik shaharlar hamda shahar aglomeratsiyalarda joylashtirishni taqozo qiladi.

Hozirgi vaqtda ilmiy axborotlar hajmi va axborot manbalari juda tez ko'payib bormoqda. Shuning uchun ham oddiy qog'ozli axborotdan mashina axborotiga o'tib borish juda muhimdir. Masalan: yozuv mashinkasi va kompyuter diski. Bu texnikani

ishlatish uchun dasturchi (programmist), boshqaruvchi (operator) va boshqa mutaxassislar vujudga keladi.

XXI asrni Buyuk Britaniya mutaxasislari “sotnik” telefonlar davri bo’ladi, 500 yil xizmat qilgan gazeta sinadi deb jar solmoqda.

Mavzu: FTIning jahon xo’jaligiga ta’siri.

XX-asrda jahon xo’jaligining o’sish sur’ati yuqori bo’ldi. Asrimizning dastlabki uch choragi davomida jahon iqtisodiy imkoniyati taxminan 10 hissa ko’paydi. Binobarin 70 yillar o’rtasida jahon iqtisodiy imkoniyatining 9/10 qismi bizning asrimiz yutuqlari natijasida, 1/10 qismi esa insoniyatning asrimizgacha butun tarixi davomidagi yutuqlari natijasi bo’ldi. FTI jahon iqtisodiy taraqqiyoti sur’atini yana ham kuchaytirdi.

FTI yutuqlaridan g’arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari eng yuqori darajada foydalana oladilar. Ular FTI yutuqlarini fan-texnika taraqqiyotining asosiy xizmatchisiga aylantirdilar. Bu mamlakatlar butun ishlab chiqarishni yangi texnika va xom-ashyoni iqtisod qilishga kirishdilar. Buni ko’pincha qayta industriyalashtirish yoki 3-sanoat inqilobi deb atashadi.

Bunday qayta industriyalashtirish davlatning faol yordami bilan amalga oshyapti. Davlat ko’p korxonalarining va xatto butun tarmoqlarning egasi, shuningdek bosh buyurtmachi va mehnat natijasi (ilm-fan, harbiy ishlab chiqarish)ning iste’molchisi hamdir. Davlat kapital qo’yadi, kadrlar tayyorlaydi, iqtisodiyotni rivojlantirishning har xil dasturlari, shu jumladan, regional dasturlari yordamida uni boshqaradi.

Qayta sanoatlashtirishda monopoliyalarning ta’siri juda kattadir. Ko’p monopoliyalar xalqaro monopoliyalarga aylanib ketdi. Shunday monopoliyalarning asosiy shakli xalqaro korporatsiyalardir. Xalqaro korporatsiyalarning umumiy soni minglab, o’n minglab hisoblanadi. Lekin asosiy tizgin 400-500 ta multimilliarder korporatsiya qo’lidadir. Ana shunday qilib, jahon xo’jaligining o’ziga xos “xalqarolashuvi” ro’y bermoqda. Lekin shu bilan birga g’arb mamlakatlarida millionlab mayda kompaniyalar ham mavjud.

G’arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari hozirgi zamon texnika va texnologiyasiga, fan va ishlab chiqarishning tub mohiyati bilan yangi o’zaro aloqalariga tayangan holda aholisining ko’pchilik qismi hayot sharoitini nisbatan yuqori darajaga ko’tarilishiga muvaffaq bo’ldi. Lekin shunga qaramasdan bu mamlakatlarda ham ishlab chiqarishda ayrim pasayishlar va xatto tanazzullar, ishsizliklar, inflyatsiya va boshqa sotsial inqirozlar bo’lib turadi.

Tashqi savdo hajmi 100 mlrd AQSH dollaridan yuqori bo’lgan davlatlar: AQSH, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Xitoy.

Sanoatlashish yo’lidan borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat 2-jahon urushiga qadar o’tgan vaqtdagidan 2-3 marta tezroq o’smoqda, xatto g’arb mamlakatlaridan ham tezroq rivojlanmoqda. Shunga xos ravishda ishlab chiqarish darajasi ham o’sdi. Shu bilan birga hali o’nlab zaif rivojlangan mamlakatlar borki, ularning ko’pi sanoatlashishgacha bo’lgan darajasiga ham ko’tarilgani yo’q.

FTIning jahon xo’jaligi asosiy tarmoqlariga ta’siri: industrial jamiyatdan industrial xo’jalik orti jamiyatiga. Jahon xo’jaligida XVII-XIX asrlardagi sanoat to’ntarishigacha

agrar tuzilishi yakka xukmron edi. Unda moddiy boylikning asosiy manbai qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq tarmoqlar bo'lgan. XIX asrning 2-yarmi va XX asrning 1-yarmida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar xo'jaligida sanoat yetakchi o'rin tutgan industrial tuzilishi tarkib topdi. Mana shu bosqichda jahonda FTI davri boshlandi. FTI jahon xo'jaligi asosiy tarmoqlariga juda katta ta'sir ko'rsatdi va hozir ham ta'sir ko'rsatmoqda. Uning ta'sirida jahon xo'jaligining tubdan yangi tuzilishi, industrial xo'jalik orti deb ataluvchi (yoki axborotli) tuzilishi shakllana boshladi.

Xo'jalikning industrial xo'jalik orti tuzilishi uchun dastavval moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishlar o'rtasidagi nisbatning nomoddiy ishlab chiqarish foydasiga o'zgarishi xosdir. Bunda sanoat salmog'ining o'sishi jarayoni o'rniga uning qisqarish jarayoni ro'y beradi. Shundan so'ng sanoatda va umuman moddiy ishlab chiqarishda qisqarish ro'y berdi. Shu bilan bir vaqtda xizmat ko'rsatish, fan, ta'lim, madaniyat sohalarining o'sishi bo'ladi. Masalan: Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida band kishilar sonining moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan kishilardan ortib ketgan 1-mamlakat AQSH hisoblangan. Bu xol 1955 yilda ro'y berdi. Hozirgi vaqtda ham nomoddiy ishlab chiqarish sohasida band kishilarning salmog'i jihatidan AQSH birinchilikni saqlab qolmoqda.

FTIning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'siri: ijobiy siljishlar. FTI moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida katta siljishlarga olib keldi. Butun dunyoda moddiy ishlab chiqarishda 1,5 mlrd.kishi band(siljishlar dastavval sanoat bilan qishloq xo'jaligi orasidagi nisbatning sanoat foydasiga o'zgarishida o'z aksini topdi). Sanoatda ishlov beruvchi tarmoqlar tez o'smoqda, hozirda butun sanoat mahsulotining 1/10 qismi moddiy ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Bu tarmoqlar tarkibida ilg'or uchlik-mashinasozlik, kimyo va energetika ajralib turadi.

BMT tasnifiga ko'ra hozirda sanoatning 300dan ortiq tarmoqlari bo'lib, ular 2 guruhga bo'linadi: 1 - unduruvchi, 2 - qayta ishlovchi. Jahon unduruvchi sanoat mahsulotlarini 100% deb olsak, uning 70 % ini yoqilg'ilar, 20 % ini metallar, 10 % ini boshqa xom-ashyolar tashkil etadi (2005 y).

Jahon qayta ishlovchi sanoati tarmoqlari 100 dan ortiq bo'lib, ularni 100 % deb olsak, 32 % i mashinasozlikka, 19 % i yengil sanoatga, 15 % ini oziq-ovqat sanoati, 12 % ini yog'ochni qayta ishlash sellyuloza qog'oz, 22 % ini boshqa tarmoqlar tashkil etadi. (2005 y).

Jahon qayta ishlovchi sanoat mahsulotini 100 % deb olsak, uning 22, 5% i AQSH ga, 21 % i Yaponiyaga, 10 % i GFR ga, 5 % i Fransiyaga, 5 % i Xitoyga, 37 % i qolgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. (2005 y).

Hozirda sanoat tarmoqlarida komplekslashish xosdir, ya'ni turli xil tarmoqlarning birlashib tarmoqlararo komplekslarni hosil qilishidir.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi o'zgarishlar sekinroq ro'y beradi. Qishloq xo'jaligida chorvachilikni salmog'i ortmoqda.

FTI transportning ayrim turlari o'rtasidagi "mehnat taqsimotiga" katta o'zgarishlar kiritdi. Temir yo'l transportini ahamiyati umuman kamaydi. U o'z ahamiyatini sanoat va qishloq xo'jaligining ko'p miqdordagi yuklarini tashishda, yo'lovchilarni o'rtacha masofalarga tashishda saqlab qolmoqda, shahar ichida tashishda ham.

Avtomobil transporti shahar ichida va shaharlar atrofida yo'lovchi tashishda birinchi o'rinda turadi.

Dengiz transporti xalqaro savdoning katta qismini ta'minlaydi. Masalan: neft, ruda, g'alla, sanoat mahsulotlari va h.k. Lekin yo'lovchilar tashishda amalda ishtirok etmaydi.(sayohatchilarni hisobga olmaganda).

Havo transporti yo'lovchilarni o'rtacha va uzoq masofalarga tashishda katta ahamiyatga ega. FTIning xo'jalikning hududiy joylashtirilishiga ta'sir etuvchi omillari:

1.Hududiy omil.Hudud jamiyat geografik muhitining muhim qismlaridan biridir. Hudud qancha katta bo'lsa, tabiiy resurslari shuncha boy, xilma-xil bo'ladi. Aholi va ishlab chiqarishni joylashtirishning turli xil variantlari shuncha ko'p bo'ladi. Masalan: Rossiya, AQSH, Kanada. Ularda hudud kattaligi sababli iqtisodiy zona, rayon, hudud. Aksincha kichik mamlakatlarda hudud "yetishmasligi" kuzatiladi.

2.Iqtisodiy geografik o'rin omili(IGO'). IGO' tushunchasini fanga N.N.Baranskiy to'liq asoslab kiritdi. U IGO'ning asosiy 4 xilini ajratib ko'rsatgan:

- 1) markaziy o'rin;
- 2) ichkarida (chekkada) joylashishi;
- 3) qo'shni joylashish;
- 4) dengiz bo'yida joylashish.

Dengiz bo'yida joylashganlik (Arktika dengizlaridan tashqari) hamma vaqt qulay IGO' bo'lgan, ayniqsa, FTI davrida aholi va sanoatning dengiz bo'yiga ko'chishi birinchi galda chetdan keltiriladigan xom-ashyo va yoqilg'iga intilish sabab bo'ldi.

N.N.Baranskiy fikricha mamlakat o'z IGO'ni tuzatishi va yaxshilashi mumkin. Masalan: Panama kanali, Suvaysh kanali, Volga, Don, Reyn-Rur kanallari kabilarni qazilishi, AQSHda transkontinental temir yo'lining qurilishi, Transamazoniya magistrali, BAM kabilar.

3.Tabiiy sharoit-resurslar omili. Tabiiy resurslardan foydali qazilmalar, birinchi galda og'ir sanoatni joylashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan: qora metallurgiya sanoati toshko'mir va temir ruda konlariga yaqin joylashtirilar edi. Undiruvchi sanoat uchun tabiiy resurslar omili asosiy omil bo'lib qoldi. Dunyoning shimoliy hududlarida katta maydonlarda (20 mln.km²) o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirilishiga FTI sabab bo'ldi. Masalan: materik sayozliklarini o'zlashtirish 90-yillarga kelib, "dengiz nefti"ni qazib olish butun jahonda qazib olinadigan neftning 1/4 qismini, "dengiz gazi"ni qazib olishning 1/5 qismiga yetdi. Neft va tabiiy gaz qazib olishning asosiy rayonlari-Shimoliy dengiz, Fors ko'rfazi va Meksika qo'ltig'idir. Bular FTI yutuqlari natijasidir.

Materik sayozliklarini o'zlashtirilishiga katta mablag' sarflanadi va atrof-muhitni ifloslanib ketishi xavfi kuchayadi.

4.Transport omili. FTI davriga qadar bu omil ishlab chiqarishni joylashtirishga deyarli hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar edi. Transport vositalarini takomillashtirilishi transport xarajatlarini ancha kamaytirishga olib keldi. Transport inqilobi sanoat mahsulotlarini minglab km. atrofga chiqarishga, aholining siljib yurishini kuchaytirishga, ishlab chiqarishni dengiz bo'yiga siljishiga, tabiiy resurslarni tashib borishga, ya'ni hududlarni o'zlashtirishga va ishlab chiqarish bilan iste'molchi orasidagi ajralishni yo'qotadi. Masalan: BAM, Transamazoniya.

5. Mehnat resurslari omili. Ishlab chiqarishni joylashtirishga va xo'jalikning hududiy tarkibiga hamma vaqt ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatadi.

Mehnat resurslari omili ta'siri 2xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1.Sanoatga, noishlab chiqarish sohasiga boshqa joylardan qo'shimcha ishchi kuchi jalb qilinadi.

2.Ishlab chiqarishni mehnat resurslari to'plangan joylarga ko'chirish foydaliroq bo'ladi.

Masalan: G'arbiy Yevropa, AQSH qo'shimcha mehnat resurslarini o'ziga tortib oladigan asosiy markazlar. Masalan: Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyoning arzon ishchi kuchlari Horijiy Yevropa, AQSH, Yaponiya sanoatining ko'p mehnat talab qiladigan sohalarini o'ziga tortib oladigan asosiy markazlar, ya'ni qo'shimcha korxonalar. FTI davrida arzon ishchi kuchiga ayniqsa ayollar mehnatiga intilish saqlanib qoladi.

6.Hududiy to'planish omili. Ishlab chiqarish korxonalarining hududiy to'planishi katta samara beradi. Sanoat tugunlari, transport tugunlari va h.k. Bunda eski sanoat hududlarini mavqei katta, ular poytaxt, ko'mir havzalarini roli yuqori bo'lib, allaqachon to'planish omili ro'y bergan. Butun jahon sanoat ishlab chiqarishning 3/ 4 qismi shunday joylarda to'plangan. Lekin bu salbiy oqibatlariga-ekologiyaning buzilishiga olib keladi. Shu sababli FTI davri uchun ishlab chiqarishning tarqoqlanishi, mitti (mini) zavodlar qurilishi xos.

Mavzu: Jahon qora va rangdor metallurgiya sanoati.

Jahon qora metallurgiya sanoati 1,5 asr mobaynida (keyingi) toshko'mir havzalariga tayanib rivojlandi. AQSH, Horijiy Yevropa.

Rossiya metallurgiya markazlari ana shunday vujudga keldi. O'ziga jalb qilish bo'yicha 2-o'rinda temir ruda havzalari turadi. Jahonda hozirda 50 mamlakatda temir qazib olinadi. Lekin bir necha mamlakatlarda eritiladi xolos.

Avvaliga metallurgiyaning kokslanadigan ko'mir va temir keltirishga tayanishi sababli qora metallurgiya korxonalarini dengiz portlariga yaqinlashib borgan. Masalan: Yaponiya, Horijiy Yevropa qisman AQSHda. Keyingi vaqtlarda iste'molchilarga tayanish ayniqsa kuchaydi. Natijada yirik metallurgiya korxonalaridan kichik zavodlar qurishga o'tila boshlandi. Ularni erkin joylashtirish mumkin.

Asrimizning 50-60 yillari butun qora metallurgiya sanoati iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'plangan edi. Lekin keyingi vaqtlarda Braziliya, Koreya, Hindiston kabi mamlakatlarda ham temir eritish rivojlangan davlatlar darajasiga etdi va ba'zan o'zib ketdi.

Jahonda temir rudasi asosan yer po'stining seysmik mintaqalarida va platforma yoriqlarida uchraydi. Jahonda yiliga 1,1 mlrd t. temir rudasi qazib olinadi (2006 y).

Temir rudasi zapasi bo'yicha yetakchi davlatlar:

- | | |
|---------------------------|--------------------------|
| 1.MDH-146 mlrd.t. | 4.Kanada-25,3 mlrd.t. |
| 2.Braziliya-49,3 mlrd.t. | 5.AQSH-25 mlrd.t. |
| 3.Avstraliya-45,4 mlrd.t. | 6.Hindiston-19,3 mlrd.t. |

Temir rudasi qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlar (1994 yil mln.t.).

- | | |
|--------------------|----------------|
| 1.Xitoy-229 | 6.Hindiston-57 |
| 2.Braziliya-166 | 7.Kanada-36 |
| 3.Avstraliya-128,7 | 8.JAR-32 |
| 4.Rossiya-68 | 9.Shvetsiya-20 |

5.AQSH-58

10.Venesuela-16

Temir rudasining asosiy eksportchilar: Avstraliya, Braziliya, Kanada, Hindiston.

Temir rudasining asosiy importchilari: Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Koreya Respublikasi. Masalan: barcha ishlatiladigan temirni Yaponiyada 100%, Germaniyada 90%, Buyuk Britaniyada 66% chetdan keltiriladi.

Po'lat eritishda yetakchi mamlakatlar (mln.t.2006y.):

1 Xitoy-220.,	6.Germaniya-45
2. Yaponiya-110	7.Ukraina-37
3.AQSH-94	8.Hindiston-32.
4.Rossiya-63	9.Braziliya-31
5.Koreya-46	10.Italiya-27

Mazkur birinchi o'nlik davlatlariga dunyoda eritilayotgan jami po'latning 72, 6 % i to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga cho'yan-po'lat eritish jihatidan 1-o'rinda Lyuksemburg turadi. 1 kishiga 10t.

Po'latning asosiy eksportchilari: Yaponiya, GFR, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Rossiya, Ukraina.

Importchilari: AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Saudiya Arabistoni.

Jahonda yiliga 970 mln.t. dan ortiq po'lat eritiladi.

Prokat bu-quvur, ramalar, listlar, ugolnik, shviller, armatura, prut kabilar.

Qora metallurgiya sanoatining harakterli xususiyati:

1970 yillarga nisbatan deyarli barcha mamlakatlarda cho'yan, po'lat eritish kamayib bormoqda. Masalan: AQSH 1970 yil 122 mln.t. 1990yil 90 mln.t.;

Buyuk Britaniya 1970yil 28 mln.t., 1990yil 18 mln.t.

Rangdor metallurgiya o'zida rangli metallarni qazib chiqarish, boyitish, eritish va qotishmalar ishlab chiqarishni birlashtiradi. Rangdor metallurgiya ishlab chiqarish ko'lamiga ko'ra qora metallurgiyadan 20 hissa orqadadir. Rangdor metallurgiya FTI davrida elektrlashtirish, atom texnikasi, aviatsiya, raketsozlik, mikrotexnika, ximiya sanoati uchun katta ahamiyatga ega. Rangdor metallurgiya qimmatli xususiyatlarga ega. Ularning ba'zilar (qalayi, nikel, qo'rg'oshin) korroziyaga chidamli, issiqqa bardoshli (titan), elektr tokini yaxshi o'tkazadi (Al, Cu, Ag). Rangdor metallurgiya sanoatida Al eritish birinchi o'rinda, Cu eritish esa ikkinchi o'rinda turadi.

Rangdor metallurgiya quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1.Og'ir metallar: mis, qalayi, qo'rg'oshin, rux, nikel. Tarkibida yengil metall rudalariga nisbatan metallning kam bo'lishi bilan farq qiladi. Masalan: 1t. Cu olish uchun 100 t. ruda, 1 t.qalayi olish uchun 300t. ruda kerak bo'ladi. Rudalar boyitiladi. Og'ir rangdor metallurgiya rudalarining yana bir xususiyati ularning kompleks ekanligidir. Masalan: Norilsk (Rossiya) mis-nikel kombinatida 14 xil mahsulot olinadi. Energiyani ko'p talab etmasligi va konsentratda misning kam bo'lishi (10-35%) mis zavodlarini xom-ashyoga yaqin qurilishini taqozo etadi.

Qo'rg'oshin, rux konsentratlari tarkibida metall ko'p bo'ladi. Shuning uchun kombinatlar energiya ko'p joylarga quriladi. Og'ir metallardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Masalan: misdan sof holda, qalayi bilan (bronza), nikel bilan (melxior), Al bilan (durAl), rux bilan (latun).

Nikelning asosiy qismi (80%i) qora metallurgiyada ishlatiladi (ligerlovchi metall). Qalayidan oq tunuka va podshipniklar qilishda ishlatiladi.

2.Yengil metallar: Al, magniy, titan. Ko'p energiya talab qiladi. Al-eng ko'p tarqalgan metallidir. Xom-ashyosi boksitlar, nefelinlar, alunitlar, glinozyom, kaolin loyi. 1t. Al olish uchun 20000 kVt soat energiya kerak. Shu sababli Al zavodlari ko'proq GESlar yoniga quriladi. Tursunzoda.

Titan-pishiq, kislotalarga chidamli, yuqori temperaturada eriydi, magnit xususiyati yo'q, shuning uchun reaktiv dvigatellar, yadro reaktorlari, kemasozlik va harbiy texnikalarda keng qo'llaniladi. Ko'p energiya talab.

Jahonda yiliga 25 mln.t. dan ortiq alyuminiy, 15 mln.t.dan ortiq tozalangan mis eritiladi (ishlab chiqariladi).

3.Qimmatbaho metallar: Au,Ag,Pt.

4.Qiyin eruvchi metallar: W,Mo (molibden).

5.Kamyob metallar: uran, Germaniy, tseziy, toriy, strontsiy.

Dunyodagi eng yirik mis sanoati rayoni Markaziy Afrikadagi Mis mintaqasi (Zair, Zambezi oralig'ida). Dunyoda qazib olinadigan Cu ning 1/3 qismi eksport qilinadi. Ularni dengizda tashish o'rtacha masofasi 7000 km.

Mis qazib oluvchilar:KDR, Zambiya, Peru, Chili, Kanada, AQSH, Qozog'iston, Rossiya.

Oluvchilar: AQSH, Horijiy Yevropa, Yaponiya, Braziliya.

Al qazib oluvchilar: Yamayka, Gaiti, Braziliya, Rossiya, Avstraliya, Surinam.

Rangdor metallurgiyaning yirik rayonlari: AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, KDR, Zambiya, Yaponiya.

Rux ishlab chiqarish bo'yicha Kanada, AQSH, Rossiya, Qozog'iston, Peru.

Qo'rg'oshin (svines)- Rossiya, Avstraliya, AQSH, Kanada, Peru, Qozog'iston, Meksika.

Oltin qazib olish 1993 yil t.hisobida:

- | | |
|------------------|----------------------------|
| 1.JAR-614 | 6.Rossiya-150 |
| 2.AQSH-331 | 7.Braziliya-80 |
| 3.Avstraliya-248 | 8.O'zbekiston-75 |
| 4.Xitoy-160 | 9.Papua Yangi Gvineyasi-61 |
| 5.Kanada-153 | 10.Gana-39. |


Mavzu: Jahon energetika sanoati.

Yoqilg'i-energetika jahon xo'jaligining tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib keldi. FTI davrida ham energetika ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda energetika "jahonni boshqaryapti".

Birlamchi energiya boyliklarini (neft, tabiiy gaz, toshko'mir, torf, yonuvchi slanes) jahonda ishlab chiqarish va iste'mol qilish har doim o'sib boradi. Masalan: 1900yilda 1mlrd.t. shartli yoqilg'i qazib chiqarilgan va ishlatilgan bo'lsa, u 1990yilda 10 mlrd.t.ga yetdi. 2000yil taxminan 14 mlrd.t.ga yetadi. Bunday o'sish sur'ati 1970 yillarda juda yuqori bo'ldi va neft buxroni boshlandi. Butun jahonga xos bo'lgan bu yo'nalish hamma joyda bir xil emas. Masalan: AQSH butun birlamchi energiya resurslarining 1/4 qismini iste'mol qilgani holda, 3 mlrd.dan ortiq aholisi bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning hammasi shuncha energiya iste'mol qiladi. Jahonda yiliga har bir kishiga o'rtacha 2t. shartli yoqilg'i to'g'ri kelsa, AQSHda 10 t.rivojlanayotgan davlatlarda 0,7 t. to'g'ri keladi. Kapitalistik dunyodagi barcha energiya resurslarining 40%i AQSH hissasiga to'g'ri keladi.

Jahon energetika sanoati XIXasr-XX-asrning 2-yarmiga qadar ko'mir bosqichi, XX asrning 2-yarmidan 70 yillarga qadar neft-gaz bosqichi, 70 yillardan buyon 3-o'tkinchi davrga asosan tugamaydigan tabiiy resurslardan fodalanishga o'tish (suv,shamol,uran,quyosh) kiradi. Bunga sabab energetika krizisidir. Masalan, jahon bozorida 1 barel neftning narxi 2001-yil 28 AQSH dollaridan 2008-yili 138 AQSH dollarigacha ko'tarildi.

ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH BO'YICHA JAHONDAGI BIRINCHI O'NLIK DAVLATLARI %HISOBIDA



Neft sanoati hozirda katta ahamiyatga ega. Neft jahonning 80 ta mamlakatida qazib chiqariladi.

Jahonda yiliga 3,7 mlrd.t. (2007 y.) neft qazib olingani holda, uning 2 mlrd 339 mln tonnasi ya'ni jahonda qazib olinayotgan neftning 62 % i birinchi o'nlik davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ular: (mln.t. hisobida 2006 yil.)

- | | |
|---|-------------------------|
| 1. Rossiya 459 (umumjahon neftining 13,5 % i) | 6. Eron 170 |
| 2. Saudiya Arabistoni 445 | 7. Norvegiya 160 |
| 3. AQSH 350 | 8. Venesuela 150 |
| 4. Meksika 180 | 9. Kanada 140 |
| 5. Xitoy 170 | 10. Buyuk Britaniya 115 |

Asosiy iste'molchilar: AQSH, Yaponiya, Braziliya, Italiya, Fransiya, Germaniya. Neft sanoatining eng muhim xususiyati neft zaxirasining 4/5 (80%) qismidan ortig'i, qazib chiqarishning 1/2 qismi rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ri kelishidir. Ular asosan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridir. Jahon neft zapasining 2/3 qismi, qazib chiqarishning 1/4 qismini Fors ko'rfazi bo'yiga to'g'ri kelishidir. Jahonda neftning eng yirik havzalari Fors ko'rfazi, G'arbiy Sibir, Texas, Meksika qo'ltig'i bo'yi, Shimoliy dengiz havzalaridir.

Neftni qazib olish va sotish bo'yicha OPEK davlatlari alohida o'rin tutadi. OPEK tashkiloti 1960 yil tashkil topgan. Shtab kvartirasi-Venada. 13ta davlat a'zo:

Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron, Quvayt, Katar, BAA, (Bruney), Jazoir, Liviya, Nigeriya, Gabon, Venesuela, Ekvador, Indoneziya. OPEKka a'zo bo'lmagan neft sotuvchi davlatlar:

Rossiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Turkmaniston, Ozarbayjon.

Aholi jon boshiga neft qazib olish bo'yicha:

1. BAA (55t.)
2. Katar (52t.)
3. Quvayt (44t.)


Neft zapasi bo'yicha yetakchi davlatlar:

- | | |
|------------------------------------|----------------|
| 1. Saudiya Arabistoni (23 mlrd.t.) | 5. Eron (12,7) |
| 2. Iroq (13,4 mlrd.t.) | 6. AQSH (3,6) |
| 3. BAA (12,9 mlrd.t.) | 7. Rossiya |
| 4. Quvayt (12,8) | |

Asosiy importchilar: AQSH, Eron, Horijiy Yevropa davlatlari. Jahonda qazib olinayotgan barcha neftning 40%i xalqaro savdoga chiqariladi.

O'zbekistonda 1997 yil 8 mln.t. neft (gaz kondensati bilan) qazib olingan. O'zbekistonda 63 ta kondan neft qazib olinmoqda.

JAHONDA ANIQLANILGAN NEFT ZAXIRASINI TAQSIMLANISHI (%HISOBIDA)



Jahon gaz sanoati XX asrning 2-yarmida rivojlandi. Yaqin vaqtlargacha bu sanoat rivojlangan mamlakatlarda tez taraqqiy etdi. Gaz suyultirilgan holda (maxsus SN_4 tashuvchi kemalarda $-165^0 S$ t da) va quvurlarda tashiladi. Tabiiy gaz metan (CN_4), etan ($C_2 N_6$), propan (C_3N_8) kabi izomerlardan tashkil topgan. Tabiiy gaz ko'proq neft konlari bilan birga (yo'ldosh gaz) uchraydi. Jahonning 60 dan ortiq mamlakatida gaz qazib olinadi. Hozirda dunyo bo'yicha 2,6 trln. m^3 dan (2005 y) ortiq gaz qazib olinib, uning asosiy qismi quyidagi davlatlarga to'g'ri keladi:

- | | |
|-------------------------------------|--|
| 1. Rossiya - 600 mlrd. m^3 | 6. Jazoir - 59 mlrd. m^3 |
| 2. AQSH - 540 mlrd. m^3 | 7. Indoneziya - 58 mlrd. m^3 |
| 3. Kanada - 155 mlrd. m^3 | 8. O'zbekiston - 58 mlrd. m^3 |
| 4. Niderlandiya - 84 mlrd. m^3 | 9. Saudiya Arabistoni - 36 mlrd. m^3 |
| 5. Buyuk Britaniya - 74 mlrd. m^3 | |

Mazkur birinchi o'nlik davlatlariga dunyoda qazib olinayotgan tabiiy gazning 65 % i to'g'ri keladi (2005-y).

Jahonda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 15 % i tashqi bozorga chiqariladi. Jahonda tabiiy gaz sotishni tartibga solish maqsadida eng yirik tabiiy gaz zahirasiga ega bo'lgan va qazib oluvchi hamda eksport qiluvchi mamlakatlarning energetika vazirlari 2008 yil 23-dekabr kuni Moskva shahrida forum o'tkazishdi. Forum yakunida xalqaro miqyosda tabiiy gaz eksport qilishda yetakchi mamlakatlardan 12 tasi birlashib "FSEG" (Forum stran-eksportiyorov gaza) tashkilotini tuzishdi. Bu tashkilotni shtab kvartirasi Doxa (Katar) shahrida joylashadigan bo'ldi. Mazkur tashkilotga a'zo


davlatlarda (Rossiya, Eron, Katar va boshqalar) jahonda aniqlanilgan tabiiy gaz zaxirasini 70 % idan ortig'i mavjud.

Tabiiy gazning asosiy eksportchilari: Rossiya, Niderlandiya, Norvegiya, Kanada, Eron, Jazoir, Liviya.

Importchilari: AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya. Dastlab tabiiy gazni botqoqlik gazi deb atashgan. Botqoqliklarda organik moddalarni chirishi natijasida gaz paydo bo'ladi. Gaz ekologik jihatdan eng toza yoqilg'i hisoblanadi.

Rossiya, AQSH, Kanada kabi mamlakatlarda eng katta gaz quvurlari mavjud. -165° - 167° da sovutilganda gaz tomchi holatiga o'tadi.

JAHONDA ANIQLANILGAN GAZ ZAXIRASINI TAQSIMLANISHI (%HISOBIDA)



Ko'mir sanoati jahonda yiliga 60 dan ortiq mamlakatda 5,1 mlrd.t. ko'mir qazib olinadi. Energetik qiymatiga ko'ra ko'mir quyidagi xillarga bo'linadi: antropit, toshko'mir, lignit, qo'ng'ir ko'mir, briket. Jahonda ko'mir qazib olishda 1-o'nlik davlatlari:

- 1.Xitoy (1,164 mln.t.)
- 2.AQSH (930 mln.t.)
- 3.Rossiya (280)
- 4.Hindiston
- 5.GFR
- 6.Avstraliya
- 7.Polsha
- 8.JAR
- 9.Qozog'iston
- 10.Ukraina.

Jahonda ko'mirning asosiy havzalari: Appalachi, Donbass, Kuzbass, Yuqori Sileziya, Rur, Fushun, Kansk-Ochinsk, Vitvatersrand, Ekibastuz, Qarag'anda, Domadar. Ko'mirning asosiy eksportchilari: AQSH, Avstraliya, JAR.

Importchilari: Yaponiya, Horijiy Yevropa davlatlari.

Ko'mir sanoatining asosiy xususiyati ko'mir qazib olish va undan foydalanishning asosiy qismi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda to'planganligi. Ko'mir qaysi mamlakatda qazib olinsa, o'sha joyda iste'mol qilinadi. Ko'mirning 1/10 qismi jahon bozoriga chiqariladi.

Elektr energetika sanoati. FTI davrida elektronlashtirish va kompleks avtomatlashtirish yuqori sur'at bilan o'smoqda. Jahonda hosil qilinayotgan elektr energiyasini 63 % ini IES (TES)lar beradi. Odatda IESlar ko'mir havzalari yoki yoqilg'i manbaalariga yaqin joylashtiriladi. IESlarni elektr energiyasidan tashqari issiqlik ham beruvchilarini IEM (TETS) lar deyiladi. IEM lar issiq suv ham beradi, lekin 20 km.dan uzoqqa yuborib bo'lmaydi. IEMlar yirik sanoat markazi va shaharlarda barpo qilinadi.

Jahonda GESlar ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 20%ga yaqinini beradi. Lekin ularning salmog'i asta pasayib bormoqda. Kaskadli GESlar(Chirchiq-Bo'zsuv, Tinnesi, Sevan) energetika rayonlarini vujudga keltiradi. Eng yirik GESlar: Itayku (Braziliya 12,5mln.kVt. soat), Shushensk, Norak, Rogun, Chorvoq.

AESlar energiya ishlab chiqarishdagi salmog'iga ko'ra jahonda 3-o'rinda turadi. Uning salmog'i 17%. AESlar salmog'i 60-80 yillarda tez o'sgan, hozirda esa sekin o'smoqda. Ekologik jihatidan toza. Dunyoda 1985 yil 25 mamlakatda 300 dan ortiq AESlar bor. 1 kg.uran yonganda-2,5 ming t. ko'mir yonganda beradigan energiyani beradi. Dunyodagi 1-AES-Obinsk AESi Moskva oblastida qurilgan (1953y). Hozirda AESlar salmog'i o'syapti.1980 yillarda kapitalistik davlatlarda yiliga 50000 t. uran qazib olingan, buning 1/3 qismi AQSHda. Uran qazib olishda yetakchi davlatlar: AQSH, Kanada, JAR, Niger, Namibiya, Fransiya. Eronga Rossiya AESlar qurishga yordam bermoqda. AESlarda yoqilg'i transporti harajati arzon, lekin suv ko'p kerak bo'lgani uchun AESlar daryo va dengiz bo'yiga quriladi.

16 kg. Uran = 5 mln.dollar

1 kg. Uran = 312,5ming dollar. (2004-y).

Lekin turli davlatlarda ES salmog'i turlicha. Masalan: Polsha va JARda asosan energiyani IESlar, Norvegiyada GESlar, Fransiyada esa AESlar (3/4qismi) beradi.

Elektr energiyasi dunyo bo'yicha 15,6 trln.kVt/soat (2005) ishlab chiqaradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar:

1.AQSH (3,9 trln.kVt/s.)

2. Xitoy (2,2 trln.kVt/s)

3 Yaponiya (1,1 trln.kVt/s).

4.Rossiya (940 mln.kVt/s)

5.Kanada (570 mln.kVt/s)

6.Germaniya (560 mln.kVt/s)

7. Hindiston (560 mln.kVt/s)

8. Fransiya (540 mln.kVt/s)

9.Buyuk Britaniya (370 mln.kVt/s)

10.Braziliya (360 mln.kVt/s).

Mazkur birinchi o'nlik davlatlari jahonda hosil qilinayotgan elektr energiyasini 72 % ini ishlab chiqaradi (2005-y).

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda farq juda yuqori, ayniqsa, aholi jon boshiga hisoblaganda. Masalan: Norvegiyada (aholisi 4,5 mln kishi)-26 ming kVt/s, Kanadada-17000kVt/s, Shvetsariyada-

14000kVt/s, AQSHda-11000kVt/s, Janubiy Osiyoning ayrim davlatlarida-40-50kVt/s, Afrikada-10-15kVt/s, O'zbekistonda-1840kVt/s.

O'zbekistonda 1997 yil 46 mlrd.kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

Eksport qiluvchilar: Rossiya, Ukraina, Fransiya, Kanada, Shvetsariya.

Import qiluvchilar: AQSH, Italiya, Nidyerlandiya.

Energiyaning nomoddiy manbaalari. Neftning qimmatlashishi energiyaning yangi turlariga qiziqishni oshirdi. Yerning issiqlik energiyasidan 2 xil usulda foydalaniladi:

1.Uylardan issiqxona, suv havzalarini isitish uchun;

2.Geotermal IESlar. Dunyoda dastlab Italiyada qurilgan.

Geo IESlar AQSH (Geyzerlar vodiysida, Kaliforniya), Fillipin, Meksika, Italiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Rossiya kabi davlatlarda qurilgan.

Suv qalqish energiyasi. PES (QES). Rossiyada (Oq dengiz Kandalashka (12m.)), AQSH (Fandi-19m.), Xitoy, Kanada kabi davlatlarda qurilgan.

Quyoshdan QES (SES)larda elektr energiyasi olinadi. Bu sohada – AQSH, Ispaniya, Fransiya, Yaponiya, Ukraina, O'zbekiston kabi davlatlar ajralib turadi.

Kichik-kichik shamol ES yuzlab mamlakatlarda bor. Jahon xo'jaligini mineral xom-ashyo bilan ta'minlanishi 1-galda tog'-kon sanoatiga bog'liq. Mazkur sanoat mahsulotining 2/3 qismini MDH, AQSH, Xitoy, Kanada, Avstraliya va JAR beradi. 1970 yillardagi jahon mineral xom-ashyo xo'jaligidagi krizisdan so'ng G'arb davlatlarida xom-ashyoni tejash va iqtisod qilishga o'tildi. Natijada Kanada, Avstraliya, JAR va Afrika davlatlarining mavqei o'sdi.

Masalan: Kanada jahonda uran, Ni, Zn, Ph, Te, Mo, Au, Ag, Ti, K, asbest, S eksport qilishda yetakchi. JAR esa Pt, Au, Mr, xromit, olmos, uran.

Energetika krizisi, avvalo, neft buxronida yaqqol ko'rindi. Chunki jahonda neftning narxi 15-20 barobar ko'tarilib ketdi. Buning bosh sababi: neft qazib oluvchi rayonlarda tog'-geologik sharoitlarini noqulayligi, shimoliy o'lkalarda neft qazib olinishi, neftni materik shelfidan qazib olinishi va h.k.

Energetika krizisi energiyaning noodatiy (alternativ) manbaalariga bo'lgan qiziqishni oshirdi.Masalan: geotermal, qalqish, shamol, quyosh energiyalari, shuningdek, generatorlar MGR.

Mavzu: Dunyo mashinasozlik sanoati.

Mashinasozlik hozirgi kunimizdan 2 asr ilgari Angliyada sanoat inqilobi vaqtida sanoat tarmog'i sifatida vujudga kelgan.Hozirgi vaqtda esa mashinasozlikda band ishchilar va xizmatchilar soni 80 mln.dan ortiq.Mashinasozlik hozirda mahsulot qiymati jihatidan jahon sanoat tarmoqlari orasida 1-o'rinda turadi.

Qora va rangdor metallurgiya mashinasozlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib, ulardan mashinalar va ularning detallari ishlanadi.

Mamlakatda qanday mashinalar borligiga, ularning soniga va qancha tez ishlab chiqarishga qarab mazkur mamlakatning iqtisodiy qudrati va taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Mashinalar ishlab chiqarish uchun ko'p miqdorda metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'och-taxta kerak bo'ladi. Mashinalar yuzlab xatto minglab detallardan yasaladi.Masalan: 1ta samolyot uchun 120000 xil detaldan foydalaniladi.

Bu detallarning hammasini 1ta zavodda yasash noqulay va befoydadir. Masalan: Gorkiy avtomobil zavodi 1800 km.gacha masofadagi 35 ta yirik shaharlardagi 300ga yaqin korxonalar bilan iqtisodiy a'loqada bo'ladi.

Mashinasozlik korxonalarini joylashtirish shartlari:

1.Qulay transport magistrallarining mavjudligi.Chunki mashinasozlik korxonasi chetdan ko'plab detallar keltiriladi va tayyor mashinalarni sotish qulay bo'lishi uchun.

2.FTI davrida mashinasozlik korxonalarida ishlash uchun malakali mutaxassis va ilmiy-texnik kadrlar miqdorining yetarli bo'lishi.Agar ishlab chiqarish jarayonining 1qismini avtomat va yarim avtomat bajarsa, mashinasozlik buyumlarining tannarxi arzon bo'ladi.Mehnat unumdorligi oshadi, harajat kamayadi.Lekin elektr energiyasi ko'p talab qilinadi.Mashinasozlik zavodlari elektr energiyasini ko'p talab qiladigan tarmoqlardir.

Priborsozlik eng ko'p mehnat talab qiladigan sohadir.

3.Mashinalar mamlakatning hamma rayonlarida ham kerak.Lekin bir rayonda to'qimachilik stanoklari, boshqasiga ko'mir kombaynlari, yana biriga dengiz kemalari ko'proq talab qilinadi.Shu sababli mashinalarni oluvchilarni hisobga olish mashinasozlikni joylashtirishning 3 shartidir (iste'molchi). Masalan: qishloq xo'jaligi mashinasozligi O'rta Osiyoda, g'alla o'rish Shimoliy Kavkazda, lavlagi yig'uvchi mashinalar Ukrainada ishlab chiqariladi.

4.Mashinasozlik korxonalariga metallurgiya bazasining yaqinligini hisobga olish shart.Chunki mashinasozlik uchun ko'p metall talab qilinadi. Mashinasozlikning ayrim tarmoqlari uchun yuqoridagi shartning 1tasi muhim bo'lsa, boshqa tarmoqlari uchun bir nechtasini hisobga olish kerak bo'ladi. Masalan: traktorsozlik metallurgiya bazasiga ham va iste'molchiga ham yaqin bo'lishi kerak.

FTI davrida mashinasozlik zavodlarining metallga bo'lgan bog'liqligi nisbatan kamaydi.Lekin ularning malakali ishchi kuchiga bog'liqligi, ilm-fan talab tarmoqlarining esa ilmiy-tadqiqot markazlarning bog'liqligi ancha oshdi.Mashinasozlik hamma joyda ham joylashadigan tarmoqqa aylanib bormoqda.

Dunyo iqtisodiy kartasida umumiy holda mashinasozlikning 4 regionini ajratish mumkin:

1.Shimoliy Amerika bo'lib, bu yerda mashinasozlik mahsulotining eng oddiydan to eng murakkabigacha bo'lgan barcha turlari ishlab chiqarishda AQSH yetakchi.

2.Horijiy Yevropa bo'lib, u asosan ommaviy mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yetakchi mamlakatlar: Germaniya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Polsha.

3.Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo.Ommaviy mashinasozlik mahsulotlari bilan birga eng yuqori texnologiyagacha asoslangan buyumlar ishlab chiqaradi.Yetakchilar: Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur.

4.MDH. Bu regionga kiruvchi ko'pchilik mamlakatlar uchun mashinasozlik xalqaro ixtisoslashuvining bosh tarmog'idir.Bu hol MDHning xalqaro savdodagi alohida o'rnini belgilaydi.Yetakchilar: Rossiya, Belorussiya, Ukraina. Lekin bu region FTI yutuqlaridan foydalanish bo'yicha boshqa regionlardan ortda qolmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar dunyo mashinasozlik sanoati mahsulotining 10%dan kamrog'ini beradi.Rivojlanayotgan mamlakatlarining qoloqligi xech bir tarmoqda mashinasozlik sanoatidagichalik kuchli namoyon bo'lmagan.Rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud mashinasozlik sanoat tarmoqlari ham asosan yig'ma zavodlar

bo'lib, ular detallarni AQSH, Horijiy Yevropa va Yaponiyadan keltiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Braziliya, Hindiston, Argentina, Meksika ajralib turadi. Lekin ularda qurilgan korxonalarining ko'pchiligi mashinasozlik rivojlangan mamlakatlarning filiallari hisoblanadi.

Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari: stanoksozlik, energetika mashinasozligi (GES, IES), og'ir mashinasozlik, transport mashinasozligi, elektrotexnika va elektron sanoati, priborsozlik, harbiy texnika, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, EHM va h.k.

Mashina va jihozlar eksporti eng yuqori bo'lgan davlatlar: jami eksport mahsuloti Yaponiya 68 % ini, Singapur 55 % ini, AQSH, Meksika va Germaniya 49 % ini, Koreya respublikasi 43 % ini mashina va jihozlar tashkil etadi (2005 y).

XGMT da jahon mamlakatlari turli tarmoqlarga ixtisoslashgan:

Syangan-radiopriyomnik va telefonlar ishlab chiqaradi.

Janubiy Koreya-magnitafon kassetalari va videomagnitafonlar.

Malayziya-xona kondensiyonlari.

Janubiy Koreya, Braziliya, Meksika-avtomobillar.

Janubiy Koreya, Braziliya, Tayvan-kemalar.

Singapur-neftburavoy platformalar ishlab chiqaradi.

Mashinasozlik jahonda bir necha davlatlarda mavjud, lekin 6 mamlakat bu sohada yetakchi hisoblanadi: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya. Bu davlatlarda mashinasozlik sohasida eksport importdan ustun turadi. Masalan: AQSH, Yaponiya, Germaniya dunyoda ishlab chiqariladigan stanoklar va robotlarning 9/10 qismini ishlab chiqaradi. Qolganini esa Rossiya, Sharqiy Yevropa davlatlari, JAR, Xitoy, Hindiston yetkazib beradi. Stanoksozlik va robotlar ishlab chiqarish Afrikada JARdan boshqa hech bir davlatda yo'q.

Jahonda yiliga 1,2 mln donadan ortiq metall kesuvchi stanoklar ishlab chiqariladi (2006 y).

Aviaraketa va kosmik sanoati bo'yicha AQSH alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Yirik firmalari: Boing (52%), Makdonell, (Fransiya, GFR, Buyuk Britaniya) Aerobuslar.

MDH davlatlarida ham aviatsiya sanoati yaxshi rivojlangan (AN, TU, Il, Mig). Rivojlanayotgan davlatlar ichida Braziliya o'zining aviatsiya sanoati bilan ajralib turadi. Embrayer (17%) firmasi o'rtacha samolyotlar ishlab chiqaradi.

Dengiz kemalari ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya va Janubiy Koreya, harbiy kemachilik bo'yicha AQSH oldinda turadi.

Transport mashinasozligining asosini avtomobilsozlik egallaydi. Yaponiya va AQSH yiliga 10 mln. donadan ortiq yengil va yuk avtomobillarini ishlab chiqarib jahonda yetakchi.

Jahonda yiliga 50 mln. donadan ortiq avtomobillar ishlab chiqariladi (2008 y.)

Jahonda yengil avtomobillar ishlab chiqarish: (1995 y. ming dona hisobida).

- | | |
|------------------------|--------------------------------|
| 1. Yaponiya-7616 | 7. Buyuk Britaniya-1532 |
| 2. AQSH-6500 | 8. Kanada-1350 |
| 3. Germaniya-4507 | 9. Italiya-1241 |
| 4. Fransiya-3210 | 10. Braziliya-1100 |
| 5. Ispaniya-1998 | 11. Rossiya-835 |
| 6. Janubiy Koreya-1900 | 12. O'zbekiston-70000 (2005 y) |

Mavzu: Dunyo kimyo sanoati.

Ximiya sanoati elektr energiyasini va mashinasozlik bilan birga FTI taraqqiyotini belgilaydi. Uning mahsulotlarini – mashinasozlik (plastmassa, oyna), to'qimachilik (sun'iy tola, bo'yoqlar), qishloq xo'jaligi (o'g'itlar, zaharli ximikatlar), transport (motor yoqilg'isi, surtish moylari, sintetik yoqilg'i), oziq-ovqat sanoati (soda pishvoy, kremlar, droj), qurilish (lak, bo'yoq, skipidar va h.k.) oladi.

Ximiya sanoatining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Bu tarmoq ko'p sifatlariga ko'ra tabiiy mahsulotlardan qolishmaydigan va ustun turuvchi yangi materiallar yaratadi. Bunday materiallarning qo'llanilishi kishilar mehnati va qishloq xo'jaligi xom-ashyosini tejaydi. Shuningdek, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarflanadi. Masalan: sun'iy ip tabiiy ipdan bir muncha pishiq va chidamli.

2. Ximiya sanoati ishlab chiqarishni kombinatlashtirishda katta ahamiyatga ega. Masalan: ko'mir, neft, gaz, slanes va torfdan bir vaqtning o'zida ham energiya, ham qimmatli ximiya mahsulotlari (benzin, kerosin, surtov moylari, parafin, tola va h.k.) olish uchun foydalanish energetika-kimyo kombinatlarini qurilishiga olib keldi.

3. Ximiya sanoati juda keng xom-ashyo bazasiga ega. Bu sanoat turli sanoatlarning chiqindilarini qayta ishlab, yangi materiallar yaratadi. Lekin maxsus tayyorlanadigan xom-ashyo asosiy xom-ashyo bo'lib qolmoqda (neftni qayta ishlash, ko'mirni kokslash chiqindilari).

4. Turli xom-ashyodan foydalanish imkoniyatini juda katta ekanligi, ximiya sanoati korxonalarini hamma joyda qurish imkonini beradi. Biroq bu sanoat energiya va suvni ko'p talab qilishi, ayniqsa, ekologiyaga salbiy ta'sir etishi sababli ularni hamma joyda ham qurish maqsadga muvofiq bo'lavermaydi.

Ximiya sanoatining tarmoqlari:

1. Tog'-ximiya sanoati-appatit, fosforit, osh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqalar qazib olishdan iborat. Appatit va fosforitdan fosforli o'g'itlar olinadi, kaliy tuzidan esa soda olishda foydalaniladi.

2. Asosiy ximiya sanoati-kislotalar ishlab chiqarish, tuzlar, kalsiyli va kaustik sodalar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishdan iborat.

3. Organik sintez ximiyasi (uglevodorod xom-ashyosi, Yarim fabrikantlar ishlab chiqarish). Hozirda tabiiy gaz kondensati organik sintezning asosidir. Masalan: 1t. gaz kondensatidan 50 kg. sun'iy kauchuk, 150kg. plastmassa, 150 kg sun'iy tola, 100kg erituvchi modda, 400kg motor yoqilg'isi olish mumkin.

4. Polimerlar ximiyasi (plastmassalar, kauchuk va tolalar).

5. Polimerlarga ishlov berish (shinalar, polietilen plyonkalar tayyorlash va h.k.).

Bu tarmoqlarni joylashtirish shartlari bir xil emas. Tog'-ximiya korxonalari xom-ashyo manbaalariga yaqinda, kislota zavodlari, odatda, kislota ishlatiladigan joylarda ya'ni, qishloq xo'jaligi rivojlangan joylarda (chunki 1t. xom-ashyodan appatit, fosforitdan 2t. o'g'it olinadi), azotli va kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish xom-ashyo manbalariga yaqin joylashishi kerak.

Polimerlar ximiyasi juda tez rivojlanmoqda. Bu tarmoqda mahsulot birligi uchun ko'p miqdorda issiqlik, elektr energiyasi, suv va maxsus tayyorlanadigan xom-ashyo sarflanadi. Shuning uchun bu tarmoq neft mahsulotlari ishlab chiqariladigan, ko'mir kokslanadigan, arzon energiya, suv mavjud joylarda bunyod etiladi.

Ximiya sanoati mashinasozlik sanoati bilan birgalikda hozirgi zamon industriyasining dinamik tarmog'idir. Dunyo ximiya sanoatida ham 4 region tarkib topdi:

1. AQSH.
2. Yevropa.
3. MDH.
4. Yaponiya.

Bularning har birida tog'-kimyo, mineral o'g'itlar, asosiy ximiya, organik sintez mahsulotlari va polimer mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlangan. Keyingi paytlarda neft va gaz resurslariga boy mamlakatlarda (Fors ko'rfazi, Shimoliy Afrika mamlakatlari, Meksika, Venesuela) neft ximiya sanoati tez rivojlanmoqda.

Organik ximiya sintezi va polimer materiallar ishlab chiqarishda yuqori, pog'onaga xos murakkab fantalab mahsulotlar ishlab chiqarishda esa AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya ajralib turadi.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar: AQSH, Rossiya, GFR, Yaponiya.

Jahonda yiliga 160 mln. t. dan ortiq mineral o'g'it ishlab chiqariladi (2008 yil hisobida) Jahonda yiliga 112 mln. t. dan ortiq plastmassa, 36 mln. t. dan ortiq ximiyaviy tola ishlab chiqariladi (2008 y)

H₂SO₄ ishlab chiqarishda: MDH, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Fransiya.

Kimyoviy tola: AQSH, Yaponiya, MDH, Germaniya.

Fosforit, apatit qazib olish bo'yicha:

- | | |
|-------------|---------------|
| 1. AQSH | 5. Jazoir |
| 2. Marokash | 6. Senegal |
| 3. Rossiya | 7. Benin |
| 4. Tunis | 8. Iordaniya. |

Oltinugurt ishlab chiqarish bo'yicha: AQSH, Kanada, Yaponiya, Fransiya, Meksika, Germaniya, Polsha, Rossiya, Iroq.

Plastmassa ishlab chiqarish (1993y. Mln.t.):

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| 1. AQSH-20 | 6. Niderlandiya-3,9 |
| 2. Yaponiya-10,6 | 7. Italiya-3,7 |
| 3. Germaniya-10,4 | 8. Xitoy-3,4 |
| 4. Janubiy Koreya-6,1 | 9. Taybey-2,9 |
| 5. Fransiya-4,4 | 10. Rossiya-2,4 |

Ximiya sanoatining turli xil tarmoqlari to'plangan yirik mintaqalar:

1. AQSHning janubi Meksika qo'ltig'i bo'ylari.
2. Yevropada Quyi Reyn mintaqasi.

Bu mintaqa Germaniyada Kyolndan to Rotterdamgacha (Niderlandiya) bo'lgan masofani o'z ichiga oladi.

3. Ichki Yapon dengizi bo'ylari.

Ximiya sanoati ko'p miqdorda elektr energiyasi va chuchuk suv talab qiladi. Masalan, 1t. rezina yoki plastmassa uchun 1500m² suv, 1t. po'lat uchun 120m² suv kerak bo'ladi.

Mavzu: Dunyo o'rmon va yog'ochsozlik sanoati.

Mazkur sanoat ko'p jihatidan o'rmon resurslarining joylashuviga bog'liq. O'rmon faqatgina sanoat xom-ashyosi emas. U tuproqni shamol va suv eroziyasidan saqlaydi, yerdagi namni saqlaydi, daryolarning toshishiga yo'l qo'ymaydi, ekinzorlarni garmisdan saqlaydi, "yerning o'pkasi"dir (O₂ manbaidir).

O'rmon sanoati xalq xo'jaligiga: qurilish materiallari, sun'iy tola, spirt, qog'oz, karton, skipidar, kanifol, smola, (yelim), yem achitqilari, mebel, idish (tara), lak-bo'yoq, hushbo'y efirlar va h.k. beradi.

O'rmon sanoati mahsulotlarining iste'molchilari: mashinasozlik, yengil sanoat, transport, aloqa va qurilishdir. O'z navbatida o'rmon sanoati ham boshqa tarmoqlardan soda, natriy, oqartiruvchi ximikatlari, avtomashinalar, traktorlar, stanoklar oladi.

O'rmon sanoatining tarkibi:

1. Yog'och tayyorlash: Daraxt qirg'ich, uni transport magistraliga olib chiqish, qayta ishlash markazlariga yetkazib berish;

2. Yog'ochga mexanik ishlov berish: Yog'och-taxta, fanera, gugurt, mebel, idish, binokorlik detallarini ishlab chiqarish (eshik, deraza).

3. Yog'ochga ximiyaviy ishlov berish (o'rmon-ximiya): Qog'oz, karton, skipidar, kanifol, yem-achitqilari, lak-bo'yoq.

O'rmon sanoati o'zaro bog'langan bir qancha ishlab chiqarishlardan iborat. Birining ishlab chiqargan mahsuloti 2-si uchun xom-ashyo bo'ladi. Masalan: yog'och tayyorlash korxonalaridan chiqqan yog'ochlar mebel sanoati uchun xom-ashyodir.

O'rmonlar xalq xo'jaligida turli xil ahamiyatga ega. Sanitariya o'rmonlari (shaharlar atrofida), tuproqlarni, dalalarni (Sahroi Kabir atrofida), suvni muhofaza qiluvchi o'rmonlar (daryo, ko'llar, suv omborlari, kanallar yoqalarida), qo'riqxonalar va milliy bog' o'rmonlari (AQSHda sekvoja saqlanadi) bo'ladi. Bunday o'rmonlarda daraxtlarni sanoat uchun kesish man etiladi, balki parvarish qilish uchun kesiladi.

O'rmonlarni kesishda ularning yoshiga ham qaraladi. Masalan: Rossiyada 80 yoshdan oshgan daraxtlar yetilgan hisoblanadi. O'rmon sanoati korxonalarini dengiz, daryo, shosse, temir yo'l tugunlarida joylashtirilishi iqtisodiy jihatdan qulay. O'rmon sanoatida asosiy harajat yog'och tayyorlashga to'g'ri keladi.

O'rmon sanoatida qimmatbaho daraxt turi igna bargli o'rmonlar hisoblanadi (qayrag'och, qora qarag'ay, paxta, kedr, tilog'och).

Jahonda o'rmon resurslari shartli ravishda 2 mintaqaga ajratiladi:

1. Shimoliy o'rmon mintaqasida asosan igna bargli daraxtlar kesilib, ulardan yog'och taxta tilinadi, sellyuloza, qog'oz, karton olishda ishlanadi. Rossiya, Kanada, Shvetsiya, Finlyandiya o'rmon va yog'ochsozlik sanoatida yetakchi bo'lib, xalqaro ixtisoslashgan davlatlardir. Yog'och mahsulotlarini chetga chiqarishda dunyoda 1-o'rinda Kanada turadi.

2. Janubiy o'rmon mintaqasida keng bargli daraxtlar (eman, zarang, tikon daraxti, qizil, bals va h.k.)

Bu yerda o'rmon sanoatining 3ta asosiy areali tarkib topgan. Ular quyidagilar:

1. Amazoniya
2. Tropik Afrika
3. Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo

Ularda tayyorlangan yog'och-taxtani dengiz yo'llari orqali Yaponiya va Horijiy Yevropaga olib kelishadi. Janub mamlakatlarida qog'oz tayyorlashda o'rmon yog'ochi emas, g'arov, bagassa, sizal, jut kabi o'simliklardan foydalaniladi.

Mavzu: Dunyo yengil sanoati.

Yengil sanoat tarkibiga to'qimachilik, tikuvchilik, mo'yna, ko'n-poyafzal, trikotaj tarmoqlari kiradi. Bu tarmoqlar mahsulotining katta qismi aholi iste'moliga mo'ljallanadi, bir qismi esa og'ir sanoatga kiradi (texnika gazlamasi, teri, charm).

Yengil sanoat qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq. Qishloq xo'jaligi yengil sanoatga o'simlik (paxta, zig'ir, lub, jut, kanop) va hayvon (teri, mo'yna, jun, ipak, shox) xom-ashyosi beradi.

Yengil sanoatning yetakchi tarmog'i-to'qimachilikdir. To'qimachilik sanoatining barcha xil mahsulotlari, ipdan gazlama, jundan gazlama, shoyi va zig'ir tola gazlama, sun'iy tola gazlama korxonalarida to'qiladi. Gazlama to'qib chiqarish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat.

Xom-ashyoga paxta tozalash, zig'ir tolaga ishlov berish, jun yuvish korxonalarida dastlabki ishlov beriladi. So'ngra toladan ip yigiriladi, ipdan xom gazlama to'qiladi. Xom gazlama bo'yaladi, unga gul bosiladi (pardozlanadi).

Bu hamma bosqichlarni alohida-alohida joylashgan dastlabki ishlov berish, yigirish, to'qish, pardozlash fabrikalarida amalga oshirish mumkin. Lekin transport harajati, yuk ortib tushurish sarflari tayyor mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Shunday ekan, to'qimachilik ishlab chiqarishning bir korxonada-kombinatda to'planishi foydaliroq bo'ladi.

Xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar xom-ashyo manbasiga yaqin joylashtirilgani ma'qul. Shu sababli paxta tozalash va pillachilik fabrikalari xom-ashyo yetishtiriladigan rayonlarda quriladi.

To'qimachilik sanoatida ko'proq xotin-qizlar mehnat qiladi. Shuning uchun ayollar mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish kerak bo'lganligi uchun to'qimachilik sanoatini aholi ko'p to'plangan va og'ir sanoat rivojlangan joylarda qurish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, mehnat resurslari va xom-ashyo manbalari hisobga olinadi.

Jahonda tabiiy va sun'iy toladan 120 mlrd. m³dan ortiq (2006y) gazlama ishlab chiqariladi. Agar mayda hunarmandchilik (mahalliy ip yigirish va mato to'qish)ni hisobga olsak to'qimachilik hamma joyda bor.

Jahonda yiliga 100 mlrd. m² dan ortiq gazlama to'qiladi (2006 y). Ya'ni dunyo bo'yicha aholi jon boshiga yiliga 15-16 m² gazlama to'qiladi.

Jahon to'qimachilik sanoatida 5ta asosiy region tarkib topgan. Bular:

- 1.Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Gonkong);
- 2.Janubiy Osiyo (Hindiston, Bangladesh, Pokiston);
- 3.MDH (Rossiya, O'zbekiston, Belorussiya);
- 4.Horijiy Yevropa (Italiya, Fransiya, Germaniya, Polsha);
- 5.AQSH.

Bularning har birida ip-gazlama va ximiyaviy tolalardan gazlama to'qish ustun turadi. Boshqa tarmoqlar (jun gazlama, jut, shoyi gazlama) kamroq ahamiyatga ega. Yuqoridagi regionlar orasidagi nisbat keyingi vaqtlarda sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Asrimizning 50-yillaridan boshlab jahonda ip-gazlama va kiyim-kechak ishlab chiqarishda G'arbnning iqtisodiy rivojlangan davlatlarining roli har doim kamayib bormoqda, ko'plab eski to'qimachilik rayonlari inqirozga yuz tutmoqda.

Masalan: Ilgari to'qimchilikda jahonda 1-o'rinda turgan Buyuk Britaniya 1-o'nlik mamlakatlarning oxiriga tushib qoldi. U gazlama eksport qiluvchi eng katta mamlakatdan import qiluvchi mamlakatga aylandi.

To'qimachilik sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasi yanada tezroq o'smoqda. Bu mamlakatlarda avvalo arzon ishchi kuchiga va xom-ashyoga asoslangan to'qimachilik sanoati rivojlanmoqda. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan gazlamalarning asosiy qismi G'arbiy mamlakatlariga eksport qilinmoqda. AQSH, Yaponiya va G'arb mamlakatlarida ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlardan keltirilgan arzon kiyim-kechak va trikotaj mollari sotiladi. Jahonda ip-gazlama ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar:

- 1.Xitoy (yiliga 14 mlrd m²).
- 2.MDH
- 3.AQSH
- 4.Hindiston
- 5.Yaponiya

Mavzu: Dunyo qishloq xo'jaligi.

Qishloq xo'jaligi-xalq xo'jaligining 2-yirik tarmog'i bo'lib, dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Qishloq xo'jaligida mehnat predmeti ham, mehnat vositasi ham yer hisoblanadi. Shu sababli yerdan to'g'ri foydalanish, uning hosildorligini saqlash juda muhim xalq xo'jaligi vazifasidir. Sanoatdan farq qilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy sharoit, rel'ef, iqlim, tuproqlar, fasliy xarakter, hayvonlar (asosan zararkunandalar), mineral va organik o'g'itlar, ximikatlarga bog'liq.

Dunyoda birorta mamlakat yo'qki, uning aholisi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmasa. Butun dunyoda bu sohada 1,1 mlrd kishi band.

Jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 100 % deb olsak, uning 11 % i Xitoyga, 10 % i AQSH ga, 7 % i Hindistonga, 6 % i Braziliyaga, 66 % i boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi (2005 y).

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligi texnika bilan yaxshi ta'minlangan. Mexanizatsiya, elektrlash, ximiyalash yuqori hosilli qishloq xo'jalikni rivojlantirishning eng muhim shartidir.

Yerlarni yaxshilash yuzasidan qilinadigan ishlar (sug'orish, quritish, daraxtlar o'tkazish, tuproqqa ohak solish) melioratsiya ishlari deyiladi. Yuqori hosildor qishloq xo'jaligini barpo qilishda melioratsiya ham zaruriy shartdir.

O'rmon-dasht va dashtlar hammadan ko'p o'zlashtirilgan, chala cho'l va cho'llar aksi. O'simliklar o'sadigan va rivojlanadigan davr-vegetatsiya davri deyiladi. Vegetatsiya davri, shu davrda +10⁰S dan yuqori bo'lgan sutkalik o'rtacha temperaturalar yig'indisi bilan belgilanadi.

Qurg'oqchilik-dashtlarning qishloq xo'jaligi uchun havflidir. Uni oldini olish uchun ixota o'rmonlari barpo qilinadi.

Seleksiya fani yutuqlari qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim shartidir. Chunki hosildorlik, sifat, ertapisharlik, nav va zotlarning xilma-xilligi ortadi. Dehqonchilik qilinadigan yerlarning chegaralari shimolga, janubga va tog'larga baland ko'tariladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanish xususiyatlariga ko'ra 2 xil: ekstensiv va intensiv qishloq xo'jaligiga bo'linadi. Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi ekinlar hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini xo'jalikni intensivlashtirish yo'li bilan ko'tarishdir.

Qishloq xo'jaligi 2ta katta guruhga (dehqonchilik va chorvachilik) shuningdek, 50 tipga ajratiladi.

1. Rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi bo'lib, u o'z navbatida intensiv dehqonchilik va chorvachilikni o'z ichiga oladi.

2. An'anaviy, ya'ni ichki iste'molga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi bo'lib, yerlarni omoch bilan ishlanadigan qolq dehqonchilikni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda tovar qishloq xo'jaligi keskin darajada ustun. Tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti nafaqat ichki balki tashqi bozorga mo'ljallab mahsulot ishlab chiqaradi. Dunyodagi jami qishloq xo'jaligi traktorlarining 90%i rivojlangan davlatlarda to'plangan. Masalan: g'alla o'rtacha hosildorligi rivojlanayotgan mamlakatlarda 15-20s/ga, rivojlangan mamlakatlarda esa 34-50 s/ga.

“Yashil inqilob”- qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika asosida tubdan o'zgartirish. “Yashil inqilob”ning 3ta tarkibiy qismi mavjud:


1. Yangi navlarni yaratish.

2. Irrigatsiyani kengaytirish.

3. Zamonaviy texnika, o'g'itlar va kimyoviy moddalarni keng qo'llash.

“Yashil inqilob” sababli ko'p davlatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'zini qondira boshladi. Donli ekinlar hosildorligini 2-3 barobar ko'tarildi. Mashina va o'g'itlarga talab kuchaydi. “Yashil inqilob” Meksika, Hindiston, Pokiston, Fillipinda yaxshi rivojlandi.

JAHON QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA YETAKCHI DAVLATLAR ULUSHI.



Mavzu: Jahonda donli ekinlar.

Ziroatchilik, ya'ni dehqonchilik quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: dalachilik, bog'dorchilik, uzumchilik.

Yetishtiriladigan ekin turiga qarab dalachilik: don xo'jaligi, texnika ekinlari, yem-hashak ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari, kartoshka yetishtiruvchi xo'jaliklarga bo'linadi.

Don yetishtirish-jahon qishloq xo'jaligining asosidir. Jahondagi ekin ekiladigan jami yerlarning yarmiga don ekiladi. Don ekiladigan yerlar aholi joylariga to'g'ri keladi. Jahonda yiliga 1,9 mlrd.t. don yetishtiriladi.

Jahon don xo'jaligida asosan bug'doy, sholi, makkajo'xori yetishtirishdan iborat bo'lib, ular g'alla yalpi hosilining 80%ini beradi.

Bug'doy iliq iqlim (mo'tadil) va yaxshi tuproqni talab qiladi. Shu sababli u qora va kashtan tuproqli joylarda yetishtiriladi. Bug'doy ekilish davriga qarab kuzgi va bahorgi mavsumlarga bo'linadi. Kuzgi bug'doy mo'tadil mintaqaning janubida, bahorgi bug'doy esa shimolida ekiladi. Masalan: Qozog'istonning shimoliy rayonlarida bahorgi bug'doy, markaziy va janubiy rayonlarida kuzgi bug'doy ekiladi. Kuzgi bug'doy tez yetiladi va hosildorligi yuqori bo'ladi.

Bug'doy jahonning 70 mamlakatida yetishtiriladi, lekin yalpi hosilning asosiy qismi:

- | | |
|--------------------------|---------------|
| 1.Xitoy (95 mln.t. y.ga) | 6.Kanada |
| 2.AQSH | 7.Ukraina |
| 3.Hindiston | 8.Pokiston |
| 4.Rossiya | 9.Qozog'iston |
| 5.Fransiya | 10.Avstraliya |

hissasiga to'g'ri keladi.

Bug'doyning vatani Old Osiyo va O'rta dengiz bo'ylari.

Jahonda yiliga 600 mln tonnaga yaqin (2008 yil 584 mln tonna) bug'doy yetishtiriladi.

Sholini vatani Hindiston botqoqliklari. Dunyodagi yalpi sholi hosilining 90%i Osiyoning "sholikor" mamlakatlarida yetishtiriladi. Dunyodagi barcha obikor yerlarning 2/3 qismiga sholi ekiladi.

Osiyoning janubidagi davlatlarda sholini yiliga 2, hatto 3 marta hosili yig'ib olinadi. Jahonda yiliga 600 mln tonnadan ortiq sholi yetishtiriladi. (2006 yil)

Asosiy sholikor mamlakatlar: Xitoy (yiliga 180 mln.t.), Hindiston, Indoneziya, Tailand, Bangladesh, Vetnam.

Asosiy iste'molchilari: Horijiy Yevropa.

Jahonda yiliga 600 mln.t. dan ortiq makkajo'xori yetishtiriladi. Jahonda yiliga 600 mln.t. dan ortiq sholi, 584 mln.t. dan ortiq bug'doy, 280-294 mln.t. dan ortiq kartoshka, 300-274 mln.t. dan ortiq qand lavlagi, 165 mln.t. dan ortiq soya, 200-130 mln.t. dan ortiq arpa yetishtiriladi (2008 y).

Makkajo'xorining vatani Markaziy Amerika. Yangi dunyo kashf qilingandan so'ng boshqa qit'alarga tarqalgan. Makkajo'xori oziq-ovqat va yem-hashak ahamiyatiga ega. Makkajo'xorining o'sishi uchun havo temperaturasi +10⁰ dan kam bo'lmasligi kerak. Sernam joylarda va tog' oldi rayonlarda yuqori hosil beradi. Asosan bug'doy ekiladigan joylarda yetishtiriladi.

Makkajo'xori yetishtirishda yetakchi davlatlar:

- | | |
|----------------------|--------------|
| 1. AQSH (220 mln.t.) | 5. Rossiya |
| 2. Xitoy | 6. Meksika |
| 3. Braziliya | 7. Argentina |
| 4. Ruminiya | 8. JAR. |

Jahonda yiliga 600 mln tonnadan ortiq makkajo'xori yetishtiriladi. (2008 y)

Dunyodagi makkajo'xori yetishtiriladigan asosiy rayon-AQSHning makkajo'xori mintaqasi Buyuk ko'llarning janubida bo'lib, Ayova shtati dunyoga mashxur.

Dunyoda yetishtiriladigan g'allaning 10-15%i jahon bozoriga chiqariladi. G'alla eksport qiladigan asosiy mamlakatlar: AQSH, Kanada, Avstraliya, Fransiya, Argentina. Kanada bilan Avstraliya yillik bug'doy hosilining, Argentina esa makkajo'xori hosilini 80% ini chetga chiqaradi.

Oziq-ovqatga ishlatiladigan donni asosan rivojlanayotgan mamlakat, yem-hashak uchun ishlatiladigan donni asosan G'arbiy Yevropa va Yaponiya sotib oladi. Keyingi vaqtlarda MDH ham asosiy importchiga aylanib bormoqda. Ular yiliga 30-40 mln.t. g'alla import qilmoqda.

Jahonda bug'doy, sholi va makkajo'xoridan tashqari quyidagi donli ekinlar ham yetishtiriladi (2006 y):

Arpa-(yachmen)-143 mln.t.

Sorgo-54 mln.t.

Prosa(yorma)-26 mln.t.

Oves(javdar)-29 mln.t.

Roj(suli) -23 mln.t.

Mavzu: Boshqa oziq-ovqat ekinlari.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun donli ekinlardan tashqari, moyli, ildizmevali, qandli, kishiga quvvat beruvchi, sabzavot mevali o'simliklardan ham keng foydalaniladi.

Moyli ekinlar dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari orasida donli ekinlardan keyin 2-o'rinda turadi. Iste'mol qilinadigan jami moyning 2/3 qismi o'simliklardan olinadi. Moy olinadigan asosiy o'simliklar: soya, yeryong'oq, zaytun, kokos palmasi yoki moyli palma, kungaboqar, moyli zig'ir doni, maxsar.

Soya (2006 yil 165 mln tonna) asosan AQSH, Xitoyda ekiladi va yog'i ishlab chiqariladi. Dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan soya moyining 67%i AQSHga, 24%i Xitoyga to'g'ri keladi. Soya (dukkakdoshlar oilasi)ning asosiy eksportchisi AQSH. Importchilari: G'arbiy Yevropa va Yaponiya.

Yeryong'oq dukkakdoshlar oilasiga mansub madaniy o'simlik bo'lib, asosan Horijiy Osiyo va Afrika mamlakatlarida ekiladi. Yeryong'oq (araxis) moyi ishlab chiqarishda 1-o'rinda:

1. Hindiston (dunyo bo'yicha 36%)

2. Xitoy (14%)

3. Senegal (6%)

Asosiy eksportchilar: Afrika mamlakatlari.

Importchilar: Horijiy Yevropa.

Kungaboqar (murakkabguldoshlar oilasi) asosan shimoliy mo'tadil kengliklarda o'stiriladi. Kungaboqar moyi ishlab chiqarishda MDH mamlakatlari (dunyo bo'yicha 62%), Rossiya, Ukraina, Moldaviya yetakchi.

Zig'ir (len) (boshqodoshlar oilasi) asosan Xitoy, Fransiya, Belarus, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda ekiladi.

Zaytun daraxti O'rta Yer dengizi bo'yi mamlakatlarida o'stiriladi. Zaytun moyi ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlar: Italiya, Ispaniya, Gretsiya. Zaytun moyi ko'proq konditer sanoatida ishlatiladi. Parfyumeriya, farmasevtikada ham foydalaniladi.

Kokos palmasi (moyli palma) asosan Afrika mamlakatlarida va Malaya arxipelagida o'stiriladi.

Maxsar asosan Yevrosiyoda (Xitoy, Hindiston, Bangladesh) va Horijiy Yevropada o'stiriladi.

Ildizmevali o'simliklarga kartoshka, qandlavlagi, sholg'om, turp, sabzi, rediska, piyoz kabilar kiradi.

Kartoshkani (tomatdoshlar oilasi) vatani And tog'lari markazi (Peru). Lekin hozirgi kunda shimoliy mo'tadil mintaqaning asosiy ekini bo'lib qolgan. 2-non hisoblanadi, chunki kraxmalga boy.

Kartoshka yalpi hosili bo'yicha yetakchi davlatlar (2007 y):

1. Xitoy (55 mln tonna)

2. Rossiya (31 mln tonna)

3. Hindiston

4. AQSH

5. Polsha

Dunyoda yiliga 280-294 mln.t. kartoshka yetishtiriladi (2008y).

Qand lavlagi (sax. svekla) mo'tadil mintaqa ekini. Qand lavlagi yiliga 300 mln.t. (2007 yil 274 mln tonna) yetishtiriladi. Qand lavlagi yetishtirishda yetakchi davlatlar: Ukraina, Rossiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Polsha.

Jahonda yiliga 100 mln.t. qand-shakar ishlab chiqariladi, shuni 40%i qand lavlagiga, 60%ga yaqini shakarqamishga to'g'ri keladi. Shakarqamish asosan tropik va subtropik mintaqa ekini. Vatani Hindiston. Dunyo bo'yicha yiliga 850 mln.t. (2007 y) shakarqamish yetishtiriladi. Shakarqamish shakari ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatlar: Braziliya, Hindiston, Kuba, Xitoy, Meksika.

Asosiy eksportchilar: Braziliya, Kuba, Avstraliya.

Importchilar: AQSH, Horijiy Yevropa, Yaponiya.

Quvvat beruvchi o'simliklarga choy, kofe, kakao va ziravorlar kiradi. Bularning hammasi tropik va subtropik mintaqalar ekinidir.

Choy vatani Xitoy. Yevropaga XVII asrda kirib kelgan. Jahonda ishlab chiqariladigan choyning asosiy qismini Hindiston (31%), Xitoy (21%), Shri-Lanka (13%) beradi.

Asosiy eksportchilar ham shular, importchilar: Horijiy Yevropa.

Kofe (qahva) vatani Habashiston. Biroq kofe yalpi hosilining 2/3 qismini Lotin Amerikasi mamlakatlari: Braziliya (jahon yalpi hosilining 30%ini), Kolumbiya (12%), Meksika (6%) va Gvineya ko'rfazi bo'yi mamlakatlari, ayniqsa, Fil Suyagi qirg'og'i (4%) beradi. Kofening asosiy eksportchilari ham mazkur mamlakatlar bo'lib, asosiy importchilari: AQSH, Horijiy Yevropa.

Kakao vatani Amerika hisoblansa-da, asosan Gvineya qo'ltig'i bo'yi mamlakatlarida yetishtiriladi. Kakao yalpi hosilining 37%ini Gana, 17%ini Braziliya, Nigeriya 14%, Kamerun 8%, Fil Suyagi qirg'og'i beradi.

Asosiy eksportchilar: Gvineya qo'ltig'i bo'yi mamlakatlari, Braziliya.

Importchilar: AQSH, Horijiy Yevropa.

Kakaodan shokolad tayyorlanadi.

Ziravorlar (zira, dolchin, alqor, kashnich, sedana, murch, rayxon, zirk, qalampir, arpabodiy on, gorchisa) asosan Hindistonda ekiladi.

Tamaki Shimoliy Amerika va Yevrosiyoda ko'p yetishtiriladi. Tamaki ishlab chiqarishda AQSH (25%), Xitoy, Hindiston, Braziliya, Yaponiya, MDH yetakchi o'rinda. Tamakini dastlab XVI – asrda Yangi Dunyodagi Tabago orolidan fransuz botanigi Nikot ismli shaxs Yevropaga olib kelgan.

Mavzu: Texnika ekinlari va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari.

Texnika ekinlari-sanoatning turli tarmoqlari uchun xom-ashyo beradigan qishloq xo'jaligi o'simliklaridir. Qanday mahsulot olinishiga qarab ular bir necha guruhlariga bo'linadi:

1. Kraxmalli ekinlar-kartoshka, batat.

2. Qandli ekinlar-shakarqamish, qand lavlagi.

3. Moyli

kungaboqar, yeryong'oq, soya, kanakunjut, kunjut, zig'ir, gorchisa, zaytun, tung ekinlar:
daraxti janubda o'sadi, undan metallarni korroziyadan, yog'ochni esa chirishdan saqlaydigan lak tayyorlanadi).

4.Efir moyli ekinlar-(yalpiz,geran,atirgul,lavanda,koriandr) konditer va parfyumeriyada ishlatiladi.

5.Tolali o'simliklar-g'o'za,uzun tolali zig'ir,jut,kanop,sizal.

6.Dorivor o'simliklar-
kiyiko't,isiriq,chakanda,zubturum,marmarak,na'matak,aloe,jenshen.

7.Oshlovchi (taran).

8.Narkotik (nasha,ko'knori).

9.Bo'yoq beruvchi.

Tolali ekinlarda paxta katta ahamiyatga ega. Jahonda har yili 15-16 mln.t. paxta tolasi ishlab chiqariladi. Paxta qimmatbaho, lekin vegetatsiyasi uzoq davom etadi. Paxta quyosh nuri va suvni ko'p talab etadi. Paxta ekiladigan yerlar maydoni va paxta hosili jihatidan Osiyo mamlakatlari 1-o'rinda turadi.2-o'rinda Amerika mamlakatlari,3-Afrika mamlakatlari turadi.

Paxta tolasi yetishtirish bo'yicha yetakchi davlatlar:

1.Xitoy (4,2mln.t.y.)

4.Pokiston

2.AQSH

5.O'zbekiston

3.Hindiston

Asosiy eksportchilar-AQSH,O'zbekiston,Braziliya.

Importchilar-Horijiy Yevropa,Yaponiya,Rossiya.

Tolali zig'ir-tuproqda va havoda namni ko'p bo'lishini,o'rtacha issiqlik va tuproqni o'g'itlashni talab qiladi.Beda bilan almashlab ekilsa yaxshi hosil beradi.Zig'ir asosan Xitoy, Rossiya,Belorussiya,Boltiqbo'yi,Polsha,Fransiyada ekiladi.

Sizal asosan Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ekiladi.Kam eksport qilinadi.

Jut asosan Bengal qo'ltig'i bo'yida yetishtiriladi.Jahonda jutning asosiy qismini Bangladesh beradi.

Tabiiy kauchuk asosan to'qimalarida tabiiy kauchuk olish uchun ishlatiladigan sutshira-lateks ko'p bo'lgan o'simliklardan olinadi.Tabiiy kauchuk-geveya,tovsag'iz (Qozog'iston),gvayula kabi o'simliklardan olinadi.Tabiiy kauchukning asosiy qismini (85%) Janub-Sharqiy Osiyo mamlakatlari,ko'proq Malayziya,Indoneziya,Tailand,keyingi o'rinda Braziliya beradi.

Tabiiy kauchukni dunyo bo'yicha yalpi hosilini 46%ini Malayziya, 23%ini Indoneziya beradi.

Asosiy eksportchilar ham shular.

Importchilar: Yaponiya,AQSH,Horijiy Yevropa.

Mavzu: Dunyo chorvachiligi.

Chorvachilik (jivotnovodstvo)-qishloq xo'jaligining 2-muhim tarmog'i bo'lib,aholi va sanoatni go'sht, sut, yog', teri, shox, jun, qil bilan ta'minlaydi.Dunyodagi barcha qoramollar qirilib ketgan yovvoyi buqa,ya'ni turning avlodi hisoblanadi.Tur eramizgacha taxminan 7000 yil ilgari xonakilashtirilgan.

Jahonda 1350 mln bosh yirik shoxli qoramol, 1,1 mlrd bosh qo'y va echkilar, 950 mln bosh cho'chqalar mavjud (2006 y.)

Yirik shoxli qoramollar (krupniy rogatiy skot) biologik xususiyatlariga ko'ra 3 ta guruhga bo'linadi:

1. Sersut (xolmagor,yaroslavl zotlari).Sog'in davri 300 kun.Yog'liligi 3,6-3,7%, 3700-4300kg sut beradi.Rekordsmen qoramol 17500kg gacha sut bergan,yog'liligi 4,2%.

2. Sersut-go'shtdor zotlar (simmental,kostroma).Ular 4000 kg gacha sut beradi.Sigirlarning vazni 550-650kg, buqalarniki 1t.gacha.Sersut va sut-go'sht uchun qoramollar mo'tadil mintaqaning o'rmon va o'rmon-dasht zonalarida boqiladi.

3. Go'shtdor zotlar (shortgorn,qalmiq) mo'tadil va subtropik mintaqalarning qurg'oqchil hududlarida boqiladi.Buqalari 1t.dan ortiq yuk qiladi.1,5 yoshli buzoq 450 kg gacha semiradi.

Qoramollar AQSH, Kanada, Rossiya, Avstraliya va Argentinada keng yaylovlarda boqiladi.Dunyo bo'yicha 1,250-1,350 mln.bosh qoramollar bo'lib, ular soni bo'yicha yetakchi mamlakatlar

(2007 y):

1.Hindiston (210 mln. bosh).

4. AQSH (100 mln. bosh)

2.Braziliya (165 mln. bosh)

5. Argentina (52 mln. bosh)

3 Xitoy (115 mln. bosh)

6. Rossiya (36 mln. bosh)

Qo'ychilik (ovesovodstvo).Qo'ylar yovvoyi tog' qo'ylari muflon va arxarning avlodi.Qo'ylar asosan 3 maqsadda boqiladi:

1.Jundor zotlar mayin va ingichka uzun juni uchun boqiladi.Ularga sovet merinosi,arxariomerinos qo'ylari kiradi.Ulardan uzunligi 10sm li 12 kg gacha jun qirib olinadi.

Echkichilik juni uchun (angor)Turkiya va Eronda rivojlangan.

2.Terisi uchun Romanov zoti,qorako'l zotlari boqiladi.

3.Go'shti uchun dumbali qo'ylar,ayniqsa,hisor qo'ylari (150kg) ko'p boqiladi.Yog'i ko'p bo'ladi.

Jahondagi jami qo'ylarning 14%i Avstraliyaga to'g'ri keladi.Avstraliyaning dasht va chala cho'l zonalari jahondagi eng yirik qo'ychilik o'lkasidir (shpisteyshtz).Qo'ylar soni bo'yicha yetakchi davlatlar:

1.Xitoy (180 mln.bosh)

4.Argentina

2.Avstraliya

5.MDH

3.Yangi Zelandiya

6.Hindiston.

Dunyo bo'yicha 1,1-1,2 mlrd.bosh qo'ylar bor. Aholi jon boshiga Yangi Zelandiyada 15 ta, Avstraliyada 7,5 ta qo'y va echkilar to'g'ri keladi (2006 y).

Jun yetishtirishda yetakchi davlatlar:

1. Avstraliya (yiliga 762 ming t. dan ortiq)

2. Yangi Zelandiya

3. Xitoy

4. Rossiya

5. Qozog'iston

Jun eksport qiluvchi asosiy davlatlar: Avstraliya,Argentina,Yangi Zelandiya,JAR.

Importchilar: Horijiy Yevropa,AQSH,Yaponiya.

Cho'chqachilik (svinovodstvo) jahonda yetishtiriladigan go'shtning 2/5 qismini beradi.Cho'chqachilik aholi zich joylarda,sanoat markazlarida kartoshka yetishtiriladigan joylarda rivojlangan.Cho'chqa 6-7 ming yil ilgari xonakilashtirilgan

(kabandan).Cho'chqa tez semiradi va o'sadi,ovqat tanlamaydi,tez ko'payadi,go'shti va yog'ini kalloriyasi yuqori.Urg'ochisi 260 kg, erkagi 350 kg gacha semiradi.Yoshlari 6 oyda 100kg gacha semiradi.

Jahonda jami 950 mln.bosh (2006 y) cho'chqa bo'lib,shuni 40%i Xitoyga, 8%i MDHga, qolgani boshqa davlatlarga to'g'ri keladi.

Yilqichilik (konevodstvo).Yovvoyi ot-tarpandan 5-6 ming yil ilgari xonakilashtirilgan.Hozirda xonaki otlarning 200dan ortiq zoti ma'lum.

Otlar asosan miniladi,aravaga qo'shiladi,og'ir yuk tortadi.Sutidan qimiz tayyorlanadi.Qonidan shifobahsh preparatlar va zardob tayyorlanadi.

Ot zotlari: Orlov yo'rtoqchisi, Vladimir, Don, Budyoniy, Rus zotlari, Vladimir zoti 22,5 t.yuk tashigan.

Bug'uchilik(olenovodstvo) shimol xalqlari hayotida katta ahamiyatga ega.Shimol bug'ulari go'sht,teri,sut,shohi va ulov hayvoni sifatida boqiladi.Asosan tundra va o'rmon-tundrada ya'ni Rossiya va Kanada hududlarida boqiladi.

Tuyachilik (verblyudovodstvo) tropik va subtropik cho'l va chala cho'llarda rivojlangan."Sahro kemasi" Osiyoda 2 o'rkachli,Arabiston Yarim oroli va Afrikada bir o'rkachli tuyalar yashaydi.Tuyalar go'shti,suti,terisi,juni uchun va transport sifatida boqiladi.Janubiy Amerikada o'rkachsiz tuya-lama tog'da asosiy transport hisoblanadi.

Asalarichilik (pchelovodstvo), pillachilik (shelkovodstvo)-Xitoy, Yaponiya, Italiya, O'rta Osiyo davlatlarida yaxshi rivojlangan.

Parrandachilik-Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida (broyler xo'jaligi) yaxshi rivojlangan.

Darrandachilik-mo'ynasi uchun tulki, quyon, norka, sabol, ondatra, nutriya kabilarni boqishdir. Bu tarmoq shimoliy rivojlangan mamalakatlarda yaxshi rivoj topgan.

Baliq ovlash bilan insoniyat qadimdan shug'ullanib kelgan.Hozirda dunyoda 15mln kishi baliq ovlash bilan shug'ullanadi.Dunyoda yillik ovlanadigan baliq va boshqa dengiz mahsulotlari (krab,krevetka,qisqichbaqa,omar,molyuskalar,dengiz suv o'tlari (laminariya,dengiz karami)) 100mln.t. tashkil qiladi.Bu mahsulotlarning 90%ini dengiz va okeanlarda baliq tutish tashkil etsa, 10%ini chuchuk suvlardan ovlanadigan baliqlar tashkil etadi.Dengiz organizmlarining oqsillari mol va parranda oqsillaridan qolishmaydi va insoniyatning oqsilga bo'lgan talabini 1/5 qismini ta'minlaydi.Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining iste'molida asosiy o'rin tutadi.Jahonda tutiladigan baliqning yarmi (50%i) 6 mamlakatga to'g'ri keladi. Ular:

- | | |
|------------|---------|
| 1.Yaponiya | 4.AQSH |
| 2.Xitoy | 5.Chili |
| 3.Rossiya | 6.Peru. |

Jahonda baliq asosan materik sayozliklaridan tutiladi.2-jahon urushiga qadar jahonda baliq tutiladigan asosiy rayon Atlantika okeanining shimoliy qismi bo'lgan.XX asrning 2-yarmida baliq ovlanadigan asosiy rayon Tinch okeanining shimoliga ko'chgan.Dunyo bo'yicha ovlanadigan jami baliq va dengiz mahsulotlarining 85%ini tabiiy suv havzalari,15%ini sun'iy suv havzalari beradi.

Akvakultura-sun'iy suv havzalarida baliq va boshqa dengiz organizmlarini ko'paytirishdir. Akvakultura dastlab Xitoyda 4000 yil avval vujudga kelgan.

Akvakultura mahsulotining 80%ini Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Yaponiya, Koreya, Tailand, Malayziya, Singapur) beradi.

Marikultura-baliq va boshqa dengiz mahsulotlarini dengiz muhitida ko'paytirish. Dunyo okeanida baliqlarning 130000 turi, o'simliklarning 10000 turi uchraydi.

Mavzu: Dunyo qishloq xo'jaligi va atrof-muhit muhofazasi.

Minglab yillar davomida kishilarning qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishi atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Tabiiy landshaft o'rnida antropogen landshaft shakllandi. Hozirda Antarktidadan tashqari barcha materiklarda antropogen landshaftni ko'rish mumkin. Dehqonchilik va chorvachilikni ekstensiv rivojlantirilishi (atrof-muhitga) yerlarni haydash va o'rmonlarni kesish orqali kuzatiladi.

Qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi hozirda ayniqsa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida kuzatilmoqda. Intensiv qishloq xo'jaligi rivojlangan (Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida) mamlakatlarda atrof-muhitga kuchli ta'sir kuzatilmoqda. Sababi intensiv qishloq xo'jaligi uchun ximiya sanoati va mashinasozlik sanoati mahsulotlari yetakchi hisoblanadi. Masalan: hozirda jahon qishloq xo'jaligida 100000ga yaqin ximiyaviy preparatlar qo'llanilmoqda. Har yili dalalarga 500mln.t. kimyoviy o'g'it va 4-5 mln.t. turli xil ximiyaviy zaharli moddalar sepilmoqda. Qishloq xo'jaligini kimyolashtirishdan katta iqtisodiy foyda olinadi, lekin pestisidlar, gerbisidlar (o'simliklarga qarshi), insektisidlar (hashorotlarga qarshi) atrof-muhitni, ayniqsa mln. yillar shakllangan ekologik muvozanatni kuchli zararlaydi.

Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi ximiyalashtirishdan yiliga 400000dan -2mln.gacha odam zaharlanmoqda. Bularning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq aholisidir. Masalan: paxta yakka hokimligi davrida qishloq atrofida ba'zan odamlar ustidan samolyot va OVXlarda dori sepishgan.

AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida zaharli moddalarni qo'llash butunlay taqiqlangan. Ximiyaviy o'g'itlar (fosforli, kaliyli, azotli)ni yerlarga muttasil yiliga solish tuproqning tabiiy xususiyatini yo'qotadi, strukturasi buzadi, foydali tuproq hayvonlari va mikroorganizmlarini kamaytirib yuboradi yoki butunlay yo'qotadi. Masalan: tuproq chugalchanglarini, tuganak bakteriyalarni. Organik o'g'itlar esa buning aksi.

XX-asrning 80-yillaridan boshlab, dastlab AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi biologik kurash usuli rivojlandi.

Baliq ovlash bilan insoniyat qadimdan shug'ullanadi. Hozirda dunyoda 15mln. kishi baliq ovlash bilan shug'ullanadi.

Mavzu: Jahon transport geografiyasi.

Jahon xalq xo'jaligini transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Transport moddiy ishlab chiqarishning 3- tarmog'i hisoblanadi, u barcha tarmoqlarning rivojlanishda yetakchi asosiy o'rin tutadi.

Transport:
-sanoat bilan qishloq xo'jalik orasidagi;

- qayta ishlovchi bilan undiruvchi sanoat orasidagi;
- ishlab chiqarish bilan xom-ashyo orasidagi;
- ishlab chiqarish bilan iste'molchi orasidagi;
- jahon mamlakatlari bilan turli regionlar orasidagi mahsulot va xom-ashyo almashinishini;
- jahon mamlakatlarida xalqaro tashqi savdo bilan ichki savdoni ta'minlaydi.
- yangi territoriyalarni o'zlashtirish,mineral resurslardan to'liq foydalanish (ayniqsa,foydali qazilmalardan,o'rmon,yer) uchun albatta transport yo'llari o'tkaziladi (masalan: Transamazoniya,BAM);
- transport geografik mehnat taqsimotini asosini tashkil etadi.

Transport xalq xo'jaligiga xizmat qilish bilan birga ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och, qurilish materiallari, sanoat mahsulotlari va malakali mehnat resurslarini talab etadi.

Barcha yo'llar (temir yo'l,avtoyo'l,suv,havo,quvur,elektron), transport korxonalari va transport vositalari birgalikda jahon transport sistemasini tashkil etadi.Jahon transport tizimida 100mln.dan ortiq kishi band.Bu Ukraina aholisiga nisbatan 2 marta,Portugaliya aholisidan 10 marta ko'p.Jahondagi butun transport yo'llarining umumiy uzunligi 32 mln.km dan oshadi.

Har yili jahon transportining barcha turlarida 100 mlrd.t.dan ortiq yuk va 1trln.ga yaqin yo'lovchi tashiladi.Bu yuk va yo'lovchilarni tashishda 400000 lokomotiv va millionlab vagonlar, 130mln.ga yaqin avtomobillar, 10000 kema, 2000dan ortiq samolyotlar qatnashadi.

FTI transportning ayrim turlari o'rtasidagi "mehnat taqsimotida" katta o'zgarishlarga olib keldi.Masalan:dengiz transportini neft va neft mahsulotlarini tashishi (ilgari odam tashigan).

FTI-transport yo'llari va turlarini yuk ko'tarish va o'tkazish imkoniyatlarini oshirdi.

-butunlay yangi transport vositalarini yuzaga keltirdi (Internet).

-yuk sig'irish,tashish imkoniyatlari va harakat tezligini oshirdi.

Bular ayniqsa,temir yo'llarning elektrlashtirilishida,magnit maydon ustida yuruvchi tezyurar poezdlarda (Yaponiyada soatiga 550km tezlikda yuruvchi poezd sinovdan o'tdi) elektromobillar,gaz balonli va dizelli dvigatelli texnikalarga qiziqish oshganligida,atom kemalarda keng fziyuajli aerobuslarda kuchli sezilmoqda.

Har xil transportni rivojlantirishga yuklarni konteynerlarda tashish,transportdagi mehnat unumdorligini 8-10 marta oshirib yubordi.

Dunyodagi yuk va yo'lovchi tashish geografik jihatdan juda notekis taqsimlangan.Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar transporti, texnika darajasining yuqoriligi va transport tarmoqlarining o'zaro yuksak aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Jahon transport tarmoqlari va jahondagi yuk va yo'lovchi tashishning 75-80% shu mamlakatlarga to'g'ri keladi.Rivojlangan mamlakatlarning transport tarmoqlari bilan ta'minlanganlik darajasi,ularning zichligi, aholining transportdan foydalanish darajasi ham eng yuqori.Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida transport qishloq xo'jaligi kabi ekonomikaning qolqoq tarmog'idir.

Transport sistemasining shakllanmaganligi ularning rivojlanishiga,tabiiy resurslarning o'zlashtirilishiga,xalqaro savdo va iqtisodiy rayonlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek,mazkur mamlakatlarda 1yoki 2xil transportning ustun

turishi xarakterli.Masalan: Hindiston, Pokiston, Braziliya, Argentinada temir yo'l, Yaqin va O'rta Sharqda quvur transporti, Tropik Afrikada daryo transporti.

Lekin temir yo'lda eski paravozlarni daryolarda eski kemalarni saqlanib qolganligi taraqqiyotga kuchli ta'sir qiladi.Ko'p mamlakatlarda yuk tashishda ot,tuya,eshak,fil,lama,buyvullardan foydalaniladi.Jahon transport sistemasining regional qismlari: MDH, Shimoliy Amerika,Horijiy Yevropa,Yaponiya,Lotin Amerikasi,Janubiy Osiyo.Transportning ish haqi uning yuk oborotiga qarab belgilanadi.Yuk oboroti t.-km hisobida o'lchanadi.Yuk oboroti ma'lum vaqtda ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir.

Mavzu: Jahon quruqlik transporti.

Jahonda temir yo'lga dastlab 1825 yili Angliyada asos solingan.Temir yo'lga Rossiyada 1837 yil,O'zbekistonda esa 1888 – yil asos solingan.Temir yo'l qurish 1970 yillargacha jahonda juda tez o'sdi.Hozirda temir yo'lni yuk va yo'lovchi tashishdagi salmog'i kamaygan bo'lsa-da, u quruqlik transportining muhim tarmog'idir.Jahon temir yo'l turi XX asrning boshida asosan shakllangan bo'lib,hozirda uning umumiy uzunligi 1,3mln.km atrofida (1250ming km).

Temir yo'l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramay hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta,ayniqsa yuk tashish tannarxi past. Temir yo'llarning elektrlashtirilishi, poezdlarning qatnov tezligi, og'irligi, temir yo'llarning yuk o'tkazish qobiliyati,ya'ni ularning ish unumini, ekologik muammoni oshiradi.

Elektrlashtirilgan temir yo'llarning uzunligi jihatidan jahondagi yetakchi davlatlar:

- | | |
|--------------|-------------|
| 1.AQSH | 4. Fransiya |
| 2.Rossiya | 5. Italiya |
| 3. Germaniya | |

Temir yo'llar maydoni yirik mamlakatlarda boshqa transport turlariga qaraganda katta iqtisodiy foyda keltiradi.FTI sababli Fransiya va Yaponiyada poezdlarning qatnov tezligi oshdi. Fransiyada 1955 yil soatiga (331km),1981 yil 380km.1990 yil atrofida 515km tezlikda yuradi.Parij-Bordo 350km.s.

Jahonda tashiladigan jami yukning 16%i,yo'lovchining 11%i temir yo'l transportida tashiladi. Lekin ayrim davlatlarda bu ko'rsatkich boshqacharoq. Masalan:Rossiyada jami tashiladigan yukning 55%i, AQSHda 30,3%i, Fransiyada 10,6%i, Yaponiyada 0,2%i temir yo'llarida tashiladi. Jami yo'lovchining esa Rossiyada 33,2%i, Yaponiyada 33,9%i, Fransiyada 9%i, AQSHda 0,2%i temir yo'llarida tashiladi.

Temir yo'llarda yuk tashish tannarxi bir xil emas.Agar temir yo'llar tekislikdan o'tgan bo'lsa,yuklar ko'p va uzoq masofaga tashilsa va temir yo'llar elektrlashtirilgan bo'lsa bunday yo'llarda yuk tashish tannarxi arzonga tushadi.Aksincha elektrlashtirilmagan,relifi murakkab va oz yuk qisqa masofaga tashilsa,tannarxi yuqori bo'ladi.

Temir yo'llar bir yo'lli va ikki yo'lli, bir izli va ikki izli bo'ladi. Masalan: O'zbekiston temir yo'llarining barchasi bir yo'lli. Yaponiyada bir izli temir yo'llar ko'p.

Temir yo'llar: iqtisodiy, turistik, siyosiy va harbiy strategik ahamiyatga ega.

Temir yo'l paromlari va tunellari temir yo'llarda yuk va yo'lovchi tashishni bir necha marta tezlashtiradi, vaqt, yoqilg'i va ehtiyot qismlarini tejaydi.Masalan: Boku-

Krasnovodsk. Harbiy - Gruzin yo'li. Jahonda 140 mamlakatda temir yo'li bo'lsa-da, ularning ichida "birinchi oltilik" davlatlari hissasiga temir yo'llar umumiy uzunligining yarmi to'g'ri keladi. Ular: AQSH (265000km), MDH (145000km), Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya.

Temir yo'l tarmoqlarining zichligi (100km^2 joyga 10km) bo'yicha Horijiy Yevropa davlatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda temir yo'l tarmoqlari juda siyrak yoki mutlaqo yo'q (30 davlat asosan Yaqin Sharq va G'arbiy Afrikada) davlatlar ham mavjud.

Temir yo'l tarmoqlarining zichligiga ko'ra jahonda Germaniya, Shvetsariya, Chexiya ajralib turadi. AQSH va Buyuk Britaniyada temir yo'llar qisqarmoqda.

Avtomobil transporti-XX asr transporti hisoblanadi. Bu transport istalgan tomonga bora oladigan eng qulay transportdir. U yuklarni yo'lda tushirib ortmay bevosita iste'molchiga to'g'ri yetkazib bera oladi.

Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jalik korxonalarini magistral transport bilan bog'laydi. Shahar atrofida va qisqa masofaga yuk tashishda eng afzal transport hisoblanadi. Shuningdek tog' oldi va tog'li rayonlar uchun katta ahamiyatga ega.

Avtomobil yo'llarining uzunligi tobora ortib bormoqda va hozirda 24mln.km ga yaqinlashdi. Uning taxminan yarmi 5 mamlakat: AQSH, MDH, Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga to'g'ri keladi. Avtoyo'llar texnik holati, mavqei avtomobil qatnoviga iqtisodiy, siyosiy va harbiy ahamiyatga ko'ra dunyo ahamiyatiga molik, davlat ahamiyatiga, viloyat (shtat, prov.) ahamiyatiga, rayon va mahalliy ahamiyatga ega yo'llarga bo'linadi. Temir-beton, asfalt, tosh, grunt yo'llar.

Avtomobillashtirish AQSHda yuksak darajaga yetgan bu mamlakatda har 1000 kishiga 600 avtomobil to'g'ri keladi. Horijiy Yevropa davlatlarida esa 1000 kishiga 300-400 avtomobil to'g'ri keladi. Avtoyo'llarning uzunligi MDHda 1346000km bo'lib, shundan 927000km qattiq qoplamalidir.

Jahon avtoparklarining 50%i AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek AQSHda barcha yukning 25,4% yo'lovchilarning 88,2%i avtotransportda tashiladi. AQSH avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda, import bo'yicha 1-o'rinda turadi.

Jahon avtoyo'llari, avtoparklar va avtotransportda yuk tashishning 90%i rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi. Ya'ni jahonda tashiladigan jami yukning 8%i, yo'lovchining 80%i avtotransportda tashiladi. Lekin bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha. Masalan: tashiladigan jami yukning AQSHda 25,4%i, Fransiyada 21,2%i, Yaponiyada 7,4%i, Rossiyada 1,5%i, yo'lovchining esa AQSHda 88,2%i, Fransiyada 84,2%i, Yaponiyada 56,9%i, Rossiyada 33%i avtotransportga to'g'ri keladi.

Mavzu: Quvur va elektron transporti.

Quvur transportida asosan tabiiy gaz, neft, suv va sut (Avstriya, Shvetsiya tog' yaylovlarida), issiqlik (paravoy) tashiladi. Quvur transportining ish unumi quvurning yo'g'onligi, materialning sifatiga, gaz va neftning qanday bosim bilan harakatlanishiga bog'liq. FTI yutuqlari hozirda 120 va hatto undan ortiq atmosfera bosimi yaratish va shunga chidamli quvurlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Lekin atmosfera bosimiga eng chidamli quvurlarda tabiiy gaz va neft tashish faqat ayrim rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda

past. Masalan: O'zbekistonda quvur transportida hozircha bosim 40atmosferadan oshmayapti (xonadonlarimizdagi gaz quvurlarida bosim 0,5-2 atm. bo'ladi).

Neft va tabiiy gazni quvurlarda tashish shimoldagi mamlakatlarda birmuncha qimmatga, janubdagi davlatlarda ancha arzonga tushadi. Sababi neft bilan tabiiy gaz sovuqda quyushadi va quvurlardan o'tishi sekinlashadi. Buning chorasi sifatida quvurlar ma'lum oraliqda maxsus pechlar yordamida isitib turiladi. Quvurlar transportini o'tkazilishida va unda mahsulot tashilishida murakkab relief shakllari (tog'lar, jarlar, daryolar, dengizlar) sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, neft tashishda.

Jahonda quvur transportining umumiy uzunligi 1500000 km (2008 y) dan ortiq. Jahonda tashiladigan barcha yukning 11%i quvur transportiga to'g'ri keladi. Lekin bu ko'rsatkich Rossiyada 27,5%, AQSHda 16,5%, Fransiyada 5,2%, Yaponiyada 0,2%ni tashkil qiladi.

Jahonda quvur transportining uzunligi bo'yicha yetakchi regionlar:

- | | |
|-------------------|---------------------------------------|
| 1. MDH (200000km) | 3. AQSH |
| 2. Kanada | 4. Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari. |

Quvur magistralining uzunligi ba'zan 5000km gacha boradi.

MDHda quvurlar orqali neftning 60%, tabiiy gazning deyarli hammasi tashiladi. Jahonda esa tashiladigan barcha yukning 11%i quvur transporti hissasiga to'g'ri keladi. "Do'stlik" (Drujba) neft quvur magistrali "Shimol yog'dusi" (Siyanie Severa) va "Ittifoq" (Soyuz) tabiiy gaz quvurlari MDHdagina emas, balki jahondagi eng yirik magistralar hisoblanadi. Mazkur magistralar orqali MDHdan Bolgariya, sobiq Yugoslaviya, Vengriya, Chexiya va Slovakiya, Polsha, Fransiya va GFR kabi davlatlarga neft va tabiiy gaz eksport qilinadi. Mazkur mamlakatlarning neft-ximiya sanoati tarmoqlarining asosiy qismi mazkur magistralar atroflarida joylashgan.

Quvurlarni hamma joyda, istalgan yo'nalishda yotqizish mumkin, buning ustiga uning yuborish masofasi daryo va temir yo'l transportidagiga nisbatan qisqaroq va tannarxi pastroq bo'ladi.

FTI tufayli neft va gaz quvurlar dengizlar ostida ham yotqizilmoqda. Masalan: Shimol dengizi va O'rta Yer dengizida. 1980 yillar boshida jahonda 1-marta qit'alararo quvur magistrali yotqizildi. Bu Jazoir-Italiya gaz quvuri bo'lib, uning uzunligi 2,5ming km, chuqurligi 500-600 m. li dengiz tubidan o'tgan. Trassa butun O'rta dengizni kesib o'tgan bo'lib, uning yotqizilishida maxsus kemalar qatnashgan.

Kelajakda quvurlardan suv yordamida qattiq materiallar (ko'mir, ruda)ni maydalangan holda tashish ko'zda tutilmoqda va loyihalari ishlanmoqda.

Elektron transport-yangi va ahamiyati tez o'sib borayotgan transport tarmog'idir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yaxshi taraqqiy etgan. Lekin ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, qoloq Afrika mamlakatlarida endi shakllanayotgan yoki butunlay shakllanmagan transport turidir. Elektron transportda elektr energiyasi, tovush (telefon), tasvir (internet) va turli xil belgilar tashiladi. Radio hamda teleto'lqin faks ham tashiladi. Mazkur transport turining rivojlanganlik darajasi jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Elektr stansiyalarining (GES, IES, AES) bir-biriga ulanishi natijasida energetika sistemasi hosil bo'ladi, ya'ni elektron transport vujudga keladi. Biroq mamlakat yoki regiondagi (mamlakatlararo) ESlarning o'zaro tutashishidan, ya'ni birlashtirilishidan YAES (yagona energetika sistemasi) hosil bo'ladi.

YAES-iqtisodiy jihatdan katta qulaylik yaratadi. Masalan: ES buzilsa yoki remontga to'xtasa.

Jahondagi eng yirik YAESga MDHdagi "MIR" misol. "MIR"ga ayrim Horijiy Yevropa davlatlari ham ulangan.

Aloqa liniyalari (telefon, telegraf, faks, tele va radio to'liqlarini tarqatish) ham transport tarmog'i hisoblanadi. Chunki ular ham turli signal va to'liqlarni tashiydi.

Mavzu: Suv transporti.

Quruqlik transportidan farq qilib, jihozlanishi uchun ko'p harajat talab qilmaydi, tabiiy suv yo'llaridan foydalanadi. U yoqilg'ini ko'p ishlatmaydi.

Yuk tashish tannarxi temir va avto transportga nisbatan ancha arzon, lekin harakat tezligi past, yuk tashish mavsumiy, suv yo'lining yo'nalishi hamma vaqt ham zaruriy yo'nalishlarga to'g'ri kelavermaydi.

FTI sababli suv transportining bu salbiy tomonlari kamayib bormoqda. Masalan: Zamonaviy kemalarning tezligi ortib bormoqda. Masalan: "Yunayted Steyts" (AQSH) layneri so'nggi marta Atlantika okeanini 3 sutka 10 soat 40 minutda kesib o'tgan. Masalan: X. Kolumb 3 oy suzgan.

-Muzyorar flot tufayli shimoliy kengliklarda novigatsiya davri uzaytirilmoqda. (Makarov loyihasi 1899 yil muzyorar "Yermak"). Masalan: Murmansk-Uzoq Sharq.

-Suv yo'llarining o'zi esa kerakli yo'nalishdagi kanallar orqali birlashtirilmoqda. Masalan: Panama, Suvaysh, Kill kanali, Belomor-Baltika, Volga-Don va h.k.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi.

Dengiz transporti jahon transport sistemasining juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, shu transportning rivojlanishi tufayli Dunyo okeani qit'alarini bir-biridan ajratib turuvchi emas, balki bog'lab turuvchi vositaga aylandi. Jahonda xalqaro tashiladigan butun yuklarning 62%i, yo'lovchining 0,5%i dengiz transportida tashiladi.

Dengizda yuk tashish 2 xil bo'ladi:

1. Chet mamlakatlarga yuk tashish.
2. Kabotaj (o'z mamlakati portlari orasida).

Kabotaj 2xil bo'ladi:

Katta kabotaj-turli dengizlar orqali yuk tashish.

Kichik kabotaj-bir dengizda yoki yonma-yon dengizda yuk tashish.

Suv transportida tashiladigan yuk evaziga olinadigan kira haqi fraxt deyiladi. Kemalar har xil yuklarni tashiyveradigan universal kemalardan va maxsus kemalardan (yog'och-taxta tashuvchi, konteyner tashuvchi, refrijerator (xolodilnik qurilmalari o'rnatilgan kemalar), neft va suyultirilgan gaz tashuvchi (tanker), ko'mir va ruda tashuvchi) iborat.

Dengizda yuk tashishga dengiz savdo floti (DSF) xizmat qiladi, uning umumiy tonnaji 400mln.t.dan ortiq. 1970 yillar dengiz kemalarining asosiy qismini tankerlar tashkil etar edi, endilikda tankerlar salmog'i sezilarli kamaygan. Jahon DSFda 160ga yaqin davlat kemalari mavjud bo'lsa-da, lekin flotning yuk ko'tarish qobiliyati (tonnaji) jihatidan:

1. Panama (58mln.t.)

6. Yaponiya (22)

- | | |
|------------------|------------------------|
| 2.Liberiya (54) | 7.Buyuk Britaniya (18) |
| 3.Gretsiya (30) | 8.Xitoy (16) |
| 4.Kipr (23) | 9.Rossiya (15) |
| 5.Norvegiya (22) | 10.AQSH (14) |

DSFda Liberiya va Panama flotining mavjudligiga va yetakchi ekanligiga sabab shuki, aslida iqtisodiy rivojlangan davlatlarning kemalari shu davlatlar bayrog'i ostida suzadi. Bunga sabab: kema egalarining soliqni kamroq to'lash va dengizchilarga kamroq maosh berish hisobiga mablag'ni iqtisod qilishi.

Dengizda yuk tashishning ko'payishi faqat flot tonnajining oshishiga bog'liq bo'lmay (Yaponiyada 1mln.t.), balki portlarning yuk o'tkazish qobiliyatiga ham bog'liq. Jahondagi hamma dengiz portlarining umumiy soni 2700 dan ortadi. Lekin jahon portlari deb ataladigan (yiliga 50mln.t. dan ortiq yuk o'tkazadigan) portlar soni 20 ta. Bularning 11 tasi yiliga 100mln.t. dan ortiq yuk o'tkazadi.

Rivojlangan mamlakatlar uchun universal portlar, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun maxsus portlar, ya'ni tor ixtisosli portlar (neft, ruda, g'alla) xosdir.

Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab jahonda kema qatnovida Atlantika okeani 1-o'rinda turadi. Okean sohillarida 1,5mlrd aholisi bo'lgan 70 mamlakat joylashgan. Dengizda tashiladigan yukning teng yarmi shu okeandan o'tadi va barcha dengiz portlarining 2/3 qismi shu okean bo'yida joylashgan.

Dengizda yuk tashishda 2-o'rinda Tinch, 3-o'rinda Hind okeani turadi. MDHda yuk oboroti bo'yicha 1-o'rinda Qora va Azov dengizlari turadi.

Jahonda eng yirik dengiz portlari: Rotterdam (bir yo'la 310ta yirik kemani qabul qiladi, yiliga yuk oboroti 225 mln.t.), Nyu-York, Kobe (Yaponiya), Tiba (Yaponiya), Iokogama (Yaponiya), Nagoya (Yaponiya), Singapur.

Xalqaro dengiz kanallari-jahon dengiz yo'llarining eng muhim chorrahalari hisoblanadi. Masalan: Suvaysh kanali (1869 yil ochilgan). Uzunligi 161 km, eni 120-150 m, chuqurligi 16m, shlyuzsiz, 150ming t.gacha kemalarni o'tkazadi, sutkasiga 60ta, yiliga 20ming kema o'tadi, yo'l vaqti 15 soat. Yuk aylanmasi 340mln.t. Yevropa bilan Osiyo portlari orasidagi masofani 9ming km ga, 2,5-3 marta qisqartiradi. Suvaysh kanali qazilishi 10 yil davom etgan. Faqat qo'l kuchi bilan qazilgan va kanal qazilishida 120000 odam o'lgan. Shuning uchun kanal qazuvchilar xotirasiga monument qo'yilgan.

Panama kanali 1914 yil 15 avgustda ochilgan. Kengligi 91,5-150m, chuqurligi 12,5, uzunligi 81,6km. Yiliga 12-15ming kema o'tadi. Yuk oboroti 100mln.t. 1903 yil Panama Gatun bo'yini AQSHga beradi. 1977 yil AQSH-Panama shartnomasiga muvofiq kanal Panamaga 31.X11.1999yil qaytarilishi kerak edi. Lekin...

Kill kanali 1887 yil Germaniyada strategik maqsadda qazilgan. Shimoliy va Boltiq orasidagi masofani 430 km ga qisqartiradi. Uzunligi 95 km, kengligi 102m, chuqurligi 11m, yillik yuk oboroti 50mln.t.

Jahon dengiz bo'g'ozlari: Bobilmandab, Katta Belt, Bosfor, Gibraltar (sutkasiga 200ta kema o'tadi), Dardanel, Zond, Kara Darvozasi, Kattegat, Koreya, La-Mansh (sutkasiga 500 kema o'tadi), Laperuza, Magellan, Malakka, Pa-De-Kale, SkaGerrak, Tayvan, Tatar, Torres, Sugaru, Florida, Yeresun. Faqat mazkur bo'g'ozlar yirik dengiz kemalari uchun "torlik" va "sayozlik" qilib kelmoqda. Masalan: La-Mansh bo'g'ozining kafolatli chuqurligi 30-35m, Bosforniki 27m, Malakkaniki 25m.

Eng yirik paromlar: Boku-Krasnovodsk (300km), Pusan-Simonoseki (222km), Fransiya-Buyuk Britaniya va h.k.

Mavzu: Daryo transporti.

Ichki suv transporti-transportning eng qadimgi turidir.Mazkur transport yuk va yo'lovchi tashishda, yo'llarning umumiy uzunligi (550000 km 2006 y) bo'yicha jahon transport sistemasida oxirgi o'rinlarda turadi.Yukning 2%i, yo'lovchining 0,5%i shu transportda tashiladi.Ichki suv transportining rivojlanishi va joylashishi birinchi navbatda kemalar suza oladigan daryo hamda ko'llarning bor-yo'qligiga bog'liq.

Quruqlik transportiga qaraganda daryo transportining kamchiliklari bo'lishiga qaramay,ba'zi hududlarda daryo transporti xal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan: Sibirda, Amazoniyada.

Daryo kemalari ko'p yuk ko'taradi va tashiladigan yuk birligiga energiyani temir yo'lga nisbatan deyarli 6 marta kam sarflaydi.Shu sababli daryolarda hajmi katta, miqdori ko'p va tez olib borishi talab etilmaydigan yuklar tashish iqtisodiy jihatdan foydali.

Daryo transportida tashiladigan yuk tannarxiga sharsharalar, ostonalar va daryolarning sayozligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur to'siqlarga FTI sababli birmuncha barham byerilmoqda.

Amazonka, Missisipi, Ob, Yenisey, Kongo kabi daryolarning transport imkoniyatlari yirik temir yo'l transporti imkoniyatlaridan ham ortiq.Biroq bu imkoniyat va sharoitdan foydalanish iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasiga bog'liq.Shuning uchun dunyoda ichki suv yo'llarida yuk tashishda AQSH, Rossiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy ajralib turadi.Ayni paytda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining juda katta daryo shahobchalariga jahon ichki suv yo'llarida tashiladigan yukning 5%i to'g'ri keladi.

Ichki suv yo'llarning uzunligiga ko'ra 1/10qismi sun'iy suv yo'llariga to'g'ri keladi.Ularning eng kattalari AQSH, Xitoy, Rossiyada joylashgan.

Ko'l kema qatnovining eng asosiy rayoni AQSH va Kanadadagi Buyuk ko'llar bo'lib, bu ko'llar San-Lavrentiy chuqurlatma kanali orqali okeanga tutash.Bu yo'l orqali dengiz kemalari quruqlik ichkarisiga 4000 km ga kira oladi.

MDHdagi asosiy daryo yo'li Volga-Kama havzasi bo'lib, undan tashqari Dnepr, Don va Sibir daryolari katta ahamiyatga ega.Ko'llaridan Ladoga (II-jahon urushi yillarida sobiq Lelingrad shahri uchun 900 kunlik blokadada "hayot yo'li" bo'lgan), Onega, Kaspiy dengiz ko'li, Balxash, Baykal muhim o'rin tutadi.O'zbekistonda asosan Amudaryo, Sirdaryoda esa qisman suv transporti mavjud bo'lib, boshqa transport tarmoqlarining taraqqiy etishi munosabati bilan suv transportining ahamiyati tobora pasayib bormoqda.

Orol dengizida kema qatnovi 1980 yillargacha mavjud bo'lib, keyingi yillarda to'xtab qolgan.

Havo transporti

Aviatsiya-transportning eng yosh, eng tez, eng qimmat va joy relefiga bog'liq bo'lmagan turidir. Dastlabki "samolyotni" 1885 yil rus dengiz ofitseri A.F.Mojayskiy ixtiro qildi.U bug' dvigatelli 1-samolyot bo'lib, podsho tomonidan qo'llab-

quvvatlanmadi.2-samolyotni 1903 yil 17.X11. Amerikalik aka-uka Raytlar yaratdi (kerosin bilan ishlaydigan). Mazkur samolyot 32m ga uchdi.”Avis” so’zi lotincha “qush” demakdir.

Mashxur aviakonstruktorlar: E.N.Jukovskiy, A.N.Tupalyov (AN, TU marka), S.V.Ilyushin (Il), A.I.Mikoyan (Mich), A.S.Yakovlev (Yak).(TU).

Il-76-40t.yuk bilan 850km tezlikda ucha oladi. MIG-qiruvchi samolyoti 2400km.soat tezlikda ucha oladi.

Havo transportining ahamiyati yil sayin ortib bormoqda.Masalan: 1948 yil havo transportida 20mln yo’lovchi tashilgan bo’lsa, 1990 yil 1,2mlrd yo’lovchi tashildi.

Dastlabki samolyot bug’ dvigatelli bo’lsa, hozirda turbovintli va reaktiv samolyotlar qatnamoqda.

Havo yo’llarining umumiy uzunligi 8mln km ga cho’zilgan bo’lib, ularni 25000 tayyoragoh tutashtiradi.Havo transportini qays regionlarda va qay darajada rivojlanganligini jahondagi eng yirik 19 ta aeroportni joylashgan hududiga qarab ham bilsa bo’ladi. Jahondagi eng yirik mazkur 19 aeroportni 8 tasi AQSHda, 5 tasi Xorijiy Yevropada, 1 tasi Rossiyada, 1 tasi Kanadada, 1 tasi Kubada, 1 tasi Singapurda, 1 tasi Yaponiyada, 1 tasi Avstraliyada joylashgan.Dunyodagi eng katta tayyoragoh Londondagi Xitrou tayyoragohi bo’lib, 1sutkada 100000 yo’lovchi va 700 samolyotni qabul qiladi va uchirib yuboradi.

AQSHdagi eng yirik xalqaro aeroport CHikago shahridagi O¹ Xayr aeroportidir.

MDHda esa 1-o’rinda Domodedovo (Moskva) 2-Toshkent aeroporti turadi.Toshkent MDHning janub va Sharq darvozasi bo’lib, 30dan ortiq Osiyo mamlakatlariga samolyot orqali bog’langan.

Qit’alararo yo’lovchi tashishda havo yo’llari dengiz transportini siqib chiqardi va 1-o’rinni egalladi.

Aviatsiya-qishloq xo’jaligida, dengizda baliq ovlashda, o’rmon yong’inlarini o’chirishda, meterologiyada va tez yordamda katta o’rin tutadi.

Havo transporti eng rivojlangan mamlakatlar: AQSH, MDH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Germaniya.

Zamonaviy trubovintli samolyotlar: “Boing 747” (AQSH 500 yo’lovchi), Il-86, A-310 (GFR,-Fransiya,-Buyuk Britaniya) tovushdan tez uchadigan “Konkard” (Fransiya,-Buyuk Britaniya), Embraer.O’zbekistonda Il-114.

Jahon havo transportining 50%i AQSH ga (Boing) to’g’ri keladi.Jami tashiladigan yukning AQSHda 0,3%i,Fransiyada 0,8%i,Yaponiyada 0,7%i, jami yo’lovchining Rossiyada 18,6%i,AQSHda 11,3%i, Fransiya 6,8%i,Yaponiyada 8,7%i havo transportiga to’g’ri keladi (2006 y).

Mavzu: Horijiy Yevropaning umumiy tavsifi.

Horijiy Yevropa maydoni 5,9 mln.km², aholisi 584mln (2008 y). Bu yerda tarixiy taqdiri umumiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari bir xil bo’lgan 45ta suveren davlat joylashgan.

Yevropa-jahon sivilizatsiya markazlaridan biri,buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat inqiloblari, shahar aglomeratsiyalari, madaniy va siyosiy revolyutsiyalar, xalqaro iqtisodiy integratsiya ro’y bergan qit’a.

Maydoni shimoldan janubga 5000 km ga, g'arbdan sharqqa 3000 km ga cho'zilgan. Horijiy Yevropa mamlakatlarining maydoni asosan o'rta va mayda bo'lib, eng kattasi Ukraina Respublikasi (maydoni 603000km²), kichigi Vatikan (44gektar).

Iqtisodiy geografik o'rning qulayligi:

- mamlakatlarning bir-biriga nisbatan yaqin qo'shni ekanligi;
- hududining kichikligi va chegaralarining yaqinligi;
- transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi;
- aksariyat mamlakatlarning dengiz bo'yida joylashganligi (15 ta davlatini xududi dengiz bilan tutashmagan);
- hamma rivojlangan davlatlarning bir joyga to'planganligi, ayniqsa "Yettilik"ka kiruvchi davlatlarning 4tasini shu joyda joylashganligi.

Horijiy Yevropaning siyosiy xaritasi qadimdan juda ko'p o'zgarib kelgan. Birgina XX asrning o'zida regionning siyosiy kartasi 3marta o'zgardi (1-2-jahon urushidan so'ng va 90 yillarda). 1990 yillardagi siyosiy o'zgarishlardan so'ng Horijiy Yevropa siyosiy xaritasida 8ta suveren davlat paydo bo'ldi. (MDH bundan mustasno).

Horijiy Yevropada davlat tuzumiga ko'ra respublika shakliga ega bo'lgan davlatlar (Polsha, Fransiya, Gretsiya), monarxiyalar (Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya), federativ (Avstriya, Shvetsariya) davlatlar ham bor.

Horijiy Yevropada sanoatning rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan foydali qazilmalar bilan bog'liq. Yirik foydali qazilma konlari quyidagi havzalarda to'plangan: toshko'mir RUR (GFR) va Yuqori Sileziyada (Polsha), neft-gaz Shimoliy dengiz havzasida, temir Lotaringiya (Fransiya) va Karuna (Shvetsiya)da.

Foydali qazilma turlarining ayrim mamlakatlarda to'la emasligi hududning tektonik tuzilishi bilan bog'liq.

Horijiy Yevropaning gidroenergetika resurslari asosan Alp, Dinara va Skandinaviya tog'lari joylashgan hududlarga to'g'ri keladi. Masalan: Norvegiya.

Horijiy Yevropada bir qator harbiy, siyosiy-iqtisodiy blok va tashkilotlar mavjud: **NATO**-Shimoliy Atlantika Harbiy Tashkiloti. 1949 yil tuzilgan harbiy-siyosiy blok. Shtab kvartirasi Bryusselda, unga 15 mamlakat a'zo bo'lgan. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga 19 ta mamlakat a'zo.

Varshava shartnomasi-harbiy-siyosiy tashkilot. 1955 yil 14 mayda tuzilgan. Unga 7mamlakat a'zo edi. 1990 yilga kelib tarqatib yuborildi.

Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi yoki "Umumiy bozor" siyosiy-iqtisodiy tashkilot. 1957 yil 27 martda Rim shahrida tuzilgan. YEIHga dastlab 6 mamlakat a'zo bo'lgan. Hozirgi kunga kelib esa ularning soni 27 taga yetdi. 1972 yil Buyuk Britaniya, Irlandiya. 1990 yil 11ta, 1994-96 yil 15ta, 2004 yil 25ta, 2006 yil EI a'zo davlatlar soni (Ruminiya, Bolgariya), 27taga etdi. Mazkur davlatlarda 1998 yil 1-yanvarda yagona valyuta EVRO joriy qilingan. EVROga EIni 16 ta davlati o'tgan. Ular GFR, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Andorra, Gresiya, San-Marino, Vatikan, Manako, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Finlandiya, Irlandiya.

O'IYOK (SEV)-siyosiy-iqtisodiy tashkilot. 1949 yil sobiq sotsialistik davlatlar tomonidan tuzilgan. 10ta davlat a'zo edi. 1990 yil siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra tarqatib yuborildi.

Aholisi. Keyingi vaqtlarda Horijiy Yevropa aholisi juda sekin o'smoqda. Bunga asosiy sabab regiondagi demografik vaziyat murakkabdir. Aholining yosh tarkibida keksalar salmog'i ortib bormoqda. Aholi soni chet ellardan ko'chib keluvchilar hisobiga stabillashib turibdi.

Horijiy Yevropa dunyoning aholi eng zich joylashgan regionlaridan biri hisoblanadi. Aholi zichligi 1km²ga 104 kishiga to'g'ri keladi (Yevropada 64 kishi). Urbanizatsiya darajasi eng yuqori hududlardan biri. Shaharlarda o'rta hisobda jami aholining 75% dan ortig'i, ayrim mamlakatlarda 90% dan ortig'i yashaydi.

Shahar aglomeratsiyalari ham eng yuqori bo'lgan hudud jahonda Horijiy Yevropadir. Eng yirik aglomeratsiyalar-London, Parij, Reyn-Rur kabilardir.

Horijiy Yevropa mamlakatlarida boshqa regionlarga nisbatan migratsiya kuchli kuzatiladi. XX asrning 2-yarmidan boshlab ayniqsa Irlandiya (4mln kishi yashaydi) chet ellarda Irlandiyadan ko'p irlandlar yashaydi), Buyuk Britaniya, Portugaliya, Ispaniya, Italiya va Gretsiyada emmigratsiya juda ortib ketdi. Emmigrantlar asosan AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiyadan, Avstraliya va Lotin Amerikasi mamlakatlariga ketmoqda. Horijiy Yevropadagi asosiy emmigratsiya o'chog'i Portugaliya, immigratsiya o'chog'i esa Germaniyadir.

Mavzu: Horijiy Yevropaning xo'jaligi.

Horijiy Yevropa sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini miqdori (32,5%) va hajmi, oltin va valyuta zaxiralari, xizmat ko'rsatish va xalqaro turizmning rivojlanishi jihatidan jahon xo'jaligida 1-o'rinda turadi.

Horijiy Yevropaning iqtisodiy qudratini "Yettilik"ka kiruvchi 4 mamlakat ularning ichida esa Germaniya belgilaydi. Boshqa mamlakatlardan Ispaniya, Gollandiya, Shvetsariya, Belgiya va Shvetsiya ham katta iqtisodiy mavqega ega, lekin ularning iqtisodiyoti "Yettilik"ka kiruvchilardan dunyoda tan olingan ayrim tarmoqlarga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Horijiy Yevropa iqtisodiyotida Sharqiy Yevropa davlatlari alohida ajralib turadi. Ularda iqtisodiyotni sobiq sotsialistik tizimdagi markazdan planlashtirishdan, bozor iqtisodiyoti tamoillariga asoslangan tizimga o'tilmoqda.

Horijiy Yevropani jahon miqiyosidagi tutgan o'rni quyidagicha: jahon quruqlik maydonini 3,9 % ni, aholisini 10,2 % ni o'z ishiga olgan holda jahon YAMDSini 32,2 % ni, jahon eksport mahsulotlarini 43,6 % ni ishlab chiqaradi. (2006 yil)

Horijiy Yevropa sanoatidagi yetakchi tarmoqlar quyidagilar:

1. Mashinasozlik. Horijiy Yevropa-mashinasozlik vatanidir. Region jami sanoat mahsulotining 1/3 qismi va eksportining 2/3 qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi. Avtomobil sanoati ayniqsa yaxshi rivojlangan. "Reno" (Fransiya), "Folksvagen", "Mercedes" (GFR), "Fiat" (Italiya), "Volvo" (Shvetsiya), "Tatra" (Chexiya), "Ikarus" (Vengriya) avtomobillar dunyoga mashhur. Mashinasozlikni mazkur regionda yuksak darajaga etishi uchun bu yerda malakali mehnat resurslari, kuchli ilmiy-texnik baza, infrastruktura mavjud. Mashinasozlik kuchli rivojlangan rayonlar (London, Glazgo, Birmingem, Budapesht, Reyn-Rur) bilan bir qatorda mashinasozlik tarqoq joylashgan hududlar ham (Ispaniya, Islandiya, Albaniya) mavjud.

2.Ximiya sanoati. Bu sohada Horijiy Yevropadagina emas balki butun dunyoda GFR ajralib turadi.Ximiya sanoati dastlab (2-jahon urushiga qadar) ko'mir, kaliy va osh tuzlariga asoslanib bunday qazilmalar joylashgan rayonlarda tashkil topgan bo'lsa, SN xom-ashyosiga asoslana boshlanishi bilan u endi neft va gaz konlari yaqinlarida va neft-gaz quvurlari (trassa) bo'ylarida tarkib topa boshladi.Neft-gazga asoslangan ximiya sanoati tarmoqlari Horijiy Yevropaning g'arbiy qismida asosan dengiz va daryo bo'ylarida (port shaharlarda), sharqiy qismida esa xalqaro neft va gaz quvurlari trassalari o'tgan joylarda to'plangan.Bunday holatlarga asosiy sabab Horijiy Yevropa davlatlarining chet eldan kelayotgan neft va gaziga qaramligidir.Masalan: Chexiya, Slovakiya, Polsha, Vengriyaning asosiy neft-kimyokorxonalari "Do'stlik" quvuri atroflarida, Bolgariya neft-kimyokorxonalari esa Qora dengiz bo'ylarida joylashgan.

Horijiy Yevropa yoqilg'i-energetika majmuasida, ayniqsa qo'ng'ir ko'mir (Polsha, Chexiya, Germaniyada) yetakchi o'rin tutadi. Elektr energiyaning asosiy qismini IESlar beradi.Elektr energiyasini tejash maqsadida GAESlar (akkumulyatsiya) qurilmoqda. Dunyodagi 1-geoGES Italiyada XX-asr boshlarida qurilgan.

Horijiy Yevropaning metallurgiya sanoati asosan metallurgiya va xom-ashyosi bor mamlakatlarda rivojlangan.Qora metallurgiya sanoati Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Lyuksemburg, Polsha, Chexiyada.

Alyuminiy eritish Fransiya, Vengriya, Ruminiyada; elektr energiyasiga boy davlatlar Norvegiya, Shvetsariyada; mis sanoati Germaniya, Fransiya, Polsha, Yugoslaviyada eng rivojlangan.Shvetsiya va Finlandiya Horijiy Yevropaning asosiy "o'rmon sexi"ga aylangan.

To'qimachilik sanoati qadimdan Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya (ayniqsa gilam), Polsha kabi davlatlarda rivojlangan.Hozirda esa Portugaliya alohida ajralib turadi. Poyafzal ishlab chiqarish bo'yicha esa Italiya ajralib turadi. "Kibo" korxonasi. GFRda "Salamandir" firmalari mashxur.

Horijiy Yevropa qishloq xo'jaligida mahsulotlarni asosiy turlarini yetishtirishda o'z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay chet elga sotish harakterlidir.

Tabiiy va tarixiy sharoitlari ta'sirida regionning qishloq xo'jaligi 3tipga bo'lingan:

- 1.Shimoliy Yevropa tipi uchun intensiv sut chorvachiligi va yem-hashak ekinlari yetishtirishga ixtisoslashgan.(Buyuk Britaniya,Finlandiya,Skandinaviya davlatlari).
- 2.O'rta Yevropa tipi uchun sut va sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik ustun turadi. Daniya-butun Yevropaning "sut firmasi" hisoblanadi.
- 3.Janubiy Yevropa tipi uchun chorvachilikka nisbatan ziroatchilik ustun turadi.Xalqaro ixtisoslashgan tarmog'i meva-cheva, sitrus ekinlari, uzum (Fransiya, Italiya, Vengriya), zaytun (Italiya), yong'oq (Grechskiy), tamaki, efir moylar yetishtirish bilan belgilanadi.

O'rta dengiz sohillari-butun "Yevropaning bosh bog'i"dir.Baliq tutish-Norvegiya, Daniya va Islandiya uchun qadimdan xalqaro ixtisoslashgan tarmoq hisoblanadi.

Transporti. Horijiy Yevropa yuk tashuvchi yo'llarning uzunligi jihatidan u AQSH va Rossiyadan orqada, lekin transport shahobchalari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra dunyoda 1-o'rinda.Transport turlari ichida avtomobil transporti yetakchi o'rin tutadi.Temir yo'l shahobchalarini qurish deyarli to'xtagan, hatto temir yo'llar qisqarmoqda. Transport yo'llari asosan kenglik (parallel) va meridional yo'nalishda joylashgan.

Daryolar ichida Reyn muhim o'rin tutadi, undan tashqari Reyn-Mayn-Dunay suv yo'li muhimdir. Turli transport yo'llarining (avto, temir, havo, suv, quvur) o'zaro kesishgan joylarida yirik transport tugunlari vujudga keladi. Bunday tugunlar ayniqsa Horijiy Yevropa uchun xosdir.

Horijiy Yevropa-xalqaro turizmning bosh rayonidir. Masalan: turizm bo'yicha rekordsmen mamlakat Ispaniyaga har yili 50mln turist kelib ketadi. Eng mashhur turistik davlatlar qatoriga Fransiya, Italiya, Shvetsariya (Jeneva bo'yi), Avstriya, Buyuk Britaniya, Gretsiya.

Turistik rekreasion rayonlarning 2 tipi-dengiz bo'yi va tog' tipi keng tarqalgan.

Dengiz bo'yi tipi uchun Liguriya dengizi bo'yi mashhur bo'lsa, tog' tipi uchun Alp tog'ining quyi, o'rta va yuqori mintaqasi mashhurdir.

Parij, Rim, Madrid-turistlarni o'ziga eng ko'p jalb qiluvchi shaharlardir.

Mavzu: Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi.

Buyuk Britaniya Britaniya orollarida (Yevropadagi eng yirik orol) joylashgan. Birlashgan Qirollik tarkibiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya kiradi. Buyuk Britaniya eng katta orolning nomi, Angliya davlatining asosiy tarixiy nomi. Mamlakatning xalqaro dengiz va havo yo'llari tugunida joylashganligi muhim ahamiyatga ega. Maydoni 244ming km². Aholisi 58,8mln (1996y.), 59,2mln (2001y.), 60,5 mln kishi (2006y.), 61 mln (2007 y).

Buyuk Britaniyada kapitalizm Yevropadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan ertaroq rivojlandi. Shu tufayli u dengizga xukmronlik qilishga katta va boy mustamlakalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan. 2-jahon urushi arafasida Britaniya imperiyasining maydoni 34,6mln km² (142marta ko'p), aholisi esa 700mln kishidan (12,5marta ko'p) ortiq edi. 2-jahon urushidan keyin bu imperiya tez parchalandi. 1990 yillari Buyuk Britaniya nazorati ostida asosan orollardagi 12ta mustamlaka va qaram territoriyalar bor edi. Masalan: Bermud, Kayman orollari, Gonkong, Avliyo Elena, Gibraltar, Angilya, Folklend orollari.

Buyuk Britaniya Hamdo'stlik markazi, u hozirgi vaqtda 49 mustaqil davlat kiradigan siyosiy va iqtisodiy birlashmadir.

Siyosiy adminstrativ bo'linishi: 47 graflik, 6 metropoliten grafliqi, Katta London, 12 oblast, 6 okrug, Men va Normand orollaridan iborat. Yirik shaharlari: London 7mln, Birmingem 961000, Glazgo 716000, Lids, Liverpul, Edinburg, Manchester.

Buyuk Britaniyani urushdan keyin iqtisodiy mavqei va siyosiy nufuzi biroz bo'shashib qolgan bo'lishiga qaramay, u hamon jahonda kuchli iqtisodiy, moliyaviy va harbiy-siyosiy mavqeini saqlab kelmoqda. Buyuk Britaniya NATOning faol a'zosi. 1973 yildan buyon YEIHga a'zo.

Aholisi. XX asrning 2-yarmiga qadar aholining okean ortiga ommaviy ravishda ko'chib ketishiga qaramay mamlakat aholisi tez o'sdi. Lekin keyingi paytlarda aholi tabiiy o'sishining sezilarli pasayishi natijada ingliz millatining "qarishi" sezilmoqda. Buyuk Britaniyada tug'ilish koeffisienti 12‰, o'lim 10‰. 1 ayolga 1,6 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 19%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 75-80 yosh. YAMD 24340 dollar (2001y).

Buyuk Britaniya urbanizatsiya darajasining juda yuqoriligi bilan ajralib turadi, aholisining 92%i shaharlarda yashaydi. Masalan: London aglomeratsiyasida 13mln kishi yashaydi, zichligi 1km²ga 750 kishi. Mamlakatda 1km² 251 kishi. Aholisining 80%i inglizlar, qolganini shotlandlar, uelsliklar (valliylar), irlandlar tashkil etadi.

Davlat tuzumi-konstitutsion monarxiya. Davlatni rasmiy boshlig'i qirolicha hisoblanadi, lekin amalda davlatni bosh vazir (primer – mnister Devid Kemrin) boshqaradi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Buyuk Britaniya Konservatorlar partiyasi (1867y.).
2. Buyuk Britaniya Leyboristlar partiyasi (1900y.).
3. Buyuk Britaniya sotsial demokratik partiyasi (1981y.).
4. Buyuk Britaniya kommunistik partiyasi (1920y.).

Buyuk Britaniya sanoati ichki yalpi mahsulotning 50%ini eksportning qariyb 90%ini beradi. Dunyoda sanoat ishlab chiqarishning yalpi hajmi jihatidan 1986 yil 5-o'rinni egallagan.

Buyuk Britaniya neft qazib olishda Shimoliy Dengiz hisobiga G'arbiy Yevropada 2-o'rinda turadi (yiliga 115mln t. 2006y.) 1-o'rinda Norvegiya. Energiya balansida GESlarning roli past asosan IESlar energiya beradi. Keyingi paytlarda AESlarning salmog'i ortib bormoqda. Elektr energiya bo'yicha jahonda 9-o'rinda (2,5% 370mln.kVt.soat).

Buyuk Britaniya yuqori kalloriyali kokslanuvchi ko'mirning katta zapaslariga ega. Yuqori sifatli temir rudasini Shvetsiya, Liberiya, Kanada kabi davlatlardan keltirilganligi sababli asosiy qora metallurgiya korxonalari dengiz bo'ylarida va ko'mir qazib olinadigan rayonlarda joylashgan.

Rangli metallurgiya korxonalari ham asosan dengiz bo'ylarida joylashgan.

Mashinasozlik Buyuk Britaniya sanoat tarmoqlari orasida 1-o'rinni egallaydi. Ko'p mahsuloti eksportga mo'ljallangan sanoat tarmoqlari: stanoksozlik, elektrotexnika, asbob-uskunalar, jihozlar, avtomobillar, traktorlar ishlab chiqarish ayniqsa ajralib turadi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan stanoklarning 20%i AQSH firmalari ishlab chiqaradi.

Ximiya sanoatida neftni qayta ishlash bazasida neft mahsulotlari va sintetik tola ishlab chiqarish ayniqsa tez rivojlanmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Buyuk Britaniya tabiiy sharoiti dehqonchilikdan ko'ra chorvachilik uchun qulay. Mamlakat hududining 47%i yaylovlar, ekin maydonining 2/3qismi em-hashak va ildiz mevali o'simliklar bilan band. Tabiiy o'tloqlarga o'g'it solinib turiladi.

Asosiy donli ekinlari: bug'doy, arpa, suli.

Asosiy texnik ekinlari: qand lavlagi.

Yalpi don hosili 25mln t., qoramol tuyog'i-12,5mln, qo'ylar-37mln, cho'chqalar-8mln, parrandalar-131mln.

Mamlakat ichkarisidagi yuk oborotining katta qismi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Avtotransport raqobati natijasida juda zich temir yo'llarning bir qismi olib tashlanmoqda. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 16,8ming km (elektrlashtirilgani 3,7ming km) bo'lib, katta avtoyo'llarning uzunligi 347ming km.

Buyuk Britaniya qudratli dengiz savdo va passajir flotiga ega. Havo transporti yaxshi rivojlangan. Buyuk Britaniya hududi iqtisodiy geografik jihatidan 5 qismga ajratiladi:

1. Janubiy qism-London atrofi.
2. Janubi-Sharq (Yashil Angliya).
3. Markaziy qism.
4. Shotlandiya.
5. Olster (Shimoliy Irlandiya).

Asosiy eksport mahsulotlari: mashina va uskunalar, samolyotlar, traktorlar, kemalar, qurol-yaroq, jun, sintetik gazlama, po'lat va h.k.

Importi: paxta, oltingugurt, temir rudasi.

Pul birligi- funt sterling.

Mavzu: Germaniya Federativ Respublikasi.

Maydoni 357000km². Aholisi 82,2 (2001y.), 82,0 mln kishi (2007y.). Poytaxti Berlin (3,4mln kishi). Davlat tili nemis tili. 1949 yil 3 davlat (AQSH, Angliya, Fransiya) akkupasiyasi zonasida tashkil topgan. 1989 yil oktyabr oyida dastlab G'arbiy Berlin devorini buzilishi munosabati bilan sobiq GDR va GFR birlashdi, birlashish natijasida GFR hududi 43 % ga aholisi 27 % ga ko'paydi. IGO'ga ko'ra Horijiy Yevropaning markazida joylashgan bo'lib, temir yo'llar, suv, avtoyo'llar va havo yo'llari tugunida joylashganligi xarakterlidir. GFR iqtisodiyotida Reyn va uning irmog'i Rurning ahamiyati katta. Barcha qo'shni davlatlari yuqori darajada rivojlangan.

GFR 1955 yil NATOga, 1973 yil BMTga a'zo bo'ldi. 1970 yillarga kelib Polsha, Chexiya, GFR va sobiq SSSR bilan chegara yaxlitligini tan oldi. 1957 yildan buyon YEIHga a'zo. GFR hududiga 1980 yillari AQSH raketa-yadro qurollari va harbiy bazalari joylashtirilgan.

GFR parlamentar respublika bo'lib mamlakatni parlament boshlig'i – kansler boshqaradi. (2010 yil GFR kansleri Angel Merkel, amaldagi prezidenti Xorst Kioller).

GFR-16ta o'lkaning federatsiyasidir. GFRda quyidagi siyosiy partiyalar mavjud:

1. Xristian-demokratik ittifoqi (HDI).
2. Erkin demokratik partiya (EDP).
3. Germaniya sotsial- demokratik partiyasi (GSDP).
4. Germaniya kommunistik partiyasi (GKP).
5. Ko'katparvarlar partiyasi-atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotining qo'shilishidan 1980 yil tashkil topgan.
6. Natsional demokratik partiyasi (NDP)-1964yil tuzilgan yangi fashistlar partiyasi.
7. Nemis kasaba soyuzlari birlashmasi (NKP).

Aholisi. GFR aholisining soni jihatidan Horijiy Yevropadagi eng yirik mamlakat. 82,6mln (2003y.), 82,0 mln kishi (2007y.). Tug'ilish koeffisienti 8‰, o'lim 10‰. 1ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 15%, 64 yoshdan o'tganlar 17%. O'rtacha umr 76-82 yosh. YAMD 31280 dollar (2007y.).

Aholining joylashuvi, uning mehnatda bandlik strukturasi GFRning industrial mamlakat ekanligini ta'kidlaydi. Aholining o'rtacha zichligi (1km²ga 230 kishi) ga ko'ra Yevropada hatto dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Reyn-Rur aglomeratsiyasining ba'zi joylarida aholi zichligi 1km²ga 5000 kishigacha yetadi. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Aholisining 86%i shaharlarda yashaydi. Reyn daryosi bo'ylari va Rur havzasi

ekologik jihatidan eng iflos hudud hisoblanadi. GFRda aholisining 48%i noishlab chiqarishda, 41%i esa sanoat va qurilishda band.

GFR-sanoat va ishlab chiqarish darajasi jihatidan jahonda 3-o'rinlarda turadi. 1986 yil yalpi milliy mahsulot 1949 mlrd markani tashkil etdi. Metallurgiya, ximiya, elektrotexnika, mashinasozlik tarmoqlari, qurilish sanoati yuksak darajada rivojlangan.

GFR xo'jaligining bu qadar yuksalishiga Janubiy Yevropa va Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan 3-4mln kishilik arzon ishchi kuchlarining ta'siri ham yuqori. Sanoatining ayrim tarmoqlari. Masalan: yengil va oziq-ovqat sanoati o'sishdan deyarli to'xtab qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi o'z mahsulotining qiymati jihatidan sanoatdan 20 barobar orqada turadi.

GFR tabiiy resurslardan toshko'mir (450 mlrd.t. toshko'mir zahirasiga ega), kaliy tuzi va tosh tuz konlariga boy. 1986 yil GFRda 81mln t. toshko'mir qazib olingan. GFR energetikasida 1960 yillargacha toshko'mir asosiy o'rin tutgan. FTI davrida toshko'mir qazib olish keskin kamayib energetika balansida neft-gaz hissasi 60%gacha ko'tarildi. AESlar soni ayniqsa ko'paymoqda. 2006 yil GFR 560mlrd kVt.soat (dunyoda 4-o'rin) elektr energiya hosil qildi.

Qora metallurgiya sanoati uchun temir rudasini 90%i chetdan keltiriladi, xromit va marganes ham chetdan keltiriladi. GFR 1986 yil 28,9mln t. cho'yan, 45mln t. po'lat, 36mln t. prokat ishlab chiqargan.

Mashinasozlik-GFR sanoatining yetakchi tarmog'i. Mashina ishlab chiqarish bo'yicha GFR AQSHdan keyin 2-o'rinda, eksport qilish bo'yicha esa 1-o'rinda turadi. Avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda (Yaponiyadan keyin) turadi. Yiliga 4,5mln avtomobil tayyorlanadi. "Folksvagen", "Mercedes-Bens", "BMW", "Opel", "Ford" firmalarining filiallari bir qancha mamlakatlarda ham mavjud. Mashinasozlik asosan Rur havzasida, kemasozlik esa Gamburgda rivojlangan.

Ximiya sanoati eng yuksak darajada rivojlangan. Mazkur sanoatning eng muhim markazi-Rur havzasidir. Ximiya sanoatining xom-ashyosini ko'mir ximiyasidan neft ximiyasiga o'tishi Germaniyani "ximiyalashgan" mamlakatga aylanishiga sabab bo'ldi.

Yuksak intensiv qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini 76%ni ta'minlamoqda. Yirik fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligining asosini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq chorvachilik bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 4/5qismini beradi. GFR chorvachiligi asosini qoramol va cho'chqa tashkil etadi. Donli ekinlar ichida bug'doy, javdar, arpa, suli asosiy rol o'ynaydi. Arpadan piva tayyorlanadi. Bu soha Bovariyada yaxshi rivojlangan. Xemel ko'p yetishtiriladi. Donli ekinlarning o'rtacha hosildorligi gektariga 52,5 sentner.

Transporti. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 32,5ming km (1/3qismi elektrlashtirilgan). Temir yo'llarda yuk tashish bo'yicha Fransiyadan keyin 2-o'rinda turadi. GFR daryo transporti muhim ahamiyat kasb etadi, hatto butun Yevropa bo'yicha. Eng muhim transport tugunlari: Gamburg, Myunxen, Kyoln.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. GFR uchun muhim ahamiyatga ega. 1986 yil mamlakat ishlab chiqariladigan jami mahsulotning 25%i eksport qilingan.

Asosiy eksport mahsulotlari: avtomobillar, stanoklar, sanoat jihozlari, elektrotexnika buyumlari, ximiyaviy moddalar, qurol-yarog'.

Importi: sanoat mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, xom-ashyolar, neft-gaz.
Pul birligi – Evro. O'zbekistonni MDHdan tashqari (52 %) eksportini 0,9 % i importini 4,5 % GFRga to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Fransiya Respublikasi.

Maydoni 544000km². Aholisi 58,3mln (1996y.), 59,8mln (2001y.), 62,1mln kishi (2006y.). Fransiyaning IGO' uchun 2ta asosiy xususiyati xosdir:

1. Fransiya "YEIH" ga a'zo mamlakatlar bilan bevosita chegaradosh bo'lib, uning chegarasi yaqinida bu mamlakatlarning industrial rayonlari joylashgan. Masalan: Reyn-Rur, London rayoni, qolaversa Yevropadagi Markaz o'qi o'tgan.

2. Fransiya sohillari Atlantika okeanining dengiz va qo'ltiqlari bilan bevosita tutashgan bo'lib, bu holat jahon mamlakatlari bilan arzon dengiz transporti orqali savdo-sotiq qilish imkonini beradi.

Fransiya quruqlik orqali 8 mamlakat bilan chegaradosh bo'lib, ayniqsa GFR, Italiya, Buyuk Britaniya bilan chegaradoshligi muhim rol o'ynaydi.

Fransiya ma'muriy jihatidan 96 departamentga bo'lingan. Parij alohida departament huquqiga ega. Mamlakatda 4mln ga yaqin jazoirlar, portugallar, italyanlar va ispanlar yashaydi.

Fransiya Horijiy Yevropada maydoniga ko'ra eng yirik mamlakat hisoblanadi.

Aholisi. Fransiya tabiiy o'sish darajasi anchagina past bo'lib, millatning qarishi kuzatilmoqda. Tug'ilish koeffitsienti 13‰, o'lim 9‰. 1ayolga 1,9 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 19%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 77-84 yosh. YAMD 32130 dollar (2007y.). Mehnat resurslarini to'ldirishning muhim vositasi qadimdan immigratsiya bo'lib kelgan. Aholi joylashuviga qishloqlardan odamlarning shaharlarga to'xtovsiz ko'chib kelishi (XX-asrda aholining buyuk ko'chishi) kuchli ta'sir etadi. Natijada urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib bormoqda. Hozirda Fransiya aholisining 79%i shaharlarda, 21%i qishloqlarda yashaydi.

Yirik shaharlari: Parij 2,1mln kishi, Marsel 808 ming aholi yashaydi, Lion, Tuluza, Nissa, Strasburg.

Fransiya 1949 yil NATOga kirgan edi, lekin 1966 yil u NATOdan rasmiy ravishda chiqib ketgan bo'lsada, baribir hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Prezident 7 yil muddatga saylanadi.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Respublikani quvvatlovchi birlashma (1976y.t.t.). Charl Fure, Robert Ouen, Sen-Simon.

2. Fransiya sotsialistik partiyasi (FSP 19051.).

3. Fransiya kommunistik partiyasi (FKP 1920 y.t.t.).

Fransiya xo'jaligi 2-jahon urushida katta iqtisodiy zarar ko'rdi. Ekonomikasining deyarli barcha tarmoqlari yangi texnika bilan ta'minlandi. Eng yangi tarmoqlar-atom, radiotexnika, neft ximiyasi aerokosmik tarmoqlar rivojlandi.

Fransiya sanoat mahsulotlarining hajmi jihatidan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida dunyoda 4-o'rinni egallaydi. Milliy daromadda qishloq xo'jaligining salmog'i 1/10 qismidan kamroqni tashkil etsada, u aholini asosiy oziq-ovqat bilan ta'minlaydi va eksportda ham katta rol o'ynaydi.

Sanoati. Energetika qisman o'z resurslariga tayanadi. Ko'mir asosan shimoldan (Elzas va Lotaringiyadan), neft va tabiiy gaz esa oz miqdorda (mamlakat hududidan yiliga 1 mln. t. neft qazib olinadi xolos, 2007 yil) janubi-g'arbdan qazib olinadi. Mamlakat neftga bo'lgan ehtiyojini asosan chet el hisobiga (Jazoir, Liviya, Venesuela, MDH va Yaqin Sharq mamlakatlari) qondiradi. Shuning uchun ham neftni qayta ishlovchi asosiy markazlar dengiz bo'ylaridagi port shaharlarda (Marsel, Bordo, Nant, Gavr, Ruan) joylashgan. Fransiyaning uran rudasiga boyligi va ko'p qazib olishi, shuningdek Afrikadagi sobiq mustamlakalardan uran konsentratini ko'plab keltirilishiga asoslanib atom energetikasi va atom sanoati tez rivojlanmoqda. Mamlakat elektir-energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 8 – o'rinda turadi. (2006 yil 540 mlrd.kv s)

Qora metallurgiya sanoati Yevropadagi eng katta Lotaringiya temir rudasi konlaridan foydalanadi. Lekin temir rudasini eksport qilishni ilgari ahamiyati yo'qolib bormoqda. O'rta Yer dengizi sohillari boksitga boy bo'lib, Alp va Pireney tog' etaklaridagi arzon GESlar energiyasi alyuminiy eritish imkoniyatini beradi.

Mashinasozlik butun sanoat mahsuloti qiymatining 1/3 qismidan ko'prog'ini va eksport mahsulotining asosiy qismini beradi. Mashinasozlik sanoatining joylashuvida Parij ayniqsa katta rol o'ynaydi. Butun mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 25% ini birgina Parij beradi.

Ximiya sanoati tarmoqlari jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, bu sanoat korxonalari tarqoq joylashgan. Ximiya zavodlari xom-ashyolar yaqinida, portlarda, GESlar yaqinida va katta shaharlarda joylashgan. To'qimachilik sanoati o'zining ilgari ahamiyatini yo'qotgan (ip-gazlama va jun-gazlama) hozirda sintetik tolalardan to'qilgan turli matolar bilan jahonga tanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Fransiya hududining 35% i haydaladigan yerlardir. Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, go'sht, sut tayyorlash, bug'doy, (2007 yil 60 mln t. g'alla yetishtirilgan) qand lavlagi yetishtirish jihatidan Horijiy Yevropada 1-o'rinda, uzum vinosi tayyorlash, sohillarda ustritsa yig'ish jihatidan dunyoda 1-o'rinda. Asosiy texnika ekini-qand lavlagi. Rona daryosi etaklarida-sholi, Shampan viloyatida (O'rta dengiz bo'yi) uzum, Nissa rayonida gul ko'p ekiladi (parfyumeriya uchun). Mehnatga yaroqli aholining 10% i qishloq xo'jaligida band.

Fransiyada tashiladigan jami yukning 60,7 % i dengiz transportida, 21,2 % i avtomobil transportida, 10,6 % i temir yo'l transportida, 5,2 % i quvur transportida, 1,5 % i ichki suv transportida, 0,8 5 i havo transportida tashiladi.

Fransiyada tashiladigan jami yo'lovchining 84,2 % i avtomobil transportida, 9 % i temir yo'l transportida, 6,8 % i havo transportida tashiladi.

Mamlakat ichkarisida tashiladigan yuklarning yarmi temir yo'llarda tashiladi. Temir yo'llar salkam 40000km bo'lib, uning 10000km i elektrlashtirilgan. "Parij-Bordo" temir yo'lining tezligi 350km.soat. Uzunligi 515km. "Parij-Strasburg" "Yevrotunel".

Tashqi savdoda dengiz floti muhim rol o'ynaydi. Fransiya eksportining 3/4 qismi tayyor buyumlar (avtomobillar "Reno", samolyotlar A-310, dengiz kemalari, qurol-

yarog', AESlar uchun uskunalari, temir, alyuminiy, atir-upa, bug'doy, sut, go'sht, shakar, vino) ga to'g'ri keladi.

Tashqi savdo 1-galda "YEIH" va AQSH, Yaponiya bilan olib boriladi.

Fransiya chetga kapital eksport qiluvchi yirik davlat. Xalqaro turizm Fransiya katta daromad keltiradi. 1989 yil Fransiya 50,2mln turist kelib ketdi va turizmdan 16,5mlrd dollar daromad tushdi. Dunyoda 1-o'rinda. 2001 yil Fransiya 75 mln turist kelgan.

Pul birligi- Yevro. O'zbekistonni MDHdan tashqari (1%) eksportini 3% i importini 1% Fransiya to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Italiya Respublikasi.

Italiya Yevropaning janubidagi davlat. Maydoni 301,2ming km². Territoriyasi tarkibiga ko'ra 3 qismdan: materik, yarim orol va orollardan (Sitsiliya, Sardinia va bir qancha mayda orollardan) iborat. Quruqlik orqali 4ta davlat bilan chegaradosh. Dengiz chegarasi quruqlik chegarasiga nisbatan 4 barobar uzun. Mamlakat hayotida dengizning roli yuqori, mamlakatning eng ichkarisidagi rayonlari ham sohildan bor-yo'g'i 200-300km narida joylashgan. Mamlakatning O'rta dengiz havzasining markazida ekanligi unga Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropaning boshqa mamlakatlari bilan aloqalarini rivojlanishiga qadimdan imkoniyat berib kelgan, hozirda ham muhim rol o'ynaydi.

Shimoliy Italiyaning geografik o'rni Janubiy Italiyaga nisbatan ancha qulay. Chunki u iqtisodiy aloqalarni quruqlikda ham, dengizda ham, havoda ham olib borishi mumkin. Italiyadan transkontinental havo yo'llari o'tadi.

Aholisi 57,2mln (2003y.), 59mln kishi (2006y.). Aholisining soni jihatidan Horijiy Yevropada Germaniyadan keyin 4-o'rinda turadi. Aholisining 98%i italyanlar. Italiya uchun aholining doimiy emigratsiyasi harakterli (har yili o'n minglab kishilar ketib turadi). Bunga asosiy sabab dehqonlar turmushining og'irligi, ishsizlik, kam ish haqi, inflyatsiya. 2-jahon urushiga qadar immigratsiya o'chog'i okean orti bo'lsa, urushdan keyin Fransiya va Germaniya bo'lib qoldi. Italiyada tug'ilish koeffisienti 10‰, o'lim 9‰. 1ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15yoshgacha bo'lganlar salmog'i 14%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar salmog'i 19%. O'rtacha umr 78-84 yosh. YAMD 29840 dollar (2007y.).

Italiya Yevropadagi aholisi eng zich mamlakatlardan biri (1km²ga 197 kishi). Urbanizatsiya jarayoni jadal o'smoqda, hozirda urbanizatsiya darajasi 68% ni tashkil etadi. Shahar aholisining asosiy qismi Shimoliy Italiyada yashaydi.

Yirik shaharlari: Milan-1,3, Rim-2,6, Neapol-1,0, Turin, Palermo, Genuya (1995y.).

Italiya dunyodagi 1-respublika bo'lib, 20 ta oblastdan tashkil topgan. Italiya-parlamentar respublika. Davlat boshlig'i prezident bo'lib, uning vakolat muddati 7yil. Qonun chiqaruvchilik hokimiyati deputatlar palatasi bilan senatdan iborat.

Italiya ekonomikasiga AQSH, Germaniya va Shvetsariya kapitalining ta'siri kuchli.

Xo'jalikning joylashuvidagi harakterli xususiyat Shimoliy Italiya bilan Janubiy Italiya o'rtasida keskin territorial farqning mavjudligidir. Shimoliy Italiya iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Janubiy Italiya-mamlakat hududining 40%i, aholisining 35%ini egallasada, uning faqat 18%igina sanoatda banddir. Bu yerda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM mamlakat Shimoliga nisbatan 2 marta kam. Aholi

juda siyrak. Davlatda Janub iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan regional siyosat olib bormoqda.

Italiya 1949 yildan NATOga va 1957 yildan YEIHga a'zo bo'lgan. Siyosiy partiyalari:

- 1.Xristian demokratik partiyasi (XDP) (1943y).
- 2.Italiya Respublikachilar partiyasi (IRP) 1832yil tashkil topgan.
- 3.Italiya sotsial-demokratik partiyasi (ISDP) 1947 yil tashkil topgan.
- 4.Italiya liberallar partiyasi 1845 yil tashkil topgan.
- 5.Italiya kommunistik partiyasi 1921 yil tashkil topgan.

Italiya foydali qazilmalardan ko'mir, neft, temir rudasi bilan yomon ta'minlangan.Tabiiy gaz, boksit, qo'rg'oshin, oltingugurt, simob, rux, marmar zapaslari bor.Italiya Yevropa mamlakatlari ichida gidro va geotermal energiya resurslarining ko'pligi jihatidan ajralib turadi.

Mamlakat energetikasi chet el neft, koks, ko'mir, tabiiy gaziga tayanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda IESlar 1-o'rinni egallasada, Alp tog' etaklarida GESlarning salmog'i katta.Markaziy Italiyada geotermik elektr stansiyalari bor. Mamlakatda yiliga 300 mlrd. kV.s. (2007 yil) elektr-energiyasi ishlab chiqariladi.

Mamlakat ishlab chiqarish va eksportida mashinasozlik muhim rol o'ynaydi.Transport mashinasozligi ayniqsa, avtomobillar ("Fiat"), motorollyorlar, velosipedlar, kemalar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan.Mashinasozlik zavodlarining $\frac{3}{4}$ qismi Shimoliy Italiyada joylashgan.

Qora metallurgiya sanoati asosan chet el xom-ashyosiga asoslanganligi tufayli eng yirik kombinatlar port shaharlarda (Toranto, Genuya, Neapol) joylashgan.Jahonda 10-o'rinda (27mln.) turadi po'lat eritishda.

Eng yirik mashinasozlik zavodlari Milan va Turinda joylashgan.

Neftni qayta ishlash va neft-ximiya sanoati markazlari asosan port shaharlarda va Shimoliy Italiyada joylashgan.

1986 yil Italiya: 1830 ming avtomobil, jumladan 1650000 engil avtomobil ishlab chiqargan. 2007 yil 1241000 ishlab chiqargan, dunyoda 8-o'rinda turadi. 6 mln.t. neft va 14 mlrd. m³ gaz qazib oldi.

Qishloq xo'jaligi.Tabiiy sharoiti mo'tadil mintaqaning barcha ekinlarini va subtropik ekinlarni yetishtirish uchun qulay.Padan pasttekisligi (Shimoliy Italiya) unumdor tuproqlarga ega. Janubiy Italiyada esa yerlar toshloq, kam unum, qurg'oqchil.

Italiya qishloq xo'jaligi Fransiya qishloq xo'jaligidan intensivligi va rivojlanish jihatidan undan keyin turadi. Italiya zaytun va uzumning yalpi hosili jihatidan dunyoda 1-o'rinda, sitrus mevalarining yalpi hosili jihatidan Yevropada (Ispaniyadan keyin) 2-o'rinda turadi.

Asosiy texnika ekinlari-qand lavlagi va nasha.Chorvachilikda sust rivojlangan.Tog'li rayonlarda qo'y, echki, xachir boqiladi.

Transporti. Mamlakat ichkarisida yuk va yo'lovchi tashishda avtomobil transporti asosiy rol o'ynaydi, avtoparki 22,8 mln. avtomashinadan iborat.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 30,4 ming km bo'lib, Yevropada temir yo'l transporti bo'yicha 2-o'rinda turadi.Temir yo'llarning elektrlashtirilganlik darajasi jihatidan Italiya dunyoda oldingi o'rinda turadi.

Dengiz transporti mamlakatning tashqi savdosida yetakchi rol o'ynaydi. Tashqi savdoga tegishli barcha yuklarning 9/10 qismi dengizda tashiladi.

Shimoliy Italiyadagi eng muhim region Milan, Turin, Genuya uchburchagidir. Bular tashqari Venetsiya va Rim mavjud. Janubiy Italiyaning eng muhim sanoat va madaniyat markazi-Neapol.

Asosiy importi: neft, ko'mir, kokos, paxta, oziq-ovqat mahsulotlari.

Eksporti: mashinalar (avtomobillar), motosikllar, qurol-yarog', kimyo mahsulotlari, xolodilniklar, kir yuvish va idora (yozuv) mashinalari, poyabzal, sabzavot, mevalar, sitrus mevalari, vino.

Tashqi savdo aloqalari: "Umumiy bozor" mamlakatlari, Shvetsariya va AQSHga ko'p to'g'ri keladi.

Xalqaro turizm rivojlangan, yiliga 30 mln. turist kelib ketadi. 1989 yil Italiya turizm bo'yicha 4-o'rinni egallagan. Shu yili 26 mln. turist kelib ketgan.

Pul birligi-Yevro. O'zbekistonni MDHdan tashqari (52 %) eksportini 0,3 % i importini 0,7 % Italiyaga to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Polsha Respublikasi.

PXR 1989 yil oxirlaridan Polsha Respublikasi deb atala boshlangan. Maydoni 324 ming km². Territoriyasi shimoldan janubga 650km, g'arbdan sharqqa 700km ga cho'zilgan. Siyosiy geografik o'rnining asosiy xususiyati sobiq sotsialistik davlatlar bilan o'ralganligi (ular 7ta). Iqtisodiy geografik o'rnining muhim xususiyati Polsha territoriyasi geografik kenglik va uzunlik yo'nalishidagi tranzit yo'llar chorrahasida joylashganligi va 500 kmdan ortiq masofada dengiz bilan chegaradoshligi. Shuningdek YEIH mamlakatlariga yaqin qo'shni bo'lib, ular bilan havo, quruqlik, suvlik orqali savdo-sotiq qilish imkoniga ega. 2004 yil YEIH ga a'zo bo'lgan.

Aholisi. 38,6 mln (2003 yil), 38,1 mln. kishi (2006 yil) bo'lib, 98,5 % ini polyaklar tashkil etadi. Ulardan tashqari ukrainlar, beloruslar va litvaliklar ham yashaydi. Tug'ilish koeffisienti 10‰, o'lim 10‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 18%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 13%. O'rtacha umr 71-76 yosh. YAMD 14530 dollar (2007y.)

2-jahon urushi oqibatida aholisi 6 mln. kishiga, ya'ni 22% ga kamaydi, jinsiy tarkibi o'zgardi. Urushdan so'ng mamlakat aholisining joylashuviga ichki migratsiyaning ta'siri kuchli bo'ldi. Urbanizatsiya darajasi yuqori sur'at bilan o'sdi, hozirda mamlakat aholisining 63% i shaharlarda yashaydi. Yirik shaharlari: Varshava-1,6 mln., Lodz-818000, Krakov, Vroslav, Poznan, Gdansk, Shesin (1996y.).

Mamlakat ma'muriy jihatidan 16 ta vovodlikka bo'linadi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Polsha Birlashgan ishchi partiyasi-1948 yil tashkil topgan.
2. Birlashgan dehqonlar partiyasi-1949 yil tashkil topgan.
3. Demokratik partiya-1939 yil tashkil topgan.
4. Milliy tiklanish vatanparvarlik harakati uyushmasi.

2-jahon urushi natijasida Polsha o'z milliy boyligining 45% ini yo'qotdi, mamlakat ekonomikasi butunlay izdan chiqib ketdi (chunki 7 yil urush).

Sanoati tarkibida ro'y bergan eng muhim o'zgarish unda mashinasozlik bilan ximiya sanoatining salmog'ining ortishi bo'ldi.

Polsha sanoatining territoriyalarda to'planganligi bilan ajralib turadi. Sanoatning katta qismini janub voevodliklarda to'planganligi harakterli.

Polsha Si, sof oltingugurt, toshko'mir miqdori jihatidan Yevropada oldingi o'rinlarni egallaydi. Masalan: toshko'mir qazib olishda dunyoda 4-o'rinda, aholi jon boshiga nisbatan ko'mir qazib olishda esa 1-o'rinda turadi. Qo'ng'ir ko'mir, osh tuzi, polimetal zapaslari jihatidan Yevropada oldingi o'rinlarda turadi. Biroq temir, neft, fosforit kam.

Polsha energetikasining asosini toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir tashkil etadi. Toshko'mir qazib chiqarishning deyarli hammasi Yuqori Sileziya havzasida to'plangan. Bu yerdan energetika ko'miri ham, kokslanadigan ko'mir (anrosit) ham qazib chiqariladi. Keyingi yillarda mamlakat sharqidagi Lyublin havzasini o'zlashtirish boshlandi.

Neft va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini asosan MDH hisobiga qondiradi. "Do'stlik".

Qora metallurgiya sanoati chet el temir rudasiga muhtoj. Eng yirik qora metallurgiya korxonalari Krakov, Kotovise. Temir rudasini KMA va Krivoy Rogdan oladi.

Polsha mashinasozligi-ko'mir sanoati uchun mashinalar, bug' qozonlari, stanoklar, ximiya va qand zavodlari uchun jihozlar, passajir va yuk vagonlari, dengiz kemalarini ishlab chiqaradi. Mashinasozlik korxonalari asosan Varshava, Poznan, Vroslav, Gdanskda to'plangan.

Ximiya sanoatida yaqin vaqtlargacha o'g'itlar ishlab chiqarish ustun edi. So'ngi yillarda ko'mir ximiyasi asosida organik sintez ximiyasi tez o'smoqda. Uning asosiy zavodlari Yuqori Sileziya havzasi rayonida joylashgan. Neft – ximiya korxonalari "Do'stlik" tevaragida joylashgan.

To'qimachilik Lodz rayonida eng yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakat hududining asosiy qismi pasttekisliklardan iborat. Hududining 46 % i haydaladigan yerlar bo'lib, qadimdan dehqonchilik qilinib kelinadi. Polsha dehqonchiligida javdar, kartoshka eng ko'p ekiladi. Polsha butun dunyoda bu ekinlardan olinadigan hosilning $\frac{1}{4}$ qismini beradi, ularning yalpi hosili jihatidan MDH dan keyin turadi. Bug'doy, qand lavlagi yetishtirish katta ahamiyatga ega. Yiliga 26 mln t. (1987 y.) dan hosil olinadi. Donli ekinlarning o'rtacha hosildorligi 31 sentnerni tashkil etadi. Mamlakatda zig'irchilik, bog'dorchilik va karam yetishtirish yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik va cho'chqachilik alohida ajralib turadi, lekin ularning rivojlanishiga yaylovlarning (hududining 13% ini tashkil etadi) etmasligi to'sqinlik qiladi.

Transportining asosiy turi temir yo'llardir. Uzunligi 27000km. Temir yo'llarining yuk oboroti jihatidan Polsha Xorijiy Yevropada 1-o'rinda turadi. Temir yo'llarda asosan toshko'mir va temir rudalari tashiladi.

Iqtisodiy geografik jihatidan Polsha 3 qismga bo'linadi:

1. Janubiy Polsha. Mamlakatning eng muhim industrial bazasi "Qora Sileziya" aglomeratsiyasi joylashgan. Kotovise, Krakov, Vroslav kabi shaharlar joylashgan.
2. O'rta Polshada yirik sanoat shaharlari: Varshava, Lodz, Poznan joylashgan.
3. Shimoliy Polshada asosan qishloq xo'jaligi va dengiz xo'jaligi rivojlangan. Asosiy shaharlari: Shesin, Gdansk.

Tashqi savdosi asosan qo'shni mamlakatlar bilan olib boriladi. Asosiy eksporti: mashina va uskunalar, dengiz kemalari, toshko'mir, mis, oltingugurt, to'qimachilik buyumlari, kartoshka, karam. Asosiy importi: Temir rudasi, neft, gaz.

Pul birligi – zlotiy.

Mavzu: Shvetsariya Konfederatsiyasi

Shvetsariya – Markaziy Yevropadagi davlat. Territoriyasi 41,3ming km². Shimoldan Germaniya, janubdan Italiya, g'arbdan Fransiya, sharqdan Avstriya va Lixtenshteyn knyazligi bilan chegaradosh.

Mamlakat hayotida “G'arbning katta Yettilik mamlakatlari” ni 3 tasi bilan chegaradoshligi va “Umumiy bozor” mamlakatlariga yaqin qo'shniligi muhim o'rin tutadi. Ko'plab xalqaro tashkilotlarning shtab kvartirasini Shvetsariyada joylashganligi Shvetsariyani jahon siyosatidagi mavqeyini oshiradi.

Aholisi 7,07 mln (1996y), 7,3 mln (2003y), 7,5 mln kishi (2006y) bo'lib, zichligi 1 km² ga 182 kishi. Tug'ilish koeffisienti 10 ‰, o'lim 8‰. 1 ayolga 1,4 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 17%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 79-84 yosh. YAMD 40630 \$ (2007y). Aholisining milliy tarkibi xilma-xil. Mamlakat aholisining 14% i ajnabiy bo'lib, ular asosan Italiya va Portugaliyadan ko'chib kelganlardir. Shvetsariya 3 tilli (4 retoromanskiy) mamlakatdir, bunga sabab aholisining 65% i nemislar, 18% i fransuzlar, 10% i italyan tilida so'zlashadi. Dindorlarning 48% i katoliklar, 44% i protestantlardir.

Millioner shaharlari yo'q. Yirik shaharlari: Syurix, 341 ming, Bazel, Jeneva, Lozanna.

Mamlakat janub va janubi-sharqdan Alp, shimoli-g'arbdan esa Yura tog'lari bilan o'ralgan. Mamlakat hududida Jeneva, Nevshatel, Syurix va Boden (chegarada) kabi hushmanzara ko'llar joylashgan. Hududining asosiy qismini tog'lar egallagan.

Shvetsariya tabiiy resurslarga kambag'al bo'lib, na yonuvchi foydali qazilmalar na rudali foydali qazilmalar uchraydi. Lekin mamlakat gidroenergiya resurslariga boy. GES lar asosan Alp tog' etaklariga, ya'ni janubga qurilgan. Shvetsariya 1291 yil 1-avgustda 3 kantonni konfederatsiyaga birlashishidan tashkil topgan.

Shvetsariya 1818 yil konstitutsiya qabul qilgan. 1874 yil konstitutsiyaga o'zgarishlar kiritilgan bo'lib, shundan buyon o'sha konstitutsiyaga amal qilib kelinmoqda.

1815 yili Vena kongressida, 1919 yilgi Versal shartnomasida tasdiqlangan doimiy betaraflik statusi Shvetsariyaning tashqi siyosatidir.

Bu status 3 prinsepqa: urushlarda qatnashmaslik, chet ellar bilan harbiy shartnoma tuzmaslik, o'z hududini uzil - kesil kengaytirmaslikka asoslanadi. Shunga ko'ra Shvetsariya BMT ga, YEIH ga, NATO ga a'zo emas.

Shvetsariya – federativ parlamentli respublika. 23 kantondan iborat. Har bir kantonni o'zining konstitutsiyasi, parlamenti va hukumati bor. Biroq federal konstitutsiya kantonlar huquqlarini cheklab qo'ygan. Konfederatsiya prezidenti parlament tomonidan 1 yilga saylanadi.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Shvetsariya radikal – demokratik partiyasi.
2. Shvetsariya xristian – demokratik xristian partiyasi
3. Shvetsariya sotsial – demokratik partiyasi
4. Shvetsariya xalq partiyasi
5. Shvetsariya liberal partiyasi

6. Shvetsariya mehnat partiyasi.

Shvetsariya – rivojlangan mamlakat. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad jihatidan dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Dunyoning asosiy moliyaviy va bank markazlaridan biri (chet el valyutalar zapasi jihatidan dunyoda 4-o'rinda turadi).

Shvetsariya sanoati chet el xom ashyolariga juda qaram. Toshko'mir va temir rudasini asosan Germaniya va Fransiyadan oladi. Italiyadan rangli metallar oladi. Lekin yuqori sifatli qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Asosiy sanoat tarmoqlari: metal ishlash, stanoksozlik (dunyoda eksport qilinadigan stanokning 10% ini Shvetsariya beradi), to'qimachilik mashina-uskunolari (18% ini), elektr mashinasozligi, soatsozlik.

Mamlakat yiliga 5 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqaradi, uning 37 % ini AES lar, qolganini GES lar beradi.

Shvetsariya Horijiy Yevropadagi elektr-energiyasi eksport qiluvchi mamlakatlardan biri. Soatsozlik ayniqsa rivojlangan bo'lib, mashxur "Omega" firmasi ko'plab soat eksport qiladi. Qishloq xo'jaligi yalpi milliy mahsulotining 5 % ini beradi, mamlakat hududining 10 % i haydaladigan yerlar, 40% i yaylov va o'tloqlar. Aholisining faqat 5% i qishloq xo'jaligida bant. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq chorvachilik bo'lib, asosan qoramol, ot, qo'y, cho'chqa va parranda boqiladi. Bulardan tashqari sabzavot, meva, uzum, qand lavlagi, tamaki yetishtiriladi.

Daromatning muhim sohasi chet el turizmidir. Yiliga mamlakat aholisidan ko'p turist (7,5-8 mln) kelib ketadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 5174 km bo'lib, 99 % i elektrlashtirilgan. Avtoyo'llarning uzunligi 62 ming km. Avtotransport yetakchi o'rin tutadi. Dunyodagi eng uzun (17 km) avtoyo'l tonneli Shvetsariyaning Sen – Gotard dovonida ochilgan.

Tashqi savdo oboroti asosan: YEIH mamlakatlari avvalo Germaniya, Italiya, Fransiya, shuningdek, AQSH, Yaponiyaga to'g'ri keladi. Asosiy importi: neft va neft mahsulotlari, xom – ashyo, oziq – ovqat, mashina va uskunalar. Asosiy eksporti: kapital, (Shvetsariya kapitali nazorat ostida bo'lgan korxonalarda 3,5 mln ishchi ishlaydi. Bu Shvetsariyaning o'zidagidan ko'p, bu milliy daromatning asosiy manbaidir).

Iqtisodiy faol aholining 22 % i chet elliklardir. Kapitaldan tashqari Shvetsariya chetga to'qimachilik jihozlari, soatlar, elektr energiyasi metal kesuvchi stanoklar (metal kesuvchi stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha Shvetsariya dunyoda birinchi o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi).

Pul birligi – shvetsar franki.

Mavzu: Vengriya Respublikasi (1989 yil oxiridan)

Vengriya – Markaziy Yevropaning janubi- sharqiy qismida joylashgan. Maydoni 93 ming km². Uning territoriyasida Yevropaning turli davlatlarini bir biri bilan bog'lovchi muhim tranzit yo'llar kesishadi. Dunay suv yo'li Vengriya respublikasini Yevropaning 8 ta mamlakati bilan bog'laydi va Qora dengizga chiqish imkoniyatini beradi. Vengriya respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar: Germaniya, Fransiya, Italiyaga yaqinligi va ular bilan temir va avtoyo'llar orqali bog'langanligi iqtisodiy jihatdan qulaylik bo'lsa, dengiz bilan tutashmaganligi noqulaylikdir.

Aholisi – 10,6 mln (1987y), 10,1mln (2003y,2006y)kishi. Tug'ilish koeffitsienti 10‰ , o'lim 13‰ . 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 16%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 15%. O'rtacha umr 68-76 yosh. YAMD 17920\$ (2007 y). Aholisining 96% ini vengrlar, qolganini serblar, xoravatlar, nemislar, slovaklar, ruminlar tashkil etadi. Aholining tabiiy o'sishi juda pasayib ketgan. Germaniya, Italiya, Daniya kabi demografik tanglik kuzatilmoqda. Bu holat mehnat resurslariga ta'sir qiladi. Vengriya respublikasida urbanizatsiya jarayonining asosiy hususiyati unda Budapesht shahri rolining juda katta ekanligidir. Faqat poytaxtdagina milliondan ortiq (1,8 mln – 1996y) aholi yashaydi. Boshqa katta shaharlarda 250 minggacha aholi yashaydi. Boshqa katta shaharlar: Debresin, Mishpols, Seged va Pech.

II-jahon urushiga qadar mamlakatni Xorti Diktaturasi boshqargan. 1945 yil aprelda Vengriyada xalq demokratik tuzimi o'rnatildi. 1949-yildan Vengriya Xalq Respublikasi deb, 1989-yildan Vengriya Respublikasi deb e'lon qilindi. Vengriya Xalq Respublikasi – Varshava shartnomasining qatnashchisi va O'YOK ning a'zosi bo'lgan. Vengriya 19 ta oblastdan iborat. Davlat majlisi – Vengriya respublikasi davlat hokimiyatining oliy organidir.

Asosiy siyosiy partiyalar:

Vengriya kommunistik partiyasi 1918 yil tashkil topdi va 1948-yil Vengriya sotsialistik ishchi partiyasiga aylangan. Davlat boshlig'i prezident.XGMT da Vengriyani o'rni avvalo mashinasozlik va ximiya sanoati bilan belgilanadi. Mashinasozlik ko'p miqdorda malakali mehnat resurslarini talab qiluvchi murakkab buyumlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan.

Vengriyada ishlab chiqarishning joylashuvidagi asosiy hususiyat barcha sanoatning urushga qadar ½ qismini, hozirgi vaqtda 1/3 qismini Budapeshtda to'planganligidir. Budapeshtda hozirda 0,5 mln dan ortiq aholi sanoatda band.

Vengriya tabiiy resurslarga kambag'al. Ko'mir, ayniqsa toshko'mir, neft, tabiiy gaz juda oz miqdorda qazib olinadi. Temir rudasi deyarli yo'q. Gidroenergiya resurslari ham kam.

Faqat boksit zapasi katta. Vengriya respublikasi neftni "Do'stlik - 2" orqali MDH dan, tabiiy gazni "Soyuz" gaz quvuri orqali MDH dan va Ruminiyadan, toshko'mirni MDH, Chexiya va Polshadan, temir rudasini MDH dan (temir yo'l va Dunay orqali), elektr energiyasini "Mir" MDH dan oladi.1990 yillari sotsialistik tuzimning yemirilishi va sobiq SSSR ning parchalanishi oqibatida Vengriya respublikasi sanoati bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Vengriya respublikasining yirik boksit – alyuminiy sanoati bor. Mamlakatda alyuminiy ishlab chiqarish jarayonining barcha 4 bosqichi rivojlangan. Bu bosqichlar boksit qazib chiqarish , glinyozm ishlab chiqarish, alyuminiy eritish va undan buyumlar yasash. Lekin alyuminiy eritishga elektr energiyasini yetishmasligi va tannarxning yuqoriligi to'sqinlik qilmoqda. Bu sanoat korxonalari mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan.

Qora metallurgiya sanoati deyarli butunlay chet el xom-ashyosi va yoqilg'isi hisobiga ishlaydi. Mashinasozlik Vengriya sanoatining asosiy tarmog'i bo'lib, u ikki yo'nalishda ixtisoslashmoqda.

1-yo'nalish – transport mashinasozligi bo'lib, bu tarmoq korxonalari : elektrovozlar, yo'lovchi vagonlari, metall kesuvchi stanoklar, daryo kemalari (Meteor), dizel poezdlar, avtobuslar chiqaradi.

2-yo'nalish – elektrotexnika, elektronika va proborsozlikdir. Vengriya 1986 yil 13,4 ming avtobus, 417 ming televizor, 388 ming xolodelnik ishlab chiqargan.

Ximiya sanoati qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar, organik ximiya mahsulotlari ishlab chiqarishga va farmasevtikaga ixtisoslashmoqda. "Geoden Rixter".

Qishloq xo'jaligi. Mamlakat hududining asosiy qismi pasttekisliklardan iborat bo'lib, mamlakat maydonining 55 % i haydaladigan yerlardir. Qishloq xo'jaligida asosiy tarmoq dehqonchilik bo'lib, asosan donli ekinlar avvalo makkajo'xori va bug'doy yetishtirishga ixtisoslashgan. 1986-yil mamlakat 7,2 mln t. makka, 5,8 mln t. bug'doy yetishtirgan.

Texnika ekinlaridan qand lavlagi va kungaboqar ko'p ekiladi. Chorvachilikda cho'chqa (8,7 mln) va qoramol (1,7 mln) asosiy o'rinda turadi. Aholi jon boshiga don (1,4 t.) va go'sht (165 kg.) yetishtirish jixatidan dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.

Transporti. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 7,8 ming km, shundan 1,9 ming km elektrlashtirilgan. Ichki va xalqaro yuk tashishda temir yo'llar transporti asosiy o'rinda turadi (yuklarning 54 % ini tashiydi). Avtotransport salmog'i oshib bormoqda. Vengriya respublikasi transporti uchun Budapeshtdan turli tomonga radial yo'nalishda ketgan yo'llar xarakterlidir. Dunay Vengriya respublikasini taxminan teng ikki qismga bo'lib turadi. G'arbiy qismi Dunantul, bu yerda sanoat ko'proq, sharqiy qismi Alfyold asosan don yetishtirishga ixtisoslashgan.

Asosiy eksporti boksit, glinozyom, stanoklar, yo'lovchi vagonlari, dizel dvigatellari, avtobuslar, elektrolampalar, farmasevtika tovarlari, sabzavot konservalari.

Asosiy importi elektr energiyasi, koks, temir rudasi, engil avtomobillar, sun'iy o'g'itlar, yog'och – taxta, paxta.

Vengriya jahonning 150 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini olib boradi. Pul birligi – ferint.

Mavzu: Bolgariya Respublikasi

Bolgariya respublikasi Horijiy Yevropaning janubi-sharqiy qismida Bolqon yarim orolida joylashagan. Hududi 110,9 ming km². U shimoldan Dunay daryosi bo'ylab Ruminiya, janubdan Gretsiya va Turkiya, g'arbdan Serbiya va Makedoniya kabi davlatlar bilan sharqdan esa Qora dengiz bilan tutashgan. Chunki Horijiy Yevropa mamlakatlarini Kichik Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga boradigan quruqlik yo'llari (temir va avtomobil) Bolgariya hududidan o'tadi. Shuningdek Bolgariyaning Qora dengiz bilan tutashganligi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Bolgariya sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar avvalo foydali qazilmalar bilan bog'liq. Bolgariya ba'zi foydali qazilmalar: polimetall, va mis rudalariga boy. Lekin bir qator foydali qazilmalarga, ayniqsa yonuvchi foydali qazilmalarga (ko'mir, neft, tabiiy gaz) kambag'al. Hidroenergiya resurslariga boy. Yetishmaydigan yoqilg'ilar o'rnini gidroresurslar qisman qoplaydi. Tabiiy sharoit Dunay tekisligi va Marisa pasttekisligida qishloq xo'jaligi uchun eng qulaydir. Bu tekisliklarning katta qismini tuproqlari qora tuproqlar bo'lib, mamlakat xududining 33% i haydaladigan yerlardir. O'rmonlar mamlakat hududining 30 % ini, yaylovlar esa 16 % tashkil etadi.

Aholisi 8,1 mln (2001 yil), 7,5 mln (2003yil), 7,7mln (2006yil) kishi bo'lib, zichligi 1 km² ga 69 kishi. Tug'ilish koeffitsienti 10 ‰, o'lim 15‰. Bir ayolga 1,2 bola to'g'ri

keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 15% , 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 17%. O'rtacha umr 69-75 yosh. YAMD 10400\$ (2007) .

Urbanizatsiya darajasi 68%. Bu jarayonga mamlakatdagi ichki migratsiya kuchli ta'sir ko'rsatadi (qishloqdan shaharga). Millioner shaharlari faqat Sofiya (1,1 mln). Mamlakatda aholi tabiiy o'sishning pastligi tufayli demografik tanglik kuzatilmoqda. Mexnat resurslarining yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. Aholisining 97 % ini bolgarlar (janubiy slovyanlar), qolganini ruminlar, serblar, greklar tashkil etadi.

Bolgariya xududiy – ma'muriy tuzilishiga ko'ra unitar davlat bo'lib, respublika shaklida boshqariladi. 9 ta oblastga bo'linadi.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Bolgariya kommunistik partiyasi (1891 yil asos solingan).
2. Bolgariya dexqonchilik xalq ittifoqi (1900 yil).
3. Bolgariya kasaba soyuzlari markaziy kengashi (1904 yil).

Bolgariya Varshava shartnomasining qatnashchisi va O'IYOK ning a'zosi bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyotining tarixiy rivojlanishiga ko'ra O'IYOK mamlakatlarning birinchi navbatda Sobiq SSSR ning ta'siri kuchli bo'lgan. Mamlakatdagi iqtisodiy tanazzul (kriz) 1986 yildan boshlangan.

Bolgariya energetikasida sharqiy Marisa xavzasidan qazib olinadigan lignit yaxshi o'rin tutadi. (Lignum – daraxt ma'nosida, sifatli qo'ng'ir ko'mir bo'lib, 5-6 ming kkal energiya beradigan yoqilg'i). Lekin toshko'mirni Ukrainadan (Donesk) Varna Ilichevsk paromi va Dunay orqali keltiradi. Neftni Rossiyadan Qora dengiz orqali keltiradi. Tabiiy gazni gaz quvuri orqali Rossiyadan oladi. Elektr energiyasini Ukrainadan oladi.

Qora metallurgiya sanoati rivojlanmagan. Rangdor metallurgiya sanoati – qo'rg'oshin, rux, mis ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

Bolgariya mashinasozligi ko'tarma transport mashinalari, elektrotexnika buyumlari, EHM lar (Praves 8) va daryo kemalari ishlab chiqaradi. Mashinasozlikning bosh markazi Sofiya, kemasozlikning markazi Varna.

Ximiya sanoatida azotli o'g'itlar va soda ishlab chiqarish ajralib turadi. Neft kimyo sanoati Qora dengiz bo'ylarida joylashgan bo'lib, yirik markazi Burgasda.

Bolgariya uchun oziq – ovqat sanoatining kattaligi xarakterli. Meva sabzavot konservalari, sharbatlar, uzum vinosi, tamaki mahsulotlarini (Bolgar tabak "Rodopi", Styuardessa, TU) ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustun turadi. Haydaladigan yerlarning asosiy qismiga bug'doy va makkajo'xori ekiladi. O'zini don bilan ta'minlaydi. Asosiy texnika ekini – tamaki. Bolgariya qadimdan moy olinadigan atirgul yetishtiradi. Bir kg moy olish uchun 3 t. gul bargi kerak. Chorvachiligida qo'ychilik asosiy o'rin tutadi.

Transporti. Mamlakat ichkarisida yuk va yo'lovchi tashishda temir yo'l transporti katta rol o'ynaydi. Temir yo'llari asosan kenglik yo'nalishida joylashgan ularning umumiy uzunligi 6430 km. Avtotransport yuk oboroti jihatidan 2 o'rinda turadi. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 36000km.

Tashqi savdo aloqalarida Qoradengiz va Dunay daryosi xal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro turizm rivojlanib bormoqda. Yiliga Bolgariyaga 1 mln dan ortiq turist kelib ketadi. "Oltin qum" sanatoriyasi.

Iqtisodiy geografik tafovutlari: Stara Platina tog'lari mamlakatni ikki qismga: Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'lib turadi. Shimoliy Bolgariyada qishloq xo'jaligi intensiv rivojlangan, ayniqsa don rivojlangan.

Janubiy Bolgariya industrial, lignit qazib olish, elektr energiyasi, rangli metallar, o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni asosan MDH va qo'shni davlatlar bilan olib boradi.

Asosiy eksporti: elektrotexnika va elektronika buyumlari, ko'tarma transport uskunalari, rangli metallar, tamaki mahsulotlari, vino, meva konservalar, parfyum.

Asosiy importi: toshko'mir, neft, tabiiy gaz, elektr energiyasi.

Pul birligi – Lev.

Mavzu: Rossiya federatsiyasi

Rossiya – Yevrosiyoda joylashgan, maydoniga ko'ra yer sharidagi eng yirik mamlakat. Maydoni 17075,400 km². Aholisi 142,7 mln (2006 yil) kishi bo'lib, shundan shahar aholisi 107,3 mln, qishloq aholisi – 35,4 mln kishi. Rossiya federatsiya sifatida 1917 yil 7 noyabrda tashkil topgan. 1922 – 1990 yillar oralig'ida sobiq SSSR ning “o'zagi” bo'lgan. 1990 yil 12 – iyun kuni Rossiya federatsiyasi o'z mustaqiligini (Den Rossiya) e'lon qilgan. Birinchi prezidenti Baris Yelsin bo'lgan. Rossiya siyosiy – ma'muriy jihatdan 21 respublika (Kareliya, Komi, Udmurtiya, Mariy – El, Tatariston, Boshqirdiston, Mordova, Qolmiq, Dog'iston, Chuvashiya, Checheniston, Ingushitiya, Shimoliy Osetiya (Alaniya), Kabardino – Balkariya, Karachevo – Cherkessiya, Adigeya, Oltoy, Xakasiya, Tiva (To'va), Buryatiya, Saxa (Yoqutiston)), 9 o'lka (Krasnodar, Stavropol, Perm, Oltoy, Krasnoyarsk, Zabaykale, Xabarovsk, Primore, Kamchatka), 46 oblast, 1 avtonom oblast (Yevrey), 5 avtonom okrug (Nenets, Yamalo – Nenets, Xanti – Mansi (Yugra), Ust – Ordin Buryatin, Chukotka) va 2 federal shahardan (Moskva, Sankt - Peterburg) iborat (2008 yil).

Rossiya shimoldan janubga 2,5 -4 ming km gacha, g'arbdan sharqqa 9000 km ga cho'zilgan bo'lib, 3 ta okean suvlari bilan o'ralgan. Tabiiy resurslarga boyligi, ikki qit'ada joylashganligi (ayniqsa Yevropada joylashganligi), 3 okean va 13 ta dengiz bilan o'ralganligi, quruqlik orqali MDH ning 7 mamlakati bilan va 5 ta xorijiy davlat bilan chegaradoshligi, suvlik orqali Yaponiya, AQSH va Xorijiy Yevropa davlatlari bilan chegaradoshligi iqtisodiy geografik o'rning qulayligidir. Rossiya hududining $\frac{3}{4}$ qismini dunyodagi eng yirik tekisliklar va pasttekisliklar egallagan. Misol: Sharqiy Yevropa tekisligi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Sibir tekisliklari, Kaspiy bo'yi pasttekisligi (-27m). Tog'li territoriyalar mamlakat xududining janubida va sharqida joylashgan. Ular: Katta Kavkaz (Elbrus cho'qqisi 5642m. Rossiyadagi eng baland nuqta), Ural, Oltoy, Kuznesk Olatovi, Sayan; tizmalaridan : Yablonovoy, erxoyansk, Chyerski, Sixote Alin, Stanovoy, Kalima, Keryak va h.k.

Kamchatka Yarim oroli va Kuril orollarida ko'plab harakatdagi vulqonlar bor. Ularning eng balandi: Klyuchevskaya Sopka 4750 m (4688m).

Rossiyada uzunligi 10 km dan oshiq bo'lgan 120 ming daryo bor, ularning umumiy uzunligi 2,3 mln km. Eng uzun daryolari : Ob (5410km), Amur, Lena, Enisey, Volga. Rossiyada 2 mln atrofida ko'llar bor. Eng muhimlari: Baykal (chuqurligi 1637m),

Ladoga, Onega, Taymir, Chud. Yirik suv omborlari: Bratsk (169,3 km³), Krasnoyarsk, Zey, Ust – Ilmsk, Kuybishev. O'rmonlar Rossiya hududining 41 % ni egallagan.

Rossiyaning shimoliy Arktika muz sahrolaridan janubda chala cho'llargacha davom etadi. Rossiya hududi asosan mo'tadil mintaqada joylashgan bo'lib, g'arbda dengiz iqlimi, dengiz – kontinental, kontinental va mussongacha. Qora dengiz sohillari subtropik. O'rtacha harorat: Rossiya g'arbida 0⁰ – -5⁰ S gacha yanvarda Yakutskda -40⁰ -50⁰ S. Iyulning o'rtacha temperaturasi Sibirning shimolida +1⁰ S, Kaspiy bo'yida +24⁰ +25⁰ S.

Chekka nuqtalari: Chelyuskin burni 77⁰ sh.k. Janubda Bazar-dyuzi tog'i 41⁰ sh.k, g'arbda Baltika posasi (Kaliningrad), sharqda Dejnyov burni 169⁰ g'.u.

Rossiya davlat chegarasining uzunligi 60,9 ming km bo'lib, shundan quruqlik chegarasi 14,5 ming km, dengiz chegarasi 38,8 ming km, daryo chegarasi 7,1 ming km, ko'l chegarasi 0,5 ming km.

Aholisi soniga ko'ra Rossiya jahonda birinchi o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi. (1986 yil 145,3 mln, 1999 yil 146,7 mln, 2006 yil 142 mln kishi). Tug'ilish – 1426000 kishi, o'lim – 2372000 kishi. O'rtacha umr 65 yosh. Tug'ilish koeffisienti 10‰, o'lim 16‰. Tabiiy o'sish – 0,6% (2006 y). 100 erkakga 113 ayol to'g'ri keladi. Erkaklar 59%, ayollar 72 %. Aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, zichligi 1 km² ga 8 kishi(2006 y).

Aholisining asosiy qismi mamlakatning Yevropa qismida joylashgan. Osiyo qismida esa faqat janubiy qismida va daryolarning bo'ylaridagina yashaydi. Rossiyada 100 dan ortiq xalq va millatlar yashaydi. Shundan : ruslar – 81,5 %, tatarlar – 3,8 %, ukrainlar – 3 %, chuvashlar – 1,2 %, boshqirdlar – 0,9 %, beloruslar – 0,8 %, mordlar – 0,7 % chechenlar – 0,6 %, armanlar va yevreylar – 0,4 % ni tashkil etadi.

Asosiy siyosiy partiyalari “Yagona Rossiya” (Boris Grizlov), LDPR (V. Jirinovskiy), KPRF (G. Ziganov), “Adolatli Rossiya” (S. Minorov).

Elektr energiyasining asosiy qismini IES lar beradi. Rossiya elektir-energiyesi ishlab chiqarish bo'yich jahonda 1-beshlikka kiradi. (2007 yil 1015 mlrd. kVt.s. elektir-energiyesi ishlab chiqardi. Jahonda 4-o'rinda) Tabiiy gaz Urengoy, Volgabo'yidan olinadi. Ko'mir Kuzbass, Kansk – Achinsk va Uzoq sharqdan olinadi.

Qora metallurgiya Ural, Volgabo'yi, KMA, Kuzbass da. Rangdor metallurgiya Ural, Janubiy Sibir, Norilskda. Mashinasozlik - Markaz, Volgabo'yi, Ural, Janubiy Sibir, Uzoq sharq.

Ximiya sanoati – Markaz, Volgabo'yi.

Sanoat mahsulotining 1/3 qismi yoqilg'i energetika majmuyi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Energetika tarmog'i ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining jamiyat moddiy – texnika ba'zasini yaratishning asosi hisoblanadi. Rossiyaning yoqilg'i energobloklari strukturasi yoqilg'ini qazib chiqarish va ishlatishning taxminan 70% i neft va gazga to'g'ri keladi.

Xalq xo'jaligi: Rossiyada xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari mavjud. Sanoati – mamlakat xo'jaligining yetakchi tarmog'i. Mamlakatda barcha sanoat turlari mavjud.

Neft sanoati. Neft asosan Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Saxalindan olinadi. Konlardan qazib olingan neftning katta qismi mamlakat ichkarisidagi uzunligi 70 ming km ga yaqin bo'lgan neft quvurlari orqali tashiladi. 2007 yil 491 mln. t. neft qazib olib jahonda neft qazib olishbo'yicha 1-o'ringa chiqdi. Neft MDH davlatlariga, Sharqiy va

G'arbiy Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. So'ngi yillarda o'rta hisobda yiliga 90 mln tonnadan 120 mln tonnagacha neft eksport qilinmoqda.

Mashinasozlikning yirik markazlari: Moskva, Lelingrad, Uralda, Volgabo'yida, G'arbiy Sibirda. Temir yo'l mashinasozligining yirik korxonalari Nijniy, Novgorod, Sank-Peterburg, Ulan-Ude, Lyudinov, Murom shaharlarida joylashgan.

Dengiz va daryo kemasozligi, kema ta'mirlash Sankt- Peterburg, Astraxan, Nijniy, Novgorod, Tyumen, Xabarovsk va boshqa shaharlarda amalga oshiriladi.

Samolyotsozlik Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk kabi yirik sanoat markazlarida joylashgan.

O'rmon sanoati mamlakatning shimoliy va sharqiy rayonlarida rivojlangan. Rossiyada o'rmonlar maydoni 766 mln ga. ni tashkil etadi. Sellyuloza qog'oz sanoati korxonalarini joylashtirishda xom ashyo omilining ahamiyati katta. Hozirgi vaqtda bu tarmoqning asosiy markazlari shimoliy rayonda , Uralda, Volga – Vyatka rayonida joylashgan.

Qishloq xo'jaligi. 1986 yili qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti 1980 yildagiga nisbatan 18 % o'sdi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 218,5 mln ga, shu jumladan haydaladigan yerlar 134,0 mln. ga. (60% dan oshiq), pichanzorlar (23,7 mln ga.), yaylovlar 59,4 mln ga. (1986 y.)

Rossiya federatsiyasi qishloq xo'jaligi asosini don yetishtirish tashkil qiladi. Bug'doy ekiladigan joylardan shimolroqda, o'rmonlar zonasida javdar ekiladi. Zig'ir Rossiyaning Yevropa qismining shimoli-g'arbida yetishtiriladi. Kungaboqar Rossiya xududining Yevropa qismining ancha quruq va serquyosh janubi-sharqiy dasht rayonlarida, Volgabo'yi dashtlarida yetishtiriladi.

Haydaladigan yerlarning 4/5 qismi markaziy qoratuproq rayonlariga, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Ural va G'arbiy Sibirda to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotini 39% dan ziyodini dehqonchilik, qariyb 61 % ini chorvachilik beradi.

Asosan qishloq ekinlari : g'alla, qand lavlagi, kungaboqar, kartoshka, zig'ir.

Chorvachiligi go'sht-sut va go'sht-jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakat Yevropa qismida o'rmon va o'rmon – dasht zonalarida hamda Sibirda sersut qoramol boqiladi.

Rossiyada transportning barcha turlari rivojlangan. Umumiy yuk tashish aylanmasida dengiz (13,0 %), quvur (29,0 %) transportning xissasi hozirga kelib ko'paydi, temir yo'l (52,7 %) va daryo (3,7 %) transportniki kamaydi.

Rossiyaning asosiy transporti temir yo'l transportidir. Temir yo'l tarmoqlari Moskvadan chekka o'lkalarga ketgan. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha Rossiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi taxminan 90 ming km, ularning 3/1 qismi elektrlashtirilgan. Rossiya Fidiratsiyasidagi eng tez yurar poyezd "Sapsan" Moskova-Sankt-Petirburg orasida soatiga 250 km tezligda harakatlanadi. GFR bilan hamkorlikda 2009 yil qurilgan.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Dengiz transportining geografiyasi va mamlakatni o'rab turadigan 14 ta dengiz bilan belgilanadi. Rossiya floti yuk ko'tarish qobiliyati jihatidan faqat 6 ta davlatdan keyin turadi:

- | | |
|--------------------|--------------|
| 1. Liberiya | 4. Norvegiya |
| 2. Yaponiya | 5. Gretsiya |
| 3. Buyuk Britaniya | 6. Panama. |

Suv yo'llari sistemalari: Oq dengiz, Boltiq kanali, Moskva kanali, Volga – Don kanali, Volga – Boltiq suv yo'li, Kursk- Magnit – Anamaliyasi, G'arbiy Sibir, San, Jan, Yoqutiston va boshqalar. Yuk yuborish jihatidan Qora dengiz, Azov dengizi havza portlari 1-o'rinda turadi. Kema qatnovida 142 ming km daryo yo'llaridan foydalaniladi. Rossiyada tashiladigan jami yukning 11,3 % i dengiz transportida, 4,7 % i avtomobil transportida, 55 % i temir yo'l transportida, 27,5 % i quvur transportida, 1,5 % i ichki suv transportida tashiladi.

Rossiyada tashiladigan jami yo'lovchining 33 % i avtomobil transportida, 33,2 % i temir yo'l transportida, 18,6% i havo transportida, 15,2 % i boshqa transport turlarida tashiladi.

Rossiya tashqi aloqalarida MDH davlatlari, Xitoy va rivojlangan davlatlar muhim o'rin tutadi. Rossiya chetga yoqilg'i va elektr – energiyasi, ruda va konsentratlar, metallar va metall buyumlar, yog'och, taxta va sellyuloza qog'oz mahsulotlarini va boshqa tovarlarni eksport qiladi.

Importida mashina va jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarni, paxtani chetdan oladi. Germaniya, Italiya, Fransiya, Avstriya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa Yevropa davlatlari Rossiya nefti va gazining asosiy iste'molchilaridir.

Rossiya federatsiyasi 10 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi:

1. Markaziy rayon
2. Markaziy qoratuproq rayoni
3. Volga – Vyatka rayoni
4. Shimoli – G'arbiy rayon
5. Volgabo'yi rayoni
6. Shimoliy Kavkaz rayoni
7. Ural rayoni
8. G'arbiy Sibir rayoni
9. Sharqiy Sibir
10. Uzoq Sharq rayoni.

O'zbekistonni MDH bilan tashqi savdosida (48 %) eksportni 27,5 % i importini 29,3 % Rossiyaga to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Estoniya, Latviya, Litva.

Estoniya – shimoldan Fin qo'ltig'i, g'arbdan Riga qo'ltig'i, sharqdan Rossiya, janubdan Latviya bilan chegaradosh. Maydoni 45 000 km² (Saaremma va Xiyumaa orollari bilan). Sohillari uzoq vaqt muzlaydi. Namgarchilik ko'pligi sababli botqoqlashib ketgan. Mayda daryo va ko'llari (Chud, Pskov)ko'p. Siyosiy ma'muriy jihatidan 15 ta uezdga bo'linadi.

Foydali qazilmalarga, ayniqsa, yonuvchi slanetsga boy (Fin qo'ltig'i bo'ylari), bundan tashqari torf va fosforitga boy. Yonuvchi slanetsdan IES larda va ximiya kombinatida xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Aholisi 1,4 mln (2001 y), 1,3 mln (2006 y)kishi. Tug'ilish koeffisienti 11 ‰, o'lim 13 ‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17 %

, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16 %. O'rtacha umr 67-78 yosh. YAMD 17530 \$ (2007 y.) .Urbanizatsiya darajasi 75 %. Aholi zichligi 1 km² ga 30 kishi. Millioner shaharlari yo'q. Tallinda 435 ming kishi (1995 y). Yirik shaharlari: Tartu, Narva, Kaxtla – Yarve, Pernu.

Sanoati mamlakatda metall yo'qligi sababli kam metall sarflanadigan tarmoqlar priborsozlik, radioapparatlar, slanets sanoati uchun asbob-uskunalar, kemalarni remont qilish, baliq sanoati, o'rmon sanoati rivojlangan. Qishloq xo'jaligida chorvachilik yetakchi tarmoq. Dehqonchiligida asosan kartoshka, qisman zig'ir ekiladi. Mamlakat territoriyasi tekislik bo'lganligi sababli GES lar qurilmagan, AES lar yo'q. Elektr-energiyasi asosan yonuvchi slanetsga ishlaydigan IES lardan olinadi. Neft va gaz yo'qligi sababli Rossiyadan sotib oladi. Sohillarda turizm rivojlangan.

Yirik sanoat shaharlari: Tallin, Tartu.

Temir yo'l transporti va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Barcha shaharlari temir yo'llar bilan tutashirilgan.

Asosiy portlari: Tallin, Pernu.

Tashqi savdosi asosan Rossiya va Horijiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi. Pul birlig – eston kronasi.

Eksporti: baliq, radiotexnika, priborlar, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft mahsulotlari, g'alla, metallar, mashinalar.

Latviya – g'arbdan Boltiq dengizi (Riga qo'ltig'i), sharqdan Rossiya, shimoldan Estoniya, janubdan Litva va Belarus bilan chegaradosh. Maydoni 64,6 ming km² Iqtisodiy geografik o'rni qulay. Oblastlarga bo'linmagan. Siyosiy adminstratsiyaga bo'lingan: 26 uezd va 6 respublika shaharlari. Hududidan Daugava (G'arbiy Dvina) daryosi oqib o'tadi. Daryoga 3 ta yirik GES qurilgan. Foydali qazilmalardan torf katta ahamiyatga ega. O'rmonga boy.

Aholisi 2,7 mln kishi, 2,4 mln kishi (2003 y), 2,3mln kishi (2006 y). Tug'ilish koeffitsienti 10‰, o'lim 14‰. 1ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17 %, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 15 %. O'rtacha umr 66-77 yosh. YAMD 15340 \$ (2007 y). Urbanizatsiya darajasi 70%. Aholi zichligi 1 km² ga 41 kishi. Eng yirik shahari Riga (827000-96 y), Daugavapilis, Liepaya, Elgava, Yurmala.

Sanoati. Latviya Estoniya va Litvaga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan. Mashinasozlik asosiy o'rin tutadi. Boltiq bo'yi davlatlari ichida yagona po'lat yeritish zavodi Liepayada joylashgan. Metallni Polsha va Rossiyadan sotib oladi. Mashinasozlik sanoatida mikroavtobuslar (RAF), ATS lar, elektrotexnika jihozlari, kemalar, radiolar va radiopriyomniklar ko'p chiqariladi.

Ximiya sanoatida ximiyaviy tolalar, rezina-texnika buyumlari, davolash preparatlari ishlab chiqariladi. Mebel ishlab chiqarish va rezina sanoati rivojlangan. Yog', go'sht va baliq-konserva sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida sut chorvachiligi va cho'chqachilik rivojlangan. Mamlakat g'arbida qand lavlagi, sharqida esa kartoshka va zig'ir ekiladi.

Dengiz transporti yaxshi rivojlangan, yirik portlari: Riga, Liepaya. Temir yo'llari yaxshi rivojlangan. Yirik sanoat markazlari: Riga, Daugavapilis, Liepaya. Tashqi

savdosi asosan Rossiya, MDH ning boshqa davlatlari va Horijiy Yevropa davlatlari bilan bo'ladi.

Eksporti: elektr jihozlari, radiotexnika, meditsina jihozlari, baliq, o'rmon, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft, ko'mir, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiya. Xalqaro turizm rivojlangan: Riga, Yurmala. Pul birligi – lat.

Litva 4 ta mamlakat va Boltiq dengizi bilan chegaradosh. Maydoni 65,2 ming km². Oblastlarga bo'linmaydi. 10 ta uezdga bo'lingan. Temir yo'llar orqali Polsha va Germaniya bilan bog'langan. Yirik avtoyo'llarga ega.

Aholisi 3,650 ming kishi, 3,7 (2003 y), 3,4 mln kishi (2006 y). Tug'ilish koeffitsienti 12‰, o'lim 13‰. 1 ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 19 %, 64 yoshdan yuqori bo'lgan 14 %. O'rtacha umr 65-77 yosh. YAMD 14930 \$ (2007 y). Aholi zichligi 1 km² ga 56 kishi. Urbanizatsiya darajasi 68 %.

Asosiy foydali qazilmalari: torf, qahrabo, binokorlik materiallari. Sanoati Latviya va Estoniyaga qaraganda kam rivojlangan. Energetika bazasining zaifligi sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tabiiy gaz, ko'mir va torfga ishlaydigan IES lar mavjud. Nyamunos daryosiga GES qurilgan. 2 ta AES bor. Kam metall sarflanadigan mashinasozlik: stanoklar, elektr asboblari, motorlar ishlab chiqariladi. Klappeda kemasozlik mavjud. Zig'ir tolasidan gilam to'qish rivojlangan. O'rmon sanoati mebel, faner, qog'oz ishlab chiqaradi.

Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligi uchun Latviya va Estoniyaga nisbatan qulayroq. Qishloq xo'jaligida sut chorvachiligi va cho'chqachilikka ixtisoslashgan. Javdar, bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir va qand lavlagi yetishtiriladi. Yirik sanoat markazlari: Vilnyus, Klappeda, Kaunas, Shyaulay. Tashqi savdoda MDH davlatlari yetakchi o'rin tutadi. Pul birligi – lit.

Eksporti: elektr jihozlari, priborlar, chorva va o'rmon mahsulotlari, qahrabo.

Importi: tabiiy gaz, neft, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiya.

Mavzu: Belorussiya Respublikasi.

MDH ning g'arbiy qismida Sharqiy Yevropa tekisligida joylashgan. Maydoni 207,6 ming km². Shimoli-g'arbdan Litva, shimoldan Latviya, shimoli-sharqdan va sharqdan Rossiya, janubdan Ukraina, g'arbdan Polsha bilan chegaradosh. Polsha, Rossiya va Ukraina bilan chegaradoshligi iqtisodiy qulayligi bo'lsa, dengiz bilan tutashmaganligi noqulayligidir.

Ayni vaqtda Rossiya bilan Horijiy Yevropa davlatlari orasida tranzit yo'llar ustida joylashgan. Territoriyasining 7 % i torfli botqoqliklardir.

Belorussiya siyosiy-ma'muriy tuzilishiga ko'ra 6 ta oblastga bo'linadi. Millioner shaharlari bitta.

Aholisi 10100000 (1986y.), 10236000 kishi (1997y.), 9,9 mln (2003y.), 9,7 mln. (2006 y.) bo'lib, asosiy Sharqiy slovyan xalqlaridir. Tug'ilish koeffitsenti 9‰, o'lim 14‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 18 %, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14 %. O'rtacha umr 63-76 yosh. YAMD 8810 dollar. Aholisining 77 %ini beloruslar, 13%ini ruslar, 4%ini polyaklar, 3%ini ukrainlar qolganini boshqa xalqlar tashkil etadi. Aholisining zichligi ancha katta 1km²ga 47 kishi (2006y.). Yirik shaharlari: Minsk (1680000), Gomel (504000), Mogilev, Vitebsk, Gradno

(1996y.).Urbanizatsiya darajasi 73 % (2007 yil). Mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan, lekin mustaqillik yillari mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar sababli "oqillar migratsiyasi" kuzatilmoqda.

Davlat tili belarus va rus tili.

Aholisini 80%i provoslavga 15%i katolikka etiqod qiladi.

Asosiy siosiy partiyalari: Birlashgan demokrativ partiya, Sotsiyal-demokrativ partiya , komunistik partiya

Belorussiya asosan pasttekislikdan tashkil topgan bo'lib, janubida katta maydonni Polese tekisligi egallagan.Tog'lar umuman yo'q.Faqat Minsk qirlari bo'lib, ularning mutloq balandligi 345 m.Mamlakat xududining 1/3 qismini o'rmonlar tashkil etadi.2-jahon urushi Belorusiya o'rmonlariga katta zarar yetkazgan.O'rmonlar mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida ko'proq.Belorussiyada yirik o'rmon massivlari pushcha deyiladi.

Belorussiya asosan binokorlik materiallari (ohaktosh, mergel, kaolin, kvars qumlari) va o'rmonga boy, torfga ham boy. Boshqa yonuvchi foydali qazilmalar va metallarga juda kambag'al. Shuning uchun Belorussiya sanoati butunlay chet el xom-ashyosi va yoqilg'isiga muxtoj.

Belorussiya XGMT da mashinasozlik, ximiya, yog'ochsozlik, yengil va oziq ovqat sanoatlari, zig'ir tola, kartoshka yetishtirish, sut chorvachiligi va cho'chqachilik bilan ajralib turadi. Mamlakat tekislikda joylashganligi sababli GES lar yo'q, AES lar ham qurilmagan. Elektr-energiyasini asosan torfga ishlaydigan IESlar va chetdan keltiriladigan ko'mirga asoslangan IES lar beradi. Shuningdek, tabiiy gazga asoslangan. Lekin elektr-energiyasi bilan o'zini o'zi ta'minlay olmaydi. 2007 yil 32 mlrd. kVt.s. elektir-energiyasi ishlab chiqarildi. Ko'mirning tannarxi qimmatligi, torf arzonligi tufayli torfga e'tibor oshmoqda.

Belorussiyada metall yo'q. U metallni Rossiyadan , ko'mirni Ukrainadan oladi. Mashinasozlik sanoati traktorlar (Belorus, kranlar), ko'p tonnali og'darma mashinalar (Samosval), MM 133 metall qirquvchi stanoklar, qishloq xo'jalik mashinalari, asbobsozlik, radioapparaturalar, elektrotexnika va chorva fermalari uchun turli jixozlar ishlab chiqarish rivojlangan edi, lekin hozir krizis.

Ximiya sanoatida kaliy tuzlari (Soligorsk shahri mamlakatda ishlab chiqariladigan kaliy o'g'itining 40% ini beradi), ximiyaviy tolalar, plastmassa, avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Neft-ximiya sanoati tarmoqlari "Do'stlik" atrofida joylashgan. Mamlakatda 2007 yil 2 mln.t. neft qazib chiqarilgan.

Yog'ochsozlik sanoati gugurt va faner ishlab chiqaradi. Mebel ishlab chiqarish juda tez o'smoqda. Yog'ochsozlikning asosiy markazlari: Bobruysk va Mogilyov.

Go'sht-sut sanoati hamma joyda bor. Qishloq xo'jaligida chorvachilik yetakchi. Qishloq xo'jaligi yerlarining 75 % i chorvachilik uchun xizmat qiladi. Sersut sigir va zotdor cho'chqalar boqiladi.

Mamlakatda 2007 yil 7 mln.t. g'alla hosili yetishtirilgan.

Dehqonchiligida asosan tolasi uchun zig'ir va kartoshka yetishtiriladi. Dolgunes zig'iri asosan mamlakat shimolida, kartoshka esa hamma joyda ekiladi. Lekin kartoshka hosildorligi kamroq. Polese botqoqliklarini quritish hisobiga pichanzor, ekinzor va yaylovlar salmog'i oshib bormoqda.

Transporti. Yuk va yo'lovchi tashishda temir yo'l transporti yetakchi. Rossiya (Moskvani) Polsha, Germaniya, Fransiya bilan bog'lovchi yo'llar Belorussiya orqali o'tadi. Avtoyo'llar Belorussiyani har tomondan kesib o'tadi. Kema qatnovi Dnepr va uning irmog'i Pripyatda, G'arbiy Dvina, Neman va Bug daryolarida rivojlangan. Bu daryolarning yuqori oqimi bir-biriga yaqinligi sababli ular bir-birlari bilan kanallar orqali tutashtirilgan.

Belorussiya tashqi savdo oborotida Rossiya yetakchi bo'lib, undan tashqari Ukraina va Polsha turadi.

Belorussiya chetga asosan traktorlar, avtomobillar, stanoklar, polimer materiallar, o'g'itlar, zig'ir gazlamalari, gugurt, faner, motosikllar, velosipedlar, oyna, gilam, zig'ir, o'rmon mahsulotlari, yog'och-taxta, go'sht, sut, yog' eksport qiladi.

Asosiy importi: ko'mir, g'alla, tuz, metallar, neft, gaz, paxta tolasi.

Pul birligi – belorus rubli.

O'zbekistonni MDH bilan tashqi savdosida (48 %) eksportni 0,1 % i importini 1,9 % Belarusga to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Ukraina Respublikasi.

Ukraina MDH ning janubi-g'arbida, Sharqiy Yevropa tekisligining janubida joylashgan. Maydoni 603,7 ming km² bo'lib, maydoniga ko'ra MDH da 3-o'rinda turadi. Iqtisodiy geografik o'rni qulayligi Qora va Azov dengizlari bo'yida joylashganligi, Rossiya bilan chegaradoshligi va tranzit yo'llari tugunida joylashganligidir.

Ukraina shimoldan Belorus, shimoli-sharqda va sharqda Rossiya, janubdan Qora va Azov dengizlari, janubi-g'arbdan Moldaviya, Ruminiya, g'arbdan esa Ruminiya, Vengriya, Slovakiya, Polsha bilan chegaradosh. Mazkur davlatlar bilan bo'lgan chegarani temir va avto yo'llar, neft va gaz quvurlari, elektr uzatish liniyalari kesib o'tgan.

Ukrainaning tabiiy resurslari ilgaridan o'rganilgan. Asosiy boyliklaridan biri Temir rudasi bo'lib, uning yirik konlari Krivoy – Rog, Kyerch konlaridir. Molibdenning yirik konlari Nikopolda joylashgan. Mamlakat ekonomikasida Donbass (10 ta yirik koni bor) kokslanuvchi va energetika ko'mir havzasining ahamiyati katta. Bundan tashqari Lvov-Volinsk toshko'mir havzasining ahamiyati katta. Tabiiy gazning yirik konlari Dashava va Shebelinka konlaridir. Neft konlari mamlakat ehtiyojini qoplamaydi. 2007 yil mamlakatda 4,5 mln.t. neft qazib chiqarilgan. Bulardan tashqari simob, nikel, alyuminiy, titan rudalari bor.

Ukraina sanoati xom-ashyoga boy. Osh tuzi, kaliy tuzi (Karpal tog' etaklarida), tabiiy oltingugurt (Rozdol, Lvov oblastida) ohaktosh, kaolin konlari bor. Suv resurslarining yetishmasligi mamlakat ekonomikasining rivojlanishiga katta qiyinchilik tug'diradi. Daryolari ko'p, lekin suvi kam, gidroenergiya resurslari kam. Ayniqsa janubi-sharqda suv juda kam. Mamlakatning g'arbiy qismida esa suv toshqinlari bo'lib turadi.

Ukrainaning hozirgi chegarasi 1917 yil chegaralangan. 1939-45 yillari G'arbiy Ukraina, Zaxkarkate, Shimoliy Bukovina (Chernovsi oblasti) va Bessarabiyaning

janubiy qismi Ukraina tarkibiga kiradi. Ukraina respublikasi ma'muriy-hududiy jihatidan 1 ta avtonom respublika (Qrim), 24 ta oblastdan tashkil topgan.

Asosiy siyosiy partiyalari. "Bizning Ukraina", "Regionlar partiyasi", "Respublikachilar partiyasi", "Komunistik partiya", "Liberallar partiyasi", "2010 yildan amaldagi prezidenti Viktor Yanikovich."

Aholisi 51,2 mln (1990), 50,5 mln (1998 y), 47 mln (2007 y) kishi bo'lib, aholisining soni bo'yicha MDH da 2-o'rinda turadi. Aholi zichligiga ko'ra 3- o'rinda 1km²ga 77 kishi (Moldaviya va Armanistondan keyin). Aholi o'rtasidagi tug'ilish koeffitsienti 10 %, o'lim 16%. 1 ayolga 1,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 18%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14 % . O'rtacha umr 62-74 yosh. YAMD 7510\$ (2007 y).Aholisining 68 %i shaharlarda yashaydi.Millionyer shaharlari 5 ta: Kiev (2,5 mln.), Xarkov, Dnepropetrovsk, Odessa, Donesk.Aholisining 73 %ini ukrainlar tashkil etadi, qolganini ruslar (22 %), moldavanlar, beloruslar, polyaklar tashkil etadi. Ukraina aholisining milliy tarkibiga Ukrainaning Rossiya bilan 3,5 asr birga bo'lganligi (1654 yildan Bagdan-Hemelnitskiy) ta'sir etgan.

Ukrainada qadimdan qand-shakar, ko'mir va metallurgiya sanoati rivojlangan.XGMTda Ukraina hududida 3 ta iqtisodiy rayon tarkib topgan:

1.Donesk-Dnepr bo'yi-bu rayonda ko'mir, metallurgiya, ximiya va mashinasozlik eng ko'p rivojlangan.Bu rayon asosan Donbass hisobiga rivojlangan.

Yirik metallurgiya markazlari: Makaevka, Donbass, Azov bo'yida joylashgan.Asosiy mahsulotlar: prokat, ekskavatorlar, ko'mir qaziydigan kombaynlar va shaxta uskunalari, teplovozlari, avtomobillar (Kremenchug-"Kraz", Zaparoje "Zaparojes"), vagonlar, domna va po'lat eritadigan pechlar va uskunalari.Ximiya sanoatida-soda, H₂SO₄ va o'g'it ishlab chiqariladi.

Ayollar mehnatidan to'g'ri foydalanish maqsadida og'ir sanoat markazlarida to'qimachilik rivojlangan.Qishloq xo'jaligida don, kungaboqar, qand lavlagi va kanop yetishtiriladi.

2.Janubi-G'arbiy rayon-agrar-industrial, mashinasozlik, tog'-kon, neft-ximiya va asosiy qishloq xo'jaligi rayonidadir.Bu rayon asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.Asosiy ekinlar:qand-lavlagi, bahorgi bug'doy.Shakar-qand ishlab chiqarish MDH ahamiyatiga ega. Mashinasozlik sanoati asosan shakar-qand sanoati uchun jihozlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.Shuningdek, Lvovda LAZ ishlab chiqariladi.

3.Janubiy rayonda mashinasozlik, agrar-industrial va baliqni qayta ishlash sanoatlari, kemasozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va kurort xo'jaligi rivojlangan.Janubiy rayonda kinoapparaturalar (Xersones), traktor pluglari, uzum yetishtirish, konservalar ishlab chiqariladi.

Iqlimiy sharoitlari bu rayonda kuzgi bug'doy, arpa, kungaboqar, hatto sholi yetishtirish imkonini beradi. Mamlakatda 2007 yil 30 mln.t. g'alla hosili yetishtirilgan.

Qoradengiz sohillarida ayniqsa Qrimda turizm rivojlangan: Yalta, Alushta, Gurzuf, Mixsar, Sudak, Evkatariya, Odessa.

Ukrainada gidroenergiya resurslari faqat Dnepr daryosida mavjud, ya'ni GES lar asosan shu daryoda qurilgan. Elektr energiyasining asosiy qismini IES lar beradi.

IES lar asosan ko'mirga, qisman torfga (shimolda) ishlaydi. Ukrainada 5 ta AES lar qurilgan (196 mlrd kVt/s-2007y). Chernobil AES 1986 y. 26 – aprel.

Tashqi savdosi: Ukraina yiliga 135 mln tonna ko'mir qazib oladi va uning asosiy qismini Horijiy Yevropa davlatlariga eksport qiladi. Yiliga 100 mln t. temir rudasi qazib oladi (dunyoda 5- o'rinda) va uning taxminan 5 % ini eksport qiladi.

Po'lat eksporti bo'yicha dunyoda 5-o'rinda (yiliga 53 mln t.-1990yil, 37 mln t. - 2006 yil). Po'latni Horijiy Yevropaga eksport qiladi.

Ukraina tashqi savdosining asosiy qismini MDH va Horijiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi.

Asosiy eksporti: ko'mir, qora metall, shakar qand, g'alla, mashina va jihozlar (Kraz, Zaparojes, LAZ, Xerson), ximiya mahsulotlari, kino va fotoapparaturalar (Kiev, Xarkov).

Asosiy importi: o'rmon mahsulotlari, mashinalar, qog'ozlar, baliq, gazmollar (lama), neft, gaz, paxta.

Ukraina hududidan "Soyuz" gaz quvuri "Do'stlik" neft quvuri, "Mir" energetika sistemasi, "Bratstva" gaz quvurlari Horijiy Yevropaga o'tgan.

Temir yo'l va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Pul birligi – grivna.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasida eksportning 7 % i, importning 7,1 % i Ukraina hissasiga to'g'ri keladi (2007 y).

Mavzu: Moldaviya Respublikasi.

Moldaviya - MDH ning janubi-g'arbida, Prut va Dnestr daryolari oralig'ida joylashgan. Maydoni 33,7 ming km². Tarixda Moldaviya xududi Bessarabiya nomi bilan atalgan. 1924-yili Moldaviya Avstriya respublikasi, 1940-yildan Moldaviya SSSR, 1991- yildan Moldaviya respublikasi deb yuritilgan. G'arbdan Moldaviya Ruminiya respublikasi bilan qolgan barcha tomonlardan Ukraina respublikasi bilan chegaradosh. Moldaviyani Ruminiya bilan, ayniqsa Ukraina bilan chegaradoshligi muhim o'rin tutadi. Ukrainadan temir yo'llar orqali ko'mir, neft, metall, mashina va jihozlar, g'alla, gaz quvurlari orqali gaz keladi. Garchi Moldaviya Qora dengiz bilan tutashmagan bo'lsada, Qora dengizning yaqinligi va Ukrainaning port shaharlari (Odessa, Ilichevsk, Bel gorod-Dnestrovskiy) bilan temir yo'llar bilan tutashganligi muhim ahamiyatga ega. Moldaviya siyosiy-ma'muriy jihatdan 40 ta rayon va respublikaga bo'sunuvchi 4 ta shahardan iborat: Kishnyov (662000), Tiraspol, Belsi, Benderi.

Moldaviya foydali qazilmalarga juda kambag'al, faqat ohaktosh konlari bor. Moldaviyaning asosiy boyligi tuproq iqlim resurslaridir. Uzoq davom etadigan iliq yoz, kuzning kamyog'inligi va qishning qisqa hamda yumshoq bo'lishi, qora tuproqlari tokchilik, bog'dorchilik, polizchilikni rivojlanishi uchun qulay. XGMT da Moldaviya – bog' respublikasi deb nom olgan. Hududining 12 % dan ortig'ini bog' va tokzorlar tashkil etadi.

Aholisi 4200 000 (1986 y), 4,3 mln (2003 y), 4 mln (2007 y) kishi. Tug'ilish koeffitsienti 11 ‰, o'lim 12 ‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 22%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 10 % . O'rtacha umr 65-72 yosh. YAMD 2880\$ (2007 y). Aholisining asosiy qismini moldavianlar tashkil

etadi, ulardan tashqari ruslar, ukrainlar va yaxudiyalar yashaydi. Aholi zichligi 1 km² ga – 118 kishi bo'lib, MDH bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Urbanizatsiya darajasi 45 % ga yetadi, aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashashiga asosiy sabab qadimdan dehqonchilikni rivojlanganligidir. Millioner shaharlari yo'q, eng yirik shahari – Kishnyov (663 ming), Tiraspol (200ming), Tiginya, Belstiy

Aholisini etnik tarkibi moldavanlar -65% , ukrainlar -14% , ruslar -13% gagauzlar -4%, balgarlar -3% (2005yil)

Asosiy siyosiy partiyalari: “Agrar-demokratik partiya”, “Sotsial-demokratik partiya”, “Demokratik partiya”

Sanoat tarmoqlaridan intensiv qishloq ho'jaligiga asoslangan oziq-ovqat sanoati muhim ahamiyatga ega. Haydaladigan yerlar Moldaviya hududining 60 % dan ko'pini egallaydi. Mamlakatda 2007 yil 3 mln.t. g'alla hosili yetishtirilgan.

Ixtisoslashgan tarmoqlari uzumchilik va bog'dorchilik bo'lib, uzum, meva, tamaki yetishtirganligi va atirgul moyi tayyorlash ajralib turadi. Bog'dorchilikdagi asosiy rayon Moldaviyaning markaziy qismi, ya'ni Kodra pasttekisligidir. Kodra bog'larida: olma, nok, behi, gilos, o'rik, yong'oq kabi mevalar yetishtiriladi.

Donli ekinlardan kuzgi bug'doy, makkajo'xori, arpa; texnik ekinlardan: kungaboqar, qand lavlagi, tamaki, efir moyli ekinlar ko'p yetishtiriladi. Efir moyi parfimeriya va konditer sanoatida ishlatiladi.

Vinochilik, meva, konserva, sabzavot-konserva, tamaki va qand shakar sanoat korxonalari Moldaviyaning barcha sanoat mahsulotining yarmidan ko'prog'ini beradi.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat sanoatiga yordamchi ishlab chiqarish korxonalari: bog'-poliz mini traktorlari va moslamalari, vino va konserva sanoati uchun asbob-uskunalar, shisha idishlar va binokorlik materiallari ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda.

Sanoatida asosan elektrotexnika, asbobsozlik, kun poyabzal, sement sanoatlari rivojlanmoqda. Xo'jalikka Dnestr daryosidagi Dubossari GES i va Moldaviya GRESi energiya beradi. Bu GRES Ukraina tabiiy gaziga asoslangan. Elektr energiyasini chetdan keltiradi chunki mamlakatdagi 3 – ta elektir stansiya yiliga 1 mlrd kVt.s. elektir-energiyasi ishlab chiqaradi xolos (2007 y).

Asosiy transporti temir yo'llar bo'lib, asosiy yuklar tashiladi. Avtotransport esa qishloq xo'jaligi bilan sanoat orasidagi yuklarni tashiydi. Asosiy eksporti: bog' traktorlari, konservalar (meva-sabzavot), vino, shakar-qand, uzum, efir moyi.

Importi: avtomobillar, traktorlar, kombaynlar (g'alla, makkajo'xori, silos va lavlagi yig'uvchi), neft mahsulotlari, o'g'itlar, yog'och-taxta, yonuvchi gaz, tomchilatib sug'oruvchi apparatlar, elektr energiyasi.

Tashqi savdo oborotida Ukraina, Rossiya muhim o'rin tutadi. Pul birligi – ley.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasida eksportining 0,1 % i, importining 0, % i Moldaviya hissasiga to'g'ri keladi.

Mavzu: Gruzija Respublikasi.

Gruziya MDH ning janubida, Kavkaz tog'ining g'arbida joylashgan. Maydoni 69,7 ming km². Qora dengiz sohilining sharq, Kura daryosining o'rta oqimini, Alazani vodiysini va Kolxida pasttekisligini o'z ichiga olgan.

Gruziya shimoldan Rossiyaning Krasnodar va Stovrapol o'lkalari, shuningdek, Karachevo – Cherkes respublikasi, Kabardino – Balkar respublikasi, Shimoliy Osetiya respublikasi, Checheniya respublikasi, Ingush respublikasi (poytaxti Machas), Dog'iston respublikasi bilan Katta Kavkaz tog' tizmasi bilan chegaradosh. Sharqiy va janubi-sharqdan Ozarbayjon, janubdan Armaniston va Turkiya davlatlari bilan chegaradosh. Qora dengiz orqali Jaxon bozoriga chiqadi.

Gruziya hududi XIX-asr boshida Rossiya tomonidan bosib olingan. 1921 yil 25 fevralda respublika sifatida shakllandi. 1991 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan (1922 yil ZSFSR va SSSR tarkibiga kirgan).

Ma'muriy hududiy tuzilishiga ko'ra ikkita respublika (Abhaziya va Adjariya), 63 ta rayondan tashkil topgan. 1992 yil Gamsaxurda prezident bo'lgan va diktatorligi uchun qochib ketgan. 1992 yildan 2004 yil yanvargacha E. Shevarnadze prezident, 2004 yil prezident iste'fodan berdi va yangi prezident M. Saapashvili saylandi.

2007 yil 6-7 avgust kunlari Gruziya Respublikasini Abhaziya va Janubiy Osetiya sube'ktlarida Rossiya Fiderasiyasi bilan qonli majoro bo'lib o'tgan. Shundan so'ng Abhaziya va Janubiy Osetiya Respublikalari o'z mustaqilligini e'lon qilgan.

Gruziya Katta va Kichik Kavkaz tog' tizmalari oralig'ida joylashgan. Tuproqlari unumdor, kolxida pasttekisligida subtropiklarning sariq va qizil tuproqlari va tog' – o'rmon tuproqlari (sur va qo'rg'ir) tarqalgan. Iqlimi tekisliklarda sernam subtropik,, tog'larda balandlik mintaqalari. Gruziya xo'jaligida iqlim resurslari muhim o'rin tutadi. Tabiiy resurslardan toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, (mamlakat neftga kambag'al bo'lib, yiliga 70-100 ming t. neft qazib olinadi holos 2007 y) marganes, marmar, polimetall, tuf uchraydi. Bular ichida marganes, marmar qazib olish muhim ahamiyatga ega.

Aholisi 5401000 kishi (1996 yil), 4,7 mln kishi (2003 yil), 4,5 mln (2007 y). Aholi zichligi 1km² ga 65 kishi. Tug'ilish koeffisienti 11‰ li, o'lim 10‰ li. Bir ayolga 1,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 20%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14%. O'rtacha umr 69-76 yosh. YAMD 3690 dollar (2007 yil).

Milioner shaharlari-Tibilisi (1283 ming kishi). Qolgan shaharlarining hech qaysisida aholi 300000 kishiga yetmaydi. Yirik shaharlari Kutaisiy, Suhumiy, Batumiy, Rustamiy. Aholisi ko'p millatli bo'lsada, asosiy qismini gurzular(70%), armanlar(8%), ruslar (6.3%) ozarbayjonlar(5%) abhazlar(2%), adjarlar, osetinlar(3%), turklar tashkil etadi.(2005yil) Aholisining ko'p millatligiga sabablar: Yevropa va Osiyo orasidagi savdo yo'llari tugunida joylashganligi; istelochi urushlarning ko'p bo'lganligi (turklar, eroniylar, arabar, ruslar) va hakoza. Kelgindilarning aralashib ketgani.

Urbanizatsiya darajasi 60% ga boradi.

Asosiy siyosiy partiyalari: "Gruziya fuqorolar ittifoqi", "Gruziya milliy-demokratik partiyasi", "Gruziya koministik partiyasi"

Og'ir sanoatida marganets va temir eritish muhim ahamiyatga ega. Hidroenergiya resurslariga boy, Armaniston va Ozarbayjonni qo'shib hisoblaganda ham gidroenergiya resursi ko'proq. Gruziya hududida 2 ta IES va 12 Ta GES bo'lib ular

yiliga 8 mlrd.kVt.s. atrofida (2006 yil 7,7 mlrd.kVt.s.) elektir-energiya ishlab chiqardi. Marganes rudasi chet ellarga ham sotiladi. Elektrovozlar (Tbilisi) va yuk avtomobillari (“Kolxida”, Kutaisi shahri) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlardir.

Guruziya og’ir sanoatida cho’yan, prokat va quvurlar ishlab chiqaradi.

Kimyo sanoati koks chiqindisi va tabiiy gazni qayta ishlab, azotli o’g’itlar ishlab chiqaradi.

Guruziyada agrosanoat majmuasi yaxshi rivojlangan, asosan choy, meva konservalari, vino, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaradi. Choy sanoati MDH da ishlab chiqariladigan choyni 95% ni beradi. Guruziya – MDH dagi sitrus mevalar eksport qiluvchi asosiy mamlakat.

Qishloq xo’jaligi. Aholisining asosiy qismi Kolxida pasttekisligida subtropik dehqonchilik, bog’dorchilik va uzumchilik bilan shug’ullanadi. Asosiy subtropik ekinlar (choy va sitrus ekinlar) va uzum, tamaki, mevalar, xurmo, qand lavlagi, efir moyli o’simliklar yetishtiradi. Bulardan tashqari lavr va tung daraxtlari ko’p o’sadi. Kolxida botqoqliklarida evkalipt va bambuk o’sadi (evkalipt – nasos daraxt).

Guruziyaning sharqiy qismi qurg’oqchil bo’lganligi sababli bug’doy yekiladi va qo’ychilik rivojlangan. Gurusuyada yiliga 700-800 ming.t. bug’doy etishtiriladi va bu ehtiyojni qondirmaganligi uchun g’alla chetdan import qilinadi. Alazaniy vodiysida uzumning eng yaxshi navlari yetishtiriladi. Chorvachiligidagi yetakchi tarmoqlardan biri ipakchilik. Ipakchilik mamlakatning g’arbiy qismida rivojlangan (Krosnov botanika bog’i, okeanologiya).

Guruziyadagi yirik sanoat markazlari – Tbilisi, Rustavi, Kutaisi, Botumi, Suxumi. Guruziya – MDH dagi turizm eng rivojlangan davlat hisoblanadi. Qora dengiz sohillarida bir qator kurort shaharlar mavjud: Botumi, Poti, Suxumi, Gaagra, Yangi Afon, Pitsunda.

Botumi porti orqali neft quvurida keltirilgan Ozarbayjon nefti, Poti porti orqali marganets sotiladi.

Eksporti: marganets, choy, sitrus, tamaki, vino, lavr bargi, meva – chevalar, oziq-ovqat sanoati jihozlari, elektr energiyasi.

Importi: po’lat, temir, g’alla, neft, gaz, paxta, avtomobillar pokrishkalari.

Pul birligi – lari.

O’zbekistonni MDH bilan tashqi savdosida (48 %) eksportni 0,2 % i importini 0,1 % Gruzuyaga to’g’ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Armaniston Respublikasi.

Maydoni -29.8 ming km² . Armaniston Kavkaz ortida Kichik Kavkaz tog’larida joylashgan. Mazkur tog’ tizimidagi Arman tog’ining eng baland cho’qqilaridan biri Aragan tog’I mamlakatning eng baland nuqtasi (4090m) xisoblanadi.

Armaniston maydoniga ko’ra Zakavkazey dagi eng kichik respublika. U shimoldan Guruziya, shimoliy sharq va sharqdan Ozorbayjon, g’arbdan Turkiya, janubdan Turkiya, Eron va Naxichevan avtonom respublikalari bilan chegaradosh. Qo’shni azarbayjon bilan 5ta joydan yirik chegara mojorolari bor. Siyosiy- mamuriy jihatdan Armaniston hududi 11ta markazga (Yerevan alohida markaz maqomiga ega)

bo'linadi. Respublika sifatida 29.11.1920 yili tashkil topgan. 1936yil sobiq SSSR tarkibiga kirgan 1991 yil 23 sentyabrda o'z mustaqilligini elon qilgan.

Davlat tili-arman.

Armanistonni IGO' qulayligi avvalo Azarbayjon va Gruziya Respublikalari bilan chegaradoshligida yuqori baholansa, Dunyo okeaniga chiqolmasligi va davlat chagarasini tog'lardan o'tganligi noqulayligidir.

Aholisi 3754000 kishi (1996yil) bo'lib aholi zichligi ancha yuqori. 1km² ga – 126 kishi aholisini 91%ni armanlar, qolganini ozorbayjon, rus va kurd lar tashkil etadi.

Aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda 68% yashaydi. Millioner shaharlar faqat Yerevan – 1201 ming kishi. Yirik shaharlari: Giyumre- 228000 ming kishi, Vanadzar-(Kirovahan) 170ming kishi va Razdan 55ming kishi.

Asosiy siyosiy partiyalari: “Arman umumxalq harakati” , “Arman inqilobiy federatstiyasi” , “Milliy ittifoq” (2005yil)

Armaniston tog'li respublika yani hududining 90% 1000 m dan balandda joylashgan. Aholisining asosiy qismi 1000m dan pasda mamlakatning janubiy g'arbida Echmiyadzin marzida yashaydi, bu marzda aholi zichligi 340kishidan (1km² ga) ortiq . Aholi Balantlikka tomon 2500m gacha ko'tarilgan. Aholi eng zich rayon bu Ararat vodiysidir. Armanlar V asrda yoq o'z yozuviga ega bo'lgan. Armanistoni qadimiy nomi – Nairiy bo'lib uning manosi- “ Daryolar mamlakati” demakdir. Armaniston gidro energiya resurslariga boy. Chunki mamlakat hududida 200dan ortiq tog' daryolari bor. Ular Kura va Araks daryolarining irmoqlaridir. Ularning eng yiriklari Araks va Razdan daryolaridir. Razdan daryosi Sevan ko'lidan oqib chiquvchi yagona daryo bo'lib daryoga Geslar kaskadi (6 ta ges) bunyod etilgan. Sevan- baland tog' ko'li bo'lib suvdan juda ko'p foydalanish oqibatida (energiya olish va sug'orish uning suv sathi 19 m ga pasayib ketdi. Ko'lni saqlab qolish maqsadida kulni shimolidagi Arpa daryosi suvini tog'dan tunel qazib tunel orqali Sevanga quyulmoqda.

Armaniston aholisning har 4chisi oliy yoki o'rta maxsus malumotli yani 1000 kishiga 250 ta, O'zbekistonda esa 15 yoshdan kattalar hisobiga 1000 kishiga 143 ta oliy va to'liqsiz oliy, 200 o'rta mahsus malumotli (2004 yil) .

Asosiy foydali qazilmalari mis, polimetal, aluminiy, molibden va qurulish materiallari (marmar, tuf, pemza). Misning eng yirik konlari Kojaran, Kafanda. Polimetal konlari: Agarak, Dastakertda joylashgan . Qurulish materiallaridan: granit bazalt, Ohaktosh , marmar va rangli tuflar bor.

Armaniston sanoatidagi yetakchi tarmoqlar: rangdor metallurgiya mashina sozlik va himiya. Rangdor metallurgiya sanoati yirik tarmoq bo'lib asosan mis, aluminiy(Yerevanda) , molibden, qo'rg'oshin, ruh , oltin, eritiladi. Rangli metallurgiya sanoatini elektir energiya bilan taminlash maqsadida GES lardan tashqari Azarbayjon mazuti va gazga asoslangan. 2 ta IES va Arman AES qurulgan. Mamlakatdagi jami 10ta elektr stansiyasi yiliga 6 mlrd kVt.s. elektr energiyasi ishlab chiqaradi. (2007yil).

Himiya sanoati- asosan mis sanoatining chiqndisi va mahhalliy hom ashyolarga asoslangan bo'lib sentetik kauchuk, plastmassalar, suniy tolalar, mineral o'g'itlar, shinalar ishlab chiqaradi. Himiya sanoatining asosiy markazlari : Yerevan, Vanadzar, Alaverdi va Razdan sharlari.

Mashina sozlik sanoatida asosan kam metal talab qiladigan tarmoqlar ustun. Yaniy asboblari, priborlar, radio texnika va elektro texnika buyumlarini ishlab chiqaradi.

Yerevan shahri- Ararat tekisligida joylashgan bo'lib, eng muhim sanoat markazidir. Yaniy Yerevan butun Armaniston sanoat mahsulotini yarmidan ko'pini beradi.

Armaniston qishloq ho'jaligida yetakchi tarmoq chorva chilikdir. Qo'ychilik yashi rivojlangan. Lekin qish uchun pichan g'amlanadi. Qishloq ho'jaligidagi yetakchi tarmoqlardan tokchilik va bog'dorchilki bo'lib uzum, o'rik, shaftoli olxo'ri ko'p yetish tiriladi. Armanistonning g'alla koni- Shiroq marzidir. Mamlakatda 0.5 mln tonna g'alla yetishtiriladi. (2007 yil)

Asosiy eksporti : rangli metallar, avtomobil pokrishkalari priborlar radio va elektro texnika buyumlari.

Asosiy importi : Neft va neft maxsulotlari, ko'mir, gaz oziq ovqat maxsulotlari.

Pul birligi – dram

Tashqi iqtisodiy aloqalarida Gruziya, Azarbayjon, Rossiya yetakchi o'rin tutadi. O'zbekistonning MDX bilan tashqi savdosida eksportni 0.1% importini 0.0% Armanistonga to'g'ri keladi. (2007 yil).

Mavzu: Ozarbayjon Respublikasi.

Ozarbayjon Respublikasi Zavkavkazening sharqida joylashgan bo'lib, hududi va aholisi soniga ko'ra Guruziya va Armanistondan katta. Maydoni 86,6 ming km² siyosiy – ma'muriy jihatidan Nanichevan avtonom respublikasi 64ta rayondan tashkil topgan. Ozarbayjon shimoldan Dog'iston respublikasi, sharqdan kaspdiy dengizi, janubdan Eron, g'arbdan esa Armaniston, Gruziya bilan chegaradosh.

Iqtisodiy – geografik o'rni baholanganda Kaspdiy dengizi sohillari yuqori baholanadi. Chunki, Kaspdiy orqali Rossiyaning markaziy rayonlari bilan, Qozog'iston, Tukrmaniston, Eron respublikalari bilan bog'langan. Ozarbayjon hududining asosiy qismini Kura – Araks pasttekisligi va Shirvan tekisligi egallagan. Ozarbayjon hududi Qora dengizdan kichik Kavkaz tog'lari orqali to'silganligi sababli iqlimi arid, sug'orib dehqonchilik qilishni talab etadi. Asosiy daryolari Qura, Araks va uning irmoqlaridir. Minchechaur, Araks kabi suv omborlari va Samur – Apsheron kanalini qishloq xo'jaligidagi ahamiyati katta. Tabiiy boyliklardan Ozarbayjon hududida neft, tabiiy gaz, temir rudasi, alunit uchraydi. Asosiy boyligi neft, shuning uchun HGMT da Boku neftchilar shahri deb tan olinadi.

Neft asosan Apsheron yarim oroli va uning atrofidan, Kaspdiy dengizi tubidan qazib olinadi. Neftyanie Kaini koni Ozarbayjondagi eng yirik gaz konidir. Ozarbayjon neftining 60% i dengiz tubidan qazib olinadi. Shunga qaramay mamlakatda neft qazib olish yil sayin kamaymoqda. Sababi neft qazib olish Ozarbayjonda XIX asrning o'rtalaridan boshlangan, tabiiy gaz qazib olish esa 1928 yildan boshlangan. Shuningdek Boku nefti 5 ming metr chuqurlikdan qazib olinadi. Boku neftining tan narxi qimmat, lekin sifati yaxshi, toza aralashmalarsiz bo'lganligi uchun uni “oq neft” deyishadi. Mustaqillik yillari Ozarbayjonda neft qazib chiqarish 3-4 marta ko'paydi. Agar 2002 yili Ozarbayjonda 15 mln.t. neft qazib olingan bo'lsa 2007 yili bu ko'rsatkich 43 mln.t. ga yetdi. Ozarbayjondan Guruziya hududi orqali

Qora dengizga va Turkiya hududi orqali O'rta yer dengiziga neft quvurlari yotqizilgan. Bu quvurlar orqali Ozarbayjon nefti Yevropa davlatlariga eksport qilinadi.

Temir rudasi Dashkesan konidan qazib olinadi, uning bir qismi Ozarbayjonda, bir qismi Guruziyada eritiladi. Alunit esa Alunit dog'da qazib olinadi va Sungant shahrida eritiladi. Mamlakatda boshqa tabiiy resurslar uchramaydi.

Aholisi – 7553000 (1996 y), 8,2 mln kishi (2003 y), 8,6 mln (2007 y) bo'lib, aholi zichligi 1km² ga -99 kishi. Tug'ilish koeffitsenti 18‰ li, o'lim 6‰ li, bir ayolga 1,9 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 29%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%, o'rtacha umr 70-75 yosh. YAMD 5960 dollar (2007 y). Aholisining asosiy qismi ozarbayjonlar(83%), ruslar(6%) armanlar (6%) . Urbanizatsiya darajasi bo'yicha MDH ning Yevropa qismida eng past ya'ni 54 % ni tashkil etadi. Ozarbayjon respublika sifatida 1920 yil tashkil topgan, lekin mustaqillikka erishgandan so'ng (1991y) bir qator milliy nizolar bo'lib o'tdi. Masalan: Tog'li – Qorabog' avtonom oblastida. Naxichevan va Dog'iston mojarolari.

Millioner shaharlari: faqat Boku – 1081000. Yirik shaharlari: Genja (Kirovobod) – 282 000, Sumgant – 236 000, Minchechaur – 91 000 kishi. Davlat tili – ozarbayjon, boshqarilish shakli – respublika.

Ozarbayjon respublikasi asosiy sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, ximiya sanoati va mashinasozlik sanoati bo'lib, ularning taraqqiy etishi neft qazib olish bilan bog'liq.

Asosiy siosiy partiyalari: “Ozarbayjon xalq fronti” “Yangi Ozarbayjon” “Ozarbayjon kommunistik partiyasi” “Musulmon demokratik partiyasi”

Neftni qayta ishlash sanoati Bokuda joylashgan bo'lib, u butun Ozarbayjon neftini hatto chet el neftini (Qozog'iston, Turkmaniston) qayta ishlaydi. Shuning uchun Boku ilgari Qora Boku deb atalgan. Qayta ishlangan neft mahsulotlari Armaniston, Gruziya, Rossiya va chet ellarga sotiladi.

Ximiya sanoati esa neft chiqindilaridan sintetik kauchuk, smola, shina, erituvchi moddalar va motor moylarini ishlab chiqaradi. Ximiya sanoatini yirik markazlari: Boku, Sumgant va Neftechalada joylashgan.

Mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 25 % ini neft va gaz sanoati jihozlari: burg'u mashinalari va burg'u ustunlari, suzuvchi burg'u moslamalari va nasoslari, burg'u quduq jihozlari tashkil etadi. Mashinasozlik sanoati yana priborlar (GRP, gaz kranlar va h.k), elektro va radio texnikalarni ishlab chiqaradi. Mashinasozlik sanoati markazlari: Boku, Mingechaur, Genja, Xankendi.

Qora metallurgiya sanoatining markazlari Sumgant shahri bo'lib, u yerdan neft sanoati uchun quvurlar va prokat ishlab chiqariladi.

Aholi va sanoatni elektr energiyasi bilan ta'minlashda Minchechaur va Shamxor GES lari, Ali-Bayram (tabiiy gaz), Boku va Sumgant IES lari (mazut) ning ahamiyati yuqori. Mamlakatda jami 7 ta elektir stansiya (4 ta IES, 3 ta GES) mavjud bo'lib ular yiliga 22 mlrd.kVt.s. (2007 y) dan ortiq elektir-energiyasi ishlab chiqaradi.

Baliq ovlash Kaspiy sohillarida rivojlangan bo'lib, baliq-konserva sanoati Boku, Sumgant, Bank, Lenkoran shaharlarida mavjud.

Qishloq xo'jaligi intensiv xarakterga ega. Dehqonchilik ustun turadi. Ozarbayjonda paxta, sholi, bug'doy (Mamlakatda 2007 yil 2 mln.t. g'alla hosili yetishtirilgan), uzum, tamaki, choy yetishtiriladi. Bog'dorchilik va ipakchilik rivojlangan. Choy va subtropik ekinlar Lenkoran pasttekisligida yetishtiriladi. Katta va Kichik Kavkaz tog' etaklarida Ozarbayjon uzumzorlarini 60% i joylashgan. Talish tog'i.

Asosiy eksporti: neft, neft mahsulotlari, gaz, neft sanoati uskunalari va jihozlari, neft quvurlari, meva-cheva konservalari.

Asosiy importi: metall, ko'mir, mashina, o'rmon mahsulotlari.

Ozarbayjonda dengiz bo'yi turizmi rivojlanmoqda.

Pul birligi – manat.

O'zbekistonni MDH bilan tashqi savdosida (48 %) eksportni 0,6 % i importini 0,1 % Ozarbayjonga to'g'ri keladi. (2007 yil.)

Mavzu: Yaponiya xo'jaligiga umumiy iqtisodiy geografik ta'rif.

Yaponlar o'z mamlakatini qadimdan Nippon yoki Nixon deb atashadi. Bu so'zlarning ma'nosi "quyosh" yoki "asos" demakdir. Yaponiyani ko'pchilik "Quyosh chiqadigan mamlakat" deb atashadi. Ramziy belgi sifatida davlat bayrog'iga quyosh tasviri tushirilgan. Yuqoridagi holatlarning barchasi Yaponiyaning tabiiy geografik o'rniga mos tushadi. 180⁰ 5-soat farq. Yaponiya-Osiyoning sharqida asosan materik orollarida joylashgan davlat bo'lib, u 4 ta yirik orol (Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku) va to'rt mingta mayda orollardan tashkil topgan. Yaponiya orollari 3,5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, 20⁰25¹ va 45⁰33¹ shimoliy kenglik, 122⁰56¹ va 153⁰59¹ sharqiy uzunlikda joylashgan. Yapon orollarini shimoldan Oxota dengizi, janubdan Fillipin dengizi, janubi-g'arbdan Sharqiy Xitoy dengizi, g'arbdan Yapon dengizi va Koreya bo'g'ozini, sharqdan Tinch okeani o'rab turadi.

Yaponiya Yevrosiyo va Tinch okeani litosfera plitalarida to'qnashgan joyda joylashganligi uchun birinchi darajali seysmik va vulkanik mintaqaga hisoblanadi. Yaponiya hududida tez-tez zilzila bo'lishidan tashqari 188 ga yaqin vulqonlar joylashgan, ulardan 40 tasi harakatdagi vulqonlardir. Yaponiya sohillarida tez-tez sunami va tayfunlar bo'lib turadi, musson yomg'irlari kuzatiladi.

Mamlakat maydoni 372,2 ming km² bo'lib, u maydoniga ko'ra AQSHning Kaliforniya shtatiga teng yoki O'zbekiston Respublikasi maydonidan 77 ming km² ga kichik.

Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'rnini avvalo orollarda joylashganligi va materikka yaqinligi bilan belgilanadi. Bu avvalo Yaponiyani Rossiya Federatsiyasi, XXR va "Osiyo yo'lbarisi" davlatlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Ayni paytda Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionining markazidir. Bu holatlar mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yaponiya xukumati bilan Rossiya xukumati orasida Shikotan oroli majorasi mavjud.

Yaponiya hududini 3/4 qismini tog'lar va qir-adirlar egallagan. Eng katta pasttekisligi Toxiyo qo'ltig'i bo'yidagi Kanto pasttekisligidir. Tog'lar Saxalin oroli va Kuril orollaridagi tog'larning davomi bo'lib, ular shimol va shimoli-sharqdan, janub

va janubi-g'arbgga cho'zilgan.Eng baland cho'qqisi Fudziyama vulqoni (3776m.) hisoblanadi.Pasttekisliklar asosan sohillarda joylashgan bo'lib, ular mamlakat hududini 15% ini tashkil etadi.

Yaponiyani shimol qismi (Xokkaydo oroli, Xonsyu orolini shimoli) mo'tadil, janubiy qismi (Xonsyu orolining janubi, Kyusyu, Sikoku, Ryukyu) subtropik iqlim mintaqasida joylashgan.Barcha hududi musson iqlim tipiga ega.Yillik yog'in miqdori 1000 mm dan (Xokkaydo orolining sharqida) 3800 mm gacha (markaziy Xonsyu tizmalarida).Qor butun Yaponiya hududiga yog'adi, qor qoplami qalinligi mamlakat shimoli-g'arbida 4,5 m gacha etadi.Daryo tarmoqlari zich, lekin qisqa tog' daryolaridir. Eng yirik daryolari-Sinano, Tone, Kitakami, Isikari.

Yaponiya o'rmon resurslariga boy mamlakatlardan hisoblanadi.Hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini o'rmonlar egallagan.O'rmonlarini 1/3 qismini sun'iy o'rmonlar tashkil etadi.Igna bargli o'rmonlar jami o'rmonlarning 1/2 qismini egallagan.Yaponiya florasida 2750 o'simlik turi uchraydi, shundan 168 tasi daraxt o'simliklaridir.Faunasidagi endem turlarga: yapon maxakasi, qiziltumshuq maymun, ayiq, quyon, olmaxon, yapon xoldor bug'usi, ko'rshapalak, ko'pgina qushlar kiradi.Ryukyu oroli sut emizuvchilarga kambag'al.Yaponiya hududida sut emizuvchilarning 270 turi, qushlarning 800 turi, sudralib yuruvchilarning 110 turi, dengiz sohillarida esa baliqlarning 600 turi, molyuskalarning 1000dan ortiq turi uchraydi.

Yaponiya mineral resurslarga kambag'al.Mamlakat hududida toshko'mir, mis, oltingugurt, marganets, neft, tabiiy gaz, oltin kabi foydali qazilmalar uchraydi.Lekin ular mamlakat extiyojini qondirmaydi.Yoki ularni qazib olish chetdan import qilishga nisbatan qimmatga tushadi.Shuning uchun Yaponiya importining 49% ini yoqilg'ilar, 13 % ini ruda va boshqa xom-ashyolar tashkil etadi.Shu bilan birga Yaponiya boy dengiz, geotermal, gidroenergiya va agroiqlim resurslariga ega.

Keyingi vaqtda Yaponiya rekreatsion resurslarga katta e'tibor qaratmoqda.Hozirda mamlakatda milliy bog'lar soni 25 taga yetadi, 1973 yil birinchi suv osti parki tashkil qilingan.

Yaponiya aholi soniga ko'ra dunyoda 10-o'rinda turadi, 2007 yilda uning aholisi 128 mln. kishiga yetdi. Aholisining tabiiy ko'payishi jihatidan Yaponiya "demografik tanglik" tipidagi davlat hisoblanadi.2007 yil ma'lumotiga ko'ra mamlakatda tug'ilish koeffisienti 9‰, o'lim koeffisienti 9‰ni tashkil etadi.Agar tug'ilish va o'lim orasidagi nisbat shu holatda ketsa, Rossiya va Fransiya demograflarining ma'lumotlariga ko'ra Yaponiya aholisining soni 2025 yil 121 mln. kishi bo'lishi bashorat qilinmoqda. 2001 yil ma'lumotiga ko'ra davlatda har bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi.15 yoshgacha bo'lganlar soni dunyo bo'yicha umumiy aholini 30 % ini, O'zbekistonda 38 % ni, Yaponiyada esa 15 % ni tashkil etadi.64 yoshdan yuqorilar esa dunyo bo'yicha 7 % ni, O'zbekistonda 4 % ni, Yaponiyada esa 17 % ni tashkil etadi.O'rtacha umr ko'rish dunyo bo'yicha erkaklarda 65 yoshni, ayollarda 69 yoshni (O'zbekistonda esa 68-73 yosh) tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada dunyo bo'yicha eng yuqorini, ya'ni erkaklarda 79 yoshni, ayollarda 86 yoshni, o'rtacha esa 81 yoshni tashkil etadi.Yaponiya bolalar o'limi ko'rsatkichi eng past bo'lgan sog'lom odamlar millati mamlakatidir.Dunyo bo'yicha bolalar o'limi ko'rsatkichi 1000 chaqaloqqa 56 kishini tashkil etgani holatida, bu

ko'rsatkich Angolada 198 kishini, O'zbekistonda 20 kishini, Yaponiyada 3 kishini tashkil etadi. Bunda davlat demografik siyosati katta rol o'ynaydi, ya'ni oilani rejalashtirish va kechroq turmushga chiqishni targ'ib qilinishi.

Yaponiya aholisining milliy tarkibiga ko'ra tipik bir millatli (99% yapon) davlatdir. Yapon xalqining etnogenezi xaligacha to'liq aniqlanmagan. Yapon orollarida ilgari odam yashamagan, neolit davrida Indoneziya orollaridan ko'chib kelgan aynlar va qit'adan kelgan koreyslar aralashib murakkab etnik gruppani vujudga keltirgan. Mamlakatda yaponlardan tashqari koreyslar, xuasyalar va aynlar yashaydi.

Yapon tili juda o'ziga xos bo'lib, jahondagi til oilalaridan birontasiga kirmaydi. Yapon yozuvi tizimi ham ancha murakkab bo'lib, unda iyeroglif hamda bo'g'inli harflar ishlatiladi.

Yaponiyada ikki asosiy din mavjud bo'lib, ya'ni sintoizm (milliy din) va buddizm (jahon dini) odatda dindorlar har ikki dinga e'tiqod qiladilar.

Yaponiya-yuksak madaniyat va yoppasiga savodxon mamlakatdir. Savadxonlik darajasini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Yaponiyadagi universitetlar soni butun G'arbiy Yevropadagidan ko'p, ilmiy hodimlar soni esa Buyuk Britaniya, Fransiya va GFR ni qo'shib hisoblaganda ham ko'p. Mamlakatda qadimgi madaniyat, badiiy va turmush an'analari yapon turmush tarzini ajralmas qismi bo'lib saqlanib qolgan. Masalan: ikebana, bonsoy, kalligrafiya, jonli manzaralar chizish, choy tantanasi, kimono ayollar kiyimi, sumo kurashi, dzyudo, yaponcha dasturxon yasatish, sakuraning gullashini tomosha qilish, zarang o'rmonida sayr, bahorgi va kuzgi tengkunlik bayramlari va x.k. Yaponiyada yiliga 40 dan ortiq turli-tuman festivallar o'tkaziladi. Ulardan eng mashhuri "oq orolda"gi qor festivalidir.

Yaponiya aholisining o'rtacha zichligi 1km^2 ga 338 kishini (2007y.) tashkil etadi. Aholisining asosiy qismi mamlakat hududini 10 % ida yashaydi. Aholi eng zich yashaydigan yerlar Xonsyu orolining janubidagi Tinch okeani sohillari va Ichki yapon dengizi sohillariga to'g'ri keladi.

Ilgari Yaponiyada aholi soni 30000 dan ortiq bo'lgan aholi punktlari shahar maqomini olgan bo'lsa, hozirda 50000. Urbanizatsiya darajasi 76 % ni tashkil etadi.

Mamlakatda 200 dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, ulardan 11 tasi millioner shaharlardir. Ular quyidagilar: Tokio (8mln.), Iokogama (3,3mln.), Osaka (2,6mln.), Nagoya (2,1mln.), Sapporo (1,7mln.), Kobe (1,4mln.), Kioto (1,4mln.), Fukuoka (1,3mln.), Kawasaki (1,2mln.), Xirosima (1,1mln.), Kitakyusyu (1,02mln.).

Tokio shahridan-Kobe shahrigacha 600 km masofada Tokaydo megapolisi joylashgan. Bu megapolis "katta uchlik" dan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Tokio aglomeratsiyasi o'z ichiga Tokio, Iokogama, Kawasaki, Tiba shaharlarini olgan bo'lib, ularda jami 27 mln. aholi yashaydi.
2. Xansin aglomeratsiyasi o'z ichiga Osaka, Kobe, Kioto shaharlarini olgan bo'lib, ularda jami 15 mln. aholi yashaydi.
3. Tyune aglomeratsiyasi Nagoya shahri va uni atrofini o'z ichiga olgan bo'lib, unda 10,2 mln. aholi yashaydi.

Tokaydo megapolisida aholi zichligi 1km^2 ga 800-1000 kishiga yetadi. Bu megapolis va uning atrofida (70000 km^2), Yaponiya aholisining 56 % i (70 mln.) yashaydi.

Umuman Tinch okeani va Ichki Yapon dengizi sohillaridagi urbanizatsiyalashgan xudud mamlakat maydonini 1/3 qismini egallagan bo'lib, unda jami aholining 3/4 qismi yashaydi.

Yaponiyada yerlar juda qimmatli va taqchil resurs bo'lganligi sababli "osmon o'par binolar" va "Yer osti" uylar qurishga erishilinmoqda. Shuningdek, Yaponiya dengiz xisobiga o'z xududini kengaytirayotgan tipik davlat xisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va baliq ovlashda band edi. Hozirda esa bu tarmoqlarda iqtisodiy faol aholining 20% i, faqat qishloq xo'jaligining o'zida 5% aholi band. Sanoat tarmoqlarida esa 33% dan ortiq aholi band. Endilikda nomoddiy sohalarda ishlovchi xodimlar ya'ni: xizmatchilar, ilmiy xodimlar, ishbilarmonlar soni tez ortib bormoqda. Yaponiyada aholini hayot darajasi juda yuqori ya'ni jon boshiga IYAM 33730\$ (2007 y).

Yaponiyada hozirga kelib ayollar sonini erkaklar soniga nisbatan ortishi kuzatilinmoqda.

4. Yaponiya – BMT, ASEAN va Xalqaro Valyuta Fondi (MVF) tashkilotlariga a'zo. Davlat tuzumiga ko'ra – konstitutsion monarxiya bo'lib, amaldagi konstitutsiya 1947 yil qabul qilingan. Davlat boshlig'i imperator (Axikito, 1989 yildan) faqat davlat "ramzi" deb tan olinadi. Xokimiyat boshlig'i primer-ministr (bosh vazir) ga berilgan. Amaldagi bosh vaziri Naoto Kan (2010 yil) Yaponiya hududi siyosiy-ma'muriy jihatidan 47 ta prefekturaga bo'linadi. Tokio, Kioto, Osaka shaharlari, Xokkaydo va Okinava orollari alohida prefektura maqomiga ega.

Davlat tili-yapon tili, boshqa til – ayn tili.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal – demokratik partiya (LDP)1955 yil tuzilgan.
2. Yaponiya Demokratik partiyasi (YADP) 1960 yil tuzilgan.
3. "Sakigake" partiyasi 1964 yil tuzilgan.
4. "Komeyto" (Sof siyosat partiyasi) 1964 yil tarkib topgan.
5. Yaponiya kommunistik partiyasi (YAKP)1922 yil asos solingan.

5.Yaponlarning eng qadimgi madaniyati neolit davriga oid (eramizdan avvalgi VI-I ming yilliklarda) umumiy "dzemon" nomi bilan ma'lum.

Yaponiya xo'jaligi asosan XX asrda juda tez rivojlandi va rivojlanishi jihatidan hozirda jahon xo'jaligida yuqori o'rinlarga chiqib oldi. Bunday tez iqtisodiy o'sishga bir qator sabablar bor. Ular :

- II – jahon urushi yillarida eskirgan va ishdan chiqqan zavod jihozlari butunlay yangilandi va FTI ning eng yangi yutuqlari bilan ishlangan jihozlar bilan almashtirildi.
- Chetdan ko'plab patent va litsenziyalar avvalo AQSH va GFR dan sotib olindi va mahalliy sharoitga moslashtirildi.
- Ishchilar qattiq ekspluatatsiya qilindi.
- Korxonalarni qayta tiklashga va yangisini qurishga ketadigan xarajatlarni asosiy qismini davlat o'z zimmasiga oldi. Monopoliyalarga kreditni ko'paytirdi va soliqni yengillashtirdi.
- Xarbiylarga ketadigan xarajatlar kamaytirildi (demilitarizasiya) fanga, ilmiy-tadqiqot ishlariga fantalab ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi.

Yaponiya xo'jaligi juda qisqa muddatda fan, texnika, ta'lim, sanoat va savdoda juda katta yutuqlarga erishdi, ya'ni "iqtisodiy mo'jiza" yuz berdi. Yaponiya jahon miqyosidagi juda katta sarmoyachi davlatga aylandi. Yaponiya "iqtisodiy mo'jiza" sining asosiy manbasi mutaxassislar xulosasiga ko'ra, yapon millatining yuqori darajadagi mehnatsevarligi va mehnat intizomi, uyushqoqlik va sabr-toqat, ishga mas'uliyat xissi va tejamkorlik kabi ijtimoiy ko'rsatkichlardir, shuningdek, Yaponiyaning harbiy tayyorgarliklardan tiyilib borishidir.

Yaponiya sanoati dastlab (1950-yillardan boshlab) evolyutsion yo'ldan (tadrijiy) rivojlandi. Energetika, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik, ximiya, neft-ximiya, qurilish sanoati kabi "tayanch" tarmoqlar import yoqilg'i va xom-ashyo asosida butunlay yangidan barpo qilindi. Ular FTI ning eng yangi yutuqlari asosida rivoj topdi.

XX asrning 70-80-yillaridan boshlab sanoatda inqilobiy yo'l ustun turdi. Endilikda mamlakat yoqilg'i va xom-ashyo importiga bog'liq bo'lgan, energiya va metalni ko'p ishlatadigan ishlab chiqarishni tobora cheklab, fanni ko'p talab qiladigan eng yangi tarmoqlarga ko'p e'tibor berilmoqda. Yaponiyada elektrotexnika, robot texnikasi, biotexnologiya kabi sohalar yetakchi mavqeni egallamoqda.

Ilgari Yaponiyaning ramzi Fudziyama, sakura, samuraylar hisoblangan bo'lsa, endilikda bunday ramz eng katta AES lar, metallurgiya kombinatlari, supertankerlar, ko'priklar, tunnellar, tezkor temir yo'llar, zamonaviy avtomobillar hisoblanadi. 1970 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Yaponiyada YAIM yiliga o'rtacha 5 % ga o'sib keldi. Yaponiya fanga sarflanadigan mablag' salmog'iga ko'ra jahonda rivojlangan davlatlar orasida 1-o'ringa chiqdi. 1\$=110\$

2000 yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi IYAM qiymati bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egalladi, yaeni 38200 AQSH dollari. Yalpi milliy daromad ko'rsatkichi bo'yicha 2000 yil Yaponiya dunyoda Yevropa Ittifoqi, Xitoy va AQSH dan keyin 4-o'rinni egalladi. YAMD shu yili 5 trln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dunyo tashqi savdosi taqsimotini 9 % i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiya xo'jaligining juda muhim xususiyati uning xalqaro iqtisodiy aloqalari nixoyatda kuchli ekanligidir. Birinchidan, mamlakat yoqilg'i va xom-ashyoni 90 % ini chetdan keltiradi, ikkinchidan mamlakat iqtisodiyotida tayyor mahsulotni eksport qilish ustun. Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionidagi barcha mamlakatlarning savdo bo'yicha bosh sherigidir. Hatto AQSH passiv savdo balansiga ega, Yaponiya esa aktiv savdo balansiga ega.

6. Yaponiya sanoatidagi yetakchi tarmoqlar:

Yoqilg'i – energetika sanoati. Yaponiyada neft va tabiiy gaz qazib olinsada u ehtiyojni qondirmaydi. Yaponiya dunyoda neft importi bo'yicha 2-o'rinda turadi. U yiliga 210-220 mln t . neft sotib oladi (umumjahon neft savdosini 14 % i). Neftni asosan OPEK davlatlaridan keltiradi. Ko'mirni asosan Avstraliya, JAR, AQSH va Kanadadan keltiradi.

Yaponiya elektr-energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. U yiliga 950 mlrd kVt/s elektr – energiyasi ishlab chiqaradi. Bu butun jahon elektr-energiyasini 7,5 % i demakdir. Mamlakatda gidro, geotermal, quyosh, qalqish va to'lqin elektro stansiyalari mavjud, lekin elektr-energiyasining asosiy qismini IES va

AES lar beradi. Yaponiyada 30 dan ortiq AES lar bor, dunyodagi eng yirik AES (Fukusima) shu davlatda joylashgan.

Metallurgiya sanoati. Yaponiya po'lat ishlab chiqarish xajmi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. U yiliga 98 mln t. po'lat eritadi, umumjahon po'latini 13,6 % i. Lekin po'lat eritish salmog'i yil sayin kamayib bormoqda.

Masalan, Yaponiya 1990 yil 110 mln t. po'lat eritgan edi. Buning asosiy sababi mashinasozlikning metalga bog'liqligi kamayishi va fantalab sanoat tarmoqlarini kuchayishidir.

Organik sintez va neft-ximiya sanoati tarmoqlari asosan dengiz portlarida, ayniqsa Ichki Yapon dengizi bo'ylarida to'plangan. XX asrning 2-yarmida II-jahon urushiga qadar Yaponiyada avtomobilsozlik bo'lmagan edi, avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga erishgan. U avtomobil "jangi"da AQSH ni yutib chiqib dunyoda 1-o'rinni egalladi. Yaponiya yiliga 13 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi, bu dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan (50 mln dona) avtomobillarni 26 % i demakdir. Yaponiyaning "Xonda", "Nissan" va "Toyot" kabi zamonaviy avtomobillari dunyoga mashxur. Avtomobilsozlikni eng yirik markazlar: Tokio, Osaka, Nagoya, Kawasaki kabi shaharlar hisoblanadi.

Hozirgi Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi elektrotexnika va elektronika sanoatidir. Ayniqsa radioelektronika sanoati – rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnikalar ishlab chiqarish ustunlikka ega. Televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda 3 – o'rinda turadi, u yiliga 15 mln donadan ortiq televizor ishlab chiqaradi.

Metal kesuvchi dastgohlar ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda (yiliga 195 mln dona), traktorlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda (yiliga 150 ming dona) turadi.

Yaponiyada ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan birga yuqori texnologiyaga asoslangan buyumlar ishlab chiqarish ustun. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari eng rivojlangan xududi – Tokio rayoni bo'lib, u butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotni 1/3 qismini beradi.

Kema ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Kemasozlik sanoatining eng yirik markazlari: Iokogama, Osaka, Kobe va Nagasaki kabi shaharlarda joylashgan. Ularda kemasozlikning xilma-xil tarmoqlari rivojlangan. Yaponiyada dunyodagi eng yirik supertankerlar, xilma-xil kit ovlovchi kemalar, traulerlar va kichik kemalar ishlab chiqariladi.

Ximiya sanoatining rivojlanishi va sanoat mahsulotining hajmiga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3- o'rinda turadi. Bu sanoatning asosiy xom ashyosi koks chiqindi, neft va tabiiy gaz hisoblanadi. Organik sintez ximiyasi keng ko'lamda rivojlanmoqda. Ximiya sanoatida; mineral o'g'itlar, medikamentlar, kosmetika, plastmassa, sun'iy tola, bo'yoqlar, noorganik ximikatlar ishlab chiqarish ustun turadi.

Qo'riq yerlar faqat Xokkaydo orolida saqlanib qolgan. Orollar meridional yo'nalishda joylashganligi uchun ularning iqlimiy sharoiti ham turlicha.

Yaponiya qishloq xo'jaligida ikkinchi jahon urushidan keyin o'tkazilgan agrar islohot keskin o'zgarish yasadi. Ya'ni yirik yer egaligi tugatilib, yerlar fermerlarga bo'lib berildi.

Hozirgi Yaponiya qishloq xo'jaligi yuqori rentabelligi va mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashuvi va intensivligi jihatidan boshqa rivojlangan davlatlardan ancha ajralib turadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi yuqori darajada mexanizatsiyalashganligi va ximiyalashganligi jihatidan Yaponiya dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi.

Yaponiya qishloq xo'jaligida jami aholining 4,7 %i (6mln kishi) bant, ishlanadigan yerlar esa mamlakat maydonining 16 %ini tashkil etadi. Dehqonchilik chorvachilikdan 2 barobar ustun turadi. Jami ekin maydonini yarmiga sholi ekiladi. Mamlakatda yetishtiriladigan jami g'alla hosilini 85-90% ini sholi tashkil etadi, yiliga 12-15 mln tonna atrofida sholi hosili yig'ib olinadi. O'zbekistonda 500 ming tonna. Sholi yalpi hosili bo'yicha Yaponiya dunyoda 8-o'rinda turadi, u Osiyoning "sholikor davlatlari" qatoriga kiradi. Lekin Yaponiya o'zini g'alla bilan ta'minlay olmaydi. Bug'doy importi bo'yicha bu davlat dunyoda 4- o'rinda turadi. Umumjahon bug'doy importini 6% i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Bug'doyni asosan AQSH, Kanada va Avstraliyadan keltiradi. Sholini esa Janubi-Sharqiy Osiyo va AQSH dan keltiradi. Yaponlarning asosiy "non"i haligacha sholi hisoblanadi. Yengil sanoatning asosiy tarmoqlari ip-gazlama va sun'iy tola to'qimachiligidir. Paxta tolasi importi bo'yicha Yaponiya dunyoda Xitoydan keyin 2-o'rinda turadi. Dunyo bo'yicha barcha paxta importini 14 % i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Paxta tolasi asosan AQSH, Avstraliya va Janubiy Osiyo davlatlaridan keltiriladi. Paxta tolasidan bo'lgan buyumlar eksporti bo'yicha Yaponiya dunyoda 4-o'rinda turadi. Jun gazlama va ipak gazlama sanoatlari deyarli o'smayapti.

O'rmon sanoati tarmoqlarini Shimoliy Xonsyu va Xokkaydo orollaridagi o'rmon massivlari xom-ashyo bilan qisman ta'minlaydi. O'rmon xom-ashyosini asosiy qismi chetdan (Braziliya, Tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo) keltiriladi. Yaponiya sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlanishida importning salmog'i juda yuqoridir. Masalan : jami misning $\frac{3}{4}$ qismi, temir rudasining $\frac{9}{10}$ qismi, toshko'mirning $\frac{8}{10}$ qismi chetdan keltiriladi. Shuning uchun ham keyingi vaqtlarda FTI ning eng so'ngi yutuqlariga tayangan holda dunyo okeani mineral resurslaridan foydalanish samarasi ortib bormoqda. Chunonchi , okean tubidan marganes qotishmalarini qazib olish, dengiz suvidan uran ajratib olish va h.k.

Qishloq xo'jaligi. Yaponiyaning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulaydir. Tog' yonbag'irlarida podzol va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari tarqalgan. Sholi asosan Xonsyu orolini markaziy va janubiy hududlarida ekiladi, bug'doy, arpa, javdar esa Xonsyu orolini shimoli va Xokkaydo orolida ekiladi. Tog' yonbag'irlarida choy, tamaki, qand lavlagi, soya va sitrus mevalari yetishtiriladi. Shaharlar atrofida sabzavotlar va mevalar yetishtiriladi.

Yaponlar azaldan gulchilik bilan shug'ullanib keladilar. Yapon diniy (sintoizm) marosimlarida bonsey va ikebana tarixiy an'anaviy san'at hisoblanadi. Yaponiyada chorvachilik juda sust rivojlangan, buning asosiy sababi yaylovlarning kamligidir. Butun yer maydonining 1,6 % ini yaylovlar tashkil etadi. Chorvachiligidagi rivojlangan tarmoqlar: baliqchilik, broyler parrandachiligi, cho'chqachilik, sut-go'sht qoramolchiligi.

Baliq ovlash – Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'idir. Baliq asosan Yapon dengizi va Tinch okeanining shimoliy qismlaridan ovlanadi. Bulardan tashqari

Yaponiya sohillari va Ichki Yapon dengizida marikultura, quruqlikda esa akvakultura usulida baliq va boshqa dengiz mahsulotlari yetishtiriladi. Yaponiya baliq ovlash bo'yicha dunyoda 1- o'rinda turadi (yiliga 13-14 mln t.). Mamlakat baliq ovlovchi flotida 10 minglab traulyerlar mavjud. Eng yirik baliq ovlovchi portlari: Iokosuka, Kitakyusyu, Nagasaki, Kagosima, Niigata, Abasiri kabilar.

Ikkinchi jahon urushiga qadar Yaponiya o'z ipakchiligi bilan dunyoga mashhur edi, endilikda ipakchilik inqirozga yuz tutdi.

Yaponiya sohillarida yashovchi aholi qadimdan molyuska chig'anoqlari orasidan marvarid (gavhar) yig'ish bilan shug'ullanib kelgan. Hozirda chig'anoqli molyuskalar okean sohillaridagi mahsus plantatsiyalarda yetishtirilmoqda. Bunday plantatsiyalar ayniqsa Xonsyu orolini janubiy sohillarida ko'p uchraydi. Ulardan yiliga 500 mln donadan ortiq marvarid chig'anoqlari yig'ilmoqda.

Shunday qilib Yaponiyada qishloq xo'jaligini boshqa rivojlangan davlatlar qishloq xo'jaligiga nisbatan yaxshi rivojlanganligiga asosiy sabab yer resurslarini tanqisligidir. Ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ekinzorlar maydoni AQSH da 80 sotix ni, Avstraliyada 3 gektarni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada 4 sotixni tashkil etadi.

Transporti. Yaponiyada daryo va quvur transportidan tashqari barcha transport turlari yuqori darajada rivojlangan. Ichki yuk tashishda avtomobil, temir yo'l va kobataj kemalari asosiy o'rin tutadi.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln km bo'lib (umumjahon avtoyo'llarning 4,8 %i) uning 43% i qattiq qoplamli, 5 ming km esa tez qatnov yo'llaridir. Avtomobillar soniga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi (1000 kishiga 500 ta). Mamlakatda tashiladigan jami yukning 7,4 %i, yo'lovchilarning 57 % i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 30 ming km bo'lib, ularning yarmi elektrlashtirilgan. Eng muhim temir yo'li "Sinkansen" magestrali bo'lib, u Kyusyu orolidan Xonsyu orolini shimolidagi Aomori shahrigacha 1100 km ga cho'zilgan. Bu yo'lda qatnovchi "Poezd-o'q" ("Xikari") soatiga 240km tezlikda xarakatlanib, yiliga 120 mln yo'lovchi tashiydi. Bunda u 66 ta tunnel va 3000 ta ko'prikdan o'tadi. Xonsyu va Xokkaydo orollari orasidagi Sugari bo'g'oziga dunyodagi eng uzun (54 km li) tunnel qurilgan (1970-1988 yillar). Mazkur "Seykan" tunnelini 23 km suv ostidan o'tgan. Bu yo'l "Tokio- Sapporo" oralig'idagi poezd qatnovini ancha tezlashtirdi.

Yaponiyada tashiladigan jami yukning 91,7 % i dengiz transportida, 7,4 % i avtomobil transportida, 0,7 % i temir yo'l transportida, 0,2% i havo transportida tashiladi.

Yaponiyada tashiladigan jami yo'lovchining 57 % i avtomobil transportida, 33,9 % i temir yo'l transportida, 8,7% i havo transportida, 0,5 % i boshqa transport turlarida tashiladi. Yaponiya yo'lovchi tashuvchi temir yo'llarning zichligiga ko'ra dunyoda 1- o'rinda turadi. Temir yo'llarning eng serqatnov qismi Tokio- Osaka oralig'idir.

Yaponiyaning tashqi va ichki aloqalarida dengiz transporti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda tashiladigan barcha yukning 91,7 % ini dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar orasida eng katta va eng zamonaviy savdo flotiga ega. U dunyoda yuk tashish tonnasi bo'yicha 6-o'rinda turadi (yiliga 22

mln reg. t.). mamlakatda 100 dan ortiq portlar bo'lib, ular ichida eng yiriklari Tokio, Tiba, Iokagama, Nagoya, Kobe, Kavasaki, Osaka, Xerosima, Kitakyusyu kabilardir. Dunyoda 2700 ta port bor.

Havo transporti mamlakatning asosiy xalqaro va ichki aloqalarida muhim ahamiyatga ega. Yaponiyada tashiladigan jami yukning 0,2 % i, yo'lovchining 8,7 % i havo transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Yaponiya iqtisodida hayotiy ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi mamlakat iqtisodini ko'p sohalarini chet el xom-ashyosiga tayanishi va tayyor sanoat mahsulotlarini eksport qilinishidir. Yaponiya jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi (oborot) ning katta qismi (1/3 qismi) eksportini 1/3 va importini 1/4 qismi AQSH hissasiga to'g'ri keladi. AQSH dan tashqari asosiy savdo sheriklari: Xitoy, Avstraliya, Germaniya, Indoneziya va "Osiyo yo'lbarlari" davlatlari.

XX asrning 50-60-yillaridan boshlab, Yaponiya eksportida kapitalning salmog'i to'xtovsiz oshib bormoqda. kapitalni asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiy davlatlari (avvalo "Yapon modeli" asosida rivojlanayotgan "Osiyo yo'lbari" davlatlari) G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSH ga to'g'ri keladi. Keyingi vaqtlarda Yaponiyada rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari o'sib bormoqda.

Yaponiya milliy valyutasi-sena, yekin almashinadigan valyuta (SKV) bo'lib, u xalqaro valyutalar qatoriga kiradi. Uning qiymati hozirda (2006 yil 1- aprel ma'lumoti) quyidagicha: 1\$ = 118,9 ien, 1¥ = 1s 26 tiyin.

O'zbekiston jahonning 140 dan ortiq davlati bilan iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. qo'shma korxonalar soni 2003 yil 3539 taga etdi. O'zbekiston – Yaponiya hamkorligi bo'yicha 14 ta xujjat imzolangan. Ular asosan "ta'lim sohasida", "turizm", "mintaqaviy xavfsizlik", "iqtisodiy hamkorlik" kabi yo'nalishlarda. O'zbekiston iqtisodiyotiga Yaponiya tobora ko'proq investitsiya kiritmoqda. Masalan: Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va Sho'rton gaz-kimyo majmuasi qurilishida Yaponiya faol ishtirok etdi. O'zbekistonga – Yaponiyadan texnologiya vositalari, tayyor iste'mol mahsulotlari, aloqa kommunikatsiya vositalari import qilinsa, O'zbekistondan Yaponiyaga paxta, ipak, tog'-kon, metallurgiya mahsulotlari eksport qilinmoqda. 2001 yil ma'lumoti bo'yicha O'zbekistonga Yaponiyadan import qilingan mahsulotlar hajmi 100 mln AQSH dollaridan oshiqni tashkil etdi. O'zbekiston esa Yaponiyaga 10-20 mln AQSH dollari hajmida mahsulot eksport qilgan.

Dunyo bo'yicha import qilinayotgan yoqilg'i va xom-ashyoni 10 %idan ortig'i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Yoqilg'i va xom-ashyo importi bo'yicha bu mamlakat dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3- o'rinda turadi. Yaponiyaning asosiy importi: yoqilg'ilar, rudalar va boshqa xom-ashyolar, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, ximiya, mashina va asbob-uskunalar, o'rmon, qishloq xo'jalik mahsulotlari.

Asosiy eksporti: mashina va uskunalar, avtomobillar, qorametallurgiya mahsulotlari, kemalar, apteka, kapital, ximiya, to'qimachilik va ishlov byeruvchi sanoatning boshqa mahsulotlari, ilmiy – tadqiqot ishlari uchun jihozlar, elektronika va elektrotexnika buyumlari.

Xo'jaligini iqtisodiy geografik farqlari.

Yaponiya aholisini joylashishi va xo'jaligini rivojlanish darajasi jihatidan xududi ikki qismga bo'linadi: ya'ni "tashqi" ("Quyoshli") va "ichki" ("Soyali").

"Tashqi" Yaponiyaga Xonsyu orolining markaziy qismidagi dengiz bo'yi pasttekisliklari kiradi. Bu qism Tinch okeani sohili bo'ylab (15-65 km) Kamar polosada joylashganligi uchun "Tinch okeani mintaqasi" ham deb ataladi. Bu mintaqamamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy o'zagidir. Mazkur o'zakda mamlakatning asosiy sanoat, savdo, transport, moliyaviy, ilmiy, energetika markazlari joylashgan. Qurilish maydonlari yetishmaganligi uchun ko'plab yirik korxonalar "dengiz hisobida" gi joylarga qurilgan. Bu mintaqamamlakatning faqat "sanoat mintaqasi" bo'libgina qolmay, balki muhim transpot va intensiv qishloq xo'jaligi rayoni hamdir.

Mamlakatning asosiy sanoat rayonlari (Tokio, Osaka, Nagoya, Kitakyusyu) va yirik shaharlari xullas, aholi va ishlab chiqarish shu mintaqada joylashgan. Tinch okeani mintaqasi butun mamlakat hududini 1/3 qismiga yaqinini egallagan, jami aholining 2/3 qismidan ortig'ini o'z ichiga oladi. Bu mintaqada Yaponiyada ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotini 85 % i ishlab chiqariladi, elektr energiyasini 70 %, metallurgiya mahsulotini 80 % , jami qishloq xo'jalik mahsulotini 50% dan ortig'i yetishtiriladi.

Bu mintaqada Tokio, Osaka, Nagoya aglomeratsiyalari va bir qator shaharlar o'zaro tutashib, Tokaydo megapolisini tashkil etadi.

Quyida "tashqi" Yaponiyadagi ayrim shaharlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tokio-Konto tekisligida joylashgan bo'lib, 1869 yildan buyon mamlakat poytaxti hisoblanadi. Dunyodagi eng yirik shaharlardan biri bo'lib, shaharning o'zida 9 mln kishi, aglomeratsiyasi bilan birga 20 mln dan (24 mln kishi) ortiq aholi yashaydi. Tokio (yaponcha "Sharqiy poytaxt" demakdir) eng muhim sanoat, savdo, transport va madaniyat markazidir. Shaharda avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, neft-kimyo, poligrafiya, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoat korxonalari, mamlakatdagi yirik ilmiy-tadqiqot markazlari joylashgan.

Iokagama – dengiz kanali orqali Tokio bilan qo'shilgan. Shaharda mamlakatning eng yirik kemasozlik markazi, neft-kimyo, po'lat eritish va ko'p metall talab mashinasozlik korxonalari joylashgan.

Nagoya shahrida yirik metallurgiya, og'ir mashinasozlik va kimyo sanoati majmuasi joylashgan. Shuningdek, to'qimachilik va avtomobilsozlik rivojlangan.

Osaka shahrida to'qimachilik va to'qimachilik mashinasozligi, elektronika, kimyo, qora va rangli metallurgiya, elektrotexnika sanoatlari rivojlangan.

Kobe – qora metallurgiya va kemasozlik shahri. Po'latdan tashqari kimyo va mashinasozlik sanoatlari ham rivojlangan.

Kioto – Yaponiyaning ilgargi poytaxti bo'lib, xozirda bu shaharda mashinasozlik, kimyo va qorametallurgiya sanoatlari rivojlangan.

Kitakyusyu (Shimoliy Kyusyu) – yirik port shaharlardan biri bo'lib, shaharda asosan qora metallurgiya, og'ir mashinasozlik, kimyo va to'qimachilik sanoatlari rivojlangan.

"Ichki" Yaponiyaga Janubiy Kyusyu, Shimoliy Xonsyu, Xokkaydo, Sikoku, Ryukyu orollari kiradi. Bu qismda avvalo aholi nisbatan siyrak joylashgan, sanoat

korxonalari ayrim shaharlardagina mavjud. Ichki Yaponiyada qishloq xo'jaligi ustun turadi, undan tashqari tog'-kon sanoati va o'rmon xo'jaligi rivojlangan.

Xakodate (Xokkaydo oroli) va Nagasaki (Kyusyu oroli) shaharlarida mamlakatdagi eng yirik baliq konserva sanoati joylashgan.

So'ngi vaqtlarda Yaponiya davlati "ichki" qismini rivojlantirishga qaratilgan regional siyosat yuritmoqda. Tinch okeani mintaqasidagi ekologik va demografik vaziyatni yumshatish maqsadida texnopolislarni "ichki" qismda bunyod etilishi, Seykan temir yo'l tunnelini qurilishi regional siyosatni amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib biz Yaponiya xo'jaligi bilan tanishar ekanmiz, quyidagi xulosalar bilan o'z fikrimizni yakunlaymiz: maydoni O'zbekiston respublikasi maydonidan 77 000 km² ga kichkina, aholisi soniga ko'ra O'zbekistondan 5 barobar katta bo'lgan, yoqilg'i va xom-ashyoga juda kambag'al. Yaponiyani jahonning eng qudratli va nufuzli davlatga aylanishiga quyidagi yagona omil ya'ni o'ta malakali va ma'naviyatli xalqi sabab bo'ldi. Ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha Yaponiya xatto AQSH dan ustun turadi. Bunga asosiy sabablar: ta'limning yuqori darajadaliigi, malakali ishchi kuchi, mehnatsevar xalqi, o'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan qarashi, tartib-intizomligi, dunyoda bolalar o'limining eng kamligi, aholisini umr ko'rishini eng yuqoriligi, bolalar tarbiyasiga yoshligidan katta e'tibor berilishi, fanga ajratiladigan mablag'larni juda ko'pligi (dunyo bo'yicha birinchi o'rinda), ilmiy xodimlar sonining ko'pligi (Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani birga hisoblaganda ham Yaponiyada ulardan ko'p), universitetlarning ko'pligi (butun G'arbiy Yevropadagi universitetlardan ko'p) kabilardir.

Shu boisdan ham prezidentimiz I.A. Karimov kadrlar masalasini 3-ustuvor yo'nalish tariqasida eng dolzarb masalalar qatoriga kiritdi. "Ta'lim to'g'risida" va kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi qonunlari, hamda O'zbekiston respublikasi prezidentining "ta'lim – tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida" gi farmonini bajarish borasidagi asosiy ishlar davr talablariga to'liq javob beradigan yuqori malakali mutahassislarni tayyorlashdir.

Mavzu: Xitoy xalq respublikasi.

Xitoy xalq respublikasi – Markaziy va Sharqiy Osiyodagi davlat. U maydonining kattaliga ko'ra dunyoda 3- o'rinda turadi (9,5). Maydoni g'arbdan sharqqa 5,7 ming km ga, shimoldan janubga 3,7 ming km masofaga cho'zilgan. Mamlakatning sharqi va janubi-sharqiy qismlari katta masofada okean bilan tutash, lekin mamlakat xududining katta qismi okeandan uzoqda, lekin Yanszi va Xuanxe daryolari bo'ylab dengiz kemalari 1000 km dan ko'proq ichkariga kirib bora oladi. Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi Yaponiya va "Osiyo yo'lbarzlari" mamlakatlariga yaqinligi, Rossiya bilan chegaradoshligi, shuningdek Xitoy xalq respublikasining sivilizasiya markazi bo'lib kelganligidir. Xitoyning quruqlik chegarasining asosiy qismi baland tog'lar va cho'llardan o'tadi.

Xitoy xalq respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatidan 23 ta provensiya, 5 ta avtonom rayon va markazga bo'ysunuvchi 3 ta shahar (Pekin, Shanxay, Tenzin) dan

tashkil topgan. Xitoy xududi tarixda bir necha bor mo'g'ul va yapon bosqinchilari tomonidan istilo qilingan. Shuning uchun Xitoyni shimolida 4000km li Buyuk Xitoy devori qurilgan. Gobi, Alashan, Ordos, Takla- Makon cho'llari bor.

Xitoy xududining 80 % ini rel'efi murakkab, ya'ni tog'lardan iborat, ayniqsa Himolay, Kunlun, Tyanshan, Tibet, Nanshan, Hingan tog'lari egallagan hududlar qishloq xo'jaligi va transport yo'llarini o'tkazish uchun noqulaydir.

Xitoy Xalq respublikasini shimoli mo'tadil, markazi subtropik, janubi subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Qishloq xo'jaligi uchun eng qulay bo'lgan Buyuk Xitoy tekisligi va Xitoyning sharqiy sohillari musson yomg'irlari va tayfunlar (soatiga 100 -150 km tezlikda sohillarga bostirib keluvchi kuchli bo'ronlar) shahar va qishloqlarga, ekinzorlarga, sug'oruv sistemalariga katta zarar yetkazadi. Mamlakat xududining 10% ini o'rmonlar egallagan. Mamlakat mineral resurslarga boy. Mamlakat shimolida yirik ko'mir konlari (markazida-Datun), yonuvchi slanes, osh tuzi, yirik neft konlari (ayniqsa, Sariq dengiz shelfida, Dasinga mamlakat neftining yarmi to'g'ri keladi), temir, qalay, surma, boksit konlari bor. Xitoyning g'arbiy va janubi-g'arbiy xududlari kam o'zlashtirilgan.

Xitoy 2000-yildan buyon dunyodagi eng seraholi mamlakat bo'lib kelmoqda va emmigratsiyaning asosiy o'choqlaridan biriga aylanib qolgan. Aholining ko'plab ko'chib ketishi, ayniqsa, XIX va XX asrda kuzatildi.

Xorijiy mamlakatlarda Xitoyliklar ko'p to'plangan markazlar paydo bo'ldi, ularni Xuasiyao deydi. Xorijiy mamlakatlarda hozirda 30 mln dan ortiq Xitoyliklar yashaydi. Buni 90 % i janubi-sharqiy Osiyoga to'g'ri keladi. Xuasiyaolar sababli Singapur aholisining 85 %, Malayziya aholisining 34 %, Tailand aholisining 13 % i xitoyliklardir.

1949 yildan 1990 yillargacha Xitoy aholisi 2 barobar ko'paydi, va 1134 mln, 1998 yil 1248 mln, 2003 yil 1295 mln, 2006 yil 1318 mln kishiga etdi. Tug'ilish koeffitsienti 12 ‰, o'lim 7‰ . 1 ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 22 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 7 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 71-74 yosh. YAMD – 7730 \$ (2007). Xitoyda iqtisodiy faol aholi 700 mln kishini tashkil etadi, shuni 2/5 qismidan ortig'i yoshlardir. Demografik siyosatga qaramay Xitoyda tabiiy o'sish yiliga 12mln kishidan ortiq. Etnik tarkibiga ko'ra Xitoy ko'p millatli davlat. Xanlar yoki Xansiylar butun aholining 92 % ini tashkil etadi. "Kichik millat" lar butun aholining 8 % ini (80 mln kishi) tashkil etgani holda 60ga yaqin millat va elatlardan tashkil topgan. Ular Xitoyning g'arbiy qismida va tog'li hududlarda tarqalgan bo'lib, butun Xitoy xududining yarmini egallagan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 138 kishidan ortiq, biroq aholisining 90 % i mamlakat hududining 1/3 qismida to'plangan. G'arbiy xududlarda, ya'ni mamlakat xududining 20 %ida odam deyarli yashamaydi. Xitoy aholi bo'yicha har qanday ko'rsatkichlarda (shaharlar soni, qishloqlar soni (700 ming), millioner shaharlar 34 ta) dunyoda birinchi o'rinda turadi. Urbanizatsiya 24%. Asosiy siyosiy partiyalari : Xitoy kommunistik partiyasi (1921 yil tashkil topdi).

Xitoy xo'jaligining tarixiy rivojlanishida Sobiq SSSR ning ta'siri kuchli bo'lgan. Sobiq SSSR Xitoy xalq respublikasiga 1,8 mlrd so'm kredit va 260 ta yirik korxonalar qurishga yordam bergan. 1960 yillardan Mao Szedum siyosati ("katta sakrash" va "madaniy revolyusiya") sababli Sovet-Xitoy munosabatlari yomonlashgan va

chegara notinchligi kuzatilgan. 1980 yillardan 2 davlat munosabatlari yana yaxshilangan.

Xozirgi Xitoy sanoati ishlab chiqarishning umumiy xajmiga ko'ra dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakat xududi iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra 3 ta iqtisodiy zonaga: G'arbiy, Sharqiy va Markaziyga bo'linadi.

Xitoy sanoatini avvalambor og'ir sanoat belgilaydi. Og'ir sanoat tarmoqlari orasida, ayniqsa toshko'mir qazib chiqarish muhim rol o'ynaydi. Asosiy ko'mir havzalari Shimoli-Sharqda (Fushun va Fusin) va Shimoliy Xitoydadir. (Datun). Fushun va Fusinda ko'mir asosan shaxta va ochiq usulda, Datunda esa shaxta usulida qazib olinadi. Ko'mir konlarining metallurgiya markazlariga yaqinligi iqtisodiy qulaylikni oshiradi. Xitoy 1987 yil 920 mln t. 1990 yil 1100mln t. ko'mir qazib olib jahonda yetakchilik qilmoqda. Neft asosan mamlakatni shimoli-g'arbida va Sichuon viloyatida qazib olinadi. Eng yirik neft koni Dasinga konidir.

Mamlakatda 1995-yil 140 mln t. neft qazib olindi (jahonda 5-o'rinda). Xitoy xalq respublikasida 1987- yil 496 mlrd kVt/s, 2000-yil 930 mlrd kVt / s (dunyoda 3-o'rin) elektr energiyasi hosil qilingan bo'lib, uning asosiy qismi (75 % i) IES larda hosil qilingan. IES lar asosan mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqida ya'ni ko'mir havzalari atroflarida joylashgan. GES lar Xuanxe va Yanszi daryolarining yuqori oqimlarida qurilgan. AES lar ham mavjud. Xitoyda noodatiy energiya manbalaridan ham (Geotermal va qalqish ES) foydalaniladi.

Qora metallurgiya sanoatining asosiy markazlari kokslanuvchi yirik ko'mir va ruda konlari bo'lgan rayonlarda vujudga kelgan. Ularning ichida eng yirigi shimoli-sharqdagi Anshan metallurgiya kombinati bo'lib, bu yerda yiliga 7-8 mln t. cho'yan eritiladi. Shimoliy Xitoydagi eng yirik kombinat Baotouda, markaziy Janubiy Xitoyda Uxanda joylashgan.

Temir zapasi bo'yicha birinchi o'rin, qazib olish bo'yicha 4- o'rinda turadi. Xitoy Xalq respublikasida 1990-yil 60 mln t. po'lat, 44 mln t. prokat eritilindi. 2000-yil 115 mln t (birinchi o'rinda).

Mashinasozlik korxonalarida ixtisoslashgan korxonalar emas, universal korxonalar ustun turadi. Ular asosan yirik shaharlarda, dengiz portlarida, metallurgiya bazalari yaqinida joylashgan. Masalan: Shenlida og'ir mashinalar va stanoklar, Chanchunda avtomobillar, ayniqsa Yanszi bo'ylarida mashinasozlik rivojlangan. Shanxayda dengiz kemalari ishlab chiqariladi. Xitoy Xalq respublikasida 1987-yil 472 ming avtomashina, 40 ming traktor ishlab chiqarilgan.

Ma'lumki, Xitoy ip –gazlama ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ishlab chiqarilgan gazlamaning 90% i ip-gazlamalardir. Mamlakatning asosiy paxta bazasi Shimoliy Xitoy, ip-gazlama sanoati Shanxayda joylashgan.

Qishloq xo'jaligida 400 mln dan ortiq kishi band. 1990-yil Xitoyda 450 mln t. g'alla yetishtirildi. Buni asosiy qismini (180mln t) sholi tashkil etadi. Sholi mamlakatni asosan janubi-sharqida, ya'ni Yashil Xitoyda (choy xam). Bug'doy (1990 yilda 95 mln t.) shimoli-sharqida, shuningdek makkajo'xori, gaolyan "Sariq Xitoy"da yetishtiriladi.

Mamlakatni shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari "quruq Xitoy" deyiladi. Bu yerda ekstensiv chorvachilik, janubi-g'arbda – "sovuq Xitoy" da (Tibet, Kunlun, Himolay) qishloq xo'jaligi sust rivojlangan. Xitoyda 1987 – yil 4,2 mln t, 1990-yil 4,5 mln t.

paxta tolasi yetishtirildi. Cho'chqalar soni dunyo bo'yicha 870 mln, Xitoyda 326 mln, qo'ylar 178 mln, qoramol 126 mln bosh.

Mavzu: Hindiston Respublikasi.

Hindiston janubiy Osiyodagi aholisi soni va maydoniga ko'ra eng yirik davlat. Maydoni 3291 (3288) mln km² bo'lib, u maydoniga ko'ra dunyoda 7-o'rinda turadi. Iqtisodiy geografik o'rni mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun qulay. Mamlakatning quruqlik chegarasi 15 000 km, dengiz chegarasi 5,5 ming km. quruqlik chegarasi orqali 7 ta davlat bilan chegaradosh bo'lib, bu chegaralar baland tog' va cho'llardan o'tganligi uchun iqtisodiy jihatidan u qadar qulay emas. Mamlakatni janubiy qismi yarimoroldan iborat bo'lib, bu qism Janubi-G'arbiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Afrika davlatlari o'rtasidagi dengiz yo'llari o'rtasida joylashgan.

Hindiston Yevropa, Osiyo va Avstraliya o'rtasidagi muqim xalqaro havo yo'llari tugunida joylashgan. Masalan: Moskva – Toshkent – Dehli – Singapur. Hindiston xududi shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan sharqqa 2700 (2900)km ga cho'zilgan.

Hindiston aholisi demografik portlashda. Masalan: 1988-yil mamlakatda 800 mln kishi yashagan bo'lsa, u yiliga 15-17 mln kishiga ko'payib, 2003 yil 1068 mln, 2007 yil 1132 mln kishiga yetdi. Tug'ilish koeffisienti 24 ‰, o'lim 8‰ . 1 ayolga 3,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 36 ‰ ini, 64 yoshdan o'tganlar 4 ‰ ini tashkil etadi. O'rtacha umr 63-64 yosh. YAMD –3800 \$ (2007). Mamlakat umumiy chaqaloqlar soniga ko'ra (yiliga 27 mln) dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ayni paytda umumiy chaqaloqlar o'limi bo'yicha ham dunyoda yetakchi (yiliga 9 mln). Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Hindiston birinchi bo'lib oilani rejalashtirishga o'tgan, lekin u yaxshi samara bermadi. Sababi ko'p asrli yosh nikoh qurish an'anasidir. Hind aholisini etnik tarkibiga ko'ra ham dunyoda 1-o'rinda. 150 dan ortiq xalqlar bor. Asosiy tillar 15 ta, shevalar soni 1,6 mingta. Eng yirik xalqlari: hindlar, bixarlar, bengallar.

Hindistonliklar tili – hind tili, millatlararo muomala tili – ingliz. Aholisini 83% i induizmga, 11% islomga , qolgani xristian, sinkxizm va buddizmga e'tiqod qilishadi. Varanasi va Gang daryosi induizm dini uchun, Lumbin shahri buddistlar uchun muqaddas joy.

Aholisi ancha notekis joylashgan. Mamlakatda aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 344 kishi. Hind-Gang pasttekisligida esa 800 kishigacha. Himolay tog'larida, mamlakatning shimoli-g'arbida va markaziy qurg'oqchil hududlarda aholi ancha siyrak.

Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 26 ‰ . Hindistonda 4500 shaharlar bor, millioner shaharlar soni 23 ta. Eng yiriklari: Mumbay (12,6 mln) va Kalkutta (11 mln). Hindistonda 600mingdan ortiq qishloqlar bor.

Hindistonni XVIII-asrda inglizlar bosib olgan va 200 yil mustamlaka qilgan . U 1947 yil 15-avgustda mustaqillikka erishgan va 1950 yil 26-yanvarda respublika deb e'lon qilingan. Davlat tuzumiga ko'ra Federativ Respublika bo'lib, 25 shtatdan va 6 ta ittifoqdosh hududdan tashkil topgan. Kashmir va Panjopda siyosiy ahvol yaxshi emas. Asosiy siyosiy partiyasi: Hindiston milliy kongresidir (1885 yilda tuzilgan).

Hindiston xo'jaligi ulkan tafovutlar mamlakati. Masalan: bir tomonda industrilashtirish, tub agrar islohotlar, kosmik dasturlarni amalga oshirilishi, qudratli sanoat korxonalari, AES lar.

Ikkinchi tomonda qashshoq aholi va qoloq qishloq xo'jaligi, yersizlik, uysizlik, yerga omoch va xo'kizda ishlov berish. Hindiston umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahonda 11- o'rinda turadi, lekin jon boshiga YAIM bo'yicha 102-o'rinda (340 \$) turadi.

Qishloq xo'jaligi traktorlari ishlab chiqarish bo'yicha (yiliga 110 ming) dunyoda Rossiya va Yaponiyadan keyin turadi, lekin omoch-xo'kiz-arava.

Temir yo'llar uzunligi bo'yicha Osiyoda 1- o'rinda, lekin ular tor izli.

FTI mutaxassislari soniga ko'ra Rossiya va AQSH dan keyin turadi, lekin ular chet ellarga ko'p ketib qolmoqda.

Kinofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yiliga (750 ta) 1-o'rinda, lekin aholisining yarmidan ko'pi savodsiz.

Hashamatli uylar va xaroba kulbalar bor.

Hindistonda iqtisodiy faol aholi soni 626 mln kishi bo'lib (Xitoydan keyin 2-o'rinda), uning 1/5 qismi sanoatda band. Aholisining 70 % dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Mamlakatning asosiy qazilma boyliklari: ko'mir, temir rudasi, marganets, mis, uran, titan, neft, olmos kabilardir.

Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha (yiliga 210 mln t.) Hindiston dunyoda 6- o'rinda turadi. Damadar vodiysi – Hindiston Ruridir. Temir rudasi qazib olishda ham dunyoda 6- o'rinda turadi. U yiliga 55 mln t. dan ortiq temir rudasi qazib oladi, bu AQSH bilan tengdir. Temirning 40% i eksport qilinadi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha u dunyoda 8- o'rinda (yiliga 380 mlrd kVt/s) turadi.

Elektr energiyasini asosan IES, AES (3 ta) va GESlar beradi. Mamlakatning yetakchi sanoat tarmoqlari: Engil sanoat, oziq-ovqat, metallurgiya, mashinasozlik va kimyo. Ma'lumki jahon yengil sanoati 5 regionda kuchli rivojlangan bo'lib, ularning biri Janubiy Osiyodir. Hindistonda ip-gazlama va jut-gazlama sanoatlari yaxshi rivojlangan. Ip-gazlama – Bombeyda, jut-gazlama – Kalkuttada, oziq-ovqat sanoatida choy, qand-shakar, o'simlik moyi (yeryong'oq), qandolatchilik yetakchi o'rin tutadi.

Mamlakatda qora metallurgiya sanoati rivojlangan bo'lib, u dunyoda po'lat eritish bo'yicha 10-o'rinda (yiliga 18 mln t.) turadi. Rangli metallardan alyuminiy eritish yaxshi rivojlangan. Eng yirik metallurgiya markazi – Bakaro shaxrida joylashgan.

Hindiston xo'jaligida dastgohlar, traktorlar, avtomobillar, teplovozlar, televizorlar, EHM lar, AES lar uchun jihozlar, kosmik sanoat uchun jihozlar, ximiyaviy tolalar, farmosevtika ("Farmed" qo'shma korxonasi) kabilar rivojlangan.

Mamlakatning tog'-kon sanoati, ayniqsa Dekan yassitog'ligida kuchli rivojlanib bormoqda. bu yerdagi og'ir sanoatning eng muhim yangi qurilishlarini J.Nyeru "Yangi Hindistonning qasrlari" deb atagan.

Hindiston xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishida 4 ta yirik markaz ajralib turadi. Ular iqtisodiy poytaxtlardir: Dehli, Madoras, Bombey, Kalkutta.

Dehli 1911- yildan beri mamlakat poytaxti, hozirda Yangi Dehli. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi, bunga sabab tabiiy sharoitning qulayligidir. Mamlakat xududi asosan subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan. U haydaladigan yerlar maydoniga

ko'ra faqat AQSH dan keyin turadi xolos. Mamlakat qishloq xo'jaligi asosan 2 mavsumga, ya'ni rabi (qishki) va harif (yoz) mavsumiga bo'linadi.

Hindiston qishloq xo'jaligida sholi, choy, paxta, shakarqamish, bug'doy, yeryong'oq, zirovorlar yetishtirish yetakchi.

Hindiston dunyoda sholi yetishtirish bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 110 mln t. Xitoydan keyin), shakarqamish yetishtirish bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 170 mln t. Braziliyadan keyin), choy yetishtirish bo'yicha 1-o'rinda, bug'doy yetishtirish bo'yicha 3- o'rinda (yiliga 50 mln t. Xitoy va AQSH dan keyin), paxta yetishtirish bo'yicha 3- o'rinda (yiliga 1,7 mln t. paxta tolasi Xitoy va AQSH dan keyin), yeryong'oq va zirovorlar yetishtirish bo'yicha 1- o'rinda turadi.

Sholi asosan Gang va Braxmaputra daryolari vodiysida, bug'doy esa Hind-Gang pasttekisligida ekiladi. Panjob – Hindistonning bug'doy mintaqasi nomini olgan.

Paxta va yeryong'oq Dekan yassitog'ligida, jut G'arbiy Bengaliyada, choy Sharqiy Hindiston tog' yonbag'irlarida, kokos yong'og'i va dorivorlar Arab dengizi sohillarida yetishtiriladi.

Hindiston dunyoda qoramollar soni (250 mln bosh), echkilar soni (77 mln bosh) bo'yicha birinchi o'rinda turadi, lekin hind aholisi go'sht,sut, hayvon yog'i, tuxum iste'mol qilish bo'yicha dunyoda oxirgi o'rinlarda (jon boshiga 1,5-2 kg) turadi. Bunga sabab induizm dini (vegeterianlik).

Hindiston transportida yetakchi o'rinda temir yo'l, avtomobil va dengiz transporti turadi. Temir yo'llarning uzunligi bo'yicha (63 ming km) mamlakat Osiyoda birinchi o'rinda tursada, temir yo'llarning tor izligi va lakamotivlarning eskiligi temir yo'l transportining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Avtoyo'llarning uzunligi 1,7 mln km bo'lib. Uning 833 ming km qattiq qoplamadir. Mamlakat ichidagi umumiy tashiladigan yukning 80% i, yo'lovchining 70 % i temir yo'l transportiga to'g'ri keladi. Temir yo'li uzunligi 61850 km.

Hindiston tashqi savdosida dengiz transporti yetakchi. Eng yirik dengiz porti "bosh darvozasi" Bombay, keyin esa Kalkutta turadi.

Asosiy eksporti: choy, shakarqand, ip-gazlama (paxta), kanop, charm, dorivorlar, farmasevtika mahsulotlari, mashina va jihozlar. Zargarlik va badiiy xunarmandchilik buyumlari, kiyim-kechak.

Asosiy importi: neft, mashina va jihozlar, oziq-ovqat, mineral o'g'itlar, po'lat.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Rossiya, Yaponiya, GFR. Pul birligi – hind rupiyasi.

Mavzu: Janubi Sharqiy Osiyo davlatlari.

Bu regionga Hindi-Xitoy va Malakka Yarimorollari hamda Malaya arxipelagida joylashgan 11ta davlat kiradi. Ular II-jahon urushiga qadar Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiyaning mustamlakasi bo'lgan. Mazkur davlatlar 1989- yilgacha o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Eng oxirida esa 2002 yil 20-may kuni Sharqiy Timor mustaqil deb e'lon qilindi.

Region xududi 4,4 mln km² bo'lib, yer shari quruqlik maydoninig 3,1 % ini egallagan. Maydoniga ko'ra eng yirik davlatlari: Indoneziya (1,9 mln km²), boshqa davlatlarning birortasining maydoni 677 ming km² dan (Myanma) katta emas.

Maydoning kattaligiga ko'ra eng mittisi Singapur (0,6 ming yoki 620 km²) bo'lib, uning maydoni Moskva shahri maydonining 2/3 qismiga teng. Singapur maydonining uzunligi 42 km, eni 22 km. Singapurdan tashqari Bruney (6000 km²), Sharqiy Timor (15 ming km²) kabi kichik davlatlar ham joylashgan.

Indoneziya Respublikasi 13700 dan ortiq orollardan tashkil topgan. Iqtisodiy geografik o'rning qulayligi avvalo regionning barcha mamlakatlarini (Laosdan tashqari) dengiz bo'yida joylashganligi;

– region mamlakatlarining bir-biriga qo'shni joylashganligi

– muhim dengiz yo'llari bo'yida joylashganligi

Masalan Singapur ham Sharqiy, ham G'arbiy darvoza.

Janubi-Sharqiy Osiyo iqlimiy jihatidan ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashganligi uchun yog'in-sochin mo'l. Shuning uchun o'simliklarga ayniqsa o'rmonlarga boy. Indoneziya va Filippin orollari birinchi darajali seysmik mintaqaga kirganligi uchun tez-tez kuchli zilzilalar bo'lib turadi (masalan, 2004 yil 26-dekabrda sunamida 300 ming odam o'ldi) va harakatdagi vulqonlar ko'p (Apo, Karakatau, Slamet, Kyerinchi).

Janubi-Sharqiy Osiyo foydali qazilmalarga boy. Ayniqsa, qalayi, neft-gaz, volfram, nikel, xrom kabilarga. Masalan: dunyoda xrom qazib olish bo'yicha Filippin 5-o'rinda, nikel qazib olish bo'yicha Indoneziya 5-o'rinda, Filippin 7-o'rinda, mis qazib olish bo'yicha Filippin 8-o'rinda turadi. Malakka yarim oroli yerning qalayi belbog'i nomini olgan bo'lib, bu yerda yer sharidagi eng yirik qalayi zapasi joylashgan. Bruney sultonligi OPEK ga a'zo, Indoneziya esa kuzatuvchi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining boshqarilish shakli va davlat tuzumi xilma-xil. Masalan: Vetnam, Laos, Myanma, Indoneziya, Filippin, Singapur kabi davlatlar respublika, Bruney, Malayziya, Kambodja, Tailand kabi davlatlar monarxiya shaklida boshqariladi. Myanma va Malayziya federativ davlat tuzilishiga ega.

Aholisi. Janubi-Sharqiy Osiyoda 544 mln (2003y), 574 mln (2007) kishidan ortiq aholi yashaydi. 2006-yilda 565 mln kishiga yetdi. Tug'ilish koeffitsienti 21 ‰, o'lim 7‰. 1 ayolga 2,7 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 31 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 5 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 66-70 yosh. YAMD –3390 \$. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari aholisi yer shari aholisining 8,5 % ini tashkil etadi. Aholisi soniga ko'ra Indoneziya (220 mln), Filippin (82 mln), Vetnam (81 mln), Tailand (63 mln), Myanma (50 mln) kabi davlatlar yetakchi (2003). Aholisi soni eng kam bo'lgan davlatlar: Bruney (0,4 mln), Sharqiy Timor (0,8 mln) kabilardir.

Region aholisi yiliga 9-10 mln kishiga ko'paymoqda. Eng yuqori tabiiy ko'payish Vetnam, Laos, Kambodja, Filippinga to'g'ri keladi. Aholi ko'payishi shu holatda ketsa, 2025 yilga borib dunyodagi eng seraholi 11 davlat qatoriga Filippin va Vetnam ham kiradi. Tug'ilish ko'rsatkichi eng yuqori davlatlar: Laos (36‰), Kampuchiya (28‰), Filippin.

Tug'ilish ko'rsatkichi eng past bo'lgan davlatlar; Singapur (11‰), Tayland (13‰).

Janubi-Sharqiy Osiyoda tug'ilish koeffitsenti 22‰ ni tashkil etadi.

Yoshlar salmog'i eng yuqori (43-44 %) bo'lgan mamlakatlar: Kambodja, Laos, Sharqiy Timor; eng kam bo'lgan davlatlar: Singapur, Tailand (21-23%). Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari aholisining o'rtacha zichligi 1km² 128 kishi bo'lgani holatda, Vetnam, Tailand, Filippinda 296 kishidan ortiq, Laos, Kambodja, Bruneyda 35-40 kishi. Yava

yarimorolida 2000 kishi va Singapurda 6785 kishini tashkil etadi. Ko'pchilik davlatlari ko'p millatlidir. Masalan: Indoneziyada 150 dan ortiq, Vetnamda 50 dan ortiq, Myanma va Tailandda 30 dan ortiq xalq yashaydi. Urbanizatsiya darajasi Singapurda 100%, qolgan barcha davlatlarda 40 % ga etmaydi. Millioner shaharlari jami 15 ta bo'lib, ular ichida eng yirigi Jakarta (9 mln). Hindi-Xitoy aholisi asosan buddizmga, Malaya arxipelagi aholisi islom diniga e'tiqod qiladi. Dunyoda musulmonlar soni eng ko'p bo'lgan davlat Indoneziya.

Xo'jaligi XX asrning 70 yillariga qadar Janubi-Sharqiy Osiyo jahonning eng qoloq o'lkalaridan bo'lib kelgan. Shu yillardan keyin ichki iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslar (tog'-kon) va chet el investitsiyalari omillari ta'sirida region mamlakatlarida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

Hozirda region mamlakatlari sanoatining rivojlanishiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. Yangi sanoatlashgan "Osiyo yo'lbarzlari" davlatlari: Singapur, Tailand va Malayziya. Bu mamlakatlarda Yapon kapitali ta'sirida va mahalliy ishbilarmonlar faoliyati tufayli "iqtisodiy mo'jiza" lar ro'y bermoqda. Masalan: Singapur dunyodagi eng yirik savdo markazi, moliyaviy markaz, turizm markazi, industrial markaz (neftni qayta ishlash, kemasozlik, elektrotexnika) larga aylanib bormoqda. Malayziyada kondensiyonlar, elektro va radio texnikalar, avtomashinalar va boshqa rezina buyumlar, maishiy texnika buyumlari, rangli metallurgiya sanoati; Tailandda tabiiy kauchuk buyumlari, rangli metallurgiya sanoati, mashinasozlik, engil sanoat rivojlanib bormoqda.

2. Neft-gaz sanoati rivojlangan davlatlar: Indoneziya va Bruney sultonligi.

Indoneziya yiliga 65 mln t. dan ortiq neft qazib oladi, 30 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib oladi. Asosiy sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, neft – kimyo, tikuvchilik va to'qimachilik, qorametallurgiya sanoati, kauchuk va o'rmon sanoatlari. Eng yirik sanoat markazlari: Jakarta, Surabaya, Medan, Padang, Bandun shaharlarida joylashgan.

Bruney sultonligida sanoat tarmoqlari rivojlanmagan bo'lib, u yerda qazib olinayotgan neft (yiliga 8-10 mln t) va tabiiy gaz (10-13 mlrd m³) hom holatida eksportga chiqariladi.

3. Industrlashtirish yo'lidan borayotgan davlatlar. Bu guruhda Vetnam aloxida ajralib turadi. Mamlakatda qorametallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari rivojlanib borayotgan bo'lsada, xo'jalikda oziq-ovqat va engil sanoat yetakchidir. Yirik sanoat markazlari Xanoy va Xoshiminda joylashgan. Myanmada asosan sellyuloza – qog'oz sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat va rangli metallurgiya sanoatlari rivojlanmoqda. Yirik sanoat markazi Yangon shahrida joylashgan.

Filippinda asosan tog'-kon sanoati (mis, xrom, temir, alyuminiy) engil va oziq-ovqat sanoati rivojlanib bormoqda. Eng yirik sanoat markazlari: Manila va Sebu shaharlari.

4. Sanoati juda sust rivojlangan davlatlar: Laos va Kambodja. Ularda asosan xunarmandchilik, zargarlik va qo'lda buyumlar yasash (savat, shlyapa). Bruney va Sharqiy Timorda zamonaviy sanoat yo'q. Janubi-Sharqiy Osiyoda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Dunyo bo'yicha kokos yog'i ishlab chiqarish va uni eksport qilishda mazkur region yetakchi bo'lib, bu sohada Indoneziya, Malayziya, Tailand davlatlari yetakchi. Choy sanoati Indoneziya, Malayziya, Vetnamda; qand-shakar sanoati Indoneziya, Malayziya, Tailand; kofe sanoati Indoneziyada; broulyer xo'jaligi (akarashka) Tailand, Malayziya, Myanmada yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. Janubi-Sharqiy Osiyo qishloq xo'jaligi asosiy o'rinda oziq-ovqat ekinlari turadi. Bunga sabab oziq-ovqat muammosini bu regionda xaligacha hal qilinmaganligidir. Regionning musson iqlimli joylarida, Mekong, Irovadi va Xongxa daryo vodiylarida sholikorlik rivojlangan. Bu yerlarda yil bo'yi sholi yetishtiriladi va 2-3 marta hosil yig'ib olinadi. Indoneziyada jami ekin maydonining 2/3 qismiga, Filippinda 90% iga sholi ekiladi. Mekong va Xongxa daryolarining daltalari Vetnamning "sholi savatchasi" (karzinasi) nomini olgan. Regiondagi asosiy sholi yetishtiruvchi davlatlar:

Indoneziya (yiliga 45 mln t. dunyoda 3- o'rin).

Tailand (yiliga 21 mln t. 4-o'rin)

Vetnam (yiliga 19 mln t. 6- o'rin)

Myanma (yiliga 15 mln t.)

Filippin (yiliga 8 mln t.)

Shakarqamish yetishtirish bo'yicha dunyoda Indoneziya 7- o'rinda turadi. Mamlakatda yiliga 25 mln t dan ortiq shakarqamish yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan tabiiy kauchukning 85 % ini Janubi- Shraqiy Osiyo davlatlari, avvalo Indoneziya, Tailand, Malayziya uchligi beradi.

Myanma, Tailand, Laos chegarasida dunyodagi eng mashhur "oltin burchak" joylashgan.

Asosan Indoneziyada qisman Vetnamda kofe yetishtirish rivojlangan. Region qishloq xo'jaligida yuqoridagilardan tashqari choy, kakao, paxta, yeryong'oq, tamaki, kokos va moyli palma yetishtirish rivojlangan. Janubi-Shraqiy Osiyoda chorvachilik sust rivojlangan bo'lib, bu tarmoqdan faqat parrandachilik (broyler) yaxshi rivojlangan. Janubi-Sharqiy Osiyo dunyo bo'yicha YAIM 2,2 % ini beradi.

Transporti. Temir yo'l transporti eng rivojlangan davlatlar: Indoneziya (7 ming km) va Myanma (5 ming km). Avtomobil transporti va yo'llarining uzunligi ortib uning ahamiyati oshib bormoqda. Indoneziya va Filippinda dengiz transporti rivojlangan. Regiondagi eng yirik dengiz porti Singapur (yiliga 115 -120 mln t yuk o'tkazadi) va Bangkok (60 mln t.) portlaridir. Xoshimin, Jakarta, Surabaya portlari kichikroq. Havo transporti xalqaro aloqalarda muhim o'rin tutadi. Eng katta aeroporti Changi (Sing). Keyingi o'rinlarda Bangkok va Jakarta aeroportlari turadi. Janubi- Sharqiy osiyo tabiiy va tarixiy rekreatsion resurslarga boyligi uchun keyingi paytlarda xalqaro turizm va dam olish tarmoqlari rivojlanib bormoqda.

Asosiy eksporti: neft-gaz, qalayi, volfram, nikel, mis, alyuminiy, xrom, radiotexnika, rezina buyumlar, elektrotexnika, konditsionerlar, sholi, kauchuk, kofe, kokos yong'og'i va yog'i, broyler, tropik mevalar, tamaki.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, kapital, bug'doy, sanoat mahsulotlari. Pul birligi: rupiya (Indoneziya), peso (Filippin), rentit (Malayziya), dollar (Singapur va Brunei), bat (Tailand), dong (Vetnam), riel (Kambodja), kip (Laos), kyat (Myanma).

Mavzu: Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari.

Bu regionda Yaqin va O'rta Sharq hamda Kavkaz orti 20 ta mamlakati joylashgan. Uning maydoni 7 mln km², aholisi 245 mln kishidan ortiq. Bu regionda dunyodagi eng yirik yarimorol Arabiston va Kichik Osiyo yarimoroli joylashgan. Bu regiondagi

Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu iqtisodiy qulaylikdir. Bu regionning iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi: ko'pchilik davlatlarning dengiz bo'yida joylashganligi, Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga yaqinligi, muhim dengiz va havo yo'llarida joylashganligi, neft va tabiiy gazga boyligi. Bu regionni iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlari: Turkiya, Isroil, Kipr. Eng qoloqlari: Afg'oniston, Yaman.

Janubi-G'arbiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o'rni quyidagicha: bu region yer shari maydoninig 4,6 % ini egallagan ; dunyo aholisining 4,6 % ini o'z ichiga oladi; dunyo bo'yicha YAIM ning 2,6 % ini shu region beradi ; dunyo bo'yicha yalpi eksport mahsulotining 3,7 % i shu regionga to'g'ri keladi.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Turkiya, Armaniston, Afg'oniston, Eron kabi davlatlarda tog'lar katta maydonni egallagan. Arabiston yarimoroli davlatlarida cho'llar (Rub-el- Xali, Katta va kichik Nefut, Suriya), Eronda esa sho'rxok cho'llar (Dashti-Kevir, Dashti-Lut) katta maydonlarni egallagan. Iqlimiy jihatdan regionni shimolini subtropik, katta janubiy qismini esa tropik iqlim mintaqasi egallagan.

Regionning asosiy foydali qazilmasi neft va tabiiy gaz. Jahon neft zaxirasining 2/3 qismi, qazib olishning 1/4 qismi Fors korfazi bo'yi davlatlariga to'g'ri keladi. Neft zahirasi bo'yicha dunyoda Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA yetakchi o'rinda turadi.

Dunyoda topilgan 30 ta ulkan neft konining 15 tasi Fors korfaziga to'g'ri keladi. Gavar (Saudiya Arabistoni), Al-Burxon (Quvayt), Manifa (Saudiya Arabistoni) kabi konlardan sutkasiga 2 ming tonnagacha neft fontan bo'lib otilib chiqadi. Neft quduqlarining umumiy soni 5 ming ta.

Tabiiy gazni qazib chiqarish bo'yicha Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron va BAA davlatlari yetakchi.

Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o'rinda). Kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o'rinda). Oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o'rinda). Mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada. Hidroenergiya resurslariga Afg'oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kiprning O'rta Yer dengizi sohillari tabiiy-rekreasion resurslarga boy. Shuning uchun u yerlarda turizm rivojlangan.

Aholisi . Kavkaz orti davlatlari, Isroil va Kiprdan tashqari barcha davlatlarda demografik portlash, ayniqsa Falastin hududida (yillik o'sish 3,7 %). Aholi soniga ko'ra:

Turkiya (71 mln 2003 yil, 73,7 mln 2006 yil, 74 mln 2007 yil);

Eron (67 mln 2003 yil, 71 mln 2006 yil);

Afg'oniston (29 mln 2003 yil, 31 mln 2006 yil, 32 mln 2007 yil);

Iroq (24 mln 2003 y, 29,6 mln 2006 y, 29 mln 2007 yil);

Saudiya Arabistoni (24 mln 2003 y, 24 mln 2006 y, 28 mln 2007 yil);

Yaman (19 mln 2003 y, 21,6 mln 2006 y, 22 mln 2007y);

Suriya (18 mln 2003 y, 29,5mln 2006 y, 20 mln 2007 yil) kabilar yetakchi.

Baxrayn, Katar, Kipr kabi davlatlarda aholi soni 1mln kishiga etmaydi. Regionning qolgan barcha davlatlarida (Kavkaz orti, BAA, Isroil, Iordaniya, Livan, Amman, Quvayt, Falastin) aholi soni 2,5-8,2 mln (2003 y) kishi oralig'ida.

Tug'ilish koeffitsienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: Yaman (40 %), Afg'oniston (47%), Falastin (33%), Iroq , Saudiya Arabistoni (35%). Dunyo bo'yicha 21%.

Tug'ilish koeffitsienti eng past bo'lgan davlatlar: Gruziya (11%), Kipr (12%), Armaniston, Ozarbayjon (15-18%).

O'lim koeffitsienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: dunyo bo'yicha 9 %. Afg'oniston (21%), Iroq va Yaman (10%).

O'lim koeffitsienti eng past davlatlar: BAA, Quvayt (2%), Baxraynda (3%).

Chaqaloqlar o'limi eng yuqori Afg'onistonda (154%); eng kam Kipr va Isroilda (5%). Dunyo bo'yicha 55%.

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng ko'p davlatlar: Yaman (48%), Iroq (47%), Falastinda (46 %), Saudiya Arabistoni (43 %). Dunyo bo'yicha 30 %.

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng kam davlatlar: Gruziya (20%), Kipr (22 %), Armaniston (24 %).

64 yoshdan yuqori bo'lganlar soni eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar: Gruziya (14 %), Kipr, Katar (11%), BAA (1%), Quvayt (2 %).Dunyo bo'yicha 64 yoshdan o'tganlar 7%.

IYAD salmog'i dunyo bo'yicha 7160 \$ (2001 y). Regionda IYAD eng yuqori : Quvaytda (21500\$), Kiprda (21100\$), eng past: Yaman (730\$).

Aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 46 kishi bo'lgani holda O'rta Yer, Qora va Kaspiy sohillarida 50-100 kishi, baland tog' va cho'llarda 1-10 kishiga to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya darajasi Quvaytda 96 %, Isroilda 92 % , Katarda 80 %, Omanda 13%.

Regionda 21 dan ortiq millionyer shahar va shahar aglomeratsiyalari mavjud. Ular ichida Istambul va Tehron eng yirigidir. (10-20 mln kishi).

Region davlatlari davlat tuzumiga ko'ra mutloq teokratik, konstitutsion, federal monarxiya davlatlariga va respublika davlatlariga bo'linadi.

Aholisining etnik tarkibiga ko'ra Arabiston yarimoroli davlatlari bir millatli, Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston kabi davlatlar esa ko'p millatlidir.

Makka va Madina shaharlari musulmonlar uchun, Yerusolim shahri esa xristian, musulmon va iudaistlar uchun muqaddas joy sanaladi.

Xo'jaligi. Regiondagi Turkiya, Isroil va Kipr davlatlari Osiyoning yangi industrial davlatlari qatoriga kiradi. Ular Yevropa modeli asosida rivojlanmoqda. Yaqin kelajakda Turkiyani Yevropa ittifoqiga kirishi mo'ljallangan. Fors korfazi bo'yi davlatlarida neft-kimyano sanoati, Eronda ko'p tarmoqli iqtisodiyot, Afg'oniston va Yamanda qoloqlik hukmron. Regionda asosiy rivojlangan sanoat tarmog'i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir. Agar dunyo bo'yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Fors qo'ltig'i bo'yida 3,3 ming t. ni tashkil etadi. Fors korfazi bo'yi davlatlari yiliga 800 mln t.dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Uning 1/3 qismi (250 mln t) shu joyda qayta ishlanadi. Eng yirik neftni qayta ishlash korxonalari Saudiya Arabistoni, Eron, Quvayt va BAA da joylashgan. Aynan shu mamlakatlar eksportini 90-95 % ini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi.

Jun-gazlama va ip-gazlama to'qimachiligi Turkiyada, gilam to'qish Eron va Afg'onistonda.

Qora metallurgiya sanoati Turkiya, Eron va Gruziyada, mashinasozlik Turkiya va Isroilda rivojlangan. Janubi- G'arbiy Osiyoning eng yirik sanoat markazlari: Istambul, Tel- Aviv va Tehron shaharlarida; kichikroq sanoat markazlari: Anqara, Izmir, Bog'dod

shaharlarida joylashgan. Mazkur sanoat markazlarini va aholini asosan IES lar, qisman GES lar energiya bilan ta'minlaydi. Eronda AQSH va Yevropa iqtisodi qarshiligiga qaramay AES qurilmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Region mamlakatlarning ko'pchiligi agrar-industrial rivojlanish xususiyatiga ega, shuning uchun ularning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Lekin ko'p mamlakatlarni qishloq xo'jaligi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi. Bunga sabab: mexanizatsiya va kimyodan kam foydalanish, shuningdek suv tanqisligidir. Zamonaviy sug'orish usullaridan Isroil, Suriya, Iroq kabi davlatlar foydalanmoqda. Turkiyada angor echki boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg'onistonda qorako'lchilik rivojlangan. Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalari, g'alla yetishtirish, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va Isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo yetishtirish rivojlangan. Afg'oniston (Shibirgen koni) tabiiy gazni Tojikiston va O'zbekistonga eksport qiladi.

Transporti. Eron, Turkiya, Kavkaz orti davlatlarida temir yo'l transporti, Turkiya, O'rta Yer dengizi bo'ylari va Kavkaz ortida avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. Temir yo'llarning uzunligi Turkiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km.

Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek Eron, Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temir yo'llarning umumiy uzunligi: Afg'onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Baxrayn, Katar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temir yo'llar yo'q.

Janubi-G'arbiy Osiyoda asosan dengiz transporti rivojlangan bo'lib, u tashqi savdoda muhim rol o'ynaydi.

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bendyer-Abbas, Maskad kabilardir. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Tashqi savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya va Xorijiy Yevropa davlatlari.

Asosiy eksporti: neft-gaz, neft- kimyo sanoati mahsulotlari, sun'iy matolar, kraskalar, jun-mato (angorka), xurmo, sitrus, qorako'l, fosforit, kaliy tuzi.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, qorametallurgiya mahsulotlari, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari.

Pul birligi: Iordaniya, Baxrayn, Quvayt, Iroqda – dinar;

Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman, Katar, Eronda – rial;

Livan, Kipr, Suriyada – funt ;

BAA da – dirxam ;

Isroilda – shekel;

Turkiya – lira;

Afg'onistonda – afg'oni.

Mavzu: Kanada

Kanada – Shimoliy Amerikaning shimolida joylashgan. Maydoni 10 mln km² ga yaqin bo'lib, kattaligi jihatidan dunyoda 2-o'rinda turadi. Iqtisodiy geografik

o'rnining qulayligi: 3 tomondan okean bilan o'ralganligi va AQSH bilan chegaradoshligi.

Suvdagi chegaralarini ichida Buyuk ko'llar va San-Lavrentiy daryosining ahamiyati katta. Tinch okeani orqali Osiyo davlatlari bilan, Atlantika okeani orqali Yevropa davlatlari bilan bog'langan.

Kanada tabiiy resurslarga boy. Ayniqsa neft, tabiiy gaz, ko'mir, uran, temir, mis, nikel, polimetall va asbestga boy. Mamlakatni g'arbida baland tog'lar mavjudligi sababli gidroenergiya resurslariga boy. Yirik mahsuldor o'rmon zapaslariga ega.

Aholisi. 1997-yilda 29,8 mln kishi, 2003 yilda 31,6 mln, 2007 yil 33 mln kishi bo'lib, Tug'ilish koeffitsienti 11 ‰, o'lim 7‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 18 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 13 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 78-83 yosh. Aholisining etnik tarkibiga immigratsiya hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Aholisining asosini Yevropadan AQSH ga ko'chib kelganlarning avlodlari tashkil etadi. Kanadalik inglizlar – 45%, Kanadalik fransuzlar – 30%. Etnik gruppalar – 25%, indeyeslar va eskimoslar juda kamchilikni tashkil etadi. Davlat tillari – ingliz, fransuz. Hozirda ham aholisining tabiiy o'sishining ¼ qismi immigratsiya hisobiga bo'ladi. YAMD si 34610\$(2007).

Aholisining zichligi juda past 1 km² ga 2,7 kishi bo'lib, juda notekis joylashgan. Aholisining asosiy qismi (2/3) AQSH chegarasi bo'ylab 300-400 km li polosada yashaydi. Kanada hududining 2/3 qisimni egallagan shimoliy qisimda 20-25 km² joyga 1 kishi to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi yuqori 76%. Millioner shaharlar: Monreal (1060000 kishi).

Kanada hududiga dastlab 1497 yil J.Kabot kelgan, yevropaliklarning ommaviy ko'chib kelishi XVII asrda boshlangan. 1605 yil fransuzlar, 1623 yil inglizlar ko'chib kelgan. 1756-63 yillari Kanada Buyuk Britaniya qo'liga o'tgan. 1867 yildan Kanadaga dominant statusi berilgan. 1931 yildan Angliya hukumati Kanada mustaqilligini tan oldi.

Kanada – 10 ta viloyat, 3 ta territoriyadan iborat bo'lgan federal davlat. Hamdo'stlik tarkibida Kanada NATO va NORAD ga a'zo. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal partiya (1873-yil tashkil topdi).
2. Kanada kommunistik partiyais (1921 yil).

Kanada yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar davlat. Kanadaning "Yettilik" ga kirishiga AQSH monopoliyalari va Buyuk Britaniyaning ta'siri kuchli. Rivojlangan davlatlar ichida chet el kapitalining ko'p kirib kelishi jihatidan 1-o'rinda AQSH turadi. Sarmoyasining 72,1 % ini AQSH kapitali tashkil etadi.

Kanada mineral xom-ashyo ishlab chiqarish va eksport qilishda ham eng katta mamlakatlardan hisoblanadi (xom-ashyoning 80 % i eksport qilinadi). Sanoatining asosiy tarmoqlari: o'rmon, sellyuloza-qog'oz, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati (bug'doy, go'sht), mashinasozlik.

Kanada energetikasining asosini neft va tabiiy gaz tashkil etadi, GES va AES lar ham bor. Kanada neft markazi – Edmonton.

Rangli metallurgiya sanoati asosan chetdan keltirilgan va o'zida ishlab chiqarilgan boksitga asoslangan. Eritilgan alyuminiy asosan AQSH ga eksport qilinadi. 2001 yil

Kanada 550 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqardi. 14 mln t. po'lat eritildi, 56 mln t. ko'mir qazib olindi, 91mln m³ neft, 72 mlrd m³ tabiiy gaz qazib olindi.

Yog'ochsozlik va sellyuloza-qog'oz sanoati eng rivojlangan bo'lib, Kanada 1986-yil 9,2 mln t. qog'oz ishlab chiqardi. Bu sanoatning rivojlanishiga boy xom-ashyo bazasi, arzon suv yo'llari va elektr-energiyasi, shuningdek, jahon bozorida ehtiyojning yuqoriligi sabab bo'lgan. Ishlab chiqarilgan qog'oz va yog'och-taxtaning deyarli hammasi eksport qilinadi.

Kanada mashinasozlik sanoatida asosiy tarmoqlar transport mashinasozligi va qishloq xo'jaligi mashinasozligidir. Ayniqsa avtomobillar, kemalar, teplovozlar. Kanada 1986-yil 1846000 avtomobil, shu jumladan 1550000 (1995-yil) engil avtomobil ishlab chiqarildi (dunyoda 9- o'rin).

Aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish, mehnat unumdorligini va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida Kanada dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Ayniqsa donli ekinlar yetishtirish muhim o'rin tutadi. Masalan, 1987-yil Kanadada 55,8 mln t. don yetishtiriladi. Donli ekinlar asosan janubda va Ko'lbo'yi va Dasht rayonlarida ekiladi. Kanadaning bug'doy poytaxti – Vinnipeg.

Mamlakat maydoni kattaligi sababli temir yo'llar transporti asosiy hisoblanadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 70,5 ming km. temir yo'llar asosan g'arb va sharqni, ichki rayonlarni portlar bilan, AQSH bilan bog'laydi. Avtomobil yo'larning uzunligi 887 ming km.

Ichki suv tansporti ayniqsa dengiz transporti va havo transporti rivojlangan. Eksportning 2/3 qismi xom-ashyolar: bug'doy, o'rmon, o'rmon sanoati mahsulotlari, go'sht, sut mahsulotlari, metallar. Kanada tashqi savdosining 75 % i AQSH ga to'g'ri keladi. Importning asosiy qismini $\frac{3}{4}$ ini tayyor buyumlar: mashina va jihozlar. Pul birligi – Kanada dollari.

Mavzu: Amerika Qo'shma Shtatlari.

AQSH maydoniga ko'ra dunyoda 4- o'rinda turadi (9529 mln km²). U tarkibiga ko'ra 3 qismdan iborat: AQSH ning asosiy qisim, Alyaska, Gavayi orollari. Iqtisodiy geografik o'rni juda qulay. 12 ming km masofada 2 okean orasida joylashganligi, Kanada va Meksika bilan chegaradoshligi va h.k. AQSH ning Karib havzasi (Puerto-Riko, Virgin orollar) va Tinch okeanida (Sharqiy Samoa, Guam) bir qator orollar va vosiylikdagi territoriyalaridan: Marshal, Mikroneziya, Palau kabilar 1990-95 yillari mustaqil davlatlarga aylandi, lekin Mariana orollari hamon vosiy. AQSH ning chekka janubiy subekvatorial, asosiy qismi subtropik, shimoliy qismi mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan. AQSH da barcha foydali qazilmalar uchraydi, ayniqsa toshko'mir, neft, gaz, uran, alyuminiy, mis, oltin va h.k.

Aholisi 266 mln (1998 y), 291,5 mln kishi (2003 y), 302 mln (2007 y) bo'lib, aholi soniga ko'ra dunyoda 3- o'rinda turadi. Tug'ilish koeffisienti 14 ‰, o'lim 8‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 21 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 13 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 75-80 yosh. 1 ayolga 2 bola to'g'ri keladi. YAMD 44260 \$ (2007y).AQSH aholisini asosan Yevropadan ko'chib kelganlar, Afrikadan qul qilib olib kelingan negrlar tashkil etar edi. Hozirda aholisining 95 % ini AQSH da

tug'ilganlar tashkil etadi. Hozirda negr aholi 29,2 mln kishini (12%) ispan tilida so'zlashuvchi Amerikaliklar 17 mln, indeyslar esa 1,4 mln kishini tashkil etadi. Davlat tili ingliz tili.

Ma'lumki, XVI asrda Shimoliy Amerika Ispaniya, Angliya, Fransiya mustamlakasi edi. XVII asrning 1- yarmida negrlar keltirilgan. AQSH – rasmiy jihatidan 1776-yil Angliyaning 13 mustamlakasini birlashishidan tashkil topgan. AQSH da 50 ta shtat va 1ta federal okrug (Kolumbiya) dan tashkil topdi. Aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 31 kishi. AQSH uchun shahar aglomeratsiyalari xos xususiyat bo'lib, hozirda AQSH da 7 ta millioner shahar va 40 ta millioner aglomeratsiyalar mavjud. Ularda AQSH aholisining yarmi yashaydi. AQSH uchun megopolislar xosdir. Davlat tuzumiga ko'ra – AQSH federativ respublika. Ikkinchi jahon urushidan keyin 1990 – yillargacha AQSH dunyoda militarizmning markazlaridan biri bo'lgan va bir qator harbiy-siyosiy bloklarga bosh bo'lgan. Masalan, NATO, SEATO, ANZYUS, SENTO.

AQSH da qonun chiqaruvchi organ – AQSH kongresi, kongres vakillar palatasi va senatdan iborat. Siyosiy partiyalari:

1. Respublikachilar partiyasi.
2. Demokratik partiya.
3. Kommunistik partiya.

AQSH XIX asrning oxiridayoq sanoat mahsulotining hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyadan o'zib ketib dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi va hamon birinchi o'rinda. AQSH sanoatning deyarli barcha sohalari bo'yicha dunyoda yetakchi, ayniqsa aviaraketa – kosmos, hisoblash texnikasi, harbiy, AES lar quvvati va h.k.

AQSH sanoati yuksak darajasi, ishlab chiqarish va xududiy konsentratsiyasi (to'planganligi) bilan ajralib turadi. Masalan, Michigan (avto), Kaliforniya (kosmos), Texas (kimyo), Arizona (makka) va h.k. AQSH da barcha sanoat tarmoqlari mavjud, lekin AQSH sanoatini avvalo avtomobilsozlik, aviaraketa-kosmos, elektrotexnika va neft sanoati belgilaydi.

AQSH qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning hajmiga ko'ra dunyoda yetakchi. Masalan: g'alla yalpi hosilining 1/3 qismi, g'alla eksportining yarmiga yaqini AQSH ga to'g'ri keladi.

AQSH barcha transport turlarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra ham jahonda yetakchi. Uning xarakterli xususiyatlari – transportning barcha turlarini rivojlanganligi, yuk va yo'lovchi tashish hajmining kattaligi, yuklarning uzoq masofaga tashilishi, avtotransportning alohida mavqega ega ekanligi. Masalan: 90-yillarda mamlakatda avtomobillar avtoparklarda 200 mln ga yetdi. AQSH xo'jaligining xozirgi geografik qiyofasi uchun iqtisodining asosan okean bo'yi va ko'lbo'yida to'planganligi xosdir. Misol: uch megopolis mamlakat jami sanoat mahsulotining 60 % ini beradi. Mamlakat xo'jaligining rivojlanishiga tabiiy resurslar xam katta ta'sir etadi. Misol: rivojlangan davlatlar orasida AQSH ko'mir, neft, tabiiy gaz, uran, temir, marganes, oltingugurt, fosforit va gidroenergiya zapaslari jihatidan 1- o'rinda.

AQSH dehqonchiligida asosiy donli ekinlar 1- navbatda bug'doy ekiladi. Bug'doy jami ekin maydonining 2/3 qismiga ekiladi. Bundan tashqari makkajo'xori, oqjo'xori, soya, qand lavlagi, shakar qamish, sabzavot va mevalar muhim o'rin tutadi. AQSH chorvachiligidagi yetakchi yo'nalishlar: sut-go'sht uchun qoramol, cho'chqachilik,

parrandachilik (broyler) keng tarqalgan. 1994-yil AQSH da 101 mln qoramol (3-o'rin), 54 mln cho'chqa, 10,4 mln qo'y bor edi. AQSH qishloq xo'jaligida yiliga 300 mln t. dan ortiq boshoqli va dukkakli don (1986-yil 31,7 mln t) yetishtiriladi. Shu jumladan 1986 –yil 56,8 mln t. bug'doy (O'zbekistonda yiliga 4,5-5 mln t.) 3,7 mln t. paxta tolasi yetishtirilgan. (O'zbekistonda don mustaqilligini ta'minlash uchun 6 mln t. bug'doy kerak).

AQSH da transport tarmoqlarining asosini kenglik va meridional yo'nalishdagi transkontinental magistrallar tashkil etadi. Temir yo'llarining umumiy uzunligi 245 000 km, avtoyo'llar esa 5 mln km. AQSHda tashiladigan jami yukning 18,2 % i dengiz transportida, 25,4 % i avtomobil transportida, 30,3 % i temir yo'l transportida, 16,5 % i quvur transportida, 9,3 % i ichki suv transportida, 0,3 % i havo transportida tashiladi. AQSHda tashiladigan jami yo'lovchining 88,2 % i avtomobil transportida, 0,3 % i temir yo'l transportida, 11,3% i havo transportida, 0,2 % i boshqa transport turlarida tashiladi.

AQSH 1990 yil yiliga 365 mln t neft (dunyoda 2-o'rinda) qazib olgan bo'lsa, 400 mln t. chetdan sotib oldi (sotib olish bo'yicha dunyoda 2- o'rinda Yaponiya 160 mln t.). 90-yillari AQSH 500 mln m³ gaz qazib olgan (dunyoda 2-o'rinda) lekin sotib olishda 1-o'rinda. 860 mln t. ko'mir qazib olgan (dunyoda 2-o'rinda) va chetga sotgan. 55 mln t. temir qazib olgan va chetdan sotib olish hisobiga 98 mln t. (2001 y) po'lat eritgan (2-o'rinda).

Asosiy eksporti: "kapital", mashina va jihozlar, g'alla, ko'mir, sanoat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat, qurol-yaroq, qishloq xo'jaligi texnikalari, samolyotlar (Boing), kemalar, sholi, paxta tolasi, tamaki.

Asosiy importi : neft, tabiiy gaz, temir, shakarqamish, tabiiy kauchuk.

Mavzu: Braziliya Federativ Respublikasi.

Braziliya nafaqat Janubiy Amerikadagi balki yer sharidagi eng ulkan tropik mamlakat. U maydonining kattaligiga (8557 ming km²) ko'ra ham, aholisining soniga (189 mln 2007 y) ko'ra ham dunyoda 5- o'rinda turadi. Braziliya Janubiy Amerika materigining sharqiy va markaziy qismini egallagan. Braziliya Janubiy Amerika materigi maydonining 47 % ini o'z ichiga olgan bo'lib, quruqlik orqali materikning 10 davlati bilan chegaradosh. Iqtisodiy geografik o'rning qulayligi:

- dengiz bo'yida joylashganligi;
- Janubiy Amerikaning barcha davlatlari bilan chegaradoshligi (Ekvador, Chilidan tashqari.)
- AQSH ga yaqinligi, Venesuela va Argentina bilan chegaradoshligi.

Braziliya hududida 50 dan ortiq mineral resurslar uchraydi. Ulardan masalan; temir rudasi qazib olish bo'yicha dunyoda 1-o'rinda (yiliga 160 mln t.). Marganets qazib olishda 5-o'rinda Xrom qazib olishda 8- o'rinda Boksit qazib olishda 5- o'rinda turadi. Ulardan tashqari uran, qalayi, nikel, olmos kabilarni qazib olishda dunyoda yuqori o'rinlarda turadi.

Mamlakat xududi ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi sernam bo'lganligi uchun mamlakatda o'rmonlar (selva, kampos, kaatinga) katta maydonlarni egallagan. Amazoniya o'rmonlarida 25 000 dan ortiq o'simlik turi

uchraydi, shundan 4000 turi daraxtlardir. Bu oʻrmonlar hayvonot dunyosiga ham boy. Braziliya hududining 2/3 qismini oʻrmonlar egallagan. Mamlakat jahonda suv resurslari, agroiklim resurslari bilan taʼminlanganlik darajasiga koʻra dunyoda oldingi oʻrinlarda turadi. Bularning hammasi Braziliyani ulkan iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini koʻrsatib turadi.

Aholisi. Mamlakat aholisi demografik portlashda. Aholisi 176,5 mln (2003y), 187 mln (2006 y), 189 mln (2007 y) kishi. Tugʻilish koeffitsienti 21 ‰, oʻlim 6 ‰ . 15 yoshgacha boʻlganlar jami aholining 30 ‰ ini, 64 yoshdan oʻtganlar 6 ‰ ini tashkil etadi. Oʻrtacha umr 68-76 yosh. 1 ayolga 2,2 bola toʻgʻri keladi. YAMD 8700 \$ (2007y). Aholisining oʻrtacha zichligi 1 km² ga 22 kishi. Aholisining 90% i mamlakat hududining 2/5 qismida yashaydi, yaʼni mamlakatning janubi-sharqida okean sohillarida yashaydi. Mamlakatning ichki, gʻarbiy rayonlarida (Amazoniyada) butun aholining 5 ‰ i yashaydi. Aholining bunday notekis joylashganligiga avvalo tarixiy va iqtisodiy sabablar taʼsir etgan. Aholi Braziliyada yiliga 1,4 ‰ ga oʻsmoqda. Aholisining etnik tarkibi (80 dan ortiq millat va elat) juda murakkab. Yevropaliklarning ajdodlari (portugal, ispan, italyan, nemis) mamlakat aholisining 55 ‰ ini, oraliq emigrant guruhlar (metis, mulat, sambo) 38 ‰ ini, negrlar esa 6 ‰ ini tashkil etadi. Tub joy aholisi Amazoniyada, negrlar esa mamlakatning shimoli-sharqiy rayonlarida koʻp tarqalgan.

Braziliyani 1500-1501 yillar portugal sayyohi Pedru Kobral kashf etgan. Oʻsha davrdan boshlab Braziliyaga Yevropaliklar koʻchib kela boshlagan.

Urbanizatsiya darajasi 80 ‰. Millioner shaharlari 11 ta: San-Paulu (9,4 mln kishi), Rio-de-Janeyro (5,5 mln kishi), Salvador, Belu-Orizonti, Resifi, Portu-AlGeri, Brazilia, Kuritiba, Belen, Manaus, Fortaleza. Agar shahar aglomeratsiyalarini qoʻshib hisoblasak, San-Pauluda 26 mln, Rio-de-Janeyroda 19 mln kishi. Aholisining 89 ‰ i katolik, qolganlari: iuda, protestant. Davlat tili portugal tili.

Braziliya federativ respublika boʻlib, u 26 shtat va 1 ta poytaxt federal okrugidan tashkil topgan.

Qonun chiqaruvchi organi – Milliy Kongress.

Asosiy siyosiy partiyalari :

- 1.Sotsial – Demokratlar partiyasi
2. Demokratik harakatdagi partiya
3. Mehnatkashlar partiyasi
4. Liberal front partiyasi
5. Milliy tiklanish partiyasi.

Braziliya 1500-yildan XIX asrgacha Portugaliya mustamlakasi boʻlib kelgan. 1888-yil qullik bekor qilingan. 1891-yil Braziliya qoʻshma shtatlari tashkil topdi. Braziliya ADT (OAG) BMT, LAIX, LAES va Amazoniya paktiga aʼzo.

Sanoati . Braziliya sanoati ishlab chiqarish xajmiga koʻra dunyoda 1-oʻnlik mamlakatlari qatoriga kiradi. U rivojlanayotgan mamlakatlarning eng yetakchisi, peshqadami, nihoyat tayanchidir.

Braziliya industrial- agrar mamlakatdir. Eng rivojlangan sanoat tarmoqlari: avtomobilsozlik (yiliga 1 mln avto ishlab chiqaradi); samolyotsozlik (“Embrayer”dunyo boʻyicha 17% 3-oʻrin); EHM, mikro va mini kompyuterlar (dunyoda AQSH, Yaponiya va Germaniyadan keyin 4- oʻrinda);

Qora metallurgiya (yiliga 26 mln t. dunyo boʻyicha 7- oʻrin);

Ximiya sanoati (yiliga 30 mln t. neft qazib oladi, chetdan 100 mln t. keltiradi.); kemasozlik, ayerokosmika, o'rmon, engil sanoat tarmoqlari rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan: kofe sanoati, qand-shakar sanoati, konditer, sitrus, kakao, soya yog'i olish, tamaki sanoati kabilar.

Braziliyada yirik harbiy sanoat barpo etilgan. Hozirda fantalab sanoat tarmoqlari tez rivojlanmoqda. Dunyodagi eng yirik GES lar (Chitayku, Tukurui, Ksinda) shu mamlakatda qurilgan.

Braziliyada qishloq xo'jaligi yuksak rivojlangan bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish xajmi bo'yicha u dunyoda 3- o'rinni egallaydi. Braziliya dunyoda shakarqamish yetishtirish bo'yicha (yiliga 250 mln t.), kofe hamda, banan yetishtirish bo'yicha 1-o'rinda, soya va apelsin yetishtirish bo'yicha AQSH dan keyin 2- o'rinda turadi. Paxta tolasi yetishtirish bo'yicha Braziliya dunyoda 6- o'rinda (yiliga 800 ming t.) turadi. Sholi yetishtirish bo'yicha esa butun Amerika qit'asida 1- o'rinda (yiliga 10 mln t.) turadi. Braziliyada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatda 125 mln qoramol, 32 mln cho'chqa, 28 mln qo'y va echkilar bor. Mamlakatdagi qishloq xo'jaligi yerlarining 80% i latifundistlar qo'lida.

Braziliyada aholi va xo'jalikning joylashuvida okean bo'yi tipi yaqqol ko'zga tashlanadi. Eni 300-350 km li okean bo'yi mintaqasida, ya'ni tashqi Braziliyada butun mamlakat ishlab chiqarishi va aholisining 90% i to'plangan. Mamlakatning sanoat uchburchagi hisoblangan San-Paulu , Rio- de- Janeyro va Belu-Orizonti shaharlari tashqi Braziliyada joylashgan.

San-Paulu shahri Braziliyaning iqtisodiy poytaxti bo'lib, Lotin Amerikasining qolavyersa, butun Janubiy Yarim sharning bosh sanoat rayonidir. "Osmono'par binolar" ko'pligi uchun uni "Lotin Amerikasining Nyu -Yorki" deb atashadi. San-Paulu XIX asrning o'rtalarigacha kichkina viloyat markazi bo'lgan, so'ngra Yevropa va Yaponiyaliklarning ommaviy ko'chib kelishi natijasida shahar juda tez o'sdi.

Rio-de-Janeyro mamlakatning eng yirik port, bankir va turizm shaharidir. U 1960-yilgacha mamlakat poytaxti bo'lib kelgan. Shaharda Isus Xristosning 40 metrli haykali va dunyodagi eng katta "Mrakana" futbol stadioni joylashgan. XX asrning 2-yarmidan boshlab Braziliyada Amazoniyani o'zlashtirishga qaratilgan regional siyosat yuritilmoqda. Mazkur siyosat bo'yicha mamlakat poytaxti Rio-de -Janeyrodan Braziliaga ko'chirildi va Transamazoniya avtomobil yo'li (5,5 ming km) qurilib ishga tushirildi.

Transporti. Asosiy transporti avtotransport bo'lib, mamlakatda avtoyo'llarning umumiy uzunligi 1,3 mln km ga teng. Temir yo'llarining umumiy uzunligi 30 ming km. Dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Eng yirik dengiz portlari: Rio-de- Janeyro, Santos, Itaki, ular universal portlar. Eng yirik ruda eksport qiluvchi porti – Tubaran. Bulardan tashqari: Forta- Leza, Salvador, Port – Alegri kabilar mavjud.

Asosiy eksporti: po'lat, temir, alyuminiy, qalayi, transport jihozlari, kofe, soya, apelsin, shakar, tamaki, teri, go'sht, to'qimachilik buyumlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, neft, ko'mir, mineral o'g'itlar, bug'doy, oziq-ovqat, ximiya sanoati mahsulotlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari, EI (ES), Osiyo davlatlari. Pul birligi – real.

Mavzu: Argentina Federativ Respublikasi

Argentina – Janubiy Amerikaning janubi-sharqidagi davlat. Maydoni 2,8 mln km² Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi sharqiy tomondan katta masofada okean sohilida joylashganligidir. Ayni vaqtda AQSH ga yaqinligi va Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlati Braziliya bilan chegaradoshligidir.

Tabiiy sharoitiga ko'ra Argentinaning shimoliy qismi tropik, markaziy qismida katta masofada subtropik, janubiy qismida esa mo'tadil iqlim mintaqalari joylashgan. Argentinaning janubiy qismida Pategoniya o'lkasi (plato), markazida Pampa, shimolida esa Gran-Chako o'lkalari joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismini esa La-Plata pasttekisligi egallagan. Mamlakat hududining shimolida janubiy tropik chizig'i kesib o'tgan. Amerika qit'asidagi eng baland tog' cho'qqisi Akankagua (6960 m) Argentinada joylashgan.

Foydali qazilmalardan asosan neft va tabiiy gazga boy, ulardan tashqari toshko'mir, uran, temir, polimetall, oltingugurt konlari bor.

Aholisi 35 mln kishi (1996-yil), 36,9 mln kishi (2003-yil), 39 mln kishi (2006 yil). Tug'ilish koeffitsienti 19 ‰, o'lim 8 ‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 31 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 9 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 71-79 yosh. 1 ayolga 2,5 bola to'g'ri keladi. YAMD 10980 \$ (2007y). Aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, ular asosan La- Plata pasttekisligida joylashgan. Pategoniyada aholi juda siyrak. Etnik tarkibiga ko'ra argentinlar, ispan, italyan va Yevropaliklarning avlodlari hisoblanadi. Eng yirik shahari Buenos-Ayresda 10,8 mln aholi yashaydi, Kordova (1,1 mln). Aholisining ko'pchiligi katolik mazxabiga e'tiqod qiladi. Davlat tili ispan tili. Argentina – 1816-yil 9-iyul kuni mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Unga qadar Ispaniya mustamlakasi bo'lib kelgan. 1982-yil aprel-iyun oylari Malvin (Folklend) orollarida Angliya-Argentina qurolli kuchlari to'qnashuvi bo'lgan va xanuz bu joylar munozaraligicha qolib kelmoqda.

Argentina – LAES , LAIX tashkilotlariga a'zo.

Argentina – federativ davlat bo'lib, 23 provinsiya, 1 milliy territoriya va 1 ta federal okrugini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaga binoan qonun chiqaruvchi oliy organ – milliy kongress va ijrochi xokimiyatdan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Grajdan radikal ittifoqi (1891-yil)
2. Murosasizlar partiyasi (1963-yil)
3. Xristian demokratik partiyasi (1954-yil)
4. Sotsialistik partiya (1986-yil)
5. Argentina kommunistik partiyasi (1918-yil).

Argentina Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlatlardan biri. Argentina ekonomikasiga AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniyaning kapitali kuchli ta'sir etadi. Asosiy rivojlangan sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, qora metallurgiya, mashinasozlik, ko'n poyabzal, rangli metallurgiya tarmoqlaridir. Yirik sanoat markazlari: Buenos-Ayres, Kordova, Rosario.

1987-yil mamlakat 2,7 mln t. cho'yan, 3,4 mln t. po'lat, 2,7 mln t. prokat ishlab chiqargan. 184 ming avtomobil ishlab chiqargan. 47 mlrd kVt/s elektr –energiyasi hosil qilgan.

Qishloq xo'jaligi asosan La-Plata pasttekisligida rivojlangan. Donli ekinlar yetakchi o'rin tutadi, ayniqsa makkajo'xori va bug'doy. 1986-87 yillar mamlakatda 32 mln t. don yetishtirildi. Bulardan tashqari mamlakat shimolida paxta, shakarqamish, sholi, tamaki, sitrus kabilar yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, u asosan Pategoniyada, pampaning g'arbiy qismida va tog'li rayonlarda yaxshi rivojlangan. Ma'lumki, Argentina jahonda XGMT da jun teri, go'sht eksport qiluvchi mamlakat sifatida tanilgan. Argentinadagi eng rivojlangan sanoat tarmog'i ko'n – poyabzal sanoati bejiz rivojlangan emas. Ma'lumki, Argentina maydoniga ko'ra jahonda 1-o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi.

Maydoni yirik bo'lganligi sababli Argentinada temir yo'llar transporti yaxshi rivojlangan. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 39,8 ming km ni tashkil etadi. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 54,6 ming km ga teng. Havo transporti ham yaxshi rivojlangan bo'lib, 10 ta xalqaro aeroport bo'lgan. Pul birligi – peso, real.

Asosiy eksporti: don, go'sht, jun, vino, mevalar va sanoat mahsulotlari chiqariladi.

Asosiy importi: mashinalar, asbob-uskunalar, yoqilg'i, ximiya mahsulotlari, elektr stansiyalar uchun jihozlar.

Tashqi savdosi asosan AQSH, Horijiy Yevropa, Yaponiya, MDH ga to'g'ri keladi.

Mavzu: Janubiy Afrika Respublikasi.

Bu mamlakat Afrika materigining chekka janubida joylashganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Maydoni 1,222 ming km². Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi: dengiz bo'yida joylashganligi, muhim dengiz yo'llari ustida joylashganligi. Janubiy Afrika Respublikasi iqlimiy jihatdan asosan tropik va qisman subtropik mintaqalarda joydashgan. Mamlakat hududida Drakon, Kap tog'lari joylashgan. Asosiy daryosi Oranjevaya. Janubiy Afrika Respublikasi quruqlik orqali Namibiya, Botsvana, Zimbabve, Mozambik, Svazilend davlatlari bilan chegaradosh. Lesoto davlati orol ko'rinishida to'liq Janubiy Afrika Respublikasini ichida joylashgan.

Janubiy Afrika Respublikasi foydali qazilmalarga boy. Asosiy qazilma boyliklari: temir rudasi qazib olish bo'yicha dunyoda 9- o'rinda (yiliga 30 mln t. va 3/4 qismini Yevropaga eksport qiladi.).

Marganets va xrom qazib olishda dunyoda 1- o'rinda;

Nikel qazib olishda 6- o'rinda;

Mis qazib olishda 10- o'rinda;

Fosforit qazib olishda 6- o'rinda;

Oltin qazib olishda 1- o'rinda (yiliga 630 t.)

Ko'mir qazib olishda 8- o'rinda (yiliga 180 mln t. qazib oladi, Yevropa va Yaponiyaga eksport qiladi). Olmos, platina va uran qazib olishda 1- o'nlikka kiradi.

Aholisi soni 44 mln kishi (2003 yil), 47,3 mln kishi (2006 yil), 48mln(2007 y) bo'lib, u demografik tanglikda. 2003 yil ma'lumoti bo'yicha Janubiy Afrika Respublikasida tug'ilish koeffisienti -23%, o'lim 15%. Agar aholining tabiiy ko'payishi shu xolatda ketsa, 2025 yil aholi soni 35 mln kishiga tushib qoladi. Chaqaloqlar o'limi 57%. 1 ayolga 2,8 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar soni

34 %, 64 yoshdan o'tganlar 5% . o'rtacha umr 49-53. YAMD butun Afrika materigi bo'yicha o'rtacha 2120 \$. Janubiy Afrika Respublikasida eng yuqori 11710 \$ (2007 y) ni tashkil etadi. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan aholining 20 % i "VICH" bilan zararlangan. Bu ko'rsatkich Afrika materigida 6,5 % ni, butun dunyoda esa 1,2 % ni tashkil etadi. Botsvanada eng yuqori 39 %.

Aholisining 4/5 qismini tub joy xalqlari (zumus, bantu, bur, kasa), 12 % ini oq tanlilar (ingliz, golland, fransuz), qolganini Osiyodan ko'chib kelganlar va mulatlar tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km² joyga 39 kishi. Urbanizatsiya darajasi 45 % . Hayot darajasi o'rtacha. Millioner shaharlari yo'q, lekin millioner aglomeratsiyalari mavjud: Yo'xannesburg, Keyptaun, Durban, Pretoriya.

Davlat tili afrikans va ingliz.

Janubiy Afrika respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatdan 9 ta provinsiyadan tashkil topgan. Federativ respublika. Kap xududini dastlab 1662 yil gollandlar bosib olgan, XIX asr boshida esa inglizlar bosib olgan. 1961-yildan boshlab Janubiy Afrika respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan. Janubiy Afrika respublikasi 1915-92 yillar Namibiyaning mustamlakasi qilingan. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Millatchilar partiyasi (1948 yil).
2. Konservativ partiyasi (1982-yil)
3. Progressiv – federal partiyasi

Davlat boshlig'i prezident, boshqaruv organi esa 3 palatali parlamentdan iborat. Janubiy Afrika respublikasi rivojlangan industrial – agrar ko'chirma kapitalizm davlatidir. U Afrika xududining 4,1 % ini egallagan, aholisining 6 % ini o'z ichiga olgani holda, butun Afrikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotini 40% ini, po'latni 80 % ini beradi. Qit'adagi jami temir yo'llarning 1/3 qismi, avtomobillarning deyarli yarmi Janubiy Afrika Respublikasiga to'g'ri keladi.

Vitvatersrant rayoni nafaqat Janubiy Afrika respublikasini, balki butun afrikaning eng yirik sanoat rayonidir. Bu rayon "Afrika Ruri" nomini olgan. Janubiy Afrika respublikasining iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg shu rayonda joylashgan bo'lib, eng yirik va zamonaviy shahar. Vitvatersrant rayoni – toshko'mir, uran, oltin, platina, xromid, olmos, asbest konlari asosida tashkil topgan.

O'tgan XX asrda 100 yildan ortiq vaqt davomida JAR iqtisodini asosini oltin qazib olish tashkil etadi. Olmos qazib olish va uni zaxirasi bo'yicha JAR dunyoda 5-o'rinda turadi. Afrikada birinchi olmosni 1869 yil hozirgi Kimberli shahri o'rnidan bir cho'pon bola topgan. Shuning uchun tarkibida olmos bo'lgan tog' jinsi kimberlit deyiladi. 3 t. kimberlitdan 1 karat (0,2 gr) olmos olinadi. Dunyoda qazib olinayotgan barcha olmosning (yiliga 100 mln karat) 10 % i JAR ga tegishli. JAR yiliga 3,5 ming t. uran qazib oladi va bu soha bo'yicha u dunyoda Kanada va AQSH dan keyin 3- o'rinda turadi.

Mamlakatda yiliga 3,5 mln t. xrom rudasi, 3,7 mln t. marganes, 10 mln karat olmos va boshqa foydali qazilmalar qazib olinadi.

JAR da yiliga 100 mlrd kVt/s elektr energiyasi hosil qilinadi. Uning asosiy qismini Vitvatersrand rayonidagi IES lar va Keyptaun AES i beradi. Asosiy sanoat tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, ximiya, engil, oziq-ovqat sanoatlari.

Yirik sanoat markazlari: Yoxannesburg, Pretoriya, Keyptaun, Durban, Ist-London, Port- Elizabet, Nyukasl.

JAR ni barcha hududini birday iqtisodiy rivojlangan deb bo'lmaydi. Chunki, "aparteid" (alohida rivojlanish) siyosiy chuqurlashgan davrda, ya'ni 1976-1981 yillar sovuq rezervatsiyalar o'rnida 10 ta "qoralar mustaqil davlati" yoki bandustan tarkib topgan. U yerlarda sosan "qora tanlilar" yashaydi. Yerlari kam unum, qishloq xo'jaligi esa kam mahsul. Yirik shaharlari yo'q. JAR dagi unumdor yerlarning 87 % i oq tanlilarga qaraydi.

Shunday qilib, JAR xo'jaligida iqtisodiy rivojlangan mamlakatni ham, iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatni ham ko'rish mumkin. Shuning uchun JAR iqtisodi 2 yoqlama mamlakat deyiladi. Qishloq xo'jaligida asosiy o'rinda dehqonchilik turadi. Mamlakatda yiliga 15 mln t. g'alla yetishtiriladi. G'allaning 4/5 qismini makkajo'xori tashkil etadi. JAR da yiliga 2 mln t. bug'doy, 500 000 t. sargo yetishtiriladi. G'alladan tashqari yana yeryong'oq, tamaki, kungaboqar, paxta, sitrus mevalari ham yetishtiriladi.

JAR da 13 mln bosh qoramol, 31 mln bosh qo'y, 1,5 mln bosh cho'chqalar boqiladi. Chorvachilikning bunday rivojlanishida yevropaliklarning roli yuqori.

Transporti. Avtomobil transporti mamlakat ichkarisida yo'lovchi va yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 40 ming km. Temir yo'llarning yuk tashishdagi roli yuqori. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 23 ming km dan ortiq.

Havo transporti yaxshi rivojlangan bo'lib, eng yirik universal porti Durban porti, eng yirik ko'mir va ruda eksport qiluvchi mahsus porti Richards- Bey portidir. Mazkur portlardan yiliga 50100 mln t. yuk o'tadi. Port-Elizabet va Keyptaun portlari kichikroq portlardir.

Asosiy eksporti temir, marganes, xrom, nikel, oltin, mis, fosforit, ko'mir, uran, olmos, makkajo'xori, chorva mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, ximiya sanoati mahsulotlari, bug'doy, sanoat buyumlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya.

Pul birligi – rand.

Avstraliya Ittifoqi.

Avstraliya so'zi "janubiy" ma'nosini bildiradi. Haqiqatan ham u janubiy Yarim sharda joylashgan. Eng kichik materik. Maydonining kattaligiga ko'ra u dunyoda 6-o'rinda turadi (7,750 000 km²). Avstraliya maydoni shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan sharqqa 4100 km ga cho'zilgan. Iqtisodiy geografik o'rnida uning AQSH, Yaponiya, Horijiy Yevropa davlatlaridan uzoqda joylashganligi noqulayroq. Masalan: AQSH dan 11-15 ming km uzoqda joylashgan. Lekin hozirgi zamonaviy dengiz va havo transporti bu to'siqqa barxam bermoqda.

Avstraliya iqlimiy jihatidan subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarda joylashgan. Iqlimi quruq tropik, sharqiy sohillari esa nam tropik. Buning sabablari : Asosiy daryosi Murrey (Darling bilan).

Foydali qazilmalarga boy. Asosan temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, ko'mir kabilar. Masalan:

Temir rudasi qazib olishda dunyoda 2-o'rinda (yiliga 110 mln t.);

Marganets qazib olishda 4-o'rinda;

Boksit qazib olishda 1- o'rinda;
Nikel qazib olishda 3-o'rinda;
Qalayi va rux qazib olishda 2-o'rinda;
Mis qazib olishda 9-o'rinda.
Ko'mir qazib olishda 6-o'rinda (yiliga 210 mln t.)
Olmos qazib olishda 1-o'rinda turadi.

Aholisi 19,9 mln (2003 y), 20,6 mln (2006 y), 21 mln (2007 y) kishi yashaydi. Tug'ilish koeffisienti 13 ‰, o'lim 6 ‰. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 20 ‰ ini, 64 yoshdan o'tganlar 13 ‰ ini tashkil etadi. O'rtacha umr 79-83 yosh. 1 ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. YAMD 31860 \$ (2007y).

Avstraliyani 1606 yil golland sayyohi V. Yanszon kashf etgan. Yevropaliklar XVIII asr oxiridan (1788 yil Sidneyga) ko'chib kela boshlagan. Aholisining 77 ‰ ini Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari, qolganini Yevropaning boshqa xalqlari, metislar va aborigenlar (50 000 kishi) (250 ming kishi aborigen va metislar) tashkil etadi. Aholisining tabiiy ko'payishi past. Aholisining hozirgacha migratsiya (yiliga 100-150 ming) katta ta'sir etmoqda. Aholisining o'rtacha zichligi 3 kishi bo'lib, u juda notekis joylashgan. Masalan: avstraliya maydonining 65 ‰ ida mamlakat aholisining 1 ‰ i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10 ‰ maydonida 91 ‰ aholi yashaydi. Eyr ko'li atrofida doimiy aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1 km² joyga 250 tagacha odam to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 86 ‰ (91%) tashkil etadi. Millioner shaharlari 5 ta: Sidney (3,7 mln), Melbrun, Brisben, Pert, Adelida.

Avstraliya hududidan Buyuk Britaniya dastlab surgunchilar uchun joy sifatida foydalangan. XIX asrning 50-60 yillarida oltin konlarini ochilishi avstraliyaga aholini kelishini kuchaytirdi. 1901 yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib Avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931 yildan boshlab Avstraliya mustaqillik statusini oldi. Avstraliya ittifoqi – federativ davlat bo'lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta xududdan tashkil topgan. Buyuk britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Avstraliya leyboristik partiyasi (1891 yil).
2. Avstraliya milliy-agrar partiyasi (1916 yil).
3. Avstraliya sotsialistik partiyasi (1972 yil tashkil topgan).

Avstraliyani jahonda tutgan o'rni: maydonining 5,2 ‰ ini, aholisining 0,3 ‰ ini, IYAD ni 1,2 ‰ ini, eksport mahsulotlarining 1,1 ‰ ini o'z ichiga oladi.

Avstraliyada mahalliy xom-ashyolarga asoslangan holatda tog'-kon sanoati, metallurgiya mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Avstraliyada AES lar yo'q. Asosan IES lar qisman GES lardan yiliga 200 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Mamlakatda yiliga 30 mln t. dan ortiq neft qazib olinadi. lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun OPEK davlatlaridan neft sotib olinadi. 30 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi. Yiliga 240-250 mln t. ko'mir qazib oladi (Nyukasl, Yangi J.Uels) va ortiqchasini asosan Yaponiya va Horijiy Yevropaga eksport qiladi. Mamlakatda yiliga 10 mln t. atrofida po'lat quyiladi. 300 ming donadan ortiq engil avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Yengil sanoatining ip-gazlama, jun-gazlama va ko'n-poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Eng yirik to'qimachilik korxonalari Sidney, Adelida, Melburn, Pert shaharlarida joylashgan. Neftni qayta ishlash va baliq konserva sanoati dengiz bo'yidagi port shaharlarda rivojlangan. Eng yirik sanoat markazlari: Sidney va Melburn; yiriklari: Brisben, Adelida, Pert, Kanberra, Nyukasl.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakatda 500 mln gektardan ortiq yerlardan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligidagi yetakchi tarmoq chorvachilikdir. Avstraliyada 30 mln bosh qoramol, 150 mln bosh qo'y (Xitoydan keyin 2-o'rinda), 2,5 mln bosh cho'chqa boqiladi. Mamlakatda yiliga o'rtacha 4 mln t. go'sht, 8 mln t. sut tayyorlanadi. Avstraliya "shipsteynz"larida merinos qo'ylari boqiladi.

Mazkur davlatda yiliga 800 000 t.dan ortiq mayin qimmatbaho jun yetishtiriladi.

Avstraliyada yiliga 20 mln t. dan ortiq g'alla yetishtiriladi, uni 16 mln t. sini bug'doy tashkil etadi. Avstraliya bug'doy eksporti bo'yicha dunyoda AQSH, Kanada, Fransiyadan keyin 4-o'rinda turadi. Bug'doyni asosan Xitoy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlariga eksport qiladi. Avstraliyada yiliga 200 000 t. dan ortiq paxta tolasi yetishtiriladi. Paxta yetishtirish bo'yicha avstraliya dunyoda 10-o'rinda turadi. Paxta tolasi avstraliyani o'zida qayta ishlanadi.

Transporti. Avstraliya jahonda temir yo'llarning uzunligi bo'yicha (6-o'rin) ham, avtoyo'llarning uzunligi bo'yicha ham 1- o'nlikka kiradi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 41 ming km, avtoyo'llarning uzunligi 900 000 km. mamlakat ichida yuk va yo'lovchi tashishning $\frac{3}{4}$ qismi avtotransportga to'g'ri keladi. Yuk aylanmasining asosiy qismi dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Eng yirik universal dengiz portlari: Sidney, Pert, Gladston, Dampir. Ko'mir va ruda porti port-Xedlend.

Tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd \$ ni tashkil etadi. Uning 60 % i eksportga, 40 % i importga to'g'ri keladi. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Buyuk Britaniya. Keyingi paytlarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tashqi savdodagi o'rni o'sib bormoqda.

Asosiy eksporti: ko'mir, tabiiy gaz, temir, alyuminiy, uran, mis, nikel, marganets, bug'doy, shakarqamish, engil sanoat mahsulotlari, charm, go'sht, sut, yuqori texnologiya sanoat mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, sanoat mahsulotlari, neft, ximiya sanoati mahsulotlari.

Pul birligi – Avstraliya dollari.


INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.

Global muammolar olimlar siyosiy arboblardan va keng jamoatchilikning diqqat markazida turadi. Global muammolarni regional miqyosda yechib bo'lmaydi, ularni dunyoviy miqyosda o'rganiladi va yechimi topiladi.

Global muammolar deb shunday muammolarga aytiladiki, ular ko'lamli jihatdan butun dunyo, butun insoniyatni qamrab olib, uning hozirgi va kelajagi uchun havf tug'diradi hamda o'zlarining yechimi uchun barcha davlatlar va xalqlar kuchlarining birlashuvi, birgalikda jipslashib harakat qilishini talab etadi.

Global muammolar insoniyat oldida asosan XX asrning II yarmida juda ko'p va murkkab vaziyatlarni yuzaga keltirdi.

Global muammolar o'zaro bir – biriga ta'sir etib quyidagi uchburchakni hosil qildi, yani:



Global muammolarning soni taxminan 40 – 50 ta bo'lib, ular ichida asosiy eng muhimlari 9 ta:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi.
2. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi.
3. Ekologik muammo.
4. Demografik muammo.
5. Energetik muammo.
6. Xomashyo muammosi.
7. Oziq – ovqat muammosi.
8. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.
9. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.

Mazkur global muammolar ichida eng muhimi rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosidir. Bu qoloqlikning asosiy ko'rinishi kambag'allik va qashshoqlikdir. Jahondagi mavjud mamlakatlarning 30 % qoloq hisoblanadi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining 40 % mutloq qashshoq yashaydi. Natijada siyosiy beqarorlik ijtimoiy tengsizlik dininy va irqiy ziddiyatlarni keltirmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq – ovqat muammosi eng ayanchli hatto fojiiyaviy xususiyatga ega. Ocharchilik, qoloqlik va kambag'allik mahsulidir. Hozirda 70 dan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlar oziq – ovqatni faqat chetdan keltiradi. To'yib ovqat yemaslik va ochlik bilan bog'liq kasalliklar, toza suv yetishmasligi natijasida rivojlanayotgan mamlakatlardan yiliga 40 mln odam dunyodan o'tadi. Uning 18 mln bolalardir.

Qashshoqlik XX asr o'lati nomini olgan SPID kasalini tropik Afrikada eng ko'p tarqalishiga sabab bo'ldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining ayniqsa shaharlarda keskin ko'payib ketishi kuzatilmoqda (qashshoq urbanizatsiya yoki soxta urbanizatsiya).

Dunyo bo'yicha 500 mln dan ortiq qochoqlar bo'lib, ularning asosiy qishmi rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ri keladi.

BMT ning 1974 yilgi qabul qilgan dasturiga ko'ra XXI asrda dunyoda birorta odamni och uxlamasligi ko'zda tutilganidir. Lekin dunyo aholisining 30 % surinkasiga to'yib ovqat yemayapti. Eng qashshoq sharoitda yashovchi aholi soni 1,3 mlrd dan oshdi.

Urush va tinchlik muammosi XX asrning II yarmidan 80 – 90 yillargacha insoniyatga yuqori havf soldi. Bunda sobiq kapitalistik G'arb va sobiq sotsialistik Sharq o'rtasida “soviq urush” hatto yadro atom urishi havfi kuchaydi. Ikki qarama – qarshi harbiy siyosiy bloklar Nato va Varshava shartnomasi orasidagi “savuq urush” munosabatlariga XX asrning 90 yillarida barham berila boshladi. Dunyoni katta harbiy qudratlarga ega bo'lgan davlatlarda asosan AQSH va ROSSIYA o'rtasida tinchlik va qurolsizlanish ishlari amalga oshirila boshladi.

Demografik muammo rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug'ilish va aholining tabiiy o'sish koefisienti bilan bog'liq. Dunyoda 230 ta davlat va hududlar bo'lsa uning asosiy qismini ya'ni 170 tasini rivojlanayotgan mamlakatlar tashkil etadi. Jahon aholisining demografik portlashi XX asrning 60 yillarida eng yuqori cho'qqisiga yetgan. O'sha yillar dunyo aholisi soni yiliga o'rtacha 2 % ko'paygan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib dunyo aholisining yillik o'sishi 1,2 % ga tushib qoldi. Hozirda demografik portlash Afrika, Horijiy Osiyo va Lotin Amerikasida hamon yuqari.

Ekologik muammo XX asrning 40 yillaridan boshlab tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi “modda almashinuvi” ko'plab marta o'sdi hamda global miqyosga yetdi. Yer yuzidagi bir qancha mamlakat va regionlarda ekologik vaziyat juda tanglashib ekologik tanazzulni (inqirozni) yuzaga keltirdi. Ekologik muammolar taranglashgan hududlar: Reyn – Rur aglomeratsiyasi, yuqori Sileziya va Yevropaning bir qator sanoat rayonlarida, Buyuk ko'llar bo'yida, Sansan megapolisida, Tokaydo megapolisida, Xitoyda, Rossiyaning muhim sanoat rayonlarida atmosfera, gidrosfera, litosfera jiddiy zararlandi. Uning salbiy oqibatlari quyidagi holatlarda ko'rinadi: “Issiq xona” samarasi, Ozon “tuynigi”, cho'llanish, kislotali yomg'irlar va

Ekologik muammoni yechishning bosh yo'li – bu odamlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining shunday tashkil qilishdan iboratki, u atrof muhitni butun insoniyat va har bir inson manfaati uchun ekologik jihatdan normal rivojlanishi o'zgartirilishini taminlasin.

Energetika muammosi birinchi marotaba XX asrning 70 yillarida qayt etilgan ya'ni neft gaz kabi yoqilg'ilarning zahirasi kamayishi iste'molning keskin ortishi kuzatilgan. Uning ta'siri hozirgacha sezilmoqda. Shuning uchun insoniyatni noodatiy energiya manbalariga bo'lgan intilishi tobora ortib bormoqda. Insoniyat mineral resurslardan ilgarigiga nisbatan ko'proq ratsional foydalanilmoqda.

Barcha mineral foydali qazilmalar tugaydigan lekin qayta tiklanmaydigan bo'lganligi uchun ulardan samarali, to'liq va oqilona foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

FAO ma'lumotiga ko'ra insonning bir kunlik oziq – ovqat normasi 2400 – 2500 kkal dan past bo'lmasligi kerak. Kuniga 70 – 700 gr oqsil istemol qilish kerak lekin BMT ma'lumotiga ko'ra insoniyatning 2/3 qismi oziq – ovqat yetishmaydigan mamlakatlarda yashashmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun dehqonchilik, baliqchilik, chorvachilikni yanada rivojlantirish kerak. Oziq – ovqat muammosini yechimini 2 – yo'li mavjud:

1. Ekstensiv yo'l
2. Intensiv yo'l

Bunda intensivlashtirishi va “yashil inqilob” dan foydalanish oziq – ovqat muammosini halq qilishni asosiy yo'li hisoblanadi.

Dunyo okeanidan oqilona foydalanish muammosi. Ma'lunki dunyo okeani yer yuzasining 71 % ni egallagan. Dunyo okeani xazinalar konidir. Okeanning asosiy boyliklari quydagilar:

- Okean suvida 75 xil kimyoviy elementlarni ayniqsa tuz, yod, magniy, brom kabilarning uchrashi.

- Okean shelfida mineral resusrlarga boyligi ayniqsa neft va gazga.

- Okeanni energetika resusrlariga ya'ni qalqish energiyasiga boyligi.

- Okeanni biologik resusrlari yani suvda yashovchi hayvonlar va o'simliklarga boyligi.

Jahon dengiz xo'jaligida 100 mln dan ortiq kishi band bo'lib uning transport ahamiyati yuqori.

Dunyo okeanidan foydalanish muammosini yechishning asosiy yo'li- okean tabiati va tabiiy resurslaridan oqilona to'g'ri va hamjihatlikda foydalanishdir.

Kosmosni tinch maqsadda o'zlashtirilishi.

Kosmos insoniyatning umumiy boyligi hisoblanadi. Kosmik dasturlar ko'plab mamlakatlar va xalqlarning texnikaviy iqtisodiy va aqliy imkoniyatlarini jiplashtirishni talab etadi. Shu sababli 1978- yili xalqaro “Interkosmos” dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturga muvofiq jahonning 15 dan ortiq mamlakatlari kosmonavftlari birgalikda faoliyat ko'rsatishmoqda. “Sovuq urush” davridagi kosmosni harbiylashtirish dasturlaridan voz kechilinmoqda. Endilikda kosmosdan radio, televideniya, ob- havo xizmati, turli xil falokatlarni oldini olish kabi sohalarda keng foydalanilmoqda.

Ma'lumki kosmosga birinchi sun'iy yo'ldosh 1957- yili 4- oktabrda uchirilgan, birinchi inson 1961- yili 12- aprelda Yu. Gagarin uchirilgan. Har ikkala sun'iy yo'ldosh sobiq SSSR ga tegishli bo'lgan. Hozirda kosmosda minglab sonda sun'iy yo'ldoshlar bo'lib, ular yangi axlat turi ya'ni “kosmik musor” (120000 dan ortiq) ni shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Eng ko'p sun'iy yo'ldoshlarga ega bo'lgan davlatlar: AQSh, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabilar.

Global muammolar.

Insoniyatning global (dunyoviy,sayyoraviy,umumjahon,xalqaro) muammolari.

1. Tinchlik va quolsizlanish.

Taxminan 14,5ming marta urush bo'lgan 3,5mlrd odam o'lgan. 1980 yili qurollanishga 1trln AQSH dollari sarflagan.

2.Ekologik “chiqindini kosmosga” uglerod oksidi sulfat gazi (Tursunzodada G gazi, mol tishi, anor guli) SO₂ni atmosferada ko'payib borishi havo haroratini 3-4⁰ga ko'taradi. +2⁰C isisa muz erib yarim metr suv bosadi,iqlim o'zgaradi.

Atmosferasi uglerod oksidi bilan eng ko'p ifloslangan davlatlar: Yaponiya (2,9 ming t. 1 km² hududga), Germaniya (2,5), Buyuk Britaniya (2,4), Fransiya (0,7), AQSH (0,5), Rossiya (0,1), Xitoy (0,3).

3.Demografik. BMT tomonidan oilani rejalashtirish.Dunyo aholisining o'sishi 60 yil-2%, 80 yil-1,6%, asr oxiriga borib 1,5%, 2100 yilllar-1,2%.

Aholi-ekologiya-iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish.

Energetika va xom-ashyo muammolari.

Mazkur muammo kelib chiqishini 1-sababi jahon xo'jaligini energetika va xom-ashyoga nisbatan “ishtahasini” juda oshib borayotganligidir.

Masalan: XX asrda qazib olingan butun ko'mirning 40%, temirning 55%, neft va tabiiy gazning,boksitning 80%i so'ngi 20yillikka to'g'ri keladi.

2-sababi tekshirilgan zaxiralarning cheklanganligi.

3-sababi dunyodagi ayrim regionlar va mamlakatlarning tabiiy resurslar bilan bir xil ta'minlanmaganligi.Masalan: Fors ko'rfazi bo'yi mamlakatlarida jahonda aniqlanilgan neft zaxirasining 2/3qismi mavjud.Masalan: Saudiya Arabistonida YAIM 95%i neftdan keladi.

Oziq-ovqat muammosi.

Mediklarning hisobiga ko'ra, inson iste'mol qiladigan taomning kaloriyalik meditsina normasi sutkasiga 2300-2600kkal va 70-700g oqsildan kam bo'lmasligi kerak.Lekin BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining 1/3qismi (rivojlangan mamlakatlar)gina shunday oziq bilan ta'minlangan xolos.

Oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha aholi jon boshiga hisoblanganda Italiya 1-o'rinda. Afrikada esa Liviya.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi ancha murakkab.Dunyoda yetishtiriladigan g'alla hosilining 1/3qismi, go'sht, sut, tuxumning 15-20%i ana shu mamlakatlarga to'g'ri keladi. Masalan: Indoneziya, Pokistonda aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish 4kg (yiliga).Hindistonda 1,5-2kgni tashkil etgani holda, AQSH, Fransiya, Avstraliyada bu ko'rsatkich 100kg dan ortiq.

Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun 2xil usuldan foydalanish mumkin:

1. Ekstensiv yo'l.

2. Intensiv yo'l.

XX asr mobaynida sug'oriladigan yerlar maydoni 4mln.gektardan 350mln.gektarga ko'paymoqda. Obikor dehqonchilik jahonning 135 mamlakatida tarqalgan bo'lib, uning yarmidan ortig'i Osiyoga to'g'ri keladi.

Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.

Dunyo okeanining har tomonlama tadqiq etilishi va o'zlashtirilishi "Dunyo okeani muammosi"ni keltirib chiqardi.

Energetika va xom-ashyo muammosini bartaraf etish uchun okean biologik resurslaridan foydalanish. Hozircha dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini 2%ini ta'minlasada, okeandan hayvon oqsilining 12-15%i olinmoqda.

XMGT tufayli jahonda xalqaro savdoni tezkorlik bilan o'sishi Dunyo okeanida yuk tashish ishlari hajmini tobora oshirmoqda..

Kosmosdan tinch maqsadda foydalanish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish eng katta umumbashariy muammo hisoblanadi. Hozirda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholisining 40%i qashshoq yashaydi. 70dan ortiq davlat oziq-ovqat mahsulotini chetdan keltiradi. Qashshoqlik, ochlik sababli turli kasalliklar va bolalar o'limi yuqori. "XX asr o'lati" (SPID) tropik Afrikaning qashshoq mamlakatlarida keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'QUV - USLUBIY MAJMUA Toshkent – 2010
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik

- shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent. 1997 y.
3. Atlas “Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira” M. 2006 “Drafa”
 4. Atlas “Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira” M. 2005 “Ast- Press shkola”
 5. Atlas “Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira” M. 2000 “Ast- Press”
 6. “Atlas mira” Strani mira v kartax i sifrax. M. “Ast-Press” 2000 g.
 7. Ahmedov B. Lotin Amerikasi. T.O’z dav nashr. 1963.
 8. Arab mamlakatlari. Spr. O’zb. T. 1965.
 9. V.V.Volskiy va b. Ekonimicheskaya geografiya kapitalisticheskix i razvivayushixsya stran. 2-chiqar. M. MGU. 1986-y.
 10. “Geografiya: strani i narodi” Rossiya. g. Smolensk: “Rusich” 2000 g.
 11. Internet ma’lumotlari “Osnovniye demograficheskiye pokazateli po vsem stranom mira v 2007 godu” Razdel I-II
 12. Jahon mamlakatlari. Spravochnik. T.O’zbekiston. 1990 y. 82 ta avtor.
 13. Kuznesov A. Strani, xozyaystvo, lyudi., M.Prosveshenie 1988
 14. Latinskaya Amerika. Spravochnik. M. Politizdat. 1990.
 15. Maksakovskiy V.P. “Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” O’rta maktablarning 10 – sinfi uchun darslik T. “O’qituvchi” 1995 y.
 16. Maksakovskiy V.P. “Geografiya” Spravochnie materialy M., “Prosveshenie” 1989 y.
 17. Naseleniya mira. Demograficheskiy spravochnik. M. Misl 1989.
 18. “Okean” Rossiya g. Smolensk. “Rusich” 2003 g.
 19. Soliev A, Safarov I. «Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari». T. 2003 y. «Talqin».
 20. Soliev A., Muhamadaliev R “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari” T.2005 y. Oliy o’quv yurtlari geografiya fakul’tetlari talabalari uchun darslik.
 21. Sovrimenniy kapitalizm. Sotsial-iqtisodiy spravochnik. M. Politizdat.1985.
 22. Strani Afriki. Spravochnik. M.Politizdat. 1988.
 23. Sovremennie Soedinennie Shtati Amyeriki. Spravochnik. M.Politizdat.1988.
 24. Strani Mira sovr. Sp.M.2005 «Dom Slavyanskiy knigi».
 25. Qayumov A, Safarov I, Tillaboeva M. “Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi” T. “O’zbekiston” 2006 y.
 26. Zarubejnaya Aziya. M.Misl. 1972-82.
 27. Zemlya i chelovechestvo. I-IV qism.M.Misl. 1982-1990.
 28. Shodiev R.X, MahmudovE.R «Jahon iqtisodiyoti». T. 2005. G’.G’. nomidagi oliy o’quv yurtlari uchun darslik.
 29. Ekonomika zarubejnix stran. Uchebnik M.Visshaya shkola. 1990.
 30. “Ekologiya” Rossiya g. Smolensk. “Rusich” 2001 g.
 31. O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi “O’zbekistonning yillik statistik to’plami 2008” Toshkent -2009yil.
 32. Ergashev.Sh. va b. “Jahon mamlakatlari ” T.”Sharq” 2009 yil.

A. M. Jobborov

JAHON IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI

Uslubiy qo'llanma

Kompyuterda sahifalovchi	— G. Jo'raeva
Texnik muharir	— I. Karimov
Korrektor	— H. Kimsanova

Bichimi 60x84 ¹/₁₆ "Times New Roman"
garniturası. Ofset usulida bosiladi.

Bosma tabog'i 8,4. Adadi 500. Buyurtma №
"Fan va texnologiyalar markazining
bosmaxonasi" da chop etildi.

Toshkent sh., Olmazor ko'chasi 171-uy